

O. U. MO'MINOV, A. D. BABABEKOV

# INSON EVOLYUTSIYASI VA OLD TARIX



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**O. U. MO‘MINOV, A. D. BABABEKOV**

**INSON EVOLYUTSIYASI VA OLD TARIX**

5120400-Arxeologiya yo‘nalishi talabalari uchun

**Toshkent  
“Innovatsiya-Ziyo”  
2020**

UDK 57.024:930.8

ВБК 28.02

М 94

**O. U. Mo'minov**

**Inson evolyutsiyasi va old tarix /o'quv qo'llanma/. – Toshkent:  
“Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 260 bet.**

O'quv qo'llanmada inson evolyutsiyasi bosqichlari, mehnat faoliyati va turmush tarzi, kishilik jamiyatining shakllanishi va urug' jamoasining tashkil topishi, hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar batafsil bayon qilingan.

В учебном пособии подробно освещено этапы эволюции человека, трудовое деятельность и образ жизни, становление человеческого общества и возникновение родовой общины, также социально-экономическое отношение.

In this manual are widely described the stages of the Human Evolution, its work activity, forming human society and genesis of the formations. Besides, this manual contains social-economical relationships.

**Mas'ul muharrir:**

**Sagdullayev A. S.** - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti t.f.d., prof.

**Taqrizchi:**

**Ochldiyev F. B.** - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti t.f.n. dots.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6791-3-9

© **Mo'minov O. U.**, 2020.

© **“Innovatsiya-Ziyo”**, 2020.

24881/3

Mazkur O'quv qo'llanma "Inson evolyutsiyasi va old tarix" fanidan "5120400-Arxeologiya" ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, Tarix fakultetining "Arxeologiya" kafedrasida O'qituvchilari O. U. Mo'minov va A. D. Bababekovlar tomonidan ishlab chiqilgan. "Inson evolyutsiyasi va old tarix" fani o'quv qo'llanmasini yaratishda yetakchi xorijiy OTMLari o'quv qo'llanmalari va darsliklariga asoslanib xorijiy boy tajribalardan foydalanildi.

"Inson evolyutsiyasi va old tarix" fani "5120400-Arxeologiya" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan I-2-semestrlarda mos ravishda 88 va 92 auditoriya soatlarda o'qitiladi. I semestrda 44 soat ma'ruza, 46 seminar mashg'ulot va II semestrda ham 44 soat ma'ruza, 46 seminar mashg'ulot o'tiladi. Mazkur semestrlarda fanning predmeti, maqsadi va vazifalari, inson evolyutsiyasi va old tarix fanining shakllanishi, odam ajdodlarining hayvonot dunyosidagi o'rni, gominidlar evolyutsiyasining ilk bosqichi ya'ni avstrolopitekning vujudga kelishi, avstrolopitekning turmush tarzi, avstrolopitekning topilgan joylari tavsifi, ilk avstrolopitek guruh, rivojlangan avstrolopitek va yirik avstrolopitek guruh, Sharqiy va Janubiy Afrikadan topilgan paleoantropologik topilmalar tavsifi, avstrolopitek to'g'risidagi yangi nazariyalar, primatlarning avstrolopitekdan farqlari, eng qadimgi odamlarning vujudga kelishi (Nomo): Olduvay darasidan topilgan paleoantropologik topilmalar tavsifi, ishbiarmon odam (Homo Habilis), eng qadimgi odamlarning mehnat faoliyati va

*turmush tarzi, Afrika qit'asidan odamlarning boshqa hududlarga tarqalishi, Xomo Ergasterning vujudga kelishi, Xomo Ergaster va Xomo Erektuslarning farqlari, Dmanisidan topilgan eng qadimgi odam qoldiqlari tavsifi, Janubiy-Sharqiy Osiyo Xomo Erektuslari, Flores odami, Neandertallarning vujudga kelishi, Neandertal bilan Xomo Sapiensning farqi, zamonaviy genetika fanida inson evolyutsiyasidagi o'zgarishlarning aniqlanishi, qadimgi tosh asri madaniyatlari, qadimgi odamlar migratsiyalari.*

*“Inson evolyutsiyasi va old tarix” fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr Inson evolyutsiyasi va old tarix fanning ahamiyati va ijtimoiy fanlar sohasida tutgan o'rni to'g'risida, paleoantropologiya fanining yutuqlari, inson evolyutsiyasi bosqichlari, paleoantropologiya va arxeologiyaga oid materiallardan foydalanish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.*

*Ushbu o'quv qo'llanma bobdan iborat bo'lib, ular ma'ruza materiallari (ma'ruza matni, adabiyotlar ro'yxati, savol va topshiriqlar, test savollaridan tashkil topgan.*

# I BO‘LIM. INSON EVOLYUTSIYASI

## I BOB. INSON EVOLYUTSIYASI VA OLD TARIX FANIGA KIRISH

### 1.1 Inson evolyutsiyasi haqidagi bilimlarning vujudga kelishi

Odamning eng qadimgi ajdodlari. Inson tabiat yaratgan tirik mavjudotlarning eng oliysi hisoblanadi. Yer yuzida bu oliy darajadagi mavjudotni paydo bo‘lib, yashay boshlaganiga qariyb 7,5-7 million yillar o‘tdi. Mazkur davr mobaynida inson mehnat qilish tufayli hayvonlar olamidan ajralib chiqib, uzoq rivojlanish bosqichini o‘z boshidan kechirib, nihoyat bundan 40-45 ming yil ilgari hozirgi zamon qiyofasidagi odamga aylandi. Shu bilan antropolonez jarayoni ham tugab, nihoyasiga yetdi.


O‘zining kelib chiqishiga qiziqish, uni bilishga intilish odamlarda juda ham erta uyg‘ongan. Lekin dastlabki kishilarning ilmiy bilimi juda oz bo‘lganligi tufayli bu masalaga uzoq vaqt javob topmaganlar. Ammo kishilar o‘z ajdodlari haqida ko‘pdan-ko‘p afsona va rivoyatlar to‘qiganlar. Ilmiy bilimlarning to‘plana borishi natijasida odamlarda o‘z o‘tmishiga qiziqishning tobora kuchayishiga olib kelgan. Natijada odamning paydo bo‘lishi haqida xilma-xil nazariyalar paydo bo‘lgan. Odamning paydo bo‘lishi va yaratilishi haqida qadimgi va o‘rta asr diniy kitoblarida mantiqsiz afsona va rivoyatlar ko‘p uchraydi. XVIII va XIX asrlarda arxeologiya, antropologiya sohasida qo‘lga kiritgan ilmiy dalillar va ilg‘or qarashlar, odamning kelib chiqishi haqidagi diniy rivoyat va afsonalarga ilk bor zarba berib, bu masalani bundan keyingi rivoji uchun zamin hozirladi. XVIII-XIX asrlarda shakllanib vujudga keladigan arxeologiya fani qo‘lga kiritgan yangi dalillar alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Qadimgi davrning ilg‘or fikrli Rim, Yunon, Hind va Xitoy mutafakkirlari insonning tabiiy ravishda paydo bo‘lganligi haqida o‘z mulohazalarini bildirganlar. Lekin bu fikr o‘rta asrlarda cherkov va dinning ta’siri natijasida

rivojlantirilmadi. Ammo XVII asr oxiri va XVIII asrdan boshlab olimlar bu masalaga jiddiy e'tibor bera boshladilar.

Chunonchi J. B. Lamark, Karl Linney, Tomas Geksli va boshqalar insonning biologik jihatidan maymunlarga yaqinligi, kelib chiqishi va uning tabiatda tutgan o'rni haqida ilg'or fikrlar bilan maydonga chiqdilar.

Bu sohada mashhur ingliz olimi, tabiatshunosi Charliz Darvinning xizmatlari alohida ahamiyatga egadir. Ch. Darvin o'zining «Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning paydo bo'lishi» (1863), «Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish» degan asarlarida o'zigacha to'plangan va o'zi yiqqan materiallarga asoslanib o'simliklar va hayvonlarning eng oddiy turlaridan rivojlanib, oliy turlarga yetganligini isbot qilib berdi. Ch. Darvin odamning hayvonot olamidani kelib chiqqanini isbot qilib berar ekan, u odamning paydo bo'lishida tabiiy tanlanishning ahamiyatiga ortiqcha baho berib yuborib, eng muhim sotsial sabab

bo'lgan mehnatning olamshumul ahamiyatini payqamadi. Lekin Darvinning ulug' xizmati shundaki, o'simliklarni, hayvonlarni hamda odamni xudo o'zgarmaydigan qilib yaratgan degan diniy afsonaviy fikrlarni yo'qqa chiqardi. U o'zining evolyutsion ta'minoti bilan yer yuzidagi butun tirik mavjudotlarning eng oliysi hisoblangan odam ham




yaratilgan, hamda turlar o'zgarmaydi degan metafizik va diniy tasavvurlarga qarshi chiqib, bu fikrlarni xato ekanligini isbot qilib berdi.

Lekin ko'p yillar davomida olib borilgan geologik, paleontologik va arxeologik tadqiqot ishlari oraliqdagi bu uzilishni bir darajada to'ldirdi. Odamning ham, gorilla va shimpanzelarning

yaqin umumiy ajdodi hisoblangan odamsimon qazilma maymunlar driopiteklar 27 million yillar ilgari miotsen davrida, janubiy Osiyo, janubiy Yevropa va Afrikada tarqalgan edi.

Bulardan yana biri Darvin driopiteki bo'lib, uning qoldiqlari Avstraliyaning o'rta miotsen yotqiziqlaridan topilgan.



Odam ajdodiga yaqinroq maymunlardan yana biri ramapitek bo'lib, ularning suyak qoldiqlari Shimoliy Hindistondagi Sivalika tepaligining quyi pliotsen yotqiziqlaridan topilgan.

Ramapitekning qoldiqlari Sharqiy Afrikadagi Keniyadan topilib, uni keniyapitek ham deb ataladi.


Bu bosqichda inson ajdodi hozirgi zamon odamsimon maymunlaridan ajralib chiqqan bo'lib, ramantipikni odam ajdodi deb hisoblash mumkin emas edi.

Ramapitek tropik o'rmonlarda, daraxtlar ustida yashab, o'simliklar bilan ovqatlanar va u ham odamsimon maymunning o'zginasi edi. Lekin ba'zi olimlar ramapitekni nisbatan ochiq joylarda yashab, ikki oyoqda yurgan, degan fikrni ilgari suradilar. Ammo bu qarashni ko'p olimlar qo'llab quvvatlamaydilar.


Udobnopitek miotsenning oxiri, plotsenning boshlarida ya'ni 13-16 million yil muqaddam yashagan. Udobnopitek tishlarining tuzilishiga qarab hukm chiqarilsa, u ko'p jihatdan driopitek va romanipiteklarga yaqin bo'lgan. Olimlarning ta'kidlashicha u qadimgi karkidan, mastadan, gipparion, jirafa va giyena kabi yirik sutemizuvchi hayvonlar bilan zamondosh bo'lgan odamsimon maymun edi.



(a)



(b)



## 1.2. Inson evolyutsiyasi bosqichlari

Avstrolopitek deb ataluvchi qazilma odam ajdodi nisbatan ham odamga juda yaqin edi. Avstrolopitekning suyaklari dastlab 1924-yili R. Dart tomonidan kashf etilib bayon etilgan.

So'ngi vaqtda olib borilgan qidiruv ishlari natijasida 400dan ortiq avstrolopitek maymunlarining suyak qoldiqlari topildi. Ularning aksariyati Janubiy va Sharqiy Afrikadan topilib, ikki urug'ga mansubdir.

Bu Tuanga, Makapansgate va Sterkfonteyndan topilgan afrikalik avstralopitek hamda Kromdray va Svarkransdan topilgan parantropidir. Ularning sanasi 900 ming yildan 3 million yilgacha borib taqaladi. Bular parantrop va boys zinjontropiga mansub bo'lib, Tanzaniyaning Olduvay darajasidan, Keniyaning Turkona (Rudolf) ko'li atrofidagi Kanepoy, Kooba-Fora, Lotegam, Ileret, Efiopiyaning janubidagi Omo daryosi vodiysidan topib o'rganilgan. Sharqiy Afrika avstrolopitekning sanasi kaliy-argon usuli bilan aniqlanishiga 5,5 bilan 0,7 million yil bilan chegaralanadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, Sharqi-Janubiy va Janubiy Osiyodan ham avstrolopitekka yaqin bo'lgan mavjudotlarning suyak qoldiqlari topilgan.

Xitoyning Janubidagi Topilgani BLEK gigantopitegi Shimoliy Hindistondan topilgan bilaspur gigantopitekning hamda Yavanning Sangirak degan joyidan topilgan qadimgi yavan magentropolarini shular jumlasidan kiritish mumkin.

Avstrolopiteklar yerda yashashga moslashgan mavjudot bo'lib, ikki oyoqlab yurgan. Ular hamma odamsimon maymunlardan farq qilgan va ayni vaqtda odamga yaqinlashib qolgan edi. Ammo ularning oyoq-qo'llarida ushlagich organlari saqlanib qolgan bo'lib, u hali tayanch organi sifatida to'liq shakllangan emas edi. Uning barmoqlari ancha kuchli, bo'g'inlari taraqqiy etgan bo'lib, qamrab olish va mahkam tutish xususiyati bilan har qanday odamsimon maymunlar bo'g'inidan farq qilar edi.

Ammo bo'g'inlarida odamsimon maymunlarning bo'g'inlariga o'xshash xususiyatlar oz emas edi. Jag' suyaklari



katta bo'lib, lod tomonga turtib chiqmagan oziq tishlarning kichikligi, tishlar orasidagi bo'shliqning bo'lmasligi, ularni odamsimon maymunlardan keskin (ajratib, odam bilan yaqinlashtirgan edi.) Avstrolopitek miya qutisining o'rtacha hajmi 522 sm 2ga barobar bo'lib, asosan 435dan 600 sm 3 oralig'ida tebranadi.

Ba'zi olimlar avstrolopitekni odam

qatoriga qo'shsa, ba'zilar uni odamsimon maymunga mansub deb hisoblaydilar.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, avstrolopiteklar insonlar dunyosiga mansub mavjudot edi. Jag' suyaklari va tishining tuzilishi, hamda ular tomonidan o'ldirilgan pavian va boshqa sut emizuvchi hayvon suyaklarini topilishi, avstrolopiteklarni boshqalardan farq qilib, go'sht bilan oziqlanganliklarini ko'rsatadi.

Avstropoliteklar – odamsimonlar oilasiga mansub bo'lib, go'sht bilan ovqatlanagan, ikki oyoqda turib qaddini ko'taribroq yurgan va odamga aylanish arafasida turgan mavjudot bo'lgan.

Shuni ham unutmaslik kerakki, avstrolopiteklarning bir qismi Olduvay, Keniya, Efiopiyadagi eng qadimgi qazilma odamlar bilan ayni vaqtda, bir hududda yashaganlar.

Bundan 30-40 yillar muqaddam Indoneziyaning Yava orolidan topilgan pitekantropni eng qadimgi maymunsimon odam deb hisoblanar edi. Pitekontrop bundan 800 ming yil muqaddam yashab, kishilik jamiyati tarixi 1 millionga yaqin yilni qamrab olar

edi. Ammo keyingi 30-40 yil ichida odamning, kishilik jamiyatining kelib chiqishi haqidagi ilgari fikrlar mutlaqo o'zgarib ketdi.

Shu narsa ravshan bo'ldiki, har xil toshlardan oddiy, qo'pol mehnat qurollari yasay olgan hamda yirik hayvonlarni ovlash qudratiga ega bo'lgan qadimgi maymunsimon odam, hayvonlar dunyosidan 1 million yil emas, balki 3-3,5 million yil muqaddam ajralib chiqa boshlagan ekan. Demak, yer yuzidagi eng qadimiy odam yava pintekantropi emas, balki, sharqiy Afrikada 3-3,5 mln yil ilgari yashagan «Xomo xabilis» – «ishbilarmon odam» ekan. Sharqiy Afrikadagi Tanzaniyaning Olduvay darasidan topilgan arxeologik va antropologik materiallar bu fikrni aytishga imkon berdi. Keniya va Efiopiyada olib borilgan qazish ishlari Olduvaydan topilgan materiallarga juda muhim aniqlik kiritdi.

Olduvay darasi Tanzaniyaning shimolida bo'lib, Eyasi ko'lidan 36 km. Shimoliy-sharqdadir. Daraning uzunligi 40 km, chuqurligi esa 100-130 metrdan iborat. Olduvay darasidan qazilma hayvonlarning qoldiqlari 1911-yildan boshlab topila boshlagan.

1931-yili keniyalik ingliz olimi Luis Liki darada qizg'in arxeologik va paleontologik qazish ishlari olib borar ekan, har xil davrga mansub tosh asri madaniy qatlamlarini topishga muyassar bo'ladi. Bu borada Luis Lekining xizmatlari juda kattadir. L. Liki vafot etgach (1972) uning ishlarini rafiqasi Meri Liki va o'g'li Richard Liki davom ettiradilar.

Keyingi 15-20 yil ichida Olduvay darasidan olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida odamsimon maymunlar, eng qadimgi maymunsimon odamlarning kalla va boshqa suyaklari, shuningdek, eng qadimgi odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan buyumlar topilgan.

1959-yili Luis va Meri Likilar Olduvay darasidan avstralopiteklerden farq qilmaydigan maymunsimon mavjudotning kalla suyagini topishga muvaffaq bo'ldilar. Mazkur mavjudot miya qutisining hajmi 530 sm<sup>3</sup> bo'lib, avstrolopiteklarnikidan katta bo'lmagan. Ammo kalla suyak yotgan qatlamda oddiy tosh qurollarning mavjudligi uni avstrolopitek maymuni emas, balki

Yava pitekantropiga nisbatan ilgariroq yashagan maymunsimon odam deb aytishga imkon berdi. Tadqiqotchilar bu odamga «zinjantrop»,-deb nom ham berishdi. Ba'zi olimlar uni odam jesa, ayrimlari avstrolopitek maymuni deb hisoblaydilar. Lekin bir yil o'tgach ya'ni 1960-yil «zinjantantrop» topilgan joydan, faqatgina biroz chuqurroqda «zinjantrop» ga nisbatan ham taraqqiy etgan mavjudotning suyak qoldiqlari topilgan. Olimlar unga «prezinjantrop» deb nom berishdi Hozirgacha mazkur joy va qatlamdan prezinjantropning 5dan ortiq suyak qoldig'i va tosh qurollari va bir qator hayvonlarning maydalangan suyaklari topilgan. Bu mavjudot qurol yasay olgan ekan, unga «Xomo xabilis» – «ish bilarmon odam» degan nom berildi. U Yava pitekantropigacha yashagan eng qadimgi maymunsimon odam, deb hisoblanadi. Zinjantrop esa avstrolopitek maymuni bo'lib, boshqa hayvonlar qatori u «Xomo xabilis» ning ov o'ljasi bo'lgan.

Kaliy-argon usuli bo'yicha va boshqa dalillarga asoslanib ishilarmon kishi 1,75-185 mln yil ilgari yashagan.

Xomo xabilis topilgan joyning yuqoriroq qatlamidan Olduvay pitekantropining qoldig'i va tosh qurollari hali topilgan. Prezinjantrop topilgan joyning o'zidan avstrolopitekklarning suyaklari ko'plab chiqdiki, bu hol mazkur mavjudotlar ishilarmon kishilarning asosiy ov manbalaridan biri ekanligini bildiradi.

Xomo Xabilisning bo'yi 122-140 sm bo'lib, ikki oyoqda yurgan, Tobayesning fikricha miya qutisining hajmi 675-680 sm<sup>3</sup> ni tashkil etib, avstrolopiteknikidan kattaroq, pitekantroplarnikiga nisbatan kichikroq bo'lgan.

Yuqori va quyi jag'lari avstrolopitekklarnikidan kichikroq, pitekantrop va hozirgi zamon odamnikiga, ancha yaqin bo'lgan. Uning barmoq va bo'g'inlari odamnikiga juda o'xshab ketgan va tosh qurollar yasash qobiliyatiga ega bo'lganki, buni Olduvayning qatlamlaridan topilgan tosh qurollar tasdiqlaydi.

Shunday qilib, xomo xabilis avstrolopitekklar bilan pitekantrop oralig'idagi mavjudot bo'lib, eng qadimgi odam edi.

Xomo Xabilis faqatgina Olduvay darasidagina bo'lib qolmay, ancha keng tarqalgan edi.

Olduvay darasida ajoyib kashfiyotlar 60-yillarining oxiri va 70-yillarda Keniyada va Efiopiyada Turkona ko'li qirg'oqlarida ham arxeologik qidiruv va qazish ishlarini keng ko'lamda olib borish uchun turtki bo'ldi.

Efiopiyaning Omo daryosi darasidan qadimgi olduvay davriga mansub qurollar topilib, sanasi 1,9-2,2 million yilga borib taqaladi.

Mazkur joydan har xil avstrolopitek maymunlarning suyaklari topilib, ularning sanasi 2-4 million yilni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilar «ishbilarmon odam»ga mansub bo'lishi ham mumkin degan fikr olimlar orasida keng yoyilgan.

Demak sharqiy va markaziy Afrikadan topilgan odam suyaklari, mehnat qurollari insoniyat tarixining ilk bosqichini o'rganish uchun juda katta imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib Sharqiy Afrikadagi so'ngi kashfiyotlar yerda odamning paydo bo'lish davrini qariyb 3-3,5 million yilga cho'zib yubordi.

Afrikadan topilgan eng dastlabki ilk qazilma odamlar odam evolyutsiyasining birinchi bosqichini tashkil etadi.

Inson evolyutsiyasining ikkinchi bosqichi arxantrop bilan bog'liq bo'lib, ular eng dastlabki ilk odamlarga nisbatan yer yuzida ancha keng tarqalgan.

1890-1891-yillarda golland vrachi Y. Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orolidagi Solo daryosi bo'yidagi bo'lgan Trinil yaqinidan qandaydir mavjudotning bosh suyak qopqog'i ikkita jag' tishi va boldir suyagi topilgan.

Keyingi yillarda Kenigs vald va boshqa olimlar tomonidan Yavada olib borilgan qazishmalar natijasida yana yettita pitekantropga mansub suyaklar topilgan.

1937-yilda nemis paleontologi Ralfon Kyonigsvald Yavadan pitekantropning bosh miya qopqog'i suyagini topgan. Keyingi vaqtlargacha Yavadagi Modjekertodan to'rtta katta yoshdagi va bitta yoshgina pitekantropning bosh miya qopqog'i, oltita son suyagi, uchta jag' suyagi topildi.

1961-1972-yillarda esa Indoneziya mutaxassisleri Yavadan yana pitekantropning to'rtta bosh suyagi va ikkita pastki jag' suyagini topganlar. Yavadan topilgan pitekantrop suyaklari orasida Mojolertodan topilgan bola suyagining sanasi eng qadimiy bo'lib, uni kaliy-argon usuli bilan aniqlanishiga 1 million 500 ming, 1 million 900 ming yil deb hisoblanadi. Qolganlarining sanasi esa 0,5-1 mln yilga borib taqaladi. Har holda ular Olduvay darasidagi homo habilis – «ishbilarmon odam»dan ancha keyin yashagan. Lekin Olduvay pitekantroplari bilan zamondosh bo'lishlari ham mumkin. Buni ularning jismoniy tuzilishi, «homo habilis»ga nisbatan rivojlanganligi ham tasdiqlaydi.

Sinantrop – Xitoy odami ham eng qadimgi qazilma odamlar vakili hisoblanadi.

1918-1923-yillarda Shved geologi G. Anderson Pekindan 45-50 km janubiy-g'arbdagi Chjoukoutyan degan joyida kuzatish ishlari olib borayotib, avval tosh qurol, so'ngra hayvonlar suyagi bilan birga odam tishini topadi. Qazilma ishlariga Kanada olimi D. Blek ham jalb qilinadi. 1927-yili Blekning assistenti Pen Ven-chjun mazkur joydagi Kotsetong g'oridan eng qadimgi Xitoy odamining kalla suyagini topishga muvassar bo'ladi. Qazish ishlari xitoy olimlari tomonidan davom ettirilib, natijada mazkur joydan yana 60ga yaqin odam suyagi topilib, shundan 15tasi yosh bolalarniki ekanligi aniqlandi.

Shu narsa muhimki g'ordan sinantrop qoldiqlari bilan bir qatlamda tosh qurollar, gulxan qoldiqlari yirik va mayda hayvonlarning sindirilgan hamda kuygan suyaklari topilgan. Bu hol sinatroplarning pitekantrop va olduvaydagi «ishbilarmon odamga» nisbatan ancha taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Sinatroplarning bo'yi 144-156 sm bo'lib, peshonasi past qiya bo'lgan. Pitekantrop miya qutisining hajmi 850-950 sm<sup>3</sup> bo'lsa, sinantropning esa 1050-1200sm<sup>3</sup> ga teng. Demak sinantrop miyasining hajmi pitekantrop miyasining hajmidan katta, lekin hozirga zamon odami miya qutisini hajmidan esa kichikroqdir.

Shunday qilib sipontronlar bundan 400-500 ming yil ilgari yashab o'tgan bo'lib, Mindel muzligi davrining ikkinchi yarmiga

to'g'ri keladi va u eng qadimgi qazilma odam vakili hisoblanadi. 1963-1964-yillarda Xitoy arxeologlari Pekindan 900 km janubi-g'arbiydagi Lantyan degan joydan lantyan sinantropi deb atalgan qazilma odam qoldig'ini topganlar.

Qazilma odamlar va ularning ajdodlarining faqatgina Osiyo va Afrikada yashabgina qolmay Yevropaning ba'zi joylarida ham tarqalganligi aniqlangan.

Yevropa turli tabiiy sharoitga ega bo'lgan Yevrosiyo quruqligining g'arbiy qismini tashkil etadi.

Janubiy va Markaziy Yevropa har turli hayvonot olami va odamzodning yashashi uchun ancha qulayliklarga egadir. Lekin shunga qaramay Yevropa ilk odamlar paydo joy emas ekan. Ko'pchilik olimlarning fikrlariga ko'ra qit'aga eng qadimgi odamlar ilk tosh asrida bundan 1800 ming yillar ilgari Afrikadan kirib kelgan ekan.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Ilk insonlarning tabiatdagi o'rni qanday bo'lgan?
2. Inson evolyutsiyasi bosqichlarini sanab o'ting.
3. Yangi topilgan arxeologik topilmalarning inson evolyutsiyasi haqidagi bilimlarning o'zgarishiga olib keladimi?
4. Birinchi avstrolopitekklar qayerdan topilgan?
5. Olduvay darasidan qaysi inson vakili topilgan?
6. Xomo xabilisning ma'nosi nima?

### **Test topshiriqlari**

1. Avstrolopitekning ma'nosi nima?
  - A. \*Janub maymuni
  - B. Janubiy dinozavr
  - C. Shimoliy maymun
  - D. Sharqiy maymun
2. Tanzaniyadagi Olduvay darasida dastlabki arxeologik qazish ishlarini olib borgan olim?
  - A. \*Luis Liki



- B. Ch. Darvin
- C. R. Dart
- D. O.E.Kotsebu

3. Yavadagi pitekantropning suyaklari qachon va kim tomonidan topilgan?

- A. \*E.Dyubua 1890-1891-yillar
- B. Richard Liki 1900-1901-yillar
- C. Meri Liki 1905-1906-yillar
- D. Raymond Dart 1895-1896-yillar

4. Odamzodning ilk vatanlari qayer?

- E. \*Afrika
- F. Osiyo markazi
- G. Yevropa g'arbi
- H. Amerika

5. Eng qadimgi odamlar fanda nima deb ataladi?

- A. \*Arxantrop
- B. Paleontrop
- C. Neontrop
- D. Driopitek

6. Ma'lumki, yer yuzining turli joylaridan odamzod ajdodlarining eng qadimgi vakillari manzilgohlari topib o'rganilgan. Quyida Hindistonning Sevalika tepaligidan topilgan topilmani toping?

- A. \*Ramapitek
- B. Driopitek
- C. Avstrolopitek
- D. Chadantrop

7. Homo erectus turidagi eng birinchi topilma E.Duyuba tomonidan qaysi hududdan topilgan?

- A. \*Indoneziya, Yava.
- B. Ispaniya, Altamir.
- C. Xitoy, Chjoukotyan.
- D. Sharqiy Afrika, Tanzaniya.

8. 2.4-1.5 mln yil avval Sharqiy Afrikadan topilgan, bosh suyagi hajmi 670 kub sm atrofida bo'lgan qadimgi odam vakili to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?


- A. \* Homo habilis.
- B. Homo africanus
- C. Homo rudolfensis
- D. Homo georgicus

9. 1961-1972-yillarda esa Indoneziya mutaxassislari Yavadan yana pitekanthropning nechta bosh suyagi topilgan?

- A. \*Ramapitek
- B. Driopitek
- C. Avstrolopitek
- D. Chadantrop

10.1918-1923-yillarda Shved geologi G. Anderson Pekindan 45-50 km janubiy-g'arbdagi Chjoukoutyan degan joyidan qaysi inson vakilini topgan?

- A. \*Ramapitek
- B. Driopitek
- C. Avstrolopitek
- D. Chadantrop



## II BOB. ODAM VA UNING AJDODLARINING HAYVONOT DUNYOSIDAN AJRALIB CHIQISHI

### 2.1. Yerda hayotning vujudga kelishi

Yerning paydo bo'lishi tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bundan 4,5 milliard yil oldin koinotda yer sayyorasi vujudga kelgan. Yerning vujudga kelgan vaqtida u faqat suv va atmosferadan iborat bo'lgan. Million yillar o'tishi natijasida yerda qattiq tog' jinslari paydo bo'la boshlaydi. Yerda birinchi hayot izlari bundan 3,6 mlrd yil avval shakllangan. Keyingi davrlarda yerda hayot sekinlik bilan rivojlanib boradi va biz buni geologik tadqiqotlarda ko'rishimiz mumkin. Oxirgi 544 mln yil ichida yerda turli xil tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab aynan shu vaqt yer qatlamlaridan turli xil qazilma turlarning topilishi bo'lib hisoblanadi. Yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi dunyoqarashlar hozirgi zamon fanining eng qiziq va murakkab muammolaridan biridir. Hayot paydo bo'lishi muammosi fan va texnikaning rivojlanishiga qarab turli davrlarda turlicha hal etilgan. Bu savol insonni juda qadim zamonlardan qiziqtirib kelmoqda.

Olimlardan A. I. Oparin 1924-yili, Xoldeyn 1928-yili yerda hayot qanday paydo bo'lganligi haqida abiogen gipoteza yaratdilar. Oparin hayot paydo bo'lishi to'g'risidagi gipotezani yaratishda astrofizika, astroximiya, geologiya, bioximiya va boshqa fan yutuqlarini e'tiborga oldi. Akademik Oparin o'z gipotezasida yerdagi hayot boshqa planetalardan ko'chib kelmaganligini, balki materiyaning milliard yillar davom etgan rivojlanishi natijasi ekanligini qayd qildi.

Yaqin vaqtgacha hayotning eng qadimgi formalari to'g'risidagi ma'lumotlar juda kam edi. Bunga asosiy sabab ana shu hayot formalari juda mayda va yumshoq tanali ekanligidir. Chunonchi, kembriy davrigacha bo'lgan yer qatlamlarida faqat meduza, xilma-xil chuvalchanglar, qisman bulutlarning toshga aylangan nusxalari topilgan edi. Albatta, bu qazilmalar hayotning qadimgi formalari

haqida birmuncha tasavvur hosil qilishga imkon yaratib, paleontologik solnomani 100 mln yil orqaga surgan bo'lsada, lekin hayotning eng qadimgi formalari qanday bo'lgan, degan muammoni yecha olmadi. Kembriy davrigacha bo'lgan hayot izlarini axtarishda XX asr boshida Charlz Uolkott topgan stromatolitlar muhim ahamiyat kasb etdi. U Kanadaning G'arbida topilgan ohakdan iborat g'ovak tepaliklar va ustunlarni tekshirib, bu riflarni suv o'tlaridan iborat, deb taxmin qildi. Keyinchalik olimning bu taxmini to'laligicha tasdiqlandi. 1954-yili Steli A. Tayler Ontarioda topilgan qazilmalarni tekshirib, ular ko'k-yashil suvo'tlar va bakteriyalardan iborat ekanligini isbotladi. Avstraliyaning g'arbiy qirg'oqlaridagi suvi juda sho'r, shunga ko'ra umurtqasiz hayvonlar bo'lmagan Sharq ko'rfazida tirik stromatolitlarni topdi va ular kembriy davrigacha yashagan ko'k-yashil suvo'tlar bilan bakteriyalarga o'xshashligini ma'lum qildi.

Yerning hozirgi ko'rinishiga olib kelgan oxirgi rivojlanish bosqichi kaynozoy erasiga to'g'ri keladi. Uning davomiyligi oldingilariga nisbatan ancha kam – 70 mln yilga yaqin bo'lib, o'z navbatida uchta: paleogen (66-25 million yillar oldin), neogen (25-0,7 millionlar yillar oldin) va antropogen (0,7 million yildan hozirgacha) davrlariga bo'linadi. Kaynozoyning boshlarida alp burmalanish jarayonlari o'zining kulminatsiyasiga chiqadi, keyingi epoxalarda materiklarning yer yuzasi asta-sekin hozirgi ko'rinishiga ega bo'ladi. Atlantika va Hind okeanlarining o'lchami ancha oshgan. O'simlik va hayvonot olamida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'lgan. Eng muhimi aqlli odam paydo bo'lgan va o'zining olamshumul qudratiga erishgan. Shu vaqtda hasharotxo'rlardan primatlar, ulardan esa odam kelib chiqqan.

Kaynozoyning boshlariga kelib hozirgi Yevrosiyoning shimoliy qismi o'rnida konsolidatsiyalangan yagona quruqlik mavjud bo'lgan. U keyingi jarayonlar natijasida kuchli o'zgargan va tekislangan baykal, kaledon va gertsin yoshidagi qurilmalar yordamida o'zaro tutashgan qadimiy yadrolardan tarkib topgan. Yevrosiyoning sharqi va janubiy-sharqida qadimiy strukturalarga mezozoy tog'lari qo'shilib ketgan. Yevrosiyo Shimoliy Atlantika

botiqligi orqali Shimoliy Amerikadan ajralgan. Uni janubda va janubiy-sharqdan birmuncha qisqargan Tetis o‘rab turgan. Tetis Yevrosiyoni parchalanib ketgan Gondvananing janubiy va janubiy-g‘arbiy uchastkalari – Afrik-Arabiston, Hindiston va Avstraliya platformalaridan ajratgan, sharqda esa Tinch okeani bilan bevosita qo‘shilgan.

Kaynozoy erasining boshlarida Hindiston, Avstraliya va Antraktida yagona materikni tashkil etgan. Janubiy Amerika ham Afrika bilan tutashgan joylarga ega bo‘lgan. Yevropa va Shimoliy Amerika o‘rtasida faqat tor suvli qambar – bo‘lg‘usi Shimoliy Atlantikaning ilk o‘rni belgilangan. Kaynozoy erasidagi tektonik harakatlar yer yuzasi ko‘rinishini keskin o‘zgartirib yuborgan.

Paleogenda Hindiston, Avstraliya va Antraktida bir-biridan ajraladi. Hindiston palaxsasi shimolga surilib neogenning boshlarida Osiyo bilan tutashadi. Avstraliya o‘z o‘qi atrofida soat mili yo‘nalishiga teskari burilib shimoliy-sharqqa qarab harakatlanadi. Bunda Antarktida va Afrika deyarli harakatsiz qolgan. Afrika va Janubiy Amerika orasida Atlantika okeani aniq ifodalangan.

Kaynozoyda Yevrosiyoning O‘rtayer dengizi mintaqasidan shimolda iqlim va organik dunyo mezozoy erasining oxiridagiga qaraganda o‘zgacha bo‘lgan. Janubda iqlim issiq va nisbatan nam, shimoliy rayonlarda esa mo‘tadil iliq va nam bo‘lgan. Bunday sharoitlarda ko‘pchik avlodlari va oilalari hozirgi vaqtda ham mavjud bo‘lgan boy, asosan daraxtsimon yopiq urug‘li flora rivojlangan. Shimolda bular ignabarglilar aralashgan barg tashlovchi dub, buk, yong‘oq, kashtandan iborat o‘rmonlarni tashkil etgan. Janubda palmalar, tropik ignabarglilari, paporotniklar hukmdorlik qilishgan. Maysali o‘tlar hali keng tarqalmagan. Asosan sutemizuvchilardan iborat bo‘lgan fauna shakllangan bo‘lib, ularning orasida yirtqichlar va tuyoqlilar ustuvorlik qilishgan. Haqiqiy qushlar ham paydo bo‘lgan. Bu hududning flora va faunasi keyinchalik hozirgi organik dunyoni hosil qilgan.

Paleogenning hayvonot dunyosi bo‘r davridagi olamshumul qirilishdan keyin sezilarli darajada yangilangan. Quruqlikdagi va

dengizdagi ulkan reptiliyalar yo‘qolib ketadi. Ularning o‘rnini tez rivojlanayotgan sutemizuvchilar egallaydi.

Paleogen sutemizuvchilari xilma-xil bo‘lgan. Oligotsenda eng yirik sutemizuvchilar nosoroglarning qadimiy vakillari bo‘lgan. Ular savannalarda yashagan. Oligotsenda sodda tuzilgan cho‘chqalar, tuyalar va bug‘ilar yashagan. Paleogenning boshlaridanoq yarimmaymunlar deb ataluvchi primatlarning sodda guruhlarini lemuralar paydo bo‘lgan. Faqat eotsenning oxiridagina haqiqiy maymunlar – antropodalar paydo bo‘lgan.

Eotsenda nosoroglarning ajdodlari – yirik shoxsiz hayvonlar paydo bo‘ladi. Eotsenning oxirida ulardan dinotseratlar kelib chiqqan Ularda bir juft shoxlar, xanjarsimon o‘tkir kliklari va juda kichik miya bo‘lgan.

## **2.2. Primatlar evolyutsiyasi**

Birinchi primatlarga keladigan bo‘lsak ular yer yuzida bundan 65 mln yil muqaddam vujudga kelgan. Birinchi primatlar tropik o‘rmonlarda istiqomat qilishgan. Ular daraxtlarda hayot kechirishga moslashishgan. Ularning qo‘l va oyoqlari daraxtlarda harakat qilishga moslashgan bo‘lib ko‘zlari yuqoridan ko‘rishga yaxshi moslashgan. Bugungi kunga kelib primatlarning fanda 400dan ortiq turi mavjud bo‘lib ularning aksariyati haligacha daraxtlarda istiqomat qilib kelmoqda. Primatlardan farqli ravishda faqat odamlargina yerda o‘troq hayot kechirishmoqda.

Evolyutsiya bugungi kunda zamonaviy fanda insonning vujudga kelishi haqidagi asosiy ta‘limotlardan hisoblanadi. Evolyutsiyaning hozirgi kundagi modelini fanda birinchi bo‘lib Ch. Darvin kiritgan. 1959-yilda Darvinning fikriga ko‘ra yerda hayotning davomiyligi barcha geologik davrlarda turlarning bir biridan ko‘payganligi bilan izohlaydi.

Xo‘sh evolyutsion jarayon o‘zi nima?

Evolyutsion jarayon shunday jarayondirki uning yordamida tirik organizmlar bir nechta avlodlarda o‘zgarib kelgan. Evolyutsion jarayondan shuni ko‘rishimiz mumkinki unda bitta

ajdoddan yer yuziga bir nechta avlodlar ajralib chiqishgan. Masalan, birinchi qushlar oilasiga mansub bundan 150 mln yil avval yashagan Archaeopteryx (arxeopteriks) bugungi kundagi fanda ma'lum 10000ga yaqin qushlarning ajdodi hisoblanadi. Ch. Darvin evolyutsion jarayonning avlodlar qoldirishiga ishongan. Lekin u o'sha davrda zamonaviy genetika fanidan xabardor ham bo'lmagan. XX asrda genetika fanida shu narsa ma'lum bo'ldiki yer yuzida istiqomat qilayotgan har bir tirik organizm to'qimalarida genetik kod yashiringan bo'lib shundan har bir inson to'qimalarida 20000-25000 gen mavjud. Shunday qilib evolyutsiyaning kaliti organizmlarning o'zgaruvchanligidadir.

Primatlarning rivojlanishi evolyutsion jarayon natijasida ular har qanday sharoitga moslashuvchanligini ko'rsatib turadi.

Ch. Darvin istiqomat qilgan davrlardan boshlab fanda turlarning kelib chiqishi haqida ko'plab bahs munozaralar kelib chiqqan. Turlar yerda hayot davomiyligining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Bugungi kunda yerda 10 mln yaqin turlar mavjud. Shulardan 5000ga yaqini sutemizuvchilar hisoblansa ulardan 435ga yaqini primatlardir. Bugungi kunda fandan bizga shu narsa ma'lumki turlar tabiatdan bir biriga qo'shilmassligi va tabiiy chegaralangan hududlarda istiqomat qilishini yaxshi bilamiz. Bu turlar orasida insongina yer yuzining turli hududlarida yashab kelmoqda.

XVIII va XIX asrlarda arxeologiya, antropologiya sohasida qo'lga kiritgan ilmiy dalillar va ilg'or qarashlar, primatlar va odamlarning kelib chiqishi haqidagi qarashlarni rivojlantirdi.

Olimlardan J. B. Lamark, Karl Linney va boshqalar insonning biologik jihatidan maymunlarga yaqinligi, kelib chiqishi va uning tabiatda tutgan o'rni haqida ilg'or fikrlar bilan maydonga chiqdilar. Lamark turlarning o'zgaruvchanligini qayd etish bilan birga, bu o'zgarishning sabablarini, evolyutsiya jarayonini harakatlantiruvchi kuchlarni tushuntirishga intildi. U organizmlarni sinflash ustida ishlar ekan, tuzilishiga qarab ularni tartib bilan joylashtirish mumkinligini aytgan. Lamark fikricha, barcha o'simliklar bilan hayvonlar azaldan doimiy bo'lmagan, balki

ma'lum vaqtda rivojlangan. Hayot materiyaning muayyan bir tashkiliy va xarakteridan kelib chiqqan xossadan iborat. Birinchi sodda organizmlar tiriklikka xos xususiyatlarga ega bo'lmagan.

Birlamchi organizmlar hayotiy xususiyatlarga ega bo'lishi



uchun ular tanasiga tashqi muhitda keng tarqalgan «flyuidlar» (moddiy zarrachalar) kirib, ularga organizm sifatini berishi zarur. Lamarkcha tabiatning rivojlanishi hamisha sodda tirik jismlarning paydo bo'lishidan boshlangan.

Binobarin, uning rivojlanish yo'li

soddadan murakkabga, tubandan yuksakka tomon borgan. Tirik mavjudotlar tuzilishining murakkablik formasiga qarab, tabiatda ma'lum bir bosqich — pog'ona bor. Lamark uni gradatsiya deb atagan. Gradatsiya prinsipi umumiy biologik ahamiyatga ega bo'lib, evolyutsiya jarayonining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Tashqi muhit ta'sirida sinf ichida gradatsiya buziladi. Lamarkning odam paydo bo'lishi to'g'risidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. U odam tabiatning bir qismi, uning tanasi moddiy va boshqa tirik mavjudotlarga o'xshab, tabiat qonunlariga bo'ysunadi; «Odamning tana tuzilishi boshqa sutemizuvchi hayvonlarnikiga o'xshash» deydi. Odam maymunga eng yaqin ekanligini ta'kidlash bilan birga, ularning anatomik tuzilishida, masalan, kallasining tuzilishi, gavdasining vertikal holati, oldingi va orqa oyoqlarining tuzilishida o'ziga xos farqlar borligini, shunga ko'ra, odam alohida avlod va turga kirishini aytadi.



Lekin ko'p yillar davomida olib borilgan geologik, paleontologik va arxeologik tadqiqot ishlari oraliqdagi bu uzilishni bir darajada to'ldirdi. Odamning ham, gorilla va shimponzelarning yaqin umumiy ajdodi hisoblangan odamsimon qazilma maymunlar driopiteklar 27 million yillar ilgari miotsen davrida, janubiy Osiyo, janubiy Yevropa va Afrikada tarqalgan edi.

### **2.3. Primatlar va antropoidlar**

Primatlardan inson qachon ajralib chiqqani hammaga qiziq. Bugungi kunda fanning oxirgi yutuqlariga tayanib bu hodisa bundan 7,4 mln ro'y berganini ko'rishimiz mumkin. Insonga yaqinroq bo'lgan primatlardan shimpanze bilan yo'llari yuqorida aytib o'tganimizdek bundan 7,4 mln yil avval aytilgan. Uzoq o'tmishda esa insonga yaqinroq hisoblangan lemurlar bo'r davrida istiqomat qilishgan.

Turlarning ma'lum davr ichida kelib chiqishini isbotlashda esa paleontologik qazilmalar nihoyatda muhim o'rin tutadi. Qazilma holdagi maymunlarni o'rganish odamga xos bo'lgan xususiyatlar qanday qilib paydo bo'lganligini, rivojlanganligini tushunishga imkon beradi. Primatlar turkumining dastlabki vakillari, aftidan, mezozoy erasining yuqori bo'r davridagi sitemizuvchilarning tuban hasharotxo'r vakillaridan kelib chiqqan. Dastlab janubi-sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan maymunlar asta-sekin Yer yuzasining Avstraliyadan boshqa barcha territoriyasiga tarqalgan. Daraxtlarda hayot kechirish, bora-bora besh panja, oyoqlarning harakatchan bo'lishi eshitish va ko'rish organlari rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan.

Primatlar turkumida tuzilishi eng murakkab hisoblangan odamsimon maymunlar tarixiy rivojlanish jarayonida tor burunli maymunlarning bir tarmog'idan kelib chiqqan. Shu tarmoqqa kiruvchi maymunlar — parapitek, propliopitekklarning pastki jag' suyaklari 1911-yili Misrning oligotsen qatlamlaridan topilgan. Parapitekklari odamsimon maymunlarning eng qadimgi tuban vakili hisoblanadi. Taxmin qilinishicha, bu maymunlar hozirgi

odamsimon maymunlardan kichik, mushukdek kattalikda bo'lgan. Parapiteklerden keyin paydo bo'lgan propliopiteklar suyagining qoldiqlari ham Misrdagi oligotsen qatlamlaridan topilgan. U anchagina yirik bo'lib, to'rt oyoqlab yurishdan ozmi-ko'pmi tik yurishga o'tgan. Qadimgi odamsimon maymunlar tanasini nisbatan tik tutishi tufayli og'irligi keyingi oyoqlariga tushib, tanasidagi organlarning o'zaro munosabati o'zgargan. Umurtqa pog'onasi barcha to'rt oyoqli hayvonlarga xos duksimon shaklini yo'qotgan. Ko'krak qafasi keng va qisqa bo'lgan. Oldingi oyoqlari erkin va xilma-xil harakat qilgan. Natijada ular oziq izlab topishi ancha osonlashgan. Tabiiy tanlanish tufayli bunday formalarning saqlanib qolishi qadimgi odam ajdodlarining tik turadigan vakillari kelib chiqishi uchun evolyutsion zamin bo'lib xizmat qilgan. Harakatlanish usulining o'zgarishi hamda muhit sharoitning qulay (maydonlar keng, tropik o'rmonlar mavjud, iqlim yumshoq) bo'lishi miotsenda primatlarning biologik jihatdan ravnaq topishiga imkon yaratgan. Oqibatda primatlar turkumiga mansub organizmlar muhitning xilma-xil sharoitiga moslashib, ular O'rtasidagi differensiyalanish yanada avj olgan. Ba'zi turlar o'z hayotini yerda va daraxtlarda, boshqalari faqat daraxtlarda, uchinchilari, aksincha, ko'proq yerda o'tkazadi. Pliotsenga kelib, odam va odamsimon maymunlarning rivojlanish yo'nalishi har xil ekanligi aniq bo'ladi.

Afrikaning to'rtlamchi davr qatlamlaridan ikki oyoqlab yuruvchi maymunlar – avstralopitekklarning bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladigan kalla, pastki jag', chanoq suyaklari, tishlari topilgan. Bu maymunlarning qo'l va oyoqlari o'rtasida vazifa taqsimlanishi anchagina rivojlangan. Ularning chanoq suyagi shimpanze va gorillaning chanoq suyagidan keskin farq qilib, odamnikiga o'xshagan, lekin hajmi kichik bo'lgan. Qo'llarining bosh barmog'i yaxshi rivojlangan bo'lib, boshqa barmoqlariga qarama-qarshi joylashgan. Bu holat qo'l ushlab organi sifatida ishlatilganligidan dalolat beradi. Avstralopitekklar juda baquvvat bo'lmagan, jag'i katta, qoziq tishlari, tirnoqlari o'tkir bo'lmagan va ikki oyoqlab tez chopma olmagan. Shuning uchun tabiatda

uchraydigan buyumlar (tayoq, suyak, toshlar)ni qurol sifatida ishlatgan va dushmandan himoyalashda, hujum qilishda ulardan foydalangan. Bu holat ulardan ruhiy faoliyatning nisbatan rivojlanishini talab etgan. Shunga ko'ra, tabiiy tanlanish bunday maymunlarda miya va aqliy qobiliyatning mukammallashishi yo'nalishida borgan. Avstralopiteklar miyasining hajmi odamsimon maymunlar miyasining hajmidan anchagina katta. Masalan, gorilla miyasining hajmi 460 g bo'lsa, avstralopitekning 550 g ga teng. Qazilma holdagi suyaklarni o'rganish natijasida avstralopitekning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular bundan taxminan 7-1,5 mln yil oldin yashaganligi aniqlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki odamning hayvonot dunyosidan kelib chiqqanligi to'g'risida fikr-mulohazalar Darvindan ancha ilgari yashagan olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Vatandoshimiz buyuk olim Abu Nasr Forobiy odam zotini aqlli jonivor deb atagan. Hayvon turlari o'rtasida va bir tur ichida kurash qonuniyati borligini Forobiy birinchi bo'lib anglagan. Hayvonot olamida amal qilinadigan bu qonun odamlarda vahshiylik sifatlarini tug'dirib, turganiga e'tiborni qaratgan. Shunga o'xshash fikr keyinchalik boshqa tabiatshunos olimlar, ayniqsa, J. B. Lamarkda ham uchraydi.

Odamning hayvonot dunyosidan kelib chiqqanligini faqat tabiatshunos olimlarga emas, balki islom dini peshvolarining biri bo'lgan Aziziddin Nosafiy ham O'zining «Zubdat ul haqoyiq — haqiqatlar qaymog'i» nomli risolasida tirik tabiat o'lik tabiatdan paydo bo'lganligini, o'simliklar, hayvonlar, odamlar bir tarmoqdan rivojlanganligini qayd etadi va ochiqdan ochiq inson hayvon turlaridan biridir. Aynan hayvon ruhi tarbiya topib ta'lim va tahsil ko'rib, bilish, takrorlash, taqvo va zikr tufayli darajalar bo'ylab rivojlanadi va har bir daraja — martabada yangi ismga molik bo'ladi» deydi.

Odam tabiiy ravishda paydo bo'lganligi haqidagi g'oya antik dunyoda yaratilgan. Chunonchi, eramizgacha VI asrda yashagan Anaksimandr «barcha tirik mavjudotlar dastlab quyosh nurlari

isitgan loydan kelib chiqqan, so'ngra ularning ba'zilar quruqlikka tarqalib, o'zgargan. Odam ham shu yo'l bilan paydo bo'lgan» degan edi. Qadimgi yunonlarning odam paydo bo'lishi haqidagi fikrlari tub mohiyati bilan to'g'ri bo'lsa ham, ular hech qanday dalillarga asoslanmagan edi. Biroq tabiatshunoslar qadimgi vaqtlardayoq odam bilan odamsimon maymunlar orasida o'xshashlik borligini e'tirof etdilar va odamsimon maymunlarni «o'rmon odamlari» deb atadilar. XVIII asrga kelib, maymunlarning to'liq anatomik tuzilishiga oid ma'lumotlar e'lon qilindi.

O'simliklar bilan hayvonlarning dastlabki sun'iy sistemasini tuzgan Linney odamni xudo yaratgan, degan diniy tasavvurlarga ishonsada, biroq odamning tana tuzilishi hayvonlarnikiga o'xshash ekanligini e'tiborga olib, uni primatlar turkumiga kiritgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida odam paydo bo'lishi haqida dastlabki evolyutsion tasavvurlar vujudga keldi. Lamark birinchilar qatori odam paydo bo'lishini evolyutsiyaning umumiy g'oyasi bilan bog'lagan. U odam o'z tana tuzilishi bilan sut emizuvchi hayvonlarga o'xshash, biroq tik yurish, orqa, oldingi oyoqlarining tuzilishi va boshqa xususiyatlari bilan ulardan farq qiladi.

Odam paydo bo'lishini organik olam evolyutsiyasidan ajralgan holda tushunish mumkin emas. Darvin o'zining «Turlarning kelib chiqishi» degan asarida odam paydo bo'lishi ustida alohida to'xtalmay, faqat uning nazariyasiga mazkur masalani yoritishda aniqlik kiritishni ta'kidladi, xolos. Darvinning qayd qilingan asari chop etilgandan so'ng Geksli va Gekkellar evolyutsion ta'limotni birinchi bo'lib odam paydo bo'lishi masalasiga tadbqiq dildilar.

Geksli qiyosiy anatomiya dalillaridan mohirlik bilan foydalangan holda odam odamsimon maymunlarga yaqin ekanligini ko'rsatib berdi. Gekkel esa embriologiya ma'lumotlariga asoslanib, odam primatlardan kelib chiqqanligini qayd qildi. U sutemizuvchilarning shajarasini tuzib genealogik chiziq chala maymunlardan maymunlarga, ulardan odamga borib taqalishini e'tirof etdi. Gekkel uchlamchi davrning oxirida antropoidlar bilan odam o'rtasida qandaydir oraliq mavjudotlar yashagan, deb taxmin qildi va ularni «pitekantrop», hozirgi kunda xomo erektus deb

nomladi. Keyinchalik olimning bu taxmini to'g'ri ekanligi paleontologik topilmalar orqali isbotlandi.

Odam bilan hayvonlar tuzilishidagi o'xshashliklar qo'l-oyoq suyaklari quruqlikda hayot kechiruvchi umurtqali hayvonlarning oldingi va orqa oyoq suyaklari tuzilishiga o'xshashdir. Chunonchi, odamning qo'li, qushlarning qanoti, sudralib yuruvchilarning, suvda va quruqda yashovchilarning oldingi oyoq suyaklari — yelka, bilak, tirsak, kaft oldi, kaft va barmoq suyaklaridan tashkil topgan. Orqa oyoqlar taqqoslanganda ham shunday o'xshashliklarni ko'rish mumkin. Odam organizmining tuzilishi, ayniqsa, sut emizuvchi hayvonlarning organizmi tuzilishiga juda yaqin. Barcha sutemizuvchi hayvonlarga xos bo'lgan organlar, xususiyatlar, chunonchi, sut bezlari, junlilik, issiqqonlilik, quloq supralari, jag'dagi uch xil (jag', qoziq, kurak) tishlar odamda ham uchraydi. Ichki organlar tuzilishida ham o'zaro o'xshashlik bor.

Odamning hayvonot olamidani ajralib chiqishi va tabiat ustidan hukmronlik qila boshlashi tufayli quloq supراسi rudiment holga kelgan. Odam ko'zining ichki burchagidagi yarim oysimon parda biror vazifa bajarmaydi. U hayvonlar ko'zidagi uchinchi qovoq (pirpiratadigan parda)ning rudimentidir. Yarim oysimon parda qushlar hamda sudralib yuruvchilarda yaxshi rivojlangan. Qushlar uxlaganda oq pardani ko'rish mumkin. Odam tanasidagi mayin jun (tuk) ham rudiment organga misol bo'ladi. Masalan, 18-20 kunlik embriondan jabra «kurtaklari», keyinchalik jabra apparati hosil bo'ladi. Sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar, jumladan, odamda u embrion rivojlanishining keyingi bosqichlarida yo'qolib ketadi. Lekin bu dalil quruqlikda yashovchi barcha umurtqali hayvonlar, shu jumladan, odam ham tarixiy rivojlanishi natijasida jabra bilan nafas oluvchi baliqsimon ajdodlardan kelib chiqqanligidan darak beradi. Ona qornida rivojlanayotgan 5-6 oylik bolaning tanasi mayin tuk bilan qoplangan bo'lib, bola tug'ilishidan oldin to'kilib ketadi. Odamning 2 oylik embrionida dum bo'ladi, biroq u rivojlanishning ma'lum bir davridan keyin o'sishdan to'xtab, dum suyaklari chanoq suyaklari orasida qolib ketadi va tashqariga chiqmaydi.

Odam embrionining dastlabki rivojlanishida bir qancha sut bezlari paydo bo'lib, keyinchalik esa ulardan bir juftigina normal rivojlanadi, qolganlari yo'qolib ketadi. Odam embrionining rivojlanishida hiqildoq ba'zi belgilari bilan shimpanze hiqildog'iga, bosh miya po'stlog'i esa tuban maymunlar bosh miya po'stlog'ining tuzilishiga o'xshashligi, shuningdek, oldingi oyoqlar tuzilishida ham ular o'rtasida o'zaro o'xshashlik borligi aniqlangan. Ba'zi hollarda ichki hamda tashqi sabablarga ko'ra, ona qornidagi embrion normal rivojlanmaydi. Bunday hollarda atavizm, ya'ni qadimgi ajdodlarga xos bo'lgan xususiyatlarning takrorlanish hodisasi ro'y beradi. Ayrim hollarda tug'ilgan bolalar tanasining hayvonlarnikiga o'xshash qalin jun bilan qoplanishi atavizm hodisasiga yaqqol misoldir. 1820-yilda Kostroma guberniyasida tug'ilgan Andrian Yevtixееv va uning o'g'li Fyodorning butun basharasi va tanasi uzun-uzun ingichka sariq jun bilan qoplangan. Stefan Bobrovskiyning ham basharasidan uzun-uzun jun o'sib chiqqanligi uchun u sher bashara bo'lgan. Meksikalik raqqosa Y. Pastrananing yuzi va tanasi ham junli bo'lgan. Ba'zan dumli odamlar ham tug'iladi. Chunonchi 1848-yili Germaniyada dumining uzunligi 10 sm ga yetadigan bola tug'ilgan.

Odamsimon maymunlarning odamga yaqinligi qadimgi zamonlardan ma'lum bo'lgan. Shu sababli Malayziyada yashovchi xalqlar odamsimon maymunlarni O'rmon odamlari (orangutan Malayziya tilida o'rmon odami) deb atashgan. Odam bilan odamsimon maymunlar tanasining katta-kichikligi, qiyofasi o'xshashdir. Odam bilan odamsimon maymunlarda oyoq va qo'llar bir xil suyak va muskullardan tashkil topgan. Ularda skelet, muskullar, qon aylanish va nerv sistemalari, ichki organlarning tuzilishi ham juda o'xshash. Bosh barmoq boshqa barmoqlarga qarama-qarshi yo'nalgan bo'lishi sababli ularning har ikkisi ham narsani ushlab imkoniyatiga ega. Odamsimon maymunlar uzun qo'llariga tayansa ham, orqa oyoqlarida yura oladi. Tishlarining kurak, qoziq, kichik va katta jag' tishlarga bo'linishi hamda ularning soni odamnikiga mosdir. Odamda ham, odamsimon maymunlarda ham yuz, kaftda va oyoqlar tagida jun bo'lmaydi.

Gorilla va shimpanzening spermatozoidi odamnikiga juda yaqin. Odamsimon maymunlarning bosh miyasi, miya yarimsharlari egat va burmalarining nihoyatda rivojlanganligi odamlarnikiga ancha o'xshash. Odamsimon maymunlarning bosh miyasi yaxshi rivojlanganligi sababli, ular oddiy qurollardan bemalol foydalana oladi. Chunonchi, odamsimon maymunlar bir yog'ochni ikkinchi yog'ochga ulab, balanddagi mevani, o'tni o'chirib, yashiklarni ustma-ust taxlab, yemishni olish kabi ishlarni bajarishga layoqatli ekanligini tajribada isbotlagan. Odamsimon maymunlarda tuyg'uning ifodalanishi, ya'ni ularning shodlanishi, yig'lashi, ko'p jihatdan odamnikiga o'xshashdir. Odamlardagi qarilik alomatlarini, soch to'kilishi, tish tushishi va boshqalar odamsimon maymunlarda ham uchraydi. Odamsimon maymunlar juda ko'p belgi va xususiyatlari bilan odamlarga o'xshash bo'lsa ham, bir qancha xususiyatlari bilan ulardan keskin farq qiladi. Odamning qo'li oyog'iga nisbatan ancha qisqa. Agar odamning qo'li oyog'i uzunligining 65-70%, shimpanzede u 103-110%, orangutanda esa 140% ni tashkil etadi. Odamning bosh barmog'i boshqa barmoqlariga qaraganda kalta va yo'g'on bo'ladi. Boshqa barmoqlari ham odamsimon maymunlarnikiga nisbatan kaltaroq. Odamning umurtqa pog'onasi lotincha S harfi shaklida egilgan bo'lib, o'tirganda, yurganda va chopganda, sakraganda zarbani kamaytirish vazifasini, odam tik yurishi natijasida uning ichki organlari chanoq suyagini bosadi. Shuning uchun maymunlarning chanoq suyagiga nisbatan odamning chanoq suyagi keng. Odamda ko'krak qafasining shakli ham o'zgargan. Agar gorizontol holatda yuruvchi hayvonlarda ko'krak qafasi ikki yon tomondan siqilgan va oldinga bo'rtib chiqqan bo'lsa, odamda aksincha, yon tomondan keng, old tomondan bosiq holda bo'ladi. Maymunlarda jag' suyaklari yaxshi, odamda kuchsiz rivojlangan, Odamda kalla suyagining miya qismi yuz qismiga nisbatan ancha katta, maymunlarda esa aksincha, kichikdir. Agar kalla suyagining miya qismini 100% deb olsak, u holda yuz qismi odamda 36-38%, shimpanzede 90-96%, orangutanda 102% ni tashkil etadi.

Odam miyasining hajmi va vazni odamsimon maymunlarnikiga qaraganda, 5-3 marta ortiq.

Odam bosh miya qutisining hajmi  $1600 \text{ sm}^3$ , odamsimon maymunlarniki  $600 \text{ sm}^3$ . Odamning bo'g'zi yaxshi rivojlangan bo'lib, ma'noli nutq organiga aylangan. Natijada faqat insonga xos bo'lgan ikkinchi signal sistemasi vujudga kelgan. Tirik mavjudotlarning rivojlanishida, belgi va xususiyatlari shakllanishida hujayra yadrosidagi xromosomalar nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, odam bilan maymunlarning xromosomalari qanday, ular odam paydo bo'lishi masalasiga biror yangilik kirita oladimi, degan masala olimlar diqqatini o'ziga tortdi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlarning ba'zi yakunlari 1966-yili Italiya olimi Kiarelli tomonidan e'lon qilindi. Ma'lum bo'lishicha, martishkasimon maymunlarning ayrim turlariga mansub organizmlar hujayrasida 54ta, boshqalarida 72ta, odamsimon maymunlardan gibbonlarda 44ta, gorilla, shimpanze, orangutanda 48ta, odamda 46ta xromosoma bor ekan. Odam xromosomalari tashqi ko'rinishidan odamsimon maymunlarning xromosomalariga o'xshashligi kuzatilgan.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Yer shari qachon shakllangan?
2. Yerdagi hayot qachon paydo bo'lgan?
3. Qaysi olimlar evolyutsion ta'limot bilan shug'ullanganlar?
4. Primatlar qachon paydo bo'lgan?
5. Primatlar bilan inson ajdodlari evolyutsion chizig'i qachon ajralgan?
6. Odamning maymundan farqi bormi?

### **Test topshiriqlari**

1. Tanzaniyadagi Olduvay darasida dastlabki arxeologik qazish ishlarini olib borgan olim kim?  
A. \*Luis Liki



- B. Ch. Darvin
  - C. R. Dart
  - D. O.E.Kotsebu
2. Yavadagi pitekantropning suyaklari qachon va kim tomonidan topilgan?
- A. \*E. Liki 1900-1901-yillar
  - B. Meri Liki 1905-1906-yillar
  - C. Raymond Dart 1895-1896-yillar
  - D. Dyubua 1890-1891-yillar
  - E. Richard
3. Odamzodning ilk vatanlari qayer?
- A. \*Afrika
  - B. Osiyo markazi
  - C. Yevropa g'arbi
  - D. Amerika
4. Eng qadimgi odamlar fanda nima deb ataladi?
- A. \*Arxantrop
  - B. Paleontrop
  - C. Neontrop
  - D. Driopitek
5. Ma'lumki, yer yuzining turli joylaridan odamzod ajdodlarining eng qadimgi vakillari manzilgohlari topib o'rganilgan. Quyida Hindistonning Sevalika tepaligidan topilgan topilmani toping?
- A. \*Ramapitek
  - B. Driopitek
  - C. Avstrolopitek
  - D. Chadantrop
6. Homo erectus turidagi eng birinchi topilma E.Duyuba tomonidan qaysi hududdan topilgan?
- A. \*Indoneziya, Yava.
  - B. Ispaniya, Altamir.
  - C. Xitoy, Chjoukotyan.
  - D. Sharqiy Afrika, Tanzaniya.

7. 2.4-1.5 mln. yil avval Sharqiy Afrikadan topilgan, bosh suyagi hajmi 670 kub. sm atrofida bo'lgan qadimgi odam vakili to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- A. \*Homo habilis, aql idrokli odam.
- B. Homo africanus
- C. Homo rudolfensis
- D. Homo georgicus

8. 1961-1972-yillarda esa Indoneziya mutaxassislari Yavadan yana pitekantropning nechta bosh suyagi topilgan?

- A. \*Ramapitek
- B. Driopitek
- C. Avstrolopitek
- D. Chadantrop

9. 1918-1923-yillarda Shved geologi G. Anderson Pekindan 45-50 km janubiy-g'arbdagi Chjoukoutyan degan joyidan qaysi inson vakilini topgan?

- A. \*Ramapitek
- B. Driopitek
- C. Avstrolopitek
- D. Chadantrop

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. p 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. P 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: Высшая Антропологическая Школа, 2005. 10-55 с

4. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть I. Австралопитеки. Часть II. "Ранние Номо". Москва-Чита: 2002

5. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть III. Архантропы. Часть IV. Гоминиды, переходные от архантропов к палеоантропам. М. 2004

6. Дробышевский, С. В. - Предшественники. Предки. Часть V. Палеоантропы. М., 2006

Джохансон Д., Иди М. Люси: Истоки рода человеческого. М., 1984.

### **Internet ma'lumotlari**

8. <http://bookz.com.ua>

9. <http://lib.com.ua>

10. <http://www.computerbooks.ru>

11. <http://zipsites.ru>

12. <http://hronos.km.ru/proekty/mgu/index.html>

13. <http://antropogenez.ru>

### **III BOB. GOMINIDLAR EVOLYUTSIYASINING ILK BOSQIHI. AVSTRALOPITEKLAR**

#### **3.1. Avstrolopiteklarning vujudga kelishi**

Bugungi kunda inson evolyutsiyasining ilk bosqichi qilib avstrolopiteklarni (*Australopithecus*) ko'rsatishimiz mumkin. Inson evolyutsiyasi bosqichida avstrolopiteklar o'ziga xos guruh bo'lib ularni bir xil ravishda ikki oyoqli maymunlarga va maymun boshli odamlarga qiyoslash mumkin. Primatlar orasida avstrolopiteklarning joylashtirishning murakkabligi shundaki ularning tana tuzilishlarida zamonaviy maymunlarga va odamlarga xos mozaik belgilar bor.

Bu belgilar birlashmasiga qanday yondoshuv zarur?

Eng qadimgi avstrolopitek qoldiqlari Chad Respublikasining Toros-Menalla degan joyidan topilgan bo'lib uning yashagan davri 7-6 million yillar bilan davrlashtiriladi. Avstrolopiteklar guruhining so'nggi vakili esa Janubiy Afrikaning Svartkrans degan joyidan topilgan bo'lib uning yashagan davri 900 ming yil bilan davrlashtiriladi. Bu davr yirik avstrolopiteklarning yashagan davri bilan chegaralanadi. Demak avstrolopiteklar bundan 7 mln dan boshlab 900 ming yilgacha istiqomat qilgan. Ushbu davrlar oralig'ida ularning ko'plab turlari yashaganligi bugungi kunda fanga ma'lum bo'lib ulgurdi. Shunday qilib avstrolopiteklar guruhlarining bunday katta vaqt oralig'ida istiqomat qilishi zamonaviy fanda inson evolyutsiyasi jarayoni haqida ko'plab ma'lumot beradi.

Avstrolopiteklar tarqalgan hudud ham juda katta bo'lib, ular Janubiy Saxro cho'llaridan boshlab butun Afrika qit'asini o'z ichiga qamrab oladi. Bugungi kunda fanga ma'lum bo'lishicha avstrolopiteklar hech qachon Afrika qit'asini tark etishmagan. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki avstrolopitekka o'xshagan mavjudot qoldiqlari Afrika qit'asidan boshqa Xitoy va Indoneziyada ham topilgan bo'lib lekin ular o'z isbotini topmagan hamda baxsli munozaralarga boy bo'lib turibdi. Afrika qit'asi


ichida avstrolopiteklarning istiqomat qilgan hududlari ikkita asosiy rayonga bo'linadi. Bular Sharqiy Afrika (Tanzaniya, Keniya, Efiopiya) va Janubiy Afrikadir.

Avstralopiteklar yashagan davr va turlariga qarab ularni uch guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

Ilk avstrolopiteklar – 7-4 mln yillar ilgari yashagan bo'lib juda primitiv tana tuzilishiga ega bo'lgan. Bugungi kunda ularning bir nechta turlari o'rganilgan.


Rivojlangan avstrolopiteklar – 4-2,5 mln yillar ilgari yashagan bo'lib unchalik katta bo'lmagan tana tuzilishiga ega bo'lgan. Asosan Australopithecus urug'i bir nechta turi bilan ajralib turadi.

Yirik avstrolapiteklar – 2,5-1 mln yillar ilgari yashagan bo'lib judak yirik tana va jag' suyaklari va juda kichik odingi lablari va juda katta pastki lablari bilan ajralib turadi. Yirik avstrolopitekla o'z navbatida uchta turdan iborat Paranthropus guruhiga ham bo'linadi. Bu guruhlar ichida ya'ni Sharqiy hamda Janubiy Afrika respulikalarida yashagan avstrolopiteklar o'rtasida taksonomik bog'liqlik ham hali o'z isbotini topgani yo'q. Lekin avstralopiteklarning bir vaqtning o'zida va bir qancha hududlarda



istiqomat qilishgani bir qancha faraz ilgari surilgan bo'lsa ham hali fanga noma'lumligicha qolmoqda. Yana bir qiziqarli jihati shundaki, avstralopiteklarning ayrim turlar eng qadimgi odamlar (yoki "ilk Homo") vakillari bilan bir hududda ya'ni Sharqiy Afrikada yashaganliklari haqida ikkilanishsiz e'tirof etishimiz mumkin.

Avstrolopiteklarning bosh chanog'i shimpanzenikiga o'xshash. Ular asosan yirik jag' suyagli, katta bosh suyaklari, miya hajmining kichigligi va keng yuz tuzilishi bilan xarakterlanadi. Avstralopiteklarning tishlari yirik lekin joylashuviga ko'ra odamnikiga yaqin bo'lgan. Shunisi bilan ular maymunlardan farq qilganlar. Avstralopiteklarning tana tuzilishidagi xarakterli belgilar bu ularning oyoqlarining uzunligi, qo'llarning kaltaligi, vertikal umurtqa suyagi va kengi pastki toz suyaklaridadir.




Bu belgilari bilan avstrolopiteklar odamlarning tana tuzilishlariga yaqinligini va farqli tarafi ularni ayrim suyaklarini kichikligi bilan farqlanishidadir. Avstralopiteklarning bo'ylari bir metrdan bir yarim metrgacha bo'lgan. Miya hajmlari esa 350-550 sm<sup>3</sup> bo'lganligi ularni zamonaviy gorilla va shimpanzega o'xshashligini ko'rsatadi. Agarda zamonaviy odamning miya hajmi 1200-1500 sm<sup>3</sup> bilan solishtiradigan bo'lsak ancha katta farq kelib

chiqadi. Avstralopitekning miya hajmining tuzilishi juda primitiv bo'lib shimpanzenikidan juda kam farq qiladi.

Avstralopitekning turmush tarzi primatlarnikiga o'xshash bo'lmagan. Ular tropik o'rmonlarda va savannalarda yashab asosan o'simliklar bilan oziqlanishgan. Lekin shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki so'ngi avstrolopiteklar ba'zi olimlarning fikrlariga ko'ra antilopalarga ov qilishgan yoki katta yirtqich hayvonlarning o'ljalarini tortib olib oziqlana boshlaganlar. Ilk avstrolopiteklar asosan o'rmonlarda keng tarqalishgan va yashaganlar. Janubiy Afrikaning rivojlangan avstrolopiteklari esa juda keng hududlarda tarqalganlar. Ular asosan o'rmonlardan tortib quruq savannalarda yashashgan. Yirik avstrolopiteklar esa olimlarning fikriga ko'ra ko'proq suvga yaqin joylarda yashashgan. Lekin ba'zi bir olimlarning fikriga ko'ra esa ular asosan quruq va ochiq landshaftli hududlarda yashashgan. Sharqiy Afrikadan topilgan avstralopitekning qoldiqlari asosan ko'l bo'ylari yoki suvga yaqin bo'lgan joylardan aniqlangan. Bu topilmalar ularning hammasi suvga yaqin joylarda yashaganliklaridan dalolat bermaydi. Chunki aynan suvga yaqin bo'lgan joylarda ularning suyak qoldiqlari yaxshi saqlangan. Balki avstralopitekning yashagan hududlari suvdan uzoq joylarda joylashganligi ham bo'lishi mumkin. Odatda avstralopitekklar yashagan davr rekonstruksiya qilingan Afrika landshaftlari o'zida o'rmonlar bilan birga quruq savannalarni ham qamrab oladi. Bu landshaftlarning xilma-xilligi balkim keyinchalik zamonaviy odamlarning yerning turli yerlarini o'zlashtirilishiga olib kelgan bo'lishi mumkin. Bu savollar va taxminlarga javobni aynan avstrolopiteklar yashagan davrdan qidirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Avstralopitekklar bir nechta individdan iborat guruhlar bilan istiqomat qilishib ozuqa topish maqsadida Afrika qit'asi bo'ylab ko'chib yurishgan. Mehnat qurollari yasashni avstrolopiteklar hali bilishmagan lekin topilgan topilmalarni ularning mehnat qurollaridan foydalanganligi ko'rsatadi. Ularning qo'llarining o'xshashligi ko'proq odamnikiga yaqin lekin shu bilan bir qatorda barmoqlari ko'proq egilgan va ingichka edi. Yuqorida ta'kidlab

o'tganimizdek birinchi mehnat qurollari bundan 2,7 million yil ilgari vujudga kelgan. Bu voqea avstrolopiteklar vujudga kelgandan so'ng 4-4,5 million yil o'tib sodir bo'lgan. Janubiy Afrika avstralopiteklari bundan 2-1,5 million yillar ilgari ko'proq suyakdan mehnat va ov qurollari sifatida foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.



**МОДЕЛЬ РАМИДУС**  
 (сделана по черепу)  
 и скелету, найденным в  
 горах Эфиопии  
 в 1932 году






### 3.2 Ilk avstralopiteklar

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek eng qadimgi avstralopitek qoldiqlari Chad Respublikasining Toros-Menalla degan joyidan topilgan bo'lib unga Sahelanthropus tchadensis nom berilgan. Shu bilan topilgan butun bosh chanog'iga "Tumai" deb laqab qo'yishgan. Sahelanthropus tchadensisning yashagan davri bundan 7 million yil qilib davrlashtirilgan.

Kenyaning Tugen Xills joyidan topilgan ko'plab paleantropolog topilmalar 6 million yil bilan belgilangan. Ularni asosan bitta turga birlashtirishib Orrorin tugenensis (Orrorin) deb nomlashgan. Efiopiyaning asosan ikki Alayla va Aramis degan joylaridan ko'plab suyak qoldiqlari aniqlangan va ularga Ardipithecus ramidus kadabba (5,5 mln. yilga yaqin) va Ardipithecus ramidus ramidus (4,4 mln. Yil ilgari, Ardipitek) deb

nomlashgan. Keniyaning Kanapoi va Alliya Bey degan joylaridan topilgan topilmalarga esa Australopithecus anamensis (Anamlilik avstralopitek) deb nom berishgan va uning yashagan davri 4 million yil ilgari deb davrlashtirildi.

Ularning bo'ylari bir metrdan ozgina oshiq bo'lgan. Miya hajmlari esa shimpanzeniki bilan bo'lgan. Bu ilk avstrolopiteklar guruhi yuqorida ta'kidlab



bir xil

o'tganimizdek, asosan, o'rmonlarda, o'rmon oldi ko'l bo'ylarida va o'rmon oldi dasht zonalarida yashashgan. Shubhasiz, aynan shu mavjudotlar odam bilan maymunlar o'rtasidagi o'tish bosqichini ko'rsatib beradi. Biz amalda ular yashagan davr haqida hech narsa bilmaymiz lekin shu bilan bir qatorda yillar davomida topilayotgan topilmalar bizga o'sha davr haqida boy ma'lumotlar bermoqda.

Sahelanthropusning bosh suyak chanog'i, Orrorinning tos suyak qoldiqlari va Ardipithecusning tos suyak qoldiqlariga qarab bu mavjudotlarning ikki oyoqda harakatlangan deb bimalol fikr yuritishimiz mumkin. Lekin Orrorin va Ardipithecusning qo'l suyak qoldiqlaridan ularning hali ham ikki oyoqda harakatlanishiga qaramay qo'llari yordamida xuddi zamonaviy gorilla va shimpanzelarga o'xshab harakatlanishgan. Ilk avstrolopiteklari tishlarining joylashuvi odam va maymunlarnikiga o'xshash bo'lgan va bu ularning o'rtasida uchinchi mavjudotligidan darak beradi. Balkim Sahelanthropus hozirgi gorillalarga qarindosh, Ardipithecus esa hozirgi shimpanzelargadir. Australopithecus anamensis esa umuman avlod qoldirmay qirilib ketgan bo'lishi ham mumkin. Bu taxminlarga kelajakdagi tadqiqotlar javob berishi mumkin. Masalan, Ardipithecusni olimlar 1994-yili topishgan

bo'lsa ham birdan keng ommaga ma'lum qilishmadi. Faqatgina oradan 15 yil o'tib 2009-yili bu topilma haqida to'liq ma'lumot berildi. Bunga sabab yuqorida ta'kidlab o'tgan taxminlarimizdir. Ardipitekning suyak qoldiqlariga qarab olimlar uni maymun va odamni bitta tanada mujassam bo'lganligini ta'kidlashadi. Albatta bu narsa fanda uzoq vaqt davom etgan odam maymundan kelib chiqqanmi degan savollarga javob bera oladi. Ardipitekning suyak qoldiqlariga qarab yana shu narsani ta'kidlashimiz mumkinki ular ikki oyoqda harakatlana olishidan tashqari ko'proq vaqt qo'lda harakatlangan. Bunga sabab qilib olimlar ularni asosan yopiq hududlarda ya'ni o'rmonlarda istiqomat qilishganini ko'rsatishadi.



Olimlarning bu fikrlari oldinlar fanda ma'lum bo'lgan odamlar quruqlikka chiqqanidan keyin ikki oyoqda harakatlana boshlagan degan nazariyani butunlay yo'qqa chiqaradi. O. Lavdjoy degan olim Ardipitekning ikki oyoqda xarakatlana olishini tabiiy faktorlarning emas balki ijtimoiy va jinsiy aloqalarning mahsuli deb hisoblaydi. Bu mavjudotlar daraxtlarda va shuning bilan bir qatorda yerda harakatlana olishgani va ayrim vaqtlarda to'rt oyoqlab emaklaganini ham ko'rishimiz mumkin. Ular asosan o'simliklar barglari va ildizlari bilan oziqlanishgan.

Ardipitekning suyak qoldiqlari bilan zamonaviy maymunlar gorilla va shimpanze shuningdek zamonaviy odamning suyaklari solishtirib o'rganilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki odamsimon maymunlarga xos ko'p belgilar mustaqil ravishda rivojlangan. Bugungi kungacha odamsimon maymunlar gominidalaridan ajralib chiqib keyinchalik gorilla va shimpanzelarga bo'linishgan degan nazariya mavjud edi. Biroq shimpanze bir qator belgilarga qaraganda gorilladan ko'ra ko'proq Ardipitekka yaqinligi ma'lum bo'ldi. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki gorillalar

demak oldinroq yoki keyinroq ajralib chiqib ketishgan. Ammo bu faraz o'zining bo'sh taraflarini ham ko'rsatgani uchun vaziyatni mutloq boshqacha qilib tasavvur qilishimiz ham mumkin.

Ardipitek bilan Saxelantropning solishtirilishi natijasida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki odam ajdodlari evolyutsiyasi uzilishlar bilan davom etgan. 7 mln yil ilgari yashagan Saxelantrop va 4,4 mln yil ilgari yashagan Ardipiteklarning umumiy rivojlanish darajasi bir ekanligini ko'rishimiz mumkin. Lekin shu o'rinda bizni bir savol qiynaydi. Qanday qilib bor yo'g'i 200 ming yil keyin vujudga kelgan Avstrolopitek Anamensisning ko'plab tana va harakat o'zgarishlarga kelishi va shuning bilan bir qatorda ularning ilk Nomolargacha o'zgarishsiz qolishi masalani yanada chigallashtiradi. Oldinlari ham fanda inson evolyutsiyasidagi bunday sakrashlar va o'zgarishlar haqida ma'lumot bo'lgani bilan ularning aynan qachon ro'y bergani noma'lum edi. Endilikda fanda biz bu hodisalarni qachon ro'y bergani va inson evolyutsiyasidagi sakrashlarni ekologik o'zgarishlar bilan qiyoslashimiz mumkin.

### **3.3. Rivojlangan va yirik avstralopiteklar**

Kenii, Tanzanii va Efiopiyaning ko'plab joylaridan rivojlangan avstrolopiteklarning suyak qoldiqlari topib o'rganilgan. Ularning eng asosiysi bu Australopithecus afarensis (Afarlik avstrolopitek)dir. Afarlik avstrolopitek bundan taxminan 4 mln yildan boshlab 2,5 mln yillar oralig'ida mavjud bo'lgan. Afarlik avstrolopiteklarning eng mashhuri bu Efiopiyaning Xadar degan joyi Afar cho'lidan topilgan va fanda "Lyusi" nomi bilan tanilgan turi. Afarlik avstrolopiteklarga o'xshagan gominidlarning suyak qoldiqlari Tanzaniyadan ham topilgan. Afarlik avstrolopiteklardan tashqari Sharqiy va Shimoliy Afrikada 3-3,5 mln vaqt oralig'ida boshqa turdagi avstrolopiteklarning yashaganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Keniyaning Lomekvi degan joyidan Kenyanthropus platyops (Silliqlik yuzli Keniyalik odam) ning suyak qoldiqlari topib o'rganilgan. Chad Respublikasining Koro-Toro degan joyidan esa Australopithecus bahrelghazali (Baxr al

G'azallik Avstrolopitek) ning qoldiqlari topilgan. Avstrolopiteklarning boshqa vakillari qit'aning janubidan ya'ni JAR (Janubiy Afrika Respublikasi)ning Taung, Sterkfonteyn va Makapansgat degan joylaridan topilib ularni bitta turga Australopithecus africanus (Afrikalik avstrolopitek)ka ajratishgan. Bu turga fanda mashhur birinchi avstrolopitek qoldig'i bo'lgan yosh bola bosh chanog'i suyagi "Taunglik bola" mansubdir. Ular bundan taxminan 3,5-2,4 mln yillar ilgari vaqt oralig'ida yashashgan. Eng so'nggi rivojlangan avstrolopitek qoldiqlari bundan taxminan 2,5 mln yillar ilgari yashagan bo'lib ularning qoldiqlari Efiopiyaning Bouri degan joyidan topilgan va Australopithecus garhi (Garxi avstrolopiteki) deb nomlangan.

### Savollar va topshiriqlar

1. Avstrolopiteklar va ularning turmush tarzi.
2. Avstrolopiteklar to'g'risidagi yangi antropogenez nazariyalar.
3. Ilk avstrolopiteklarning turmush tarzi.
4. Birinchi avstrolopitek qayerdan topilgan?
5. Reymon Dart topgan avstrolopitek qanday nomlanadi?
6. Saxelantrop Chadenis qayerdan topilgan?
7. Saxelantrop Chadenis yashagan davr.
8. Rivojlangan avstrolopiteklar bu
9. Yirik avstrolopiteklar turlari.

### Test topshiriqlari

1. Avstrolopitek so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
  - A) \* Janub maymuni
  - B) Avstraliyada istiqomat qiladigan odam
  - C) Afarlik bola
  - D) Ming yillar odami
2. Australopithecus africanus kim tomonidan aniqlangan?
  - A) \* R. Dart 1924-yil

- B) R. Brum 1923-yil  
 C) Ch. Darvin 1871-yil  
 D) E. Dyubua 1891-yil
3. Australopithecus africanus yashagan yillarni aniqlang?  
 A) \* 3,3-2,5 mln. yillar avval  
 B) 6-5 mln. yillar avval  
 C) 9,2-8,5 mln. yillar avval  
 D) 6-7 mln. yillar avval
4. Australopithecus africanus topilgan hududni aniqlang?  
 A) \* Janubiy Afrika  
 B) Eronda  
 C) O'rta Osiyoda  
 D) Yaqin Sharqda
5. R. Dart tomonidan 1924-yilda fanga kiritilgan Avstrolopitekning nomini aniqlang?  
 A) \* Australopithecus africanus  
 B) Australopithecus afarensis  
 C) Australopithecus bahrelghazali  
 D) Australopithecus garhi
6. Australopithecus africanus asosiy ozuqa manbaini aniqlang?  
 A) \* Daraxt ildizlari va barglari  
 B) non  
 C) bug'doy  
 D) kiyik go'shti
7. Australopithecus afarensis qachon va qayerdan topilgan?  
 A) \* 1974-yil Efiopiyadan  
 B) 1961-yil Janubiy Afrikadan  
 C) 1959-yil Tanzaniyadan  
 D) 1977-yil Keniyadan
8. Australopithecus afarensis yashagan yillarni aniqlang?  
 A) \* 4-3 mln yillar avval  
 B) 6-5mln yillar avval  
 S) 7-6 mln yillar avval  
 D) Ashel davrida yashagan
9. Australopithecus afarensis miya hajmini aniqlang?

A) \* 430 kub sm

B) 660 kub sm

C) 844 kub sm

D) 1300 kub sm

10. Australopithecus anamensis yashagan yillarni aniqlang?

A) \* 4,2 mln.

B) 7 mln.

S) 2,5 mln.

D) 1,5 mln.

11. Australopithecus anamensis qachon va qayerdan topilgan?

A) \* 1995-yil Keniya

B) 1974-yil Efiopiya

C) 1961-yil Tanzaniya

D) 1891-yil Indoneziya

12. Australopithecus anamensis kimning ajdodi bo'lgan?

A) \* Australopithecus afarensis

B) Sahelantrophus tchadensis

C) Zamonaviy maymunlarning

D) Neandertallarning

13. Australopithecus afarensis fanda yana qanday nom bilan ataladi?

A) \* Lyusi

B) Afarlik bola

C) Andromeda

D) Afina

14. Australopithecus afarensis qaysi tadqiqotchi tomonidan fanga kiritilgan?

A) \* D. Djoxansoon

B) E. Dyubua

C) R. Dart

D) Ch. Darvin

15. Sahelantrophus tchadensis qayerdan topilgan?

A) \* Chad Respublikasi

B) Keniya

C) Tanzaniya

D) Janubiy Afrika Respublikasi

16. Sahelantrophus tchadensis yashagan yillarni aniqlang?

A) \* 7-6 mln

B) 15 mln

C) 14,5 mln

D) 2,5 mln

17. Sahelantrophus tchadensis miya hajmini aniqlang?

A) \* 350 kub sm

B) 430 kub sm

C) 550 kub sm

D) 630 kub sm

18. Sahelantrophus tchadensis qaysi davlat olimlari tomonidan tadqiq qilindi?

A) \* Fransiya

B) AQSh

C) Angliya

D) Keniya

19. Quyida keltirilgan qaysi gominid suyak qoldiqlari 2000 yilning 25-oktyabrida Keniyadan topilgan?

A) \* Orrorin tugenensis

B) Australopithecus afarensis

C) Australopithecus bahrelghazali

D) Australopithecus garhi

20. Quyida keltirilgan qaysi gominidga ming yillar odami deb nom berilgan?

A) \* Orrorin tugenensis

B) Australopithecus afarensis

C) Australopithecus bahrelghazali

D) Australopithecus garhi

21. Ardipithecus kadabba yashagan yillarni aniqlang?

A) \* 5,2-5,8 mln

B) 6,5-6,2 mln

S) 4,5-4,1 mln

D) 3,5 -3 mln

22. Kadabba so‘zining lug‘aviy ma’nosini aniqlang?



A) \* Shajara asoschisi

V) Ming yillar odami

S) Afarlik bola

D) To'g'ri javob yo'q

23. Ardipithecus ramidus qachon va qayerdan topilgan?

A) \* 1994-2001-yillarda Efiopiyadan

B) 1994-2001-yillarda Keniyadan

S) 2002-yili Chad Respublikasidan

D) 2008-yili Misrdan

24. Ardipithecus ramidus yashagan yillarni aniqlang?

A) \* 4,4mln

B) 6 mln

S) 5,5 mln

D) 3,5-3 mln

25. Kenyanthropus platyops so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang?

A) \* Silliq yuzli Keniyalik odam

B) Baland bo'yli Keniyalik odam

S) Keniyalik maymunsimon odam

D) To'g'ri javob yo'q

26. Kenyanthropus platyops yashagan yillarni aniqlang?

A) \* 3,5 mln

B) 6,5 mln

S) 4,5 mln

D) 5,5 mln

quyida keltirilgan qaysi gominid bilan bir davrda yashagan?

A) \* Australopithecus afarensis

B) Orrorin tugenensis

S) Ardipithecus ramidus

D) Sahelantrophus tchadensis

28. 1999-yilda Keniyaning Turkana ko'li g'arbidan paleantropolog M.Liki tomonidan qaysi gominid suyak qoldiqlari topilgan?

A) \* Kenyanthropus platyops

B) Australopithecus afarensis

- S) Orrorin tugenensis
- D) Ardipithecus ramidus

29. Australopithecus bahrelghazali qaysi davlat hududidan topilgan?

- A) \* Chad Respublikasi
- B) Keniya
- S) Efiopiya
- D) Tanzaniya

30. Australopithecus bahrelghazali qaysi davlat tadqiqotchilari tomonidan fanga kiritilgan?

- A) \* Fransiya
- B) AQSh
- C) Angliya
- D) Keniya

31. 1995-yilda Mishel Bryune tomonidan Chad Respublikasidan topilgan gominid nomini aniqlang?

- A) \* Australopithecus bahrelghazali
- B) Sahelantrophus tchadensis
- C) Orrorin tugenensis
- D) Ardipithecus ramidus

32. Australopithecus bahrelghazali yashagan yillarni aniqlang?

- A) \* 3,5-3 mln
- B) 4,5-4 mln
- C) 5,5-5 mln
- D) 2,5-2 mln

35. Australopithecus garhi qoldiqlari qachon va qayerdan topilgan?

- A) \* 1997-yili Efiopiya
- B) 1995-yili Keniya
- C) 2001-yili Chad Respublikasi
- D) 1959-yili Tanzaniya

33. Australopithecus garhining miya hajmini aniqlang?

- A) \* 450 kub sm
- V) 350 kub sm

- S) 550 kub sm  
D) 630 kub sm
34. Australopithecus garhi yashagan yillarni aniqlang?  
A) \* 2,5 mln  
V) 4,5mln  
S) 5,5mln  
D) 3,5 mln
35. "Garhi" so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang?  
A) \* Taajjublanarli  
V) Dahshatli  
S) Lug'aviy ma'nosi yo'q  
D) Joy nomidan olingan
36. Paranthropus aethiopicus qaysi yillarda yashagan?  
A) \* 2,7 mln  
V) 4,7 mln  
S) 5,5 mln  
D) 3,7 mln
37. Paranthropus boisei qaysi yillarda yashagan?  
A) \* 2,3-1 mln  
V) 2,5-1,5 mln  
S) 3,5- 1,1 mln  
D) 3,7-1,4 mln
38. Paranthropus robustus qaysi yillarda yashagan ?  
A) \* 2-1,5 mln  
V) 2,3-1 mln  
S) 3,5- 1,1 mln  
D) 3,7-1,4 mln
40. Paranthropus robustus ning miya hajmini aniqlang?  
A) \* 520 kub. sm  
V) 350 kub. sm  
S) 430 kub. sm  
D) 620 kub. sm

## **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. p 10-46
2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. P 14-102
3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: Высшая Антропологическая Школа, 2005. 10-55 с
4. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть I. Австралопитеки. Часть II. "Ранние Номо". Москва-Чита: 2002
5. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть III. Архантропы. Часть IV. Гоминиды, переходные от архантропов к палеоантропам. М. 2004
6. Дробышевский, С. В. - Предшественники. Предки. Часть V. Палеоантропы. М., 2006
7. Джохансон Д., Иди М. Люси: Истоки рода человеческого. М., 1984.

## **Internet ma'lumotlari**

8. <http://bookz.com.ua>
9. <http://lib.com.ua>
10. <http://www.computerbooks.ru>
11. <http://zipsites.ru>
12. <http://hronos.km.ru/proekty/mgu/index.html>
13. <http://antropogenez.ru>


## IV BOB. ENG QADIMGI ODAMLARNING VUJUDGA KELISHI VA MEHNAT FAOLIYATI (NOMO)

### 4.1. Eng qadimgi odamlarning vujudga kelishi

1890-91-yillarda Yava orolidan topilgan topilmalarni (ya'ni pitekantroplarni qoldiklarini) analizi shuni ko'rsatdiki, bu suyaklar boshni tepa qismi bo'lib, ular shu jonzotni ikki oyoqlab yurganidan dalolat beradi.

Shuning uchun bu topilmani ham Pitecanthropus deb ataydilar. Bu pitekantroplarni suyak qoldiklari juda katta munozaralarga sabab bo'ldi. Chunki bu guruholimlar bu suyaklar "Mikrotsefalga" ya'ni hozirgi zamon kichik odamning o'zgargan shakli. (kasallik natijasida) degan fikrga ham keldi. Lekin keyingi yillarda pitekantroplarga tegishli yigirmadan ortiq suyak qoldiklarini topilishi va ularni obdon o'rganilishi yuqoridagi fikrni noto'g'ri ekanligini isbotlabgina qolmay, balki bu pitekantroplar inson evolyutsiyasini ko'rsatuvchi va hozirgi zamon odamlarini shakllanish jarayonini ma'lum bir bosqichini ko'rsatuvchi daliliy ashyo ekanligini namoyon qildi.

Lekin shuni aytish kerakki bu pitekantroplar hozirgi zamon odamlaridan o'z miya hajmlari bilan ko'proq ajralib tursalar ham to'g'ri yurishlari, qo'l harakatlari bilan ham farq qilar edilar. Demak, to'g'ri yurish va



qo'l harakatlari pitekanthroplar davrida kamolotga yetgan bo'lsada, miyaning o'sishi orqada qolgan. Ba'zi olimlar bunga sabab qilib mehnat qurollarini juda oddiy bo'lganligini ta'kidlashadi.

Pitekanthroplarni miya hajmi 900 sm 3 bo'lib, cherepi (bosh qismi) ko'p hollarda maymunlarnikiga o'xshashdir. Qoshi bo'rtib chiqqan.

Agar avstralopitekni bosh suyagi bilan pitekanthropni solishtirsak, pitekanthroplarniki ancha taraqqiy etganini ko'ramiz. Aniqrog'i, pitekanthroplarning boshini hajmi avstralopiteknikiga nisbatan 1,5 barobar katta (avstralopitekning miya hajmi 550-600 sm. 3 ) shuni alohida ta'kidlash kerakki, pitekanthroplarning suyak qoldiqlarini hammasi переантропогенные holatida topilgan. Buning ustiga ular tosh qurollari bilan birga topilmagan. Chunki madaniy qatlam joyidan tabiat kuchlari ta'sirida siljigan. Shuning uchun ham olimlar o'rtasida pitekanthroplar qurollar yasashni bilganlarmi? Yoki bilmaganlarmi? deb munozara bo'lgan. Lekin shu pitekanthroplarning suyak qoldiqlari topilgan joylardan uzoq bo'lmagan joylarda tosh qurollar topilgan. Ularni shu pitekanthroplarga tegishli. Ular tabiat kuchlarining ta'sirida har xil joylarga joylashgan deb fikr yurituvchilar ham bor.

1954-yilda yana bir ilk pleystotsen davriga oid suyak topilma topilgan. Ammo juda oz miqdorda. Lekin buni qimmatli shundaki, madaniy qatlam Yava orolidan farq qilib shikastlanmagan (непотрeвоженный). Yana muhim tosh qurollar bilan birga topilgan bu odam qoldiqlari pitekanthroplarni tosh qurollari deb topilgan taxminlarni to'g'ri deb topilganligiga guvoh bo'la oladi. Chunki ular bir-birlariga o'xshash bo'lib, davrlari ham deyarli bir xil.

Demak, morfologik atlantroplar pitekanthroplar bilan taraqqiy etish jihatidan bir tekislik (uroven)da bo'lganlar. Qadimgi odamlarning morfologik turlarini evolyutsiyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan topilma 1927-yilda Xitoyning shimolida Pekindan uncha uzoq bo'lmagan Chjou-Kou g'oridan topilgan. Bu g'or eng qadimgi ov g'orlaridan bo'lib, bu yerlardan arxeologik materiallardan tashqari 40ta erkagu ayol va bolalar

suyak qoldiqlari topilgan. Bu suyak qoldiqlarining ilmiy analizi shuni ko'rsatadiki, ularning tashki morfologik ko'rinishlari pitekantropga nisbatan ancha taraqqiy etgan bo'lib, hozirgi odamlar qiyofasiga ancha yaqinlashgan.

Demak, bular pitekantroplarga nisbatan ancha keyingi davrga oid bo'lib, ularni *Sinentropus Pekinenis* deb ataganlar. Bu turdagi odam suyaklarining topilishi, ya'ni to'la to'kis topilishi sinantroplarni skeletlarini to'la tiklashga imkon berib, pitekantroplarni chala skeletlarini tiklashga va ular haqida to'la tasavvur hosil qilishimizga yordam berdi. Sinantroplar ham pitekantroplar kabi o'rta bo'yli bo'lib, mukammal tana tuzilishiga ega bo'lganlar. Ularning miya hajmlari 900 sm<sup>3</sup>ga to'g'ri kelgan.

Lekin shunga qaramay, bosh chanog'ida hali primitiv belgilar mavjud edi. Mehnat qurollarini takomillashganligi, ya'ni ikki tomonlama ishlov *двухсторонняя обработка* berishni vujudga kelishi ularni nutqlari ham vujudga kelishidan dalolat beradi. Chunki mehnat qurollarini takomillashuvi shu qurollarni ko'pchilik tomonidan, ya'ni bir-biridan o'rganib qilishligidan kelib chiqadi. Demak, o'zaro munosabatlar vujudga kelgan. Bu munosabatlar esa o'z navbatida tubiiy ravishda nutqni keltirib chiqargan.

Sinantroplar yirik hayvonlarga bug'u, ohu, yovvoyi otlar hatto nasoroglarni ham ov qilgan. Ularning joylari doimiy tarzda g'orlarda bo'lgan. Olovdan foydalanishni bilganlar. Chjou-Koudagi qo'lning qalinligi bir necha metr bo'lgan. Olovdan foydalanishni ahamiyati shundaki odamlarni imkoniyatlari kengaydi. Olov odamlarga issiqlik berdi. Go'shtni pishirib yeyishlari natijasida ovqat yaxshi hazm bo'la boshladi. Hayvonlarni qo'rqitib o'zlari xohlagan joylarga quvlab olib borishlari mumkin bo'ldi. Eng muhimi yog'och qurollarni uchlarini kuydirib, o'tkirladilar.

Sun'iy olov paydo qilish garchi sinantroplarga ayon bo'lmagan bo'lsa ham uni paydo bo'lishida ikkita narsa muhim rol o'ynagan. Birinchisi, toshni toshga urishda paydo bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi yog'ochni yog'ochga ishlashga vujudga kelgan kuyish jarayoni bo'lgan.

1965-yilda Yevropaning Vengriya hududida Verteshsellehida qadimgi gominidlar suyagi topilib, ularning bosh hajmi 1400 sm. 3 cdi. Bu topilmani olimlar eng qadimgi neandertaletski pitekanthrop va sinantropnlarni o'tish davridagi odamni suyagi degan fikrga keldilar. Nihoyat odam ajdodlarining qoldiqlari tashqi ko'rinishlari jihatidan pitekanthroplar va sinantropnlarga o'xshagan ilk plestotsen va o'rta plestotsen qatlamlaridan Afrikada juda ko'plab topildi. Bularning (bosh miya hajmi jihatidan) hammasi Yava maymun odamidan farq qiladi. Maymunlarga o'xshagan, ya'ni miya hajmi ham uncha taraqqiy etmagan pitekanthrop, sinantrop, atlantrop, geydelberg odami va boshqalar nisbatan iliq joyda Afrikada, Yevropada va Osiyoning janubiy hududlarida yashagan.

Pitekanthroplar geografik jihatdan juda katta to Katta Zond arxipelagigacha bo'lgan hududlarda joylashib o'sha ibtidoiy sharoitda bir-birlari bilan aloqada bo'lmaganlar. Bundan xulosa shuki, ayrim olimlarning fikricha ular o'zaro munosabatda bo'lmaganlar.

Pitekanthrop urug'lari bir necha turlardan iborat bo'lib, ular bir birlaridan xulqi, tashqi ko'rinishi, madaniyati bilan farq qilgan. Bu fikrni pitekanthroplar davriga mansub yodgorliklardan topilgan arxeologik materiallarni har xilligi, hatto bitta materikdagi yodgorliklarning topilmalarini har xilligi tasdiqlaydi. Pitekanthroplar uchun quyi va o'rta plitotsen to'g'ri keladi.

### **Homo Habilisning turmush tarzi va mehnat faoliyati**

Yer yuzidagi eng qadimiy odam yava pitekanthropi emas, balki, sharqiy Afrikada 3-2,5 mln yil ilgari yashagan «Xomo xabilis»-«ishbilarmon odam» ekan. Sharqiy Afrikadagi Tanzaniyaning Olduvay darasidan topilgan arxeologik va antropologik materiallar bu fikrni aytishga imkon berdi. Keniya va Efiopiyada olib borilgan qazish ishlari olduvaydan topilgan materiallarga juda muhim aniqlik kiritdi.

Olduvay darasi Tanzaniyaning shimolida bo'lib, Eyasi ko'lidan 36 km. shimoliy-sharqdadir. Daraning uzunligi 40 km,



chuqurligi esa 100-130 metrdan iborat. Olduvay darasidan qazilma hayvonlarning qoldiqlari 1911-yildan boshlab topila boshlagan.

1931-yili keniyalik ingliz olimi Luis Liki darada qizg'in arxeologik va poleontologik qazish ishlari olib borar ekan, har xil davrga mansub tosh asri madaniy qatlamlarini topishga muyassar bo'ladi. Bu borada Luis Lekining xizmatlari juda kattadir. L. Liki vafot etgach (1972) uning ishlarini rafiqasi Meri Liki va o'g'li Richard Liki davom ettiradilar.

Keyingi 15-20 yil ichida Olduvay darasidan olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida odamsimon maymunlar, eng qadimgi maymunsimon odamlarning kalla va boshqa suyaklari, shuningdek, eng qadimgi odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan buyumlar topilgan.

1959-yili Luis va Meri Likilar Olduvay darasidan avstralopiteklerden farq qilmaydigan maymunsimon mavjudotning kalla suyagini topishga muvaffaq bo'ldilar. Mazkur mavjudot miya qutisining hajmi 530 sm<sup>3</sup> bo'lib, avstrolopiteklarnikidan katta bo'lmagan. Ammo kalla suyak yotgan qatlamda oddiy tosh qurollarning mavjudligi uni avstrolopitek maymuni emas, balki Yava pitekantropiga nisbatan ilgariroq yashagan maymunsimon odam deb aytishga imkon berdi. Tadqiqotchilar bu odamga «zinjantrop» deb nom ham berishdi. Ba'zi olimlar uni odam jesa, ayrimlari avstrolopitek maymuni deb hisoblaydilar. Lekin bir yil o'tgach ya'ni 1960-yil «zinjantantrop» topilgan joydan, faqatgina biroz chuqurroqda «zintranthrop»ga nisbatan ham taraqqiy etgan mavjudotning suyak qoldiqlari topilgan. Olimlar unga «prezinjantrop» deb nom berishdi Hozirgacha mazkur joy va qatlamdan prezinjantropning 5dan ortiq suyak qoldig'i va tosh qurollari va bir qator hayvonlarning maydalangan suyaklari topilgan. Bu mavjudot qurol yasay olgan ekan, unga «Gomo xabilis» – «ish bilarmon odam» degan nom berildi. U Yava pitekantropigacha yashagan eng qadimgi maymunsimon odam, deb hisoblanadi. Zinjantrop esa avstrolopitek maymuni bo'lib, boshqa hayvonlar qatori u «Gomo xabilis»ning ov o'ljasi bo'lgan.

Kaliy-orgon usuli bo'yicha va boshqa dalillarga asoslanib ishbiarmon kishi, 1,75-185 mln yil ilgari yashagan.

Xomo xabilis topilgan joyning yuqoriroq qatlamidan olduvay pitekantropining qodig'i va tosh qurollari hali topilgan. Prezinjantrop topilgan joyning o'zidan avstrolopiteklarning suyaklari ko'plab chiqdiki. Bu hol mazkur mavjudotlar ish bilarmon kishilarning asosiy ov manbalaridan biri ekanligini bildiradi.

Xomo xabilisning bo'yi 122-140 sm bo'lib, ikki oyoqda yurgan, Tobayesning fikricha miya qutisining hajmi 675-680 sm<sup>3</sup> ni tashkil etib, avstrolopiteknidan kattaroq, pitekantroplarnikiga nisbatan kichikroq bo'lgan.

Yuqori va quyi jag'lari avstralopiteklarnikidan kichikroq, pitekantrop va hozirgi zamon odamnikiga, ancha yaqin bo'lgan. Uning barmoq va bo'g'inlari odamnikiga juda o'xshab ketgan va tosh qurollar yasash qobiliyatiga ega bo'lganki, buni Olduvayning qatlamlaridan topilgan tosh qurollar tasdiqlaydi.

Shunday qilib, xomo xabilis avtsrolopiteklardan keyingi mavjudot bo'lib uni eng qadimgi odam hisoblasa bo'ladi.

### **4.3. Eng qadimgi odamlar migratsiyalari**

Xomo xabilis faqatgina Olduvay darasidagina bo'lib qolmay, ancha keng tarqalgan edi.

1961-yili Chad Respublikasining Ndjamen degan joyidan 600 km shimoliy-sharqiy yerdan chadantrop kalla suyagining parchasi topilgan bo'lib 1 million yil qadimiylikka ega. Chadantropning jismoniy tuzilishida avstrolopitekning ham olduvay pitekantropining hali belgilari mavjud. Bu hol uni Xomo xabilisga qo'shish imkoniyatini beradi. Chadantrop suyagi bilan birga hech qanday tosh qurol topilgan bo'lmasa ham, mazkur joydan qadimgi olduvay davriga oid tosh qurollar uchraydi. Olduvay darajasida ajoyib kashfiyotlar 60-yillarining oxiri va 70-yillarda Keniyada va Efiopiyada Turkana ko'li qirg'oqlarida ham arxeologik qidiruv va qazish ishlarini keng ko'lamda olib borish uchun turtki bo'ldi.

U yerga xalqaro ekspeditsiya tashkil etilib, qazish ishlariga fransuz, Amerika va Keniya arxeologlari, antropologlari va poleantropologlari rahbarlik qilishdi.

Xalqaro ekspeditsiya tomonidan to'plangan boy materiallar odamning tarqalishi, ularning sanasi va madaniyati masalalarini hal etishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1970-yili Keniyadagi Koobi-Fora degan joydan shunday madaniy qatlam topilganki, undagi olduvay davriga mansub tosh qurollar kaliy-organ usuli bilan hisoblangan. 3-3,5 million yil ilgari yasalganligi ma'lum bo'ldi. Bu inson yaratgan eng qadimgi va dastlabki tosh quroli edi.

Koobi-Fordaga mazkur topilmalar insoniyatning bundan 2,6 million yillar ilgari hayvonot olamidani ajralib chiqqanligini ko'rsatadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Koobi-Forda avstrolopitek maymunlarining qoldiqlari va boshqa ko'p suyaklar topilgankim, ehtimol ularni bir qismi Xomo xabilisga mansub bo'lishi ham mumkin.

Efiopiyaning Omo daryosi darasidan qadimgi olduvay davriga mansub qurollar topilib, sanasi 1,9-2,2 million yilga borib taqaladi.

Mazkur joydan har xil avstrolopitek maymunlarning suyaklari topilib, ularning sanasi 2-4 million yilni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilari «ishbilarmon odam» ga mansub bo'lishi ham mumkin degan fikr olimlar orasida keng yoyilgan.

Demak sharqiy va markaziy Afrikadan topilgan odam suyaklari, mehnat qurollari insoniyat tarixining ilk bosqichini o'rganish uchun juda katta imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib Sharqiy Afrikadagi so'ngi kashfiyotlar yerda odamning paydo bo'lish davrini qarib 3-3,5 million yilga cho'zib yubordi.

Afrikadan topilgan eng dastlabki ilk qazilma odamlar odam evolyutsiyasining birinchi bosqichini tashkil etadi.

Inson evolyutsiyasining ikkinchi bosqichi arxantropolar bilan bog'liq bo'lib, ular eng dastlabki ilk odamlarga nisbatan yer yuzida ancha keng tarqalgan.

Pitekantrop (grekcha pithecos – «maymun» «odam» ya'ni maymun odam), sinatrop (lotincha sina – «Xitoy», ya'ni xitoy odam), atlantrop rabot odami, geydelberg odamlarini arxantrop'larga kiritish mumkin. 1937-yilda nemis poleontologi Ralffon Kyonigsvald Yavadan pitekantropning bosh miya qopqog'i suyagini topgan. Keyingi vaqtlargacha Yavadagi Modjokertodan to'rtta katta yoshdagi va bitta yoshgina pitekantropning bosh miya qopqog'i, oltita son suyagi, uchta jag' suyagi topildi. 1961-1972-yillarda esa Indoneziya mutaxassislari Yavadan yana pitekantropning to'rtta bosh suyagi va ikkita pastki jag' suyagini topganlar. Yavadan topilgan pitekantrop suyaklari orasida Mojolertodan topilgan bola suyagining sanasi eng qadimiy bo'lib, uni kaliy-argon usuli bilan aniqlanishiga 1 million 500 ming – 1 million 900 ming yil deb hisoblanadi. Qolganlarining sanasi esa 0,5-1 mln yilga borib taqaladi. Har holda ular Olduvay darasidagi homo habilis-«ishbilarmon odam»dan ancha keyin yashagan. Lekin Olduvay pitekantrop'lari bilan zamondosh bo'lishlari ham mumkin. Buni ularning jismoniy tuzilishi, «homo habilis» ga nisbatan rivojlanganligi ham tasdiqlaydi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, pitekantrop'lar topilgan joylarning birontasidan tosh qurollar, ko'mir, gulxan o'rni, hayvonlarning sindirilgan suyaklari topilgan emas. Pitekantrop'larning jismoniy tuzilishiga qarab ular muntazam ravishda qurollar yasay olganlar, deb faraz qilish mumkin. Shuni aytish kerakki, Kenigsvald Janubiy Yavaning Patjitan qishlog'i atrofida qazish ishlari olib borib, to'rtlamchi geologik qatlamdan juda qo'pol ishlangan oddiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollarni pitekantrop'lar yoki ularning uncha uzoq bo'lmagan avlodlari tayyorlagan bo'lishi mumkin. Pitekantrop'lar va ularning uncha uzoq bo'lmagan ajdod va avlodlari faqatgina Yava orolida yashabgina qolmay Janubiy, Sharqiy Osiyo, Yevropaning janubiy va Afrika qit'asida keng tarqalganlar.

Shunday qilib, itekantrop qazilma odamning eng qadimgi vakillaridan biri hisoblangan afrikalik ish-bilarmon odamlardan biroz keyinroq yashagan.

Sinantrop – Xitoy odami ham eng qadimgi qazilma odamlar vakili hisoblanadi.

1918-1923-yillarda Shved geologi G. Anderson Pekindan 45-50 km janubiy-gʻarbdagi Chmoukautyan degan joyida kuzatish ishlari olib borayotib, avval tosh qurol, soʻngra hayvonlar suyagi bilan birga odam tishini topadi. Qazilma ishlariga Kanada olimi D. Blek ham jalb qilinadi. 1927-yili Blekning assistenti Pen Ven-chjun mazkur joydagi Kotsetong Gʻoridan eng qadimgi xitoy odamining kalla suyagini topishga muvassar boʻldi. Qazish ishlari xitoy olimlari tomonidan davom ettirilib, natijada mazkur joydan yana 60 yaqin odam suyagi topilib, shundan 15tasi yosh bolalarniki ekanligi aniqlandi.

Shu narsa muhimki gʻordan sinantrop qoldiqlari bilan bir qatlamda tosh qurollar, gulxan qolddiqlari yirik va mayda hayvonlarning sindirilgan hamda kuygan suyaklari topilgan. Bu hol sinantropning pitekantrop va Olduvaydagi “ishbilarmon odamga” nisbatan ancha taraqqiy etganligini koʻrsatadi.

Sinantropning boʻyi 144-156 sm boʻlib, peshonasi past qiya boʻlgan. Pitekantrop miya qutisining hajmi 850-950 sm<sup>3</sup> boʻlsa, sinantropning esa 1050-1200sm<sup>3</sup> ga teng. Demak sinantrop miyasining hajmi pitekantrop miyasining hajmidan katta, lekin hozirga zamon odami miya qutisini hajmidan esa kichikroqdir.

Shunday qilib sipontronlar bundan 400-500 ming yil ilgari yashab oʻtgan boʻlib, Mindel muzligi davrining ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi va u eng qadimgi qazilma odam vakili hisoblanadi. 1963-1964-yillarda xitoy arxeologlari Pekindan 900 km janubiy-Gʻarbiydagi Lantyan degan joydan lantyan sinantropi, deb atalgan qazilma odam qoldigʻini topganlar.

Lantyan sinantropi koʻp jihatdan chjoukautyandan topilgan sinantroparga yaqin boʻlib, xitoy odamlarining faraziga koʻra ular bundan 500-600 ming yil ilgari yashagan ekanlar. Xitoyning janubiy va Markaziy Vetnamning shimoliy qismida sinantrop singari ibtidoiy odamning suyaklari topilgan. Shunday qilib Xitoy Osiyodagi eng qadimgi odamlar paydo boʻlgan mamlakatlardan biri ekan.

Qazilma odamlar va ularning ajdodlarining faqatgina Osiyo va Afrikada yashabgina qolmay Yevropaning ba'zi joylarida ham tarqalganligi aniqlangan.

Yevropa turli tabiiy sharoitga ega bo'lgan Yevrosiyo quruqligining g'arbiy qismini tashkil etadi.

Janubiy va Markaziy Yevropa har turli hayvonot olami va odamzodning yashashi uchun ancha qulayliklarga egadir. Lekin shunga qaramay Yevropa ilk odamlar paydo joy emas ekan. Ko'pchilik olimlarning fikrlariga ko'ra qit'aga eng qadimgi odamlar ilk tosh asrida bundan 1800 ming yillar ilgari Afrikadan kirib kelgan ekan.

Yevropada qadimgi odamlar yashay boshlaganiga 2 million yil bo'lgan bo'lsa, shuning 3 ming yili yozma manbalar asosida yoritilgan xolos Yozma tarixgacha bo'lgan uzoq va murakkab tarixiy davrni g'arb olimlari tarixgacha bo'lgan deb ataydilar. Bu davr yozma manbalar tarixigacha nisbatan 600 marta uzoqlikka qadimiylikka ega ekan. Yevropa insoniyat paydo bo'lgan beshlikka kirmas ekan. olimlardan ba'zilarining fikricha ilk odamlar paydo bo'lgan markazlardan biri Hindiston bo'lib, ilk odamzod Yevropagacha Hindiston tomondan kirib kelgan ekan. Ammo olimlarning katta bir guruhi insoniyatning ilk vatani Afrika deb hisoblaydilar. Ularning ta'kidlashicha ilk odamlar arxantropalar Yevropaga Hindistondan emas Afrikadan kirib kelganlar degan fikrni ilgari suradilar. Keyingi vaqtda Fransiyadagi San Vals degan joydan qadimiyliги 2,3-2,5 million yilliklarga mansub makon va tosh qurollari topilgan. Fransiyaning Li Rosh Lamber degan joyidan esa 1,5 million yil qadimiylik maydalangan hayvon suyaklari, kvarts va chaqmoq tosh parchalari topilgan. Yana Fransiyaning Shiyyaki degan joyidan daryoning qarog' toshlaridan yasalgan g'urol va hayvon suyaklari topilgan. Shiyyak lning sanasi bundan 1 million 800 ming yil qadimiylikka ega ekan.

Sobiq Yugoslaviyaning Shandalya l degan G'or makonidan 1 million 600 ming yil qadimiylikka mansub qayroq toshdan yasalgan ikkita oddiy qurol, eng qadimgi odamning tishi, sut emizuvchi hayvonlarning, ko'proq miqdorda yovvoyi karkidon,

to'ng'iz va boshqa hayvonlarning suyaklari topilgan bo'lib, suyaklar o'tda kuygan.

G'ordan yog'och ko'mirlari ham topilgan. Olimlarning fikricha g'orda olov bilan tanish va undan foydalangan eng qadimgi odamlar-arxentropalar istiqomat qilganlar. Hayvon suyaklari esa g'orda yashagan eng qadimgi odam o'ljasi ov mahsulotlarining chiqindisi bo'lsa kerak.

Yevropada quyi pleystotsentning ikkinchi yarmida 1,5 million bilan 700 ming yil ilgari yashagan eng qadimgi odam yashaganligi haqida ma'lumot beruvchi ashyolar topilgan. Xususan Fransiyaning Sindel degan joyidan villafrank davriga mansub hayvon suyaklari topilgan. Sinzeldan topilgan buyumlar 1 million yillik qadimiylikka ega ekan. Fransiyaning Le Vallon g'oridan ham 700 ming yillik qadimiylikka ega bo'lgan tosh qurollar va so'ngi villafrank davriga mansub hayvon qoldiqlari topilgan. Xuddi shu yoki undan ham qadimiyroq davrga mansub buyumlar Chexoslavakiyaning Prjezletitsa degan joyidan ham topilgan va uning sanasi 890-750-mingyilliklar bilan belgilangan. Prjezletitsa tosh asri yodgorligi qadimgi ko'l qatlami bo'lib, qatlamlardan eng qadimgi odam makoni bo'lgan ekan. Undan mehnat qurollari, tosh, qadimgi o'choqdan ega ko'mir va hayvonlarning kuygan suyaklari topilgan. Hayvon suyaklari orasida mamont, ot, eshak, bizon va asl bug'ularni ko'pchiligi tashkil etadi. Madaniy qatlamlardan chopper, sindirilgan suyakdan qilingan pichoq va boshqa mehnat qurollari topilgan. Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arxantroparga mansub eng qadimgi odamlarning makonlari Italiya, Ispaniya, Germaniya, Vengriya va boshqa mamlakatlardan ham topilgan bo'lib, ular 600-150 minglar bilan belgilanadi. Yevropada pitekanthrop sinantrop va lentyan sinantropiga yaqin bo'lgan arxantropalar eng qadimgi odamlar qoldig'i 1907-yilda GFR ning uchta joyidan Geydelberg shahri va Mouer qishlog'idan topilgan. Bular orasida geydelberglik odam jag' suyaklari alohida qimmatga egadir. Bu suyak 24 metr chuqurlikdan topilgan.

Geydelberg odami ko'p jihatdan pitekanthrop va sinantropga yaqin turadi. Ba'zi olimlar uni gyunts-mindel davrida ya'ni 600-

900 ming yil ilgari yashagan deb faraz qilmoqdalar. Lekin Geydelberg odami topilgan joydan hech qanday madaniy qatlam borligi aniqlagan emas. Garchi geydelberg odamining jag' suyagi chiqqan joydan sun'iy tarzda tayyorlangan mehnat qurollari topilmagan bo'lsa ham, u shubhasiz eng qadimgi odamning tipik vakili edi, chunki geydelberg odamida odamga xos xususiyatlar ko'p bo'lib, u qurol yasash qobiliyatiga ega bo'lgan.

1958-yili Fransiyaning janubiy-sharqiy Vallon g'oridan 1 million yillik qadimiylikka mansub bo'lgan ko'pgina hayvon qoldiqlari tosh buyumlar, odamning mehnat faoliyati natijasida vujudga kelgan uchirindilar topib o'rganilgan. Bu jihatdan Vengriyaning poytaxti Budapesht shahridan 50 km G'arbda joylashgan Verteshsyollesh manzilgohidan L. Vertesh tomonidan 1963-1965-yillarda arxantrop bosh miyasining bo'lakchasi qadimgi odamlar tomonidan yoyilgan hayvon suyaklari, xilma-xil tosh qurollari va gulxan qoldiqlarining topilishi diqqatga sazovordir. Verteshsellosh manzilgohidan topilgan odam bosh miya qopqog'ining bo'lakchasi ko'p jihatdan sinantropga yaqin turadi, uning sanasi esa 500 ming yil bilan belgilangan. Geydelberg va Verteshselleshberg bilan zamondosh bo'lgan arxantropning tishi qazilma hayvonlar qoldig'i va oddiy tosh qurollar Chexoslavakiyaning poytaxti Praga shahri yaqinidagi Prjezlyatitsadan ham topilgan.

Shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari Shimoliy Sharqiy Afrika territoriyalaridan ham ko'plab topilgan. Jazoirdagi Ternifin, Marokash yaqinidagi Kasablankadagi topilgan ashyolar shular jumlasidandir.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Homo habilis so'zining ma'nosi?
2. Homo habilis qaysi yillarda yashagan?
3. Homo habilisning miya hajmi qancha bo'lgan?
4. Homo habilisning vazni necha kg ni tashkil qilgan?
5. Homo habilisning bo'yi necha metr bo'lgan?



6. Birinchi bo'lib toshdan mehnat qurollari yasashni boshlagan gominid?
7. Olduvay madaniyati paleolitning qaysi bosqichiga oid?
8. Homo rudolfensis qachon yashagan?
9. Homo rudolfensis miya hajmi qancha bo'lgan?
10. Homo rudolfensis so'zining lug'aviy ma'nosi?
11. 1986-yili V. P. Alekseyev qaysi gominidni alohida turga ajratdi?
12. 2001-yili Gruziyaning Dmanisisidan gominidlarining qaysi turi topilgan?
13. Homo georgicusning miya hajmini qancha?
14. Homo georgicusning bo'yi qancha bo'lgan?
15. Homo ergasterlar istiqomat yillar?
16. Homo ergaster ning miya hajmini aniqlang?
17. Olovni kashf etgan qadimgi gominid nomini?
18. Ikki tomoni o'tkirlangan qo'l chopqilarini yasashni boshlagan gominid kim?
19. Indoneziyaning Yava orolidan E. Dyubua tomonidan topilgan gominidning nomini aniqlang?
20. Pitekantrop va Sinantrop bugungi kunda fanda qanday nom bilan yuritilmoqda?
21. Homo erectus lug'aviy ma'nosini nima?
22. Homo ergaster lug'aviy ma'nosini nima?
23. Homo erectusning miya hajmi qancha?

### **Test topshiriqlari**

1. Homo habilis so'zining ma'nosini aniqlang?
  - A) \*Ishbilarmon odam
  - V) Aql idrökli odam
  - S) Qabila boshlig'i
  - D) Barcha javoblar noto'g'ri
2. Homo habilis qaysi yillarda yashagan?
  - A) \*2,4-1,5 mln.
  - V) 5-1 mln.

S) 3,5- 1,1 mln.

D) 3,7-1,4 mln.

3. Homo habilisning miya hajmi qancha bo'lgan?

A) \*650 kub sm

V) 350 kub sm

S) 430 kub sm

D) 500 kub sm

4. Homo habilisning vazni necha kg ni tashkil qilgan?

A) \*45 kg

V) 75 kg

S) 95 kg

D) 105 kg

5. Homo habilisning bo'yi necha metr bo'lgan?

A) \*1,5 m

V) 1m

S) 80sm

D) 56 sm

6. Birinchi bo'lib toshdan mehnat qurollari yasashni boshlagan gominid nomini aniqlang?

A) \*Homo habilis

V) Sahelantrophus tchadensis

S) Orrorin tugenensis

D) Ardipithecus ramidus

7. Olduvay madaniyati paleolitning qaysi bosqichiga oid?

A) \*Ilk paleolit

V) O'rta paleolit

S) So'nggi paleolit

D) V va S javoblar to'g'ri

8. Homo rudolfensis qachon yashagan?

A) \*1,8 mln.

V) 1,7 mln.

S) 1,5 mln.

D) 1,4 mln.

9. Homo rudolfensis miya hajmi qancha bo'lgan?

A) \*775 kub sm

V) 650 kub sm

S) 530 kub sm

D) 550 kub sm

10. Homo rudolfensis soʻzining lugʻaviy maʼnosini aniqlang?

A) \*Rudolflik odam

V) Rudolflik ovchi

S) Ishbilarmon odam

D) Qabila boshligʻi

11. 1986-yili V. P. Alekseyev qaysi gominidni alohida turga ajratdi?

A) \*Homo rudolfensis

V) Homo habilis

S) Paranthropus robustus

D) Paranthropus aethiopicus

12. 2001-yili Gruziyaning Dmanisisidan gominidlarining qaysi turi topilgan?

A) \*Homo georgicus

V) Homo rudolfensis

S) Homo habilis

D) Australopithecus garhi

13. Homo georgicusning miya hajmini aniqlang?

A) \*600-680 kub sm.

V) 700-780 kub sm.

S) 800-880 kub sm.

D) 900-980 kub sm.

14. Homo georgicusning boʻyi qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) \*1,5 m

V) 1,2 m

S) 80 sm

D) 56 sm

15. Homo ergasterlar istiqomat qilgan yillarni aniqlang?

A) \*1,9-1,6 mln

V) 1,7-1,4 mln

S) 1,5-1,2 mln

- D) 1,4 -1 mln
16. Homo ergasterning miya hajmini aniqlang?
- A) \*880 kub sm  
V) 950 kub sm  
S) 1030 kub sm  
D) 550 kub sm
17. Olovni kashf etgan qadimgi gominid nomini ko'rsating?
- A) \*Homo ergaster  
V) Homo rudolfensis  
S) Homo habilis  
D) Australopithecus garhi
18. Ikki tomoni o'tkirlangan qo'l chopqilarini yasashni boshlagan gominid kim?
- A) \*Homo ergaster  
V) Homo rudolfensis  
S) Paranthropus robustus  
D) Paranthropus aethiopicus
19. Indoneziyaning Yava orolidan E. Dyubua tomonidan topilgan ogimidning nomini aniqlang?
- A) \*Homo erectus  
V) Homo rudolfensis  
S) Homo habilis  
D) Australopithecus garhi
20. Pitkantrop va Sinantrop bugungi kunda fanda qanday nom bilan yuritilmoqda?
- A) \*Homo erectus  
V) Homo rudolfensis  
S) Homo habilis  
D) Australopithecus garhi
21. Homo erectus lug'aviy ma'nosini aniqlang?
- A) \*To'g'ri tik yuruvchi odam  
V) Kashf etuvchi odam  
S) Ishbilarmon odam  
D) Aql idrokli odam
22. Homo ergaster lug'aviy ma'nosini aniqlang?

- A) \*Kashf etuvchi odam  
 V) To‘g‘ri tik yuruvchi odam  
 S) Ishbilarmon odam  
 D) Aql idrokli odam
23. Homo erectusning miya hajmini aniqlang?  
 A) \*900-1100 kub sm  
 V) 580-880 kub sm  
 S) 380-680 kub sm  
 D) 780-800 kub sm
24. Homo erectuslarning yashagan davrlarini aniqlang?  
 A) \*1,6 mln-300 ming  
 V) 3,7-1,4 mln  
 S) 4,5-1,2 mln  
 D) 5,4 -1 mln
25. Ashel davrida hayot kechirgan gominidni ko‘rsating?  
 A) \*Homo erectus  
 V) Homo rudolfensis  
 S) Homo habilis  
 D) Australopithecus garhi
26. Homo floresiensis necha ming yil oldin yashagan?  
 A) \*38-18 ming  
 V) 60-50 ming  
 S) 80-70 ming  
 D) 48-38 ming
27. Homo floresiensis qayerdan topilgan?  
 A) \*Indoneziyaning Flores orolidan  
 V) Malayziyaning Flores shahridan  
 S) Ispaniyaning Flores viloyatidan  
 D) Italiyaning Flores provinsiyasidan
28. Homo floresiensis miya hajmini aniqlang?  
 A) \*380 kub sm  
 V) 450 kub sm  
 S) 730 kub sm  
 D) 950 kub sm

29. 1997-yilda Shimoliy Ispaniya G'orlaridan topilgan qadimgi gominid nomini ko'rsating?
- A) \*Homo antecessor
  - V) Homo rudolfensis
  - S) Homo habilis
  - D) Australopithecus garhi
30. Homo antecessor necha ming yil oldin yashagan?
- A) \*800 ming
  - V) 1150 ming
  - S) 70 ming
  - D) 48 ming
31. Homo antecessorning miya hajmini aniqlang ?
- A) \*1000 kub. sm
  - V) 650 kub. sm
  - S) 730 kub. sm
  - D) 850 kub. sm
32. Homo heidelbergensis yashagan davrni aniqlang?
- A) \*800-200 ming
  - V) 990-10 ming
  - S) 700-400 ming
  - D) 480-12 ming

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. p 10-46
2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. P 14-102
3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: Высшая Антропологическая Школа, 2005. 10-55 с
4. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть I. Австралопитеки. Часть II. "Ранние Номо". Москва-Чита: 2002

5. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть III. Архантропы. Часть IV. Гоминиды, переходные от архантропов к палеоантропам. М. 2004

6. Дробышевский, С. В. - Предшественники. Предки. Часть V. Палеоантропы. М., 2006

7. Джохансон Д., Иди М. Люси: Истоки рода человеческого. М., 1984.

8. Anton S.C. The face of Olduvai Hominid 12 // JHE, 2004, V.46, №3, pp.337-347.

9. Asfaw B., White T.D., Lovejoy O., Latimer B., Simpson S. et Suwa G. Australopithecus garhi: a new species of early hominid from Ethiopia // Science, 1999, V.284, pp.629-635.

10. Baab K.L. A re-evaluation of the taxonomic affinities of the early Homo cranium KNM-ER42700 // JHE, 2008, pp.741-746.

11. Backwell L.R. et d'Errico F. Evidence of termite foraging by Swartkrans early hominids // PNAS, 2001, V.98, №4, pp.1358-1363.

12. Belmaker M., Tchernov E., Condemi S. et Bar-Yosef O. New evidence for hominid presence in the Lower Pleistocene of the Southern Levant // JHE, 2002, V.43, №1, pp.43-56.

13. Berger L.R., Ruiters de D.J., Churchill S.E., Schmid P., Carlson K.J., Dirks P.H.G.M. et Kibii J.M. Australopithecus sediba: a new species of Homo-like australopith from South Africa // Science, 2010, V.328, pp.195-204.

14. Berger L.R., Lacruz R. et Ruiters de D.J. Brief communication: revised age estimates of Australopithecus-bearing deposits at Sterkfontein, South Africa // AJPPhA, 2002, V.119, pp.192-197.

15. Berillon G. et Marchal F. From functional interpretation to taxonomic attribution: the OH8 issue // AJPPhA, Annual Meeting Issue 2002, Supplement 38, p.44.

16. Betzler C. et Ring U. Sedimentology of the Malawi Rift: Facies and stratigraphy of the Chiwondo Beds, northern Malawi // JHE, 1995, V.28, №1, pp.23-35.

17. Blumenschine R.J., Peters Ch.R., Masao F.T., Clarke R.J., Deino A.L., Hay R.L., Swisher C.C., Stanistreet I.G., Ashley G.M., McHenry L.J., Sikes N.E., van der Merwe N.J., Tactikos J.C., Cushing A.E., Deocampo D.M., Njau J.K., Ebert J.I. Late Pliocene Homo and hominid land use from Western Olduvai Gorge, Tanzania // *Science*, 2003, V.299, №5610, pp.1217-1221.

18. Boaz N.T. et Howell F.C. A gracile hominid cranium from Upper Member G of the Shungura formation, Ethiopia // *AJPhA*, 1977, V.46, №1, pp.93-108.

19. Braga J. et Thackeray F. Early Homo at Kromdraai B: probabilistic and morphological analysis of the lower dentition // *C.R. Paleo.*, 2003, V.2, pp.269-279.

20. Bromage T.G., Schrenk F. et Juwayeyi Y.M. Paleobiogeography of the Malawi Rift: Age and vertebrate paleontology of the Chiwondo Beds, northern Malawi // *JHE*, 1995a, V.28, №1, pp.37-57.

21. Bromage T.G., Schrenk F. et Zonneveld F.W. Paleoanthropology of the Malawi Rift: an early hominid mandible from the Chiwondo Beds, northern Malawi // *JHE*, 1995b, V.28, №1, pp.71-108.

22. Brown B., Brown F.H. et Walker A. New hominids from the Lake Turkana Basin, Kenya // *JHE*, 2001, V.41, №1, pp.29-44.

23. Calvo-Rathert M., Goguitchaichvili A., Sologashvili D., Villalahn J.J., Bygalo M.F., Carrancho A. et Maissuradze G. New paleomagnetic data from the hominin bearing Dmanisi paleoanthropologic site (southern Georgia, Caucasus) // *Quaternary Research*, 2008, V.69, pp.91-96.

24. Cerling Th.E., Mbua E., Kirera F.M., Manthi F.K., Grine F.E., Leakey M.G., Sponheimer M. et Uno K.T. Diet of *Paranthropus boisei* in the early Pleistocene of East Africa // *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 2011, V.108, №23, pp.9337-9341.

25. Clarke R.J. A *Homo habilis* maxilla and other newly-discovered hominid fossils from Olduvai Gorge, Tanzania // *JHE*, 2012, V.63, pp.418-428.



26. Clegg M. et Aiello L.C. A comparison of the Nariokotome *Homo erectus* with juveniles from a modern human population // *AJPhA*, 1999, V.110, № 1 pp.81-93.

27. Collard M. et Wood B. Homoplasy and the early hominid masticatory system: inferences from analyses of extant hominoids and papionins // *JHE*, 2001, V.41, №3, pp.167-194.

28. Curnoe D. A review of early *Homo* in southern Africa focusing on cranial, mandibular and dental remains, with the description of a new species (*Homo gautengensis* sp. nov.) // *HOMO - Journal of Comparative Human Biology*, 2010, V.61, pp.151-177.

29. Curnoe D., Grun R., Taylor L. et Thackeray F. Direct ESR dating of a Pliocene hominin from Swartkrans // *JHE*, 2001, V.40, pp.379-391.

30. De Ruiter D. KB5223 from Kromdraai B: *Australopithecus robustus* or early *Homo*? // *Am. J. Phys. Anthropol.*, 2007, V.132(S44), p.97.

31. Deino A.L. et Hill A.  $^{40}\text{Ar}/^{39}\text{Ar}$  dating of Chemeron Formation strata encompassing the site of hominid KNM-BC 1, Tugen Hills, Kenya // *JHE*, 2002, V.42, №1/2, pp.141-151.

32. Ferring R., Oms O., Agusth J., Berna F., Nioradze M., Shelia T., Tappen M., Vekua A., Zhvania D. et Lordkipanidze D. Earliest human occupations at Dmanisi (Georgian Caucasus) dated to 1.85–1.78 Ma // *PNAS*, 2011, V.108, №26, pp.10432-10436.

33. Graves R.R., Lupo A.C., McCarthy R.C., Wescott D.J. et Cunningham D.L. Just how strapping was KNM-WT15000? // *JHE.*, 2010, V.59, pp.542-554.

34. Grine F.E., Jungers W.L. et Schultz J. Phenetic affinities among early *Homo* crania from East and South Africa // *JHE*, 1996, V.30, №3, pp.189-225.

35. Grine F.E., Smith H.F., Heesy Ch.P. et Smith E.J. Phenetic affinities of Plio-Pleistocene *Homo* fossils from South Africa: molar cusp proportions // *The first humans: origin and early evolution of the genus Homo, vertebrate paleobiology and*

paleoanthropology. Eds.: F.E. Grine et al. Springer Science + Business Media B.V. 2009, pp.49-62.

36. Haeusler M. et McHenry H.M. Body proportions of *Homo habilis* reviewed // JHE, 2004, V.46, pp.433-465.

37. Haeusler M. et McHenry H.M. Evolutionary reversals of limb proportions in early hominids? evidence from KNM-ER 3735 (*Homo habilis*) // JHE, 2007, V.53, pp.383-405.

38. Harrison T. The first record of fossil hominins from the Ndolanya Beds, Laetoli, Tanzania // AJPhA, Annual Meeting Issue 2002: Supplement 38, p.83.

39. Heinzelin de J., Clark J.D., White T.D., Hart W., Renne P., WoldeGabriel G., Beyene Y. et Vrba E. Environment and behavior of 2.5-million-year-old Bouri Hominids // Science, 1999, V.284, pp.625-629.

40. Hens S.M., Konigsberg L.W. et Jungers W.L. Estimating stature in fossil hominids: which regression model and reference sample to use? // JHE, 2000, V.38, pp.767-784.

41. Hunt K. et Vitzthum V. J. Dental metric assessment of the Omo fossils: implications for the phylogenetic position of *Australopithecus africanus* // AJPhA, 1986, V.71, pp.141-155.

42. Kidd R.S., O'Higgins P. et Oxnard C.E. The OH8 foot: a reappraisal of the functional morphology of the hindfoot utilizing a multivariate analysis // JHE, 1996, V.31, №3, pp.269-291.

43. Kimbel W.H., Walter R.C., Johanson D.C., Reed K.E., Aronson J.L., Assefa Z., Marean C., Eck G.G., Bobe R., Hovers E., Rak Y., Vondra C., Yemane T., York D., Chen Y., Evensen N.M. et Smith P.E. Late Pliocene *Homo* and Oldowan tools from the Hadar Formation (Kada Hadar Member), Ethiopia // JHE, 1996, V.31, №6, pp.549-561.

44. Kimbel W.H., Johanson D.C., Rak Y. Systematic assessment of a maxilla of *Homo* from Hadar, Ethiopia // AJPhA, 1997, V. 103, №2, pp.235-262.

45. Kimbel W., Rak Y. et Johanson D. A new hominin skull from Hadar: implications for cranial sexual dimorphism in

Australopithecus afarensis // AAPA 73rd Annual Meeting Abstracts, April 26, 2003.

46. Kramer A., Donnelly S.M., Kidder J.H., Ousley S.D. et Olah S.M. Craniometric variation in large-bodied hominoids: testing the single-species hypothesis for *Homo habilis* // JHE, 1995, V.29, №5, pp.443-462.

47. Kullmer O., Sandrock O., Kupczik K., Frost S.R., Volpato V., Bromage T.G. et Schrenk F. New primate remains from Mwenirondo, Chiwondo Beds in northern Malawi // JHE, 2011, V.61, pp.617-623.

48. Latimer B. et Ohman J. Axial displasia in *Homo erectus* // JHE, 2001, V.40, p.A12.

49. Leakey M.G., Spoor F., Dean M.Ch., Feibel C.S., Anton S.C., Kiarie Ch. et Leakey L.N. New fossils from Koobi Fora in northern Kenya confirm taxonomic diversity in early *Homo* // Nature, 2012, V.488, pp.201-204.

50. Lee S.-H. et Wolpoff M.H. Habiline variation: a new approach using STET // Theory in Biosciences, 2005, V.124, pp.25-40.

51. Lieberman D.E., Pilbeam D.R. et Wood B.A. Homoplasy and early *Homo*: an analysis of the evolutionary relationships of *H. habilis sensu stricto* and *H. rudolfensis* // JHE, 1996, №2, V.30, pp.97-120.

52. Lordkipanidze D., Ponce de Leyn M.S., Margvelashvili A., Rak Y., Rightmire G.Ph., Vekua A. et Zollikofer Ch.P.E. A complete skull from Dmanisi, Georgia, and the evolutionary biology of early *Homo* // Science, 2013, V.342, pp.326-331.

53. McHenry H.M. et Coffing K. *Australopithecus* to *Homo*: Transformations in Body and Mind // Annual Review of Anthropology, 2000, V.29, pp.125-46.

54. Menter C.G., Kuykendall K.L., Keyser A.W., Conroy G.C. First record of hominid teeth from the Plio-Pleistocene site of Gondolin, South Africa // JHE, 1999, V. 37, №2, pp.299-307.

55. McBrearty S. et Brooks A.S. The revolution that wasn't: a new interpretation of the origin of modern human behavior // JHE, 2000, V.39, №5, pp.453-563.

56. McDougall I., Brown F.H., Vasconcelos P.M., Cohen B.E., Thiede D.S. et Buchanan M.J. New single crystal  $^{40}\text{Ar}/^{39}\text{Ar}$  ages improve time scale for deposition of the Omo Group, Omo-Turkana Basin, East Africa // Journal of the Geological Society, 2012, V.169, pp.213-226.

57. Miller J. M. A. Craniofacial variation in *Homo habilis*: an analysis of the evidence for multiple species // AJPhA, 2000, V.112, № 1, pp.103-128.

58. Miller J. M. A., Albrecht G. H. et Gelvin B.R. Craniofacial variation in *Homo habilis* compared to modern chimpanzees // AJPhA, Annual Meeting Issue 2002, Supplement 38, p.113.

59. Moggi-Cecchi J., Tobias P.V. et Beynon A.D. The mixed dentition and associated skull fragments of a juvenil fossil hominid from Sterkfontein, South Africa // AJPhA, 1998, V.106, № 4, pp.426-466.

60. Pares J. M. et Goguitchaichvili A. On the earliest human occupation in Europe: paleomagnetic constraints // Geofisica International, 2001, V.40, №3, pp.239-242.

61. Pickering T.R., White T.D. et Toth N. Brief communication: cutmarks on a Plio-Pleistocene hominid from Sterkfontein, South Africa // AJPhA, 2000, V.111, № 1, pp.579-584.

62. Prat S., Brugal J.-Ph., Tiercelin J.-J., Barrat J.-A., Bohn M., Delagnes A., Harmand S., Kimeu K., Kibunjia M., Texier P.-J. et Roche H. First occurrence of early *Homo* in the Nachukui Formation (West Turkana, Kenya) at 2.3-2.4 Myr // JHE, 2005, V.49, №2, pp.230-240.

63. Puech P.-F. et Cianfarani F. Interproximal grooving of the teeth: additional evidence and interpretation. Comments // Current Anthropology, 1988, V.29, №4, pp.665-668.

64. Reynolds S.C., Clarke R.J. et Kuman K.A. The view from the Lincoln Cave: mid- to late Pleistocene fossil deposits from

Sterkfontein hominid site, South Africa // JHE, 2007, V.53, pp.260-271.

65. Richmond B.G., Aiello L.C. et Wood B.A. Early hominin limb proportions // JHE, 2002, V.43, pp.529-548.

66. Rightmire G.P. Variation among early Homo crania from Olduvai Gorge and the Koobi Fora region // AJPhA, 1993, V.90, №1, pp.1-33.

67. Ring U. et Betzler C. Geology of the Malawi Rift: Kinematic and tectono-sedimentary background to the Chiwondo Beds, northern Malawi // JHE, 1995, V.28, №1, pp.7-21.

68. Schwartz J.H. et Tattersall I. What constitutes Homo erectus? // Acta Anthropologica Sinica, 2000, Supplement to V.19, pp.18-22.

69. Sherwood R.J., Ward S.C. et Hill A. The taxonomic status of the Chemeron temporal (KNM-BC 1) // JHE, 2002, V.42, №1/2, pp.153-184.

70. Sillen A., Hall G. et Armstrong R. Strontium calcium ratios (Sr/Ca) and strontium isotopic ratios ( $^{87}\text{Sr}/^{86}\text{Sr}$ ) of Australopithecus robustus and Homo sp. from Swartkrans // JHE, 1995, V.28, №3, pp.277-285.

71. Smith Sh.L. Skeletal age, dental age, and the maturation of KNM-WT15000 // AJPhA, 2004, V.125, pp.105-120.

72. Smith H.F. et Grine F.E. Cladistic analysis of early Homo crania from Swartkrans and Sterkfontein, South Africa // JHE, 2008, pp.684-704.

73. Sponheimer M., Alemseged Z., Cerling Th.E., Grine F.E., Kimbel W.H., Leakey M.G., Lee-Thorp J.A., Manthi F.K., Reed K.E., Wood B.A. et Wynn J.G. Isotopic evidence of early hominin diets // PNAS, 2013.

74. Spoor F., Leakey M.G., Gathogo P.N., Brown F.H., Antyn S.C., McDougall I., Kiarie C., Manthi F.K. et Leakey L.N. Implications of new early Homo fossils from Ileret, east of Lake Turkana, Kenya // Nature, 2007, V.448, №7154, pp.688-691.

75. Spoor F., Leakey M.G., Antyn S.C. et Leakey L.N. The taxonomic status of KNM-ER42700: a reply to Baab (2008a) // JHE, 2008, V.55, pp.747-750.

76. Suwa G. A comparative analysis of hominid dental remains from the Shungura and Usno Formations, Omo valley, Ethiopia. Ann Arbor, UMI, 1990.

77. Turner A. et Wood B. Comparative paleontological context for the evolution of the early hominid masticatory system // JHE, 1993, V.24, pp.301-318.

78. Walker A., Zimmerman M.R. et Leakey R.E.F. A possible case of hypervitaminosis A in Homo erectus // Nature, 1982, V.296, pp.248-250.

### **Internet ma'lumotlari**

79. <http://bookz.com.ua>

80. <http://lib.com.ua>

81. <http://www.computerbooks.ru>

82. <http://zipsites.ru>

83. <http://hronos.km.ru/proekty/mgu/index.html>

84. <http://antropogenez.ru>

## V BOB. HOMO SAPIENS VUJUGDA KELISHI VA ANTROPOGENEZ JARAYONNING TUGALLANISHI

### 5.1. Neandertallarning vujudga kelishi, turmush tarzi va mehnat faoliyati

1856-yil esa Germaniya Federativ respublikasining Neandertal vodiysidagi Dyuseldorf shahri yaqinida joylashgan Filgafer g'oridan yer qazish ishlari vaqtida odamning bosh suyak qopqog'i va skeletining bir qancha suyaklari topildi. Mazkur suyaklar Neandertal vodiysidan topilgani uchun shu joyning nomi bilan ataladi.

Filgaferdan topilgan neandertallik odam suyagining qoldig'i o'sha vaqtdagi ko'pgina olimlarning e'tiborini o'ziga tortdi. o'sha davrda yashagan I. K. Fulrot va Shaafgauzenlar tabiatshunos va vrachlarning Bonndagi syezdida neandertaldan topilgan bu skelet qachonlardir o'lib bitgan qadimgi odam tiplaridir, deb aytgan edilar.

Ammo nemis reaksiyon antropologi Virxov odam suyaklarining skeletning topilgan bo'laklari ibtidoiy odamga mansub alkogolizm yoki zahm kasali natijasida nasli buzilgan hozirgi zamon odamiga tegishli degan fikr bilan maydonga chiqdi.

Lekin 1864-yili yana Ispaniyaning Gibraltar bo'g'ozida rayonidan yana neandertal tipidagi qazilma odam suyaklarining qoldig'i topildi. Keyinchalik yer yuzining turli joylaridan neandertal tipidagi qazilma odamning suyaklari ko'plab topildi.

Bular orolida 1887-yili Belgiyaning Spi degan joyi yaqinidagi Bekorosh g'oridan topilgan neandertal odamining suyak qoldiqlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu esa o'sha vaqtdagi



Virxov kabi reaksiyon burjua olimlarining reaksiyon faniga qarshi fikr mulohazalarini noto'g'ri ekanligini isbotlab berdi.

Keyingi vaqtda, ayniqsa so'ngi o'n yilliklar ichida Angliya va Belgiya, Germaniya va Fransiya, Ispaniya va Italiya, Shvetsariya va Yugoslaviya, Chexoslovakiya va Vengriya, MDH va Eron, Turkiya va Afg'oniston, Palastin va Iroq, Xitoy va Indoneziya, Afrika va yer yuzining juda ko'p joylaridan katta-kichik yoshdagi neandertal odamlarining bosh suyaklari, butun-butun skeletlari va boshqa a'zolarining qoldiqlari ko'plab topildi. Mazkur joylarning deyarlik hammasidan neandertal tipidagi odamlarga aloqador bo'lgan ko'plab turar joylarning qoldiqlari, ularning mehnat faoliyatiga oid juda ko'p ashyolar topildi va topilmoqda.

Bu hol neandertal tipidagi odamlarning yer sharining turli rayonlariga keng tarqalganligini ko'rsatadi.

MDH territoriyasida ham neandertal tipidagi qazilma odamlarning qoldiqlari Qrimdagi Simferopl shahridan 25 km

sharqdagi Kiyikkoba g'oridan Staroseile, Zaskolnoe degan joydan 1936-yili esa A. P. Okladnikov tomonidan respublikamiz janubidagi Surxondaryo oblast Boysun tog'i Zovtaloshsoy darasining Teshiktosh g'oridan ham topilgan. Beshiktosh g'oridan 8-11 yoshdagi



neandertal tipidagi bolaning bosh suyagi toshga aylangan holda saqlangan holda topilgan.

MDHda neandertallar yashab o'tgan manzilgohlar 500dan ortiq bo'lib, ularning aksariyatini Kavkaz, Qrim, Azov dengizi bo'ylari, Dnepr, Shimoliy Donets, Dnestr, Soj, Desna, Don, Oka, Volga daryolarining bo'ylarida, janubiy Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmanistondadir.



Shu narsa diqqatga sazovorki, neandertal tipidagi qazilma odam qoldiqlarining aksariyati g'orlardan topilgan bo'lib, ularda madaniy qatlamlar birmuncha yaxshi saqlangan.

Neandertallar, arxantrop ya'ni pitekantrop, sinantrop va Geydelberg qazilma odamlari bilan neandertal-kromanolik qazilma odamlari o'rtasidagi oraliq davrda yashaganlar.

Ular fonda qadimgi odamlar deb ataladilar. Yer yuzining turli burchaklaridan topilgan neandertal odamlarning kalla suyagi, skeleti va boshqa a'zolarining suyak qoldiqlarini har tomonlama chuqur o'rganilishi. Ularning tashqi qiyofasini tiklash imkoniyatini berdi. Neandertallarning tashqi ko'rinishi ko'p jihatdan hozirgi zamon odamlariga yaqin bo'lgan. Bu hol miya qutisining sig'imi hozirgi odamnikiga barobar ekanligini ko'rsatadi. Lekin ularning bosh miyasi, xususan miyasining peshona qismi birmuncha sustroq rivojlangan va oddiyoq tuzilgandir.

Neandertal odamlari miya qutisining sig'imi 900-1800 sm<sup>3</sup> gacha bo'lib, o'rtachasi 1380-1400sm ga teng ekanligini hisobga olsak, ularning kallasi katta ekanligiga qanoat hosil qilamiz. Neandertal odamlari kalla qutisining shakli birmuncha cho'zinchoq bo'lib,



pehonasi qiya, boshining tepa qismi yassi, past bo'lishi ular uchun xarakterlidir. Shu bilan birga ularda qosh ustidagi qabartma ancha oldinga turtib chiqqan. Neandertal odamlarning burunva yuqori jag' suyaklari juda kuchli rivojlangan. Ularda pastki jag' ham yaxshi rivojlanmagan bo'lib, u juda baquvvat, lekinengak-dahan u qadar taraqqiy etmagan edi.

Neandertallarning tishlari kuchli ildizli, katta va qattiq bo'lib, oziqni, xususan go'shtni chaynash uchun moslashgandir.

Tanasining uzunligi, bo'y-basti jihatidan ular zamonaviy odamlardan orqada turgan albatta. Ularning bo'yi 155-160 sm bo'lgan. Lekin ularning skeleti hozirgi zamon odami skeletiga qaraganda baquvvatroq bo'lib, tashqi tuzilishi ko'proq rivojlangan. Bu hol ular muskulining kuchli bo'lganligidan darak beradi.

Neandertallarning umurtqa pog'onasi zamonaviy odamlarniki singari bo'lmay biroz bukilgan bo'lib, oyog'ining boldir suyaklari son suyaklariga nisbatan kaltadir. Bu hol ularning yurish va yugurishda u qadar epchil, chaqqon bo'lmaganliklarini ko'rsatadi.

Xullas neandertal odamlarning tashqi ko'rinishida maymunga xos bo'lgan ba'zi ibtidoiy belgilar mavjud bo'lib, ular hali hozirgi zamon odami darajasiga yetib kelmagan edi. Ular jismoniy jihatdan hozirgi zamon kishisiga bevosita shart-sharoit tug'dirgan taraqqiyotning pitekanthrop va sinantropidan so'ngi bosqichda turardi. Lekin ular arxantrop'larga nisbatan juda ham ilgarilab ketgan edilar. Bu ularning mehnat qurollarining xili vazifasida ham ko'zga tashlanadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, neandertallar Yevropa, Osiyo, Afrikada keng tarqalib, ular xilma-xil jismoniy tipni tashkil qilganlar.

Yevropa neandertallari past bo'yli, kaltabaqay, kuchli muskulli, biroz son bukchaygan, katta boshli, iyaklari sezilarsiz bo'lib, burunlari oldinga cho'chchayib chiqib turgan.

Lekin D. Mak Kaun va boshqalar tomonidan Falastindan topilgan neandertallar esa Yevropa neandertallaridan farq qilib, baland bo'yli bo'lganlar, iyaklari esa zamonaviy odamlarniki singari bo'lgan. Yer yuzida tarqalgan Neandertal odamlarining bir-biridan farq qiluvchi oltita turi ma'lum bo'lib, ular ba'zi xususiyatlari jihatidan o'zaro farq qilganlar. Bu hol irq'lar kelib chiqishidagi dastlabki shart-sharoitlaridan biri edi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, hozirgi mavjud bo'lgan yevropoid, Mongoloid va negroid irq'larini bevosita neandertallarga bog'lab bo'lmaydi. Mazkur irq'lar o'n ming yillarcha keyin, so'ngi tosh davrida neandertal odamidan rivojlanib chiqqan jismoniy

jahatidan hozirgi zamon tipidagi odamlar paydo bo'lgan davrda kelib chiqqan.

Neandertal tipidagi odamlar yashagan davr arxeologik davrlashtirishning ashelning ikkinchi yarmi va muste bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, neandertallar zamonasiga har xil toshdan qurol ishlash, texnikasi avvalgiga qaraganda yuksaldi. Yon-atrofini sindirib silliqlash natijasida yadro ham to'g'ri shaklga

kirib diskka aylanib qoldi. Ulardan sindirib olingan parchalar yupqalashib, uchburchak ko'rinishiga ega bo'ldi.

U davrning muhim qurollaridan sixcha va



eng biri

qirg'ichdir, sixchanning bir uchi o'tkirlangan bo'lib, uchburchakka o'xshab ketar edi.

U go'sht, teri va yog'ochni kesish va bo'laklarga ajratish uchun ishlatilgan. Odamlar uni yog'och (gavron, kaltak) uchiga bog'lab. Nayza sifatida ishlatilgan bo'lsalar kerak. Toshdan qirg'ich yasab, uning ikki tomonidan o'tkirlab qiruvchi va kesuvchi qurol sifatida foydalanilgan. Uning yordami bilan ov qilingan, hayvonlarning go'shti terisidan ajratib olinib, bo'lingan, teri ishlangan, hamda yog'ochni kesishda ham foydalanilgan. Neandertallardagi eng muhim qurollardan yana biri qo'lcho'qmori bo'lib, ular otish kattaroq suyaklarni sindirish uchun va boshqa maqsadlarga foydalanilgan.

Neandertal odamlari toshdani tashqari suyak va yog'ochdan ham oddiy qurollar yasaganlar. Ular yog'ochdan gavronlar, so'yil, nayza asoslari va ayriilar yasaganlar va ular yordamida ov qilganlar. Ular Afrika, Osiyo va Yevropada ancha keng tarqalib,

G'orlarda, ungurlarda, ungurlar tagida va boshqa joylarda istiqomat qilganlar. Ular teri va yungdan kiyim qilabilganlar. Eng qadimgi kishilar kabi neandertal tipidagi odamlar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar.

Lekin ularda ovchilik xo'jaligi ilgariga qaraganda birmuncha yuqori bosqichga ko'tarildi.

Ularning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lib, Ular mamont, bizon, ot, ayiq, zebra, bug'i kabi yirik hayvonlarni ko'proq ovlaganlar. Chunki bu hayvonlar odamlarga juda ko'p go'sht, teri va qurol yasash uchun suyak ham bergan.



Yirik terisi qalin hayvonlarni ovlash juda mashaqqatli bo'lib, albatta bir kishining ishi bo'lmagan. Mazkur yirik hayvonlarni ko'plashib, birgalashib ovlangani, busiz ovning muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emas edi.

Odamlar mamontlarni o'rab olib, tik jarliklarga yoki botqoqliklarga, balchiqlar ichiga haydab borib, ovlaganlar. Odamlar hayvonlarni ta'qib qilib borar ekanlar ular tik qoyalardan yiqilib tushar, botqoq va balchiqlarga botib qolar, shunday qilib ovchilarga o'lja bo'lar edilar. Balchiqqa botib qolgan hayvonlar o'ldirilar, qoyalardan tushib, mayib bo'lgan hayvonlarning go'shtlari nimtalanib manzilgohlarga olib ketilar edi.

U davr odamlari g'or ayiqlarining ustiga tosh tashlab, uchi ayri uzun yog'ochlar bilan ularga ko'plashib hujum qilganlar. Qo'toslar ko'proq ochiq yaylov va cho'llarda yashaganliklari uchun ularni ko'plashib quvish, atrofdagi quruq o'tlarni yoqib, shu tarzda ov qilgan bo'lishlari kerak.

Osiyo, xususan O'rta Osiyoda istiqomat qilgan neandertallar, ayiq, qoplon, ot, tog' echkisi, arxan va boshqa mahalliy hayvonlarni ko'plab ovlaganlar, ularning go'shtini ovqat sifatida iste'mol qilganlar, terilarini yopinib yurganlar. Ulardan polos sifatida ham foydalangan bo'lishlari mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, O'sha davr ibtidoiy kishilari yoz mavsumida yovvoyi daraxtlarning mevalaridan do'lana, yong'oq, olma, tog'olchasi va yesa bo'ladigan boshqa mevalarni ovqat sifatida keng iste'mol qilganliklari shak-shubhasizdir, chunki yovvoyi hayvonlarni hamisha ham muvaffaqiyatli bo'la bermagan.

Ilk odamlarning ba'zi bir guruhlari ayrim vaqtlarda «odamxo'rlik» bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lganlar. Arxeologik topilmalar shundan darak beradi.

1886-yilda professor Kazmir Goriyanovich Kramberger Yugoslaviyadagi Karpina shaharchasi yaqinidagi g'ordan neandertallarning manzilgohini topgan va kavlagan. Mazkur joydagi madaniy qatlamlarning biridan katta gulxan qoldig'i, gulxan va uning atroflaridan olovda kuygan, yondirilgan odam suyaklari topilgan. Bu 10dan oshiq yosh bola va katta kishilarning suyaklari ekanligi aniqlandi. Bu suyaklar o'sha davr neandertallarining suyaklari edi.



Bu hol va davr kishilarining turmushi mashaqqatli bo'lganligini ovning esa hamisha o'ngidan kelavermaganini, oqibat natijada odamlar ba'zan o'z guruhi yoki boshqa guruhdagi



odamlarni so'yib go'shtini iste'mol qilganliklarini ko'rsatadi.

“Odamxo'rlik” fanda kannibalizm termini bilan ifodalanadi. Bunday odat neandertallargacha bo'lgan kishilar orasida ham ro'y bergan bo'lishi mumkin.

Lekin bu hol ibtidoiy odamlar yashagan hamma joyda, keng miqyosida tarqalgan emas albatta.

Tadqiqotlarning guvohlik berishicha, olovdan keng miqyosda foydalanish va uni sun'iy tarzda hosil qilish neandertallar zamonasida mansubdir. Olovni sun'iy tarzda kashf etilishi muste davrida yashagan neandertallarning binobarin ibtidoiy davrning eng muhim kashfiyotlaridan biridir.

Insoniyat jamiyati tarixining paleantropplar davriga kelib olov sun'iy tarzda kashf etilgan ekan, bu insoniyat uchun uning hamma davrlari uchun olamshumul-tarixiy ahamiyatga molikdir.

Olovning kashf etilishining ahamiyati yana shunda ediki, kishilar ilgari ko'proq issiq mintaqalarda yashasalar, endilikda ular yer yuzining sovuqroq qismlariga ham tarqala boshlaganlar. Ashell oxiri va muste davri




odamlari g'orlarda hamda ochiq manzilgohlarda yashab ayiq, bug'i, karkidon va mamont kabi yirik hayvonlarni ovlaganlar. Ravshanki, ayiq va mamont kabi yirik hayvonlarni ovlash 5-6 kishi uddalay oladigan ish emas edi. Ibtidoiy kishilarning katta to'dasi birgalashib qilgandagina bunday hayvonlarni muvaffaqiyatli ravishda ovlash mumkin edi. Mazkur hayvonlar odamlarga go'sht va qurol uchun suyak beribgina qolmay kiyim, boshpana hamda polos uchun teri ham bergan. Yevropada istiqomat qilgan neandertallar o'z boshlaridan quruq va iliq iqlimli riss-vyurm muzliklar aro davrni ham sovuq iqlimli muzlik davrini ham o'z boshlaridan kechirganlar. Shunday ekan, ular hayvon terilaridan oddiy kiyimlar sifatida foydalanganliklari shak shubhasizdir. Ko'p joylarda tosh qirg'ichlar, skripkalar teri ishlashda keng miqyosida foydalanganligidan, terilardan esa kiyim sifatida foydalanganligidan dalolat beradi. Lekin teridan suyak va yog'och igna yordamida teridan kiyim tikish ashell-muste davrida emas, balki yuqori tosh asriga kelib erishilgan bo'lsa kerak. Kiyim, turar joy, olovning kashf etilishi va olovni doimiy ravishda saqlash, ov qilish texnikasining takomillasha borishi, neandertallarga og'ir sovuq iqlim sharoitida yashaganligidan tashqari shimoliy rayonlarga ham berib o'rnashishlariga imkoniyat beradi. Bu hol insoniyatning asta-sekin yer shari bo'ylab keng tarqala boshlaganligidan dalolat beradi. Lekin shimoliy, shimoli-sharqiy Yevropa yerlari, shimoliy, sharqiy va markaziy Osiyoning katta qismi butun Avstraliyada hamda Amerika qit'asi hali odamsiz edi. Mazkur o'lkalarga keyinchalik Osiyodan o'tib borganlar. Shunday qilib, neandertal tipidagi odamlar hozirgi zamon odamlarining bevosita ajdodi bo'lib, eng qadimgi odamlarning avlodi edi.





## 5.2 Homo sapiens sapiensning vujudga kelishi


Homo sapiens sapiens qayerda vujudga kelgani haqida bugungi kunda fanda turli xil mulohazalar mavjud. Paleoantropologlar va arxeologlar odamning dastlabki vatani Afrika ekani haqida bir xil fikr yuritishayotgan vaqtda Homo sapiens sapiensning qayerda paydo bo'lgani haqida bir to'xtamga kelishmadi. Bir guruh



peloantropologlar Homo sapiens sapiensni Afrikada paydo bo'lgan deb fikr yuritishsa yana bir guruh olimlar esa Homo sapiens sapiens dunyoning turli joylarida evolyutsion o'zgarishlar natijasida shakllangani aytishmoqda. Shunday qilib paleoantropolog va arxeologlar hozirgi qiyofadagi zamonaviy odamlarning qayerda paydo bo'lgani haqida qizg'in

bahs olib bormoqdalar. Ushbu bahs munozaralar jarayonida fanda politsentrizm va monotsentrizm nazariyalari va ularning tarafdorlari vujudga keldi. Politsentristlar

zamonaviy qiyofadagi odam Afrika, Osiyo va Yevropada bir vaqtda paydo bo'ldi deb fikr yuritishmoqda. Ushbu



nazariya nemis antropologi Frants Vaydenrax tomonidan tavsiya etilgan. Uning fikricha Yevropada zamonaviy qiyofadagi odamlar Yevropa klassik neandertallaridan, Afrikadagi Homo sapienslar o'sha yerda yashagan neandertallardan paydo bo'lgan degan fikrni ilgari surdi. Lekin so'nggi yillarda topilgan boy paleoantropologik va arxeologik materiallar ko'proq monotsentrizm tarafdorlari haq ekanligini ko'rsatib turibdi. Chunki Homo sapiens tipiga mansub topilmalarning eng qadimgilari Afrika qit'asidan topilgan. Masalan Afrikaning Ndutu (350 – 500-600 ming yillar avval), Ngaloba LH 18 (110-130 – 200-370 – 490 ming yillar avval) Eyasi (drevnee 130



ming yillar avval) Tanzaniyada, Guomde (270-280 ming yillar avval) Efiopiyada, Elie-Springs Keniyada (200-300 ming yillar avval), Florisbad (259 ming yil avval) Janubiy Afrika Respublikasida, Djebel Irxud (160 ming yil avval) va Dar-es-Soltan II (60-90 ming yil avval) Marokashda. Ko'rib turganimizdek xomo sapiensni vujudga kelgan joyi va vaqti haqida Afrika hech kimda shubha uyg'otmaydi.

### Savollar va topshiriqlar

1. Homo neanderthalensis yashagan hududlarni ko'rsating.
2. Teshiktosh g'oridan qaysi gominidning qoldiqlari topilgan?
3. Homo sapiens qachon va qayerda vujudga keldi?
4. Homo sapiens va neandertallar o'rtasida farq bormi?
5. Homo sapiens vatani qayer?
6. Homo sapiensga oid topilmalar qayerlardan topilgan?

### Test topshiriqlari

1. Homo neanderthalensis yashagan davrni to'g'ri ko'rsating?  
A) \*200-28 ming yillar  
V) 900-300 ming yillar  
S) 700-400 ming yillar  
D) 500-50 ming yillar
2. Teshiktosh g'oridan qaysi gominidning qoldiqlari topilgan?  
A) \* Homo neanderthalensis  
V) Homo heidelbergensis  
S) Homo rudolfensis  
D) Homo habilis
3. Homo sapiens qachon vujudga keldi?  
A) \* 195 ming yil avval  
V) 95 ming yil avval  
S) 65 ming yil avval  
D) 125 ming yil avval
4. Homo sapiensning lug'aviy ma'nosi nima?

- A) \* Aql idrokli odam  
 V) Kashf etuvchi odam  
 S) Ishbilarmon odam  
 D) To'g'ri tik yuruvchi odam
5. Homo neanderthalensis birinchi marta qayerdan topilgan?  
 A) \* Germaniyadan  
 V) Fransiyadan  
 S) Ispaniyadan  
 D) O'zbekistondan
6. Qaysi davrda "prizma" texnikasiga asoslangan tosh qurollari keng tarqalgandi?  
 A) \* ilk paleolit  
 V) yuqori paleolit  
 S) muste  
 D) ashel
7. O'rta Osiyodagi tosh davriga oid eng qadimgi makonni aniqlang?  
 A) Selungur  
 B) Qo'tirbuloq  
 C) Teshiktosh  
 D) Ko'lbuloq
8. Obirahmat g'ori qaysi davrga oid ?  
 A) So'nggi paleolit  
 V) ilk paleolit  
 S) muste  
 D) ashel

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. p 10-46
2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. P 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: Высшая Антропологическая Школа, 2005. 10-55 с
4. Л. Б. Вишняцкий. "Неандертальцы: история несостоявшегося человечества". Издательство "Нестор-История". 2010 г.
5. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть I. Австралопитеки. Часть II. "Ранние Номо". Москва-Чита: 2002
6. Дробышевский С.В. Предшественники. Предки? Часть III. Архантропы. Часть IV. Гоминиды, переходные от архантропов к палеоантропам. М. 2004
7. Дробышевский, С. В. - Предшественники. Предки. Часть V. Палеоантропы. М., 2006
8. Джохансон Д., Иди М. Люси: Истоки рода человеческого. М., 1984.
9. Зубов А.А. Естественная история древнего человечества // Природа. 1998. № 1.
10. Зубов А.А. Неандертальцы: что известно о них современной науке? // Этнографическое обозрение. 1999. № 3.
11. Зубов А.А. Неандертальцы: что известно о них современной науке? // Этнографическое обозрение. 1999. № 3.
12. Trinkaus E. Modern Human versus Neanderthal Evolutionary Distinctiveness // Current Anthropology.– 2006. – Vol. 47, N 4. – P. 597–614.
13. Trinkaus E., Shang H. Anatomical evidence for the antiquity of human footwear: Tianyuan and Sunghir //J. of Archaeological Science. – 2008. – Vol. 35. – P. 1928–1933.
14. Wolpoff M.H. Multiregional evolution: the fossil alternative to Edem // The Human Revolution: Behavioral and Biological Perspectives on the Origins of Modern Humans / eds. P. Mellars, C.B. Stringer. – Edinburgh:Edinburgh University Press, 1989. – P. 62–108.
15. Wolpoff M.H. Theories of modern human origins // Continuity or Replacement: Controversies in Homo sapiens Evolution / eds. G. Brauer, F.H. Smith. – Rotterdam: A.A. Balkema, 1992. – P. 25–63.

16. Wolpoff M.H. *Concocting a divisive theory // Evolutionary Anthropology*. – 1998. – Vol. 7. – P. 1–3.
17. Wolpoff M.H., Caspari R. *An unparalleled parallelism // Anthropologie (Brno)*. – 1996. – Vol. 34. – P. 215–223.
18. Wolpoff M.H., Hawks J., Caspari R. *Multiregional Not Multiple Origins // Am. J. of Physical Anthropology*. – 2000. – Vol. 112. – P. 129–136.
19. Wolpoff M.H., Thorne A.G., Smith F.H., Frayer D.W., Pope G.G. *Multiregional Evolution: A World-wide Source from Modern Human Populations // Origins of Anatomically Modern Humans*. – N.Y.; L.: Plenum Press, 1994. – P. 176–200.
20. Wolpoff M.H., Wu X., Thorne A.G. *Modern Homo sapiens origins: A general theory of hominid evolution involving the fossil evidence from East Asia // The origins of modern humans: A world survey of the fossil evidence / eds. F.H. Smith, F. Spencer*. – N.Y.: Alan R. Liss, 1984. – P. 411–483.
21. Wu Liu, Chang Zhujin, Ying Qizhang, Yan Juncai, Song Xing, Wu Xiujie, Hai Cheng, Edwards R.L.,
22. Pan Wenshi, Qin Dagong, An Zhisheng, Trinkaus E., Wu Xinzhi. *Human Remains from Zhirendong, South China, and modern human emergence in East Asia // PNAS*. – 2010. – Vol. 107, N 45. – P. 19201–19206.
23. Wu R.K. *The reconstruction of the fossil human skull from Jinniushan, Yingkou, Liaoning Province and its main features // Acta Anthropologica Sinica*. – 1988. – Vol. 7 (2). – P. 97–101.
24. Wu Xinzhi. *On the origin of modern humans in China // Quaternary Intern*. – 2004. – Vol. 117. – P. 131–140.
25. Zaidner Y., Ronen A., Burdukiewicz J.M. *L'industrie microlithique du Paleolithique inferieur de Bizat Ruhama, Israel // L'Anthropologie*. – 2003. – Vol. 107 (2). – P. 203–222.
26. Zilhao J. *Anatomically Archaic, Behaviorally Modern: the Last Neanderthals and their Destiny*. – Amsterdam: [s. n.], 2001. – 99 p.

# VI BOB. ODAM VUJUDGA KELISHINING IJTIMOIIY ASPEKTLARI

## 6.1. Irqlarning vujudga kelishi

Antropologiya fanining eng muhim muammolaridan biri odamzod irqining kelib chiqishini o'rganishdan iboratdir. Odamzod irqi uning shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyati tarixining uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Antropologiya va arxeologiya fani qo'lga kiritgan dalillar irqlarning shakllanishi hozirgi zamon jismoniy tipidagi odamlarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda sodir bo'lgan, deb aytishga imkon bermoqda.

So'nggi neolitdayoq odamzod irqining uchta turi – yevropoid, negroid va mongoloid irqlari shakllana boshlagan. Bu jarayon ham uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Irqlar nasldan-naslga o'tuvchi tashqi fizik xususiyatlarga ega bo'lgan tarixiy tarkib topgan turli xil odamlardan tashkil topadi. Odamlardagi irqiy belgilar aytganidek, azaliy bo'lmay balki ularning turli yerlarga tarqalishi, turli xil geografik omillar ta'siri ostida va tarixiy tarkib topgan, shart-sharoitlar natijasida paydo bo'lgan xususiyatdir. Yevropada so'nggi paleolitda paydo bo'lgan Kromanyon tipidagi odamlar yevropoid irqining tipik vakili hisoblanadi.

Baland bo'ylik, kalla suyagining cho'ziqligi, qovoq usti qabartma suyagining yo'qligi, keng yumaloq yuzlilik, pastki jag'ning to'laligi va iyakning yaxshi rivojlanganligi yevropoid irqining o'ziga xos xususiyatidir.

Yevropoid irqining asosiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bosh suyaklari Fransiyaning Kro-Manyon, Shanselad, Komb-Kapell, Orinyak, Angliyaning Paviland, Italiyaning Kavilon, Barma Grande, Bausso de-Torre, Shimoliy Afrikaning Afalu-bu-Rummel, Maktaal-Arbi, Assillar, Voronej shahri yaqinidagi Kostenka, Qrimdagi Murzak-Koba, Fotma-Koba, Yaqin va O'rta Sharqdagi bir qancha joylardan topilgan va o'rganilgan.

Lekin yevropoidlar asosan Yevropada shakllanib kengroq tarqalgan. So'ngi paleolitda yevropoid irqidan tashqari negroid irqining ham bo'lganligi fanga ma'lum.

Bu irq vakillari Kromonyonlardan bo'y-yuzasining pastligi bilan va boldirlarining uzunligi, basharalarining yapaloqligi, tishlarining so'yloqligi, sochlarining qora, jingalakligi va iyaklarining o'rtacha taraqqiy qilganligi bilan ajralib turadi.

Negroid irqining vakillari Italiyaning Grimaldi, Saxroyi Kabirdagi Asselyar, Kostenkadagi Markina gora, Falastin va O'rtayer dengizi havzasidagi ba'zi joylardan ko'plab topilgan.

So'ngi paleolit davrida Markaziy Osiyo, Sibir va unga tutash bo'lmagan joylarda mongoloid irqiga mansub bo'lgan odamlar yashagan. Bu irq vakillari yuz bichimining kattaligi, oldinga tomon chiqib turishi, yonoqlarining o'siqligi yon tomonga biroz bo'rtib chiqib turishligi shu tufayli yuzning yapaloqroq bo'lishi, ko'zning biroz qisiqligi, yuqori qovoq burmasining kuchli rivojlanganligi burunning o'rtacha kenglikda bo'lishi va qansharning pastligi bilan xarakterlanadi. Mongoloid irqi vakillarining qazilma suyaklari Krasnoyarskdagi Afontova Gora P, Pekin yaqinidagi Chjoukoudyanning yuqori g'oridan topilgan. Keyingi vaqtda Uzoq Sharq, Sharqiy Sibir, G'arbiy Sibir, Mangoliya, Xitoy va boshqa joylardan mongoloid irqiga mansub bo'lgan juda ko'p kalla suyaklari, butun-butun skeletlari topildi va topilmoqda. Shuni nazarda tutish kerakki, mazkur qadimgi irqlar hozirgi zamon irqlariga nisbatan bir-birlaridan uncha ko'p farqlanmaganlar. Biroq so'ngi poleolit odamlarining ayrim vakillarida har xil irqqa oid alomatlar paydo bo'la boshlagan. Mutaxassislarning aniqlashicha, ibtidoiy jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida turli odamlar yashab turgan tabiiy sharoit, geografik muhit muhim ahamiyat kasb etgan. Antropolog Y. Y. Roginskiy negroid irqining odamlarining ilk davrdan boshlab janubiy kengliklarida issiq, serquyosh o'lkalarda yashaganligi bilan bog'laydi.

Arxeolog S. A. Semenov mo'g'ul irqidagi bo'rtgan qovoq, epikantus va qisq ko'zlarining dastlab paydo bo'lishida tabiiy muhitning katta rol o'ynaganligini isbotlab bergan.

Markaziy Osiyo va unga shimol tomondan yondoshgan Sibirning arktik rayonlari mo'g'ul irqi dastlab paydo bo'lgan o'lkalardir.

O'z-o'zidan ravshanki, Markaziy Osiyo uchun uzoq davom etadigan qattiq shamollar va kuchli qor hamda qum bo'ronlari xarakterlidir. Bu bo'ron va shamollar to'xtaganda esa havo toza, tiniq bo'lib, quyosh butun nurini sochib turgan, hamda ko'zni kattaroq ochib yurishga imkon bermagan.

Shu tufayli mazkur joydagi aholida mo'g'ul irqiga xos bo'lgan qisq ko'zlilik va qalin qovoqlilik alomatlari paydo bo'la boshlagan.

Shunday qilib, irqlar va irqiy ayirmalar bir necha o'n ming yillar davomida mahalliy sharoitlarning odam tashqi qiyofasiga ta'siri ostida shakllana borgan va rivojlangan hamda nasldan naslga o'tgan. Hozir yer yuzida yevropoid, negroid va mongoloid irqlarining shahobchalari keng tarqalgan.

Negroid irqi – qora irq ham deb yuritilgan. Ular asosan Afrika, Avstraliya va Okeaniyada keng tarqalgan. Ularning soni 300 million kishidan oshiq bo'lib, jahon aholisining 10 foizini tashkil qiladi.

Yevropoid irq, jonli tilda uni “Oq irq” deb ham ataladi. Mazkur irq vakillari 1750 millionga yaqin bo'lib, yer aholisining 53ni tashkil qiladi.

Mongoloid irq, uni sariq ham deyishadi. Mongoloid irqining vakillari Osiyo, Amerika va Okeaniyada keng tarqalgan bo'lib ularning soni 1,220 million kishidan oshiq bo'lib, yer yuzi aholisining 37 % ga yaqinini tashkil etadi.

Irq bu insonni faqatgina biologik farqlanish belgilariga ko'ra ahamiyatini hisobga olib ajratishdir. Klassik irqiy belgilar tashqi ko'rinishda quyidagi belgilar bilan farqlanishi mumkin: ko'z rangi va shakli lab, burun, soch, teri rangi, yuz tuzilishi, bosh shakli. Odamlar bir-bir;arini asosan yuz belgilaridan tanib olishadi. Yuz belgilari muhim irqiy belgi hisoblanadi. Shunigdek, tana tuzilishi – bo'y va og'irlik, qaddi-qomat yordamchi vazifani bajaradi. Lekin tana belgilar irqiy belgilar ichida sharoit nuqtayi nazaridan

o'zgaruvchan hisoblanadi. Shuning uchun yuz belgilari asosiy irqiy belgisi xususiyat sifatida olingan.

Biologik va ijtimoiy belgilar o'rtasidagi bog'liqlik yo'qligi hisobga olib insonlar guruhini turlicha usullarda tasniflarga ajratishga to'g'ri keladi.

Qadimdan o'z-o'zini anglagan, o'z mavqei belgilab olgan odamlar guruhini etnos deb atash mumkin. Bu, asosan til, madaniyat, an'ana, din, madaniy-xo'jalik turi amalga oshirishda farqlanishiga qarab belgilanadi. Bu hodisalar odamlarning biologik xususiyati bilan bog'liq bo'lmaydi. Biologik va ijtimoiylik hodisasi faqatgina tarixiy bog'liqlik hisoblanadi.

Odamlar u yoki bu etnik guruhga birlashib ular asta sekinlik bilan millatni tashkil etadi. Qabila – insonlar eng oddiy ijtimoiy-etnik tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Millatlarni birlashtirib xalqni tashkil qilishi ijtimoiy tashkilotning eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Bir kichik qabila boshqa qabila bilan odatda bir antropologik turga kiradi va u yoki boshqa tomondan qarindoshlik darajasida bo'ladi. Bir xalqning vakillari antropologik turga ko'ra turlicha ham bo'lishi mumkin.

Atigi bundan bir necha ming yil ilgari yer yuzi aholisi bunchalik ko'p va zich joylashmagan edi. Odamlar o'zlashtirgan yerlar hozirgisidan kam farq qilgan. Odamlar ilk paleolit davridan boshlab sayyoramizning yashash mumkin bo'lgan joylariga yetib borishgan. Shunday holatlar ham bo'lganki ajralib qolgan guruhlar boshqa aloqalarni uzoq vaqtga yo'qotgan. Tashqi dunyo bilan aloqa mavjud bo'lmasligi insonlar turlicha darajadagi farqlanishlar sharoitida rivojlanishiga olib kelgan. Bunga ikki sabab bo'lgan bo'lishi mumkin biri geografik uzoqlik, ikkinchisi ijtimoiy omil.

Odatda insonlar guruhining boshqa guruhlardan ajrab qolishiga orollar, turli tog' vodiylari, o'tib bo'lmas o'rmonlardan makon topishlari sabab bo'lgan. Ajralishlar turlicha masshtabda bo'lishi mumkin. Misol uchun Janubiy va Shimoliy Amerika hindular deyarli ming yildan ortiq vaqt davomida insoniyatning boshqa dunyosidan ajralgan holda yashadi.



Bundan tashqari And va Amazonka selve qabilalari boshqa hindu qabilalaridan ajragan holda yashagan. Avstraliya aborigenlari boshqa dunyo bilan ming yillar ajragan holda yashagan shuningdek qit'ada alohida geografik barerlar ham mavjud bo'lganki misol pigmey qabilalari faqat qit'aning sharqiy qirg'oqlarida berrinoslar tog'larda istiqomat qilishgan.

Aniq bir insoni ko'rishlarini tavsiflab uning u yoki bu irqga mansubligi aniqlash tipologik yondashuv hisoblanadi. Buning tarafdorlari irqlarning o'ziga xos xususiyati namunalariga qarab turlarga ajratishni ko'zda tutadi. Har bir individ qandaydir xususiyatiga ko'ra u yoki bu irqiy turga mansub bo'ladi. Misol qalin lablar va katta burunlar, jingalak sochlilik va qora tanlilik negroid irqga mansublikni bildiradi. Shunday sxemaga ko'ra insonlarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Bu yondashuvga murakkablik shundaki oq tanli bo'lgan insonlarni qaysi irqga mansubligini aniqlash qiyinligidadir. Chunki ozgina o'xshashlik farqlarida adashish aka-ukalarni ham boshqa boshqa irqlarga ajratib ko'rsatish olib kelishi mumkin. Bunday belgilar va turlarning soniga qarab insonning irqini aniqlashtirish o'zgarishi mumkin.

### **Populatsion konsepsiya**

Irqshunoslikda populyatsion konsepsiya juda ahamiyatli hisoblanadi. Unga ko'ra irq – bu populyatsiyalar majmuidir. Aniq bir insonda u yoki bu irqga mansubligini individual xususiyatiga ko'ra emas u yoki bu populyatsion omillarga tegishligiga qarab turlanadi.

Irqiy belgilar avloddan avlodga kompleks tarzda meros bo'lib ham o'tmasligi mumkin. Juda ko'plab evolyutsion va populyatsion jarayonlar tufayli irqiy belgilar noaniq bo'lib borishi ham mumkin.

Ba'zida irqlar bir bir biridan juda farq qiladi ularni adashtirib yuborish mumkinmasdek tuyuladi. Lekin bunday emas. To'g'ri Markaziy Afrika pigmeylarini Tibet aholisidan farqlash mumkin, lekin Kong ova Mekongada juda o'xshash odamlarni uchratish

mumkin. Turli xil geografik sharoitlardagi odamlarni o'rganib, ularda ba'zi bir irqiy belgilarda o'xshashlik borligini aniqlash mumkin.

□ Paleolit davri yakunida (taxminan 15 ming yil oldin) yerdagi odamlarning umumiy soni taxminan 3 mln atrofida bo'lgan.

□ 4-5 ming yil avval yerdagi aholi taxminan 25 mln kishiga ko'paygan.

□ ikki ming yil oldin yer yuzi aholisi 150-200 mln kishiga yetgan. Arxeolog va paleontolog mutaxassislarning fikrlaricha, bu davrda asosiy aholining 70 % Osiyoda yashagan.

□ Milodiy eraning oxirgi XIX asri mobaynida yer shari aholisi 10 marta ko'paygan .

□ 1500-yildan 1750-yilgacha aholi soni taxminan 300 mln kishiga ko'paygan bo'lsa, 1750-yildan 1900-yilgacha 910 mln ga ko'paygan. Aholi sonining intensiv o'sib borish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmiga taalluqli bo'lib, bu davrda odamlarning o'rtacha yashash yoshi oshgan.

□ Yer shari aholisi notekis joylashgan bo'lib, 70 foiz aholi quruqlikning atigi 7 foizidagina istiqomat qiladi.

Sharqiy yarimsharda 80 foiz va janubiy yarimsharda esa 20,0 foiz aholi yashaydi.

## **6.2. Irlarning shakllanish nazariyalari va konsepsiyalari**

Tarixiy konsepsiya: irqlarning tarixiy konsepsiyasi antropolog olim Bunak tomonidan ilgari surilgan. Unga ko'ra irq – tarixiy kategoriya darajasining cho'qqisi hisoblanadi. Modomiki, irqlar doimiy rivojlanish sharoitida ekan, har bir tarixiy davrda o'zining irqlari mavjud bo'ladi. Qadimgi arxantrop va neandertal odamlarining ham o'ziga xos irqlari mavjud bo'lgan. Bunakning fikriga ko'ra, irqlarning o'zgarish jarayoni to'xtovsiz yuz beradi va irqlarining bir-biri bilan qo'shib ketishi tahlil qilish ham ko'p ahamiyatga ega bo'ladi.

Antropolog olimi V. P. Alekseyev “irqlarni vujudga kelishi va mavjud bo‘lishi ularning tasniflanishi” borasida quyidagicha modelni taklif etadi. U ilk paleolit davrida irqlar vujudga kelish ikki o‘choqlari mavjud bo‘lgan va turli darajadagi irqlar shakllanishi aynan shu davrga borib taqaladi deb tushuntirish beradi. Bu o‘choqlarni u birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarga bo‘lib chiqqan. Bunda u populyatsion jarayonlarning prinsiplariga qarab darajalangan.

Irqlar shakllanishining dastlabki o‘chog‘i katta irqlar yuzaga kelishining markazi hisoblanadi. Ikkinchisi esa kichik irqlar uchun o‘choq.

Har bir alohida o‘choqda zamonaviy irqlarda asos bo‘lgan, muayyan irqiy belgilarning kompleksi mavjud bo‘lgan. Mavjud o‘choqlar bir-biridan to‘laligicha ajramagan holda bo‘lgan.

Irqlarni kelib chiqish tarixini turli mamlakatlardagi genetik ma’lumotlarni bir-biriga solishtirish orqali ham amalga oshirish mumkin. Haqiqatdan ham aksariyat ko‘pchilik genlarda tasodifiy tanlov asosida olingan odamlar guruhida ular o‘rtasida hech qanday farq yo‘q.

Irqlar mavjud emasligi borasidagi noreallik aksariyat morfologik belgilarning geografik taqsimoti va individual o‘zgaruvchanlik xususiyatlari bilan bog‘lash mumkin.

Irqlarni tasniflashning ko‘plab turlari mavjud. Ular asosan belgili xususiyatlarni farqlanishiga qarab guruhlangan va tasniflangan.

Irqiylar sxemalarni shartli ravishda ikki katta guruhga ajratish mumkin: belgi xususiyati bilan cheklangan; belgilarning o‘zgarish mumkinligiga qarab, irqlarni bunday turda tasniflash borasida yorqin sxemalardan biri polyak antropologi Y. Chekanovskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U ishlatgan belgilar va ularning tarkibiga qarab uning sxemasi ham faqat shartli ekanligi bilaniz. Shunga qaramay irqlarga oid insoniyatning umumiy tushunchasidan farqli ekanligi ko‘ramiz.

Ikkinchi tasniflash turida ochiq belgilar to‘plamiga qarab tuzilgan sxemalarni ko‘rishimiz mumkin. Irqlarning geografik

joylashuvi tasniflashdagi asosiy qoida hisoblanadi. Dastlab irqqlarning dunyo xaritasida egallagan o'rnini aniqlanadi va keyin ular ichida alohida belgilariga ko'ra yana turlarga ajratiladi.

Antropolog olim Daniker irqqlarni belgi turlariga qarab, antropologik xilma-xillikda guruhlariga ajratgan. Danikerning sxemasi boshqa antropolog olimlarning qarshiligiga uchragan bo'lsa ham hozirgi zamonaviy irqiy munosabatlarga to'la javob beradi. U dastlab 6 asosiy undan so'ng 29ta ikkinchi darajalari irqqlari farqlanishlarini keltirib o'tgan. Uning 1902-yilda yaratgan jadvalida faqatgina biologik belgilar hisobga olingan.

Antropologlar aytishadiki irq madaniy va ijtimoiy jihatdan yaratilgan deb, ular insonlar ijtimoiyligi yaratganligi nazarda tutishib biologik mavjudlik emas deb ta'kidlashgan. Irq etnik mansublikka o'xshab biologik reallik emas madaniyat kategoriyasiga kiradi deb ta'kidlashgan.

Irqchilik ijtimoiy va siyosiy jihatdan ko'p ishlatiladigan termin bo'lib biologik tushunchalar orqali bir guruhning boshqa guruh ustidan o'zini ustun qo'yishidir. Irqchilik biologik farqlanishni o'z ichiga olib xalqlar o'rtasidagi munosabatlarga rahna solishga sabab bo'luvchi tushuncha hamdir. Dunyodagi har bir nuqtasidagi irqiy jihatdan tasniflash yaxshi mazmunga ega deb tavsiflanmaydi. Bu odatda ma'lum bir guruh odamlarning boshqa biridan ustun qo'yishini anglatadi. Shu sababdan agar hatto u fuqarolik tushunchalarida biologik tushuncha bo'lsa ham irq biologik mansublikni ifodalashi qiyin. Irq borasida bunday tushunish olimlar orasidan ko'ra keng jamoatchilik orasida muhimroq hisoblanadi. Antropologlar bunga boshqalarga qaraganda fundamental tarzda yondashishdan yiroq bo'lishadi.

Haqiqat shuki qadim zamondan beri odamlar yuqori va past turuvchi irqqlar mavjudligiga ishonishgan va bu ishonishlar hozirgi zamonaviy jamiyatlarda qahr va g'azabni uyg'otmoqda. Bu ozchilik guruhlarining ko'pchilik tomonidan eksplutatsiya va ustunlik qilishlarining asosiy manbai bo'lib kelgan.

Lekin inson bolasi dunyoga kelgandan keyin o'z-o'zini, atrof-muhitni dunyoni bilishi, o'qishi, o'rganishi, tarbiyalanishi, diniy va

dunyoviy ilmlarni egallashi, diniy, axloqiy, estetik, badiiy, huquqiy, siyosiy qarashlarga ega bo'lishi, o'zining ichki ma'naviy dunyosini hosil qilish, mustaqil fikrlovchi shaxsga aylanishi kabi uning ma'naviy-ruhiy jihatlari ham borki, bularsiz uning insonligi mumkin bo'lmaydi.

Umumiy ko'rinishlariga ko'ra irqqlar biologik farqlanishlari bilan ahamiyatli deb biladigan madaniy kategoriyadir. Bundan tashqari irqni biologik atama deb tushunish bir muncha kamsitish hamdir. Ya'ni bu boshqa ilmiy fakt sifatida qabul qilinmadi.

Klassik irqiy belgilarni bu nuqtayi nazarni yoqlovchilar rad etadilar. Ular irqiy belgilar murakkab genlar orqali avloddan avlodga o'rib boradiki buni turli xil yoki bir xil ekanligi hozirgi fan hali hamon o'rganish qobiliyatiga ega emas.

G'arb tadqiqotchilarning irqiy reallikni rad etishi G'arbiy Yevropadagi va Shimoliy Amerikadagi irqchilik munosabatlarining xavotirli holati bilan bog'liq. Oxirgi vaqtlarda MDH mamlakatlarida ham irqchilik muammolari ko'zga tashlanmoqda. AQShning ko'plab shtatlarida qora tanli va kelib chiqishi Lotin Amerikalik bo'lgan aholi soni bo'yicha ko'pchilikni tashkil etadi, Yevropadagi immigrantlar asosan G'arbiy Afrika va Yaqin Sharqdan kelishgan, shuning uchun u yerlarda irqiy munosabatlar juda nozik masala hisoblanadi.

Yevropa va Amerikada siyosiy va iqtisodiy elita vakillarini kelib chiqishi yevropaliklarga borib taqaladi. Shu sabab qolgan irq vakillari O'zini ozchilik his qilib kamsitilgandek tuyulishi mumkin. Oxir oqibat bu irqchilikka sabab bo'lishi mumkin. Tabiiyki hukumat jamiyatdagi bu kasallikni davolash uchun har qanday chorani ko'radi. Ko'pincha siyosiy maqsadlarda "negr" so'zi "Afro-Amerikalik"ka, "Hindu" so'zi "tub amerikalik" so'zlariga almashtirilib ishlatiladi.

Bu holat ham u yerdagi antropologiya faning nuqtayi nazariga ham bevosita ta'sir etgan. Irq bilan bog'liq tadqiqotlar hamma darajada tanqidga va ta'qiqqa uchramoqda. Fanda irqning mavjud emasligi bilan ular ijtimoiy muammoni oldini olishni ko'zlamoqda.

Irqlar farqlanishi global miqyosda anglash 1960-yillardan boshlab yuzaga kela boshladi. Biroq irqchilik irqiy o'zini ustun qo'yish natijasining ijtimoiy tashkil etishdir. AQSh 1930- va 1940-yillar mobaynida bir qancha ijtimoiy antropologlar irqchilikni darajasini o'rganishib uning shimoldagi qora tanlilar gettolari yuzaga kelishi va segeratsiyasi jarayoni tahlil etishgan. Bundan tashqari antropologlar irqiy jamiyatlarning tarixiy shakllanishi, irqiy kategoriyalarni mahalliy va siyosiy iqtisodiy darajada qanday amal qilishi o'rganishgan.

AQShda olib borilgan tadqiqotlar irqiylik xususiyatidan ko'ra etnik mansublikka qaratilgani bilan farqlanadi. Yevropa va Shimoliy Amerika jamiyatlaridagi multi kulturilizatsiya jarayoni 1990-yildan boshlab vaziyatni o'zgarishiga sabab bo'lgan. Dunyoning repressiv rejimlaridan o'zini qochqin sifatida Yevropa va Amerikada qochqin sifatida panoj topishi bu yerlardagi etnik va irqiy kamsitilishlarga yo'l qo'yilmaydigan ijtimoiy tizimlar mavjud degan tushunchalar beriladi.

Bunday sharoitda antropologlar faqatgina yangi mavzudagi tadqiqotlarga emas, irqchilikning jamiyatga ta'siri va uning insitutlashuvi masalasini o'zlarining fanining ichiga kiritishi zarurati ham tug'iladi.

## **Savollar va topshiriqlar**

1. Irqlar haqidagi tushuncha.
2. Insoniyatning populyatsion rang-barangligining evolyutsion qimmati.
3. Irqlar va intellekt.
4. Millat va irq.
5. Etnik antropologiya.
6. Irq va irqchilik hozirgi kundagi ahamiyatini bayon eting?
7. Irqlarning vujudga kelishi borasidagi ilmiy qarashlar?
8. Irqlikga oid nazariyalarning turfa xilligi nimada?
9. Irqlarni tasniflash borasidagi qarashlarni bayon eting?

10. Irqiy munosabatlar muammosini va irqchilikning zamonaviy ko'rishlarini izohlang?

### Test topshiriqlari

- Ibtidoiy irqiy belgilar qachon shakllangan?
  - \*So'nggi paleolitda
  - Ilk paleolitda
  - O'rta paleolitda
  - Mezolitda
- So'nggi paleolitda necha irq shakllangan edi?
  - \*Ucha
  - Ikki
  - Yagona
  - To'rtta
- Negroid irqining ilk markazi
  - \*Afrika va Avstraliya
  - Amerika
  - Yevropa
  - Osiyo
- Mo'g'il irqining ilk markazi?
  - \*Markaziy Osiyo
  - Janubiy Osiyo
  - Amerika
  - Madagaskar
- Amerikaning tub aholisi qaysi irqqa mansub
  - \*Mo'g'il
  - Negroid
  - Avrolid
  - Veddoid
- 1965-yilda kashf etib o'rganilgan yodgorlik-Verteshsellesh yevropaning qaysi mamlakatida joylashgan?
  - \*Vengriyada
  - Italiyada
  - Bolgariyada

D. Ruminiyada

7. Tarixni ashyoviy manbalar asosida o'rganadigan fan?

A.\*arxeologiya

V. antropologiya

S. etnografiya

D. xronologiya

8. So'nggi paleolit necha kichik davrga bo'linadi?

A.\*3 V.2 S.4 D.5

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. p 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. P 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: "Высшая антропологическая школа", 2005. Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П. Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. "Наука", 2012. Стр. 3-10.

5. Introduction to Sociocultural Anthropology. Zerihun Doda . Debub University. 2005

6. Encyclopedia Of Social And Cultural Anthropology. Edited by Alan Barnard Jonathan Spencer. - London & New York, 2002.

7. Антропология. Алексеева Т.И. Богатенков Д.В., Дробышевский С.В. Учебно-методический комплекс - 2004.

8. Small Places, Large Issues An Introduction to Social and Cultural Anthropology. Thomas Eriksen 2001

9. Method In Social Anthropology Selected Essays by K. R. Radcliffe-Brown

10. Edited by M. N. Srinivas. The University Of Chicago Press 1998



## II BO‘LIM. OLD TARIX

### I BOB. OLD TARIX FANINING PREDMETI VA UNING BOSHQA FANLAR TIZIMIDAGI O‘RNI

#### 1.1. Old tarix fanining predmeti va boshqa fanlar bilan aloqasi

Tarix arabcha so‘z bo‘lib, tabiat va jamiyatdagi o‘tmish voqealar, voqeylik degan ma‘nolarni anglatadi. Uning ulug‘ligi shundaki, bizga ma‘lum bo‘lgan fanlarning hammasi tabiat va jamiyat qo‘ynida tug‘ilgan va tug‘iladi.

Tarix tabiat va jamiyat tarixidan iborat bo‘lib, ular bir-birlari bilan uzviy ravishda bog‘langan. Tabiat tarixi yer va koinotdagi barcha narsalar haqida, jamiyat tarixi esa bashariyat-inson faoliyati haqida bahs yuritadi. Jamiyat tarixi tabiat tarixining davomidir. Shuni ta‘kidlamoq joizki, koinot tarixi cheksiz, chegarasizdir. Yer tarixi esa 5,5-5 milliard yilga teng. Yerdagi tirik mavjudotlar tarixi esa 3,3-3 milliard yillik qadimiylikka ega. Boshqa tirik mavjudotlar kabi inson ona yer farzandi hisoblanadi.

Olimlarning fikricha, bashariyat tarixining ilk bosqichi 4-4,5 million yilga borib taqaladi. Ammo bashariyat tarixi yer va boshqa tuban mavjudotlar tarixiga nisbatan juda qisqa davrni o‘z ichiga oladi. olimlar bashariyat tarixini bir-biridan farqlanuvchi turli davr va bosqichlarga bo‘lib o‘rganadilar.

Bir guruh olimlar uni ibtidoiy, quldorlik, feodal, kapitalizm, sotsiolizm va uning so‘nggi bosqichi hisoblangan kommunistik deb atalmish ijtimoiy iqtisodiy tuzumlarga bo‘lganlar.

Olimlarning boshqa guruhlari esa bashariy tarixini ibtidoiy, qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi kabi tarixiy davrlarga ajratiladi.

Ayrim tadqiqotchilar esa o‘tmishni yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya kabi tarixiy davrlarga bo‘lganlar.

Bashariyat tarixi qanday davrlarga bo‘linishidan qat’iy nazar ularning eng qadimgisi va boshqa davrlarga nisbatan uzoq davom etgani ibtidoiy tarix, ya’ni insoniyatning old tarixidir. Yangi

dalillarga ko‘ra kishilikning old tarixi davrimizdan 4-4,5 million yil ilgari boshlangan, uning yakunlovchi bosqichi miloddan avvalgi IV mingyillikning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Ammo ibtidoiy davrning so‘nggi bosqichlarida ishlab-chiqarishning notekis rivojlanishi tufayli yer yuzining muayyan joylarida ibtidoiy jamoa va uning qoldiqlari uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Shuni ta’kidlash lozimki, Braziliya changalzorlari, Afrika o‘rmonlari, Filippin va Avstraliyaning ba’zi joylarida ibtidoiy jamoa tuzumining so‘nggi bosqichi darajasida hayot kechirayotgan qabilalar, etnik guruhlar va kishilar jamoasi hamon yashab kelmoqdalar.

Old tarix fani, yerda odamzodning paydo bo‘lishidan tabaqalar va ilk davlatlarning qaror topishigacha bo‘lgan 4-4,5 millionlik katta tarixiy davrni qamrab oladi. Birinchi ijtimoiy tuzum ibtidoiy jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi va tabaqaviy jamiyatga o‘tib o‘tish jarayonlarini o‘rganadi va tadqiq etadi.

Kishilikning shu ilk bosqichi old tarix fanining asosiy mavzusi hisoblanadi. Jahon fanshunosligida ibtidoiy old tarix yagona tarix fanining alohida bo‘limini tashkil etadi. Kishilik jamiyati tarixining boshqa davrlari ko‘proq yozma manbalarga asoslanib o‘rganiladi. Ibtidoiy tarix arxeologik, antropologik, etnografik, lingvistik, arxeozoologik, arxeobotanik va boshqa manbalarga tayanib o‘rganiladi. Chunki ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yozuv ham yozma manbalar ham bo‘lmagan.

Xorijiy mamlakatlardagi ayrim olimlar old tarixni antropologiya-odam haqidagi umumiy fan qatoriga qo‘shadilar. Shuni unutmazlik kerakki, antropologiya tabiiy fan bo‘lsa, tarix shuningdek, old tarix siyosiy, ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Old tarixning nomi masalasida ham olimlar orasida turli qarashlar mavjud. Ibtidoiy davr tarixi bilan shug‘ullangan ko‘pgina olimlar, g‘arbdagi adabiyotlarda qo‘llangan va qo‘llanib kelinayotgan “tarixgacha” degan atama ibtidoiy jamoa tuzumiga muvofiq emasligini ta’kidlab o‘tadilar.

Ba’zi olimlar kishilikning bu eng qadimga davrini “tabaqaviy jamiyatgacha bo‘lgan tarix”, “yozuvgacha bo‘lgan tarix” kabi,

mazkur jamiyatning mohiyatiga unga muvofiq kelmaydigan nomlar bilan ataydilar.

Mavzu va mantiq jihatidan "Ibtidoiy yoxud old tarix" degan atama kishilikning bu keksa, mo'ysafid davriga ancha to'g'ri keladi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki qator g'arb tillarida "old", "ibtidoiy", "oddiy", "sodda" so'zlari sinonim sifatida qo'llanilar ekan. Ammo rus tilida "ibtidoiy" bilan "oddiy, sodda" so'zlar sinonim emas ekanlar.

Xulosa shuki, kishilikning bu eng qadimgi davrini "old tarix" deyish maqsadga muvofiqdir, chunki u bizga ma'lum bo'lgan beshta ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning ilk bosqichidir.

## **1.2. Old tarixning o'ziga xos xususiyati va uning ahamiyati**

Old tarix bilan shug'ullangan olimlar, arxeologlar, antropologlar va etnograflarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ibtidoiy davr o'zidan keyingi keladigan barcha tarixiy davrlarga nisbatan mehnat qurollarining soddaligi va ular xilining ozligi bilan belgilanadi. Shuningdek urug' jamoasi davrigacha yashagan odamlar aqliy va jismoniy jihatidan o'z takomiliga yetmagan edilar.

Ibtidoiy davrning tongida ilk odamlarning tosh, yog'och va suyaklardan yasagan qurollari shunchalar sodda ediki, bu ularning aqliy jihatidan takomillashmaganligi, mehnat malakasining pastligi va nihoyat ishlab chiqarish tajribasining kam bo'lganligidan darak beradi.

Binobarin, mehnat qurollari xilining ozligi, soddaligi, qurol yasash texnikasi-usullarining rivojlanmaganligi, shuningdek o'z imkoniyatlarini bilmaslik ibtidoiy kishilarni tabiat oldida, unda ro'y beradigan turli-tuman dahshatli hodisalar, chunonchi: yer qimirlash, chaqmoq chaqishlar, momoqaldiraq, vulqon otilishlari, sel-sovur, toshqinlar, yer surilishlari oldida o'jiz va himoyasiz qilib qo'ygan edi. Ayni paytda ilk odamlar o'sha davrdagi har turli yirtqich va yovvoyi hayvonlar girdobida yashar edilar. Shunday

ekan, ibtidoiy odamlar turli yirtqich va yovvoyi hayvonlar orasida yakka-yakka yashab, ularga qarshi ayrim-ayrim hollarda kurashishlariga imkon bermas edi. Shu ta'kidlamoq kerakki, ibtidoiy kishilarni bu dahshatli kuchlardan, hodisalardan, yirtqichlar hamlasi-yu, azob-uqubatlardan, mehnat, shunda ham umumlashib qilingan ijtimoiy mehnat qutqara olar edi xolos. Ibtidoiy kishilar birgalashib mehnat qilishlari va yashashlari natijasidagina qadamma-qadam tabiatning dahshatli kuchlarini asta-sekinlik bilan yenga borganlar.

Ibtidoiy davr kishilari birga yashab birgalashib mehnat qilishganlarida, umumlashib yirtqich hayvonlarga qarshi kurashmaganlarida ular qurshovida yashay olmas edilar. aksincha ularga yemish bo'lib yer yuzidan yo'q bo'lib ketar edilar.

Demak, umumlashib yashash va birgalashib mehnat qilish ibtidoiy kishilarni tabiatdagi yovuz kuchlardan asrab qoldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'sha davrdagi shart-sharoit ibtidoiy ajdodlarimizni birgalashib yashash va mehnat qilishga majbur etdiki, bunday birdamlik faqat insonga xos sifat bo'lib, u boshqa jonivorlarda yo'q edi.

Birgalashib yashash va mehnat qilish iste'mol mahsulotlarini, hamda, ishlab chiqarish vositalarini hamma uchun umumiy mulkka aylantirgan edi.

Old tarixning hamma davr va bosqichlarida umummehnati natijasida hosil qilingan oziq-ovqat va boshqa iste'mol buyumlari u yoki bu guruhda, urug', oilada yashagan barcha katta kichik kishilar o'rtasida barobar taqsimlanar edi. Lekin o'sha davrlarda umumiy mulk bilan bir qatorda har bir kishining shaxsiy buyumlari ham bo'lgan.

Kiyim-bosh, mehnat, jangovar va ov qurollari ibtidoiy kishilarining shaxsiy mulki hisoblangan. Ibtidoiy jamoa tuzumining hamma davrlarida ibtidoiy kishilar yashab turgan yer, o'tloq, o'rmon, suv manbalari va noz-ne'matlarga hammaning egalik qilishi, tenglik mavjud edi.

Shunday ekan, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida xususiy mulk ham mulkiy tengsizlik ham, tabaqalar ham, to'dada va urug'

jamoasida ayrim kishilar mehnatini boshqa kishilar tomonidan suiste'mol qilish ham bo'lmagan. Shunday ekan, urug' va qabiladan alohida ajralib turuvchi nufuzli kishilar, binobarin zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat ham yo'q edi.

Shunday qilib kishilikning ibtidoiy old davrida ijtimoiy tabaqalar bo'lmagan, davlatsiz jamiyat ediki, Yevropaning ilg'or fikrli olimlari uni hamma barobar, teng bo'lgan ibtidoiy kommunistik jamiyat deb ta'riflagan edilar. Old tarix kishilik tarixining eng ko'hna, eng dastlabki, ayni paytda eng oddiy, sodda shakli bo'lib, qariyb 4,5-4 million yillik katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. U ham bir-biridan ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniyati jihatidan farqlanuvchi turli davr va bosqichlarga bo'linadi.

Tarixiy nuqtayi nazaridan u ibtidoiy to'da va urug' jamoasi davrlariga, arxeologik nuqtayi nazaridan esa tosh, mis-tosh, jez va ilk temir davrlariga bo'linadi. Ibtidoiy tarixning to'da davri arxeologik davrlashtirishning eng qadimgi tosh asrining ilk va o'rta bosqichiga to'g'ri keladi. Bu davrda odamzod shakllanishda davom etib o'z qo'li bilan ilk mehnat qurollarini yaratib, sun'iy olov hosil qilishga erishdi va moddiy madaniyatga poydevor toshini qo'ydi. mazkur davrda ma'naviy madaniyatning ilk kurtaklari ham shakllandi. Shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, kishilikning ibtidoiy to'da davri bir joyda qotib qolmadi. Jamiyat taraqqiyotining rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq u rivojlanishda davom etdi va urug' jamoasining vujudga kelishi uchun zamin yaratdi.

Miloddan avvalgi 50-40-ming yilliklarga kelib ibtidoiy to'da o'rmini urug' jamoasi davri egalladi. Bu davrdagi eng buyuk hodisa antropogenez jarayonining tugallanishi va hozirgi qiyofadagi odamlarning vujudga kelishi edi.

Urug' jamoasining vujudga kelishi ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi eng katta burilish edi.

Urug' jamoasining vujudga kelishi munosabati bilan jamiyat hayotida birin-ketin katta-katta o'zgarishlar yuz bera boshladi.

Urug' jamoasi davriga kelib, odamzod yer sharidagi 6 qit'aning Stasi bo'ylab keng tarqaladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, uzoq davom etgan tosh asri qator yirik kashfiyotlar amalga oshirilganligi bilan ko'zga tashlanadiki, bu esa o'z o'rnida insoniyatning bundan keyingi butun rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Xuddi shu tosh asri davomida odamlar olov hosil qilish va undan foydalanish san'atini egalladilar. Ayni paytda ibtidoiy kishilar kiyim-bosh, o'q-yoy, qayiq, chana, chang'i kabi harakat vositalarini kashf etib, boshpana qurishni takomillashtirdilar. Tosh, yog'och va suyakdan turli-tuman mehnat, ov va jangovar qurollar, uy-ro'zg'or buyumlarni yaratdilar. Tosh asrining yakunlovchi bosqichi hisoblangan neolit-yangi tosh asrida esa kulolchilik va to'qimachilik ishlab chiqarilishi o'zlashtirildi. Tosh asrining oxiri hisoblangan yangi tosh davri qurollari ishlash texnikasida silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash kabi yangi usullar ixtiro etildi. Shu davrda kishilik jamiyatning iqtisodiy xo'jalik hayotida juda ahamiyatga molik burilish sodir bo'ldi. Bu ovchilik va termachilikka asoslangan o'zlashtiruvchi xo'jalikdan dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarish xo'jaligiga o'sib o'tish edi. Xo'jalik sohasidagi bu burilishni tadqiqotchilar, xususan, mashhur ingliz arxeologi G. Chayld "neolit revolyutsiyasi" – "yangi tosh asri inqilobi" – deb ataydi. Uning eng muhim natijalaridan biri ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi edi. Ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarishi tufayli xo'jalikning barqarorligi beqiyos darajada o'sdi. odamlarning turmush darajasi ancha yaxshilandi, aholi soni o'sib, ijtimoiy tuzum tarkibini murakkablashtirish uchun shart-sharoit yaratdi. Neolit – yangi tosh davrida yer sharining qulay, odam yashaydigan ba'zi joylarida tarixiy xo'jalikning dastlabki notekis rivojlanish yaqqol namoyon bo'la boshladi. Miloddan avvalgi 6-3 mingyilliklar orasida ma'danlar-avval mis, so'ng jez kashf etildi. Ulardan mehnat qurollarining yasalish mehnat unumdorligini birmuncha oshirdi. Bu esa o'z o'rnida ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga imkon yaratdi. Shu davrdan boshlab dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq asta-sekin rivoj topa boshladi. Buning oqibatida mehnatning birinchi, ikkinchi va

uchinchi ijtimoiy taqsimoti uchun shart-sharoit yaratib, kishilar orasida mulkiy tengsizlik va tabaqalanish paydo bo'lishiga olib keldi. Bular esa o'z o'rnida jamiyat boshqaruv tizimida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Nihoyat Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Yunoniston, Eron, Hindiston va Xitoyda ilk davlatlarning tashkil topishiga olib keldi. Shuni alohida ta'kidlamoq joizki, moddiy madaniyat mehnat qurollari, uy-joy, kiyim-bosh va kishilarning kundalik hayoti uchun zaruriy buyumlar ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kashf etildi. Ibtidoiy inson o'zining aql-zakovati, tili, tafakkuri va axloq odobi bilan tabiatdagi boshqa oliy darajadagi mavjudotlardan tubdan farq qilgan. U o'zining aql-zakovati, tafakkuri va ular bilan chambarchas bog'liq mehnat faoliyati tufayli kishilikning ma'naviy madaniyatiga ham asos soldi.

Bularning barchasi, bu keksa o'tmish va unda yashagan kishilar mehnat faoliyati har qanday sharoitda zamonamiz va kelajak avlodlarning hammasi uchun g'oyatda qiziq davr bo'lib qoladi. Chunki bu davr eng keyinchalik bo'ladigan yanada yuksakroq taraqqiyotni shakllanishi uchun zamin hozirladi. Bularning barchasi zamonamiz uchun, kelajak uchun beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatuvchi dalildir. Ibtidoiy davr kishilarining xo'jalik, moddiy va ma'naviy madaniyat sohalarida erishgan yutuqlari ba'zi olimlarning ibtidoiy yoki "vahshiy" odamni "nodon" deb bildirgan fikrlariga qarshi yorqin daliliy isbotdir. Old ibtidoiy tarixning mohiyati shu bilangina kifoyalanmaydi va cheklanmaydi.

Old tarix haqidagi ma'lumotlarni bilish nazariy jihatdan tashqari bir qator amaliy ahamiyatga ham egadir. Ibtidoiy tarixni chuqur o'rganish esa, ibtidoiy jamoa tuzumining turli bosqichlarida, shuningdek ibtidoiy jamoa, qabila va xalqlar hayotini qayta qurishlarida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insoniyat jamiyat hayotidagi ko'pdan ko'p voqealar va narsalar ibtidoiy jamoaning o'sha keksa va qadimiy zamonlarida shakllanadi, vujudga keldi va rivoj topdi.

## Savollar va topshiriqlar

1. Ibtidoiy tarix nimani o'rganadi?
2. Old tarix tadqiqot uslublari haqida gapirib bering.
3. Old tarix bilan aloqador tushuncha va atamalar haqida.
4. Old tarixning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
5. Old tarix tadqiqot usullari.
6. Tarixiy davrlar haqida ma'lumot bering?
7. Ilk davr odamlari haqida qaysi tadqiqotlarni bilasiz?
8. Old tarixni O'rganishda g'arb tadqiqotchilarining o'rni haqida gapirib bering?
9. Old tarixning tabiiy fanlar bilan aloqasi haqida nima bilasiz?
10. Old tarix bosqichining ahamiyatli jihatlari haqida ma'lumot bering?

### Test topshiriqlari

1. Arxeologiya fanida nisbiy davrlashtirish nimaga asoslanadi?  
A. \* Moddiy topilmalar xususiyatlariga  
V. Yodgorliklarning turlariga  
S. Yozma manbalarga  
D. Tabiiy fan yutuqlariga
2. Tanzaniyadagi Olduvay darasida dastlabki arxeologik qazish ishlarini olib borgan olim?  
A. \* Luis Liki  
V. Ch. Darvin  
S. R. Dart  
D. O.E.Kotsebu
3. Yavadagi pitekantropning suyaklari qachon va kim tomonidan topilgan?  
A. \* E. Dyubua 1890-189-yillar  
V. Richard Liki 1900-1901-yillar  
S. Meri Liki 1905-1906-yillar  
D. Raymond Dart 1895-1896-yillar
4. Odamlarning ilk vatanlari qayer?  
A. \* Afrika



V. Osiyo markazi

S. Yevropa g'arbi

D. Amerika

5. Eng qadimgi odamlar fanda nima deb ataladi?

A. \*Arxantrop

B. Paleotrop

C. Neotrop

D. Driopitek

6. Ma'lumki, Yer yuzining turli joylaridan odamzod ajdodlarining eng qadimgi vakillari manzilgohlari topib o'rganilgan. Quyida Hindistonning Sevalika tepaligidan topilgan topilmani toping?

A. \*Ramapitek

B. Driopitek

C. Avstrolopitek

D. Chadantrop

7. Homo erectus turidagi eng birinchi topilma E.Duyuba tomonidan qaysi hududdan topilgan?

A. \*Indoneziya, Yava.

V. Ispaniya, Altamir.

S. Xitoy, Chjoukotyan.

D. Sharqiy Afrika, Tanzaniya.

8. 2.4 - 1.5 mln yil avval Sharqiy Afrikadan topilgan, bosh suyagi hajmi 670 kub sm atrofida bo'lgan qadimgi odam vakili to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

A. \*Homo habilis, aql idrokli odam.

V. Homo africanus

S. Homo rudolfensis

D. Homo georgicus

9. 1961-1972-yillarda esa Indoneziya mutaxassislari Yavadan yana pitekanthropning nechta bosh suyagi topilgan?

A. \*Ramapitek

B. Driopitek

C. Avstrolopitek

D. Chadantrop

10. 1918-1923-yillarda Shved geologi G. Anderson Pekindan 45-50 km janubiy-G'arbdagi Chjoukoutyan degan joyidan qaysi inson vakilini topgan?

- A. \*Ramapitek
- B. Driopitek
- C. Avstrolopitek
- D. Chadantrop

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. p 10-46
2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. P 14-102
3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: "Высшая антропологическая школа", 2005. Стр. 10-55.
4. Алексеев В.П. Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. "Наука", 2012. Стр. 3-10.

## II BOB. DAVRLASHTIRISH MUAMMOLARI

### 2.1. Davrlashtirish turlari

Ilmiy adabiyotlarda davr jamiyat taraqqiyotida muhim voqea, hodisa yuz bergan, hukm surgan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i sifatida izohlanadi. Davrlashtirish bu insoniyat jamiyati tarixini bir-biridan farq qiluvchi muayyan davrlarga ajratish demakdir. Kishilik jamiyatida sodir bo'lgan voqealar va hujjatlarning sodir bo'lgan vaqtini aniq, muayyan tartibda aniqlash bilan shug'ullanuvchi yordamchi sohasi bu xronologiya deyiladi.

Demak xronologiya voqea sodir bo'lgan vaqtini – soatni, kuni, oyi, yili, asri va ming yilliklarning yoshini nisbiy yoki aniq tarzda belgilaydi.

Jahon xalqlari tarixi muqarrar ravishda biri ikkinchisi bilan almashinuvi beshta tarixiy davrga bo'linadi. Ular ibtidoiy jamoa, qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi tarixiy davrlardir.

Ularning eng dastlabkisi ilk tarix yoki ibtidoiy jamoa tuzumi hisoblanadi. U yer kurrasida odamzod paydo bo'la boshlagan vaqtdan boshlab ibtidoiy gala, urug', urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, urug'chilik tuzumining yemirilishi, mulkiy tengsizlik tabaqalar va davlatning kelib chiqishigacha bo'lgan katta tarixiy davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Insoniyat ilk tarixining eng muhim muammolaridan biri uning davr va sanasini aniqlashdan iboratdir. Bu degan so'z insoniyat tarixining ilk davrida sodir bo'lgan, kashf etilgan narsa va hodisalar qachon, qaysi vaqtda vujudga kelganligini bilishdir.

Ilk tarix davr va sanalari. Yer tarixining geologik davrlari haqida umumiy ma'lumot. Ma'lumki yer olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra biz yashab turgan zaminning bunyodga kelish tarixi besh milliard yilga borib taqaladi. Kurrayi zaminimizdagi barcha narsalar o'simliklar, hayvonot olami, shuningdek, katta-kichik tirik mavjudotlar, shuningdek, inson ham yer mahsuli va uning hosilasidir.

Yerdagi har bir buyum, har bir narsa, hayvonot olami, va O‘simliklar dunyosi shuningdek insoniyatning ham o‘z tarixi bor. Bu tarix ikkiga-tabiati va jamiyat tarixiga bo‘linadi. Tabiat va jamiyat tarixi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Lekin ular o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadilar. Tabiat va jamiyat tarixini o‘rganish shu soha olimlari oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tabiat va jamiyat tarixini o‘rganishda turli ilmiy manbalarga murojaat qilinadi.

Tabiat va insoniyat old tarixining o‘z taraqqiyot davrlari mavjudki, ularning taraqqiyot davrlarini aniqlab olmasdan turib, chuqur o‘rganib bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, dastlab yerda hech qanday hayot bo‘lmagan. Geolog olimlarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra yer tarixini geologiya nuqtayi nazaridan arxey, proterozoy, mezozoy va kaynozoy davrlariga bo‘linadi.

Arxey davrida juda oddiy tirik mavjudotlar ko‘k-yashil suv o‘tlari paydo bo‘lgan. Arxey davri 800-900 million yil davom etgan.

Proterozoy davrida ko‘p hujayrali hayvonlar – bulutlar, radial simmetriyali, ikki tomonlama simmetriyaga ega bo‘lgan shakldagi hayvonlar keng tarqalgan. Ular orasida halqali chuvalchanglar, bO‘G‘imoyoqlilar, mallyuskalar, qisqichbaqa, chayonlar, igna tanlilar hamda umurtqasiz hayvonlarning boshqa turlari vujudga kelgan. Proterozoy davri 2 milliard yillar chamasi davom etgan.

Yer sharining paleozoy davrida esa kuchli tog‘ hosil bo‘lish jarayoni davom etgan. Bu davrda suv va quruqlikda yashaydigan O‘simlik va hayvonot olami ancha boyigan. Paleozoy davri 350 million yil davom etgan. Bu davrda quruqlik va suvdagi o‘simliklar dunyosi ilgarigiga nisbatan ancha boyigan va ko‘paygan.

Mezozoy davrida esa umurtqali hayvonlar orasida sudralib yuruvchilar ko‘payib, yangi-yangi turlarni keltirib chiqargan.

Bu davrda bo‘yi 5-6 metrli o‘txo‘r va yirtqich dinozavrlar, timsohlar, toshbaqalar, qushlarning ajdodlari, baliqlar, mallyuskalar va boshqa hayvonlar ko‘paygan. Mezozoy davri 130 million yil davom etgan.

Kaynozoy davri geologik davrning so'nggisi bo'lib, u ikki bosqichga bo'linadi. Biri uchlamchi, ikkinchisi to'rtlamchi davrlardir. Kaynozoy davri 60-70 million yil davom etgan. Uchlamchi davr oxiriga kelib hozirgi o'simlik va hayvonot olami yanada ko'payib rivoj topgan. Uchlamchi davr oxiri va to'rtlamchi davr geologik qatlamlar orasida alohida bosqichni tashkil etgan. Uchlamchi davr oxirida paydo bo'lgan mastadont, mamont, daranda tishli yo'lbarslar, katta shohli bug'ilar va boshqa hayvonlar to'rtlamchi davr mobaynida halok bo'ldilar.

Bu davrda Yevrosiyo va Shimoliy Amerikaning kattagina hududlari to'rt marta muz bilan qoplangan. natijada shu hududlarda yashagan hayvon va o'simliklar sovuqdan halok bo'lishgan. Muzoldi hududlaridagi ba'zi o'simlik va hayvonlar yashab qolganlar.

Muzlanish tufayli jahon okeanlarining sathi 60-90 metr pasaygan. natijada Yevropa bilan Angliya, Osiyo bilan Shimoliy Amerika, Xindi-Xitoy yarim oroli bilan Zond arxipelagi o'rtasidagi quruqlik hosil bo'lib, bu quruqlik orqali o'zaro aloqalar vujudga kelgan. Bu esa o'sha yerlardagi yashagan hayvon va o'simliklarning migratsiyasi ko'chishi uchun imkoniyat tug'dirgan. Kaynozoy davrining to'rtlamchi bosqichiga kelib yerda buyuk bir hodisa, mo'jiza yuz berdiki, bu odamzodning paydo bo'lishi edi. Shu tufayli to'rtlamchi davrni antropogen ham deyiladi.

Antropogen deb atalmish to'rtlamchi davr o'z navbatida eopleystotsen, pleystotsen va golotsen kabi bosqichlariga bo'linadi.

Eopleystotsen quyi va yuqori pleystotsen esa quyi, o'rta va yuqori pleystotsen bosqichlariga bo'linadi.

To'rtlamchi davrda Yerda Dunay, Gyunts, Mindel va Vyurm kabi muzliklar, Gyunts-Mindel, Mindel-riss va Riss-vyurm kabi muzliklararo davr bo'lib o'tdi. To'rtlamchi davr qariyb 3-2 million yillik tarixiy davrni qamrab oladi.

1960-yillardagi arxeologik va antropologik kashfiyotlarni nazarda tutilsa, odamning shakllanish davri uchlamchi davrning oxirlari va to'rtlamchi davrning quyi eopleystotsen bosqichiga to'g'ri keladi. Ammo 60-90-yillarda arxeologiya va antropologiya

sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar odamzod shakllanishining ilk bosqichi 4,5-4 million yilga borib taqaladi. Eng so‘nggi kashfiyotlarga tayangan ba‘zi tadqiqotchilar yer yuzida odamzod besh olti million yil ilgari paydo bo‘la boshlagan degan ilmiy farazlarni ilgari surmoqdalar. Shunday ekan odamzodning paydo bo‘la boshlash jarayoni to‘rtlamchi davrda emas balki uchlamchi davr oxirlariga borib taqaladi. Shunday qilib yer tarixining so‘nggi geologik davrlari, ayniqsa uchlamchi va to‘rtlamchi davri odamzodning paydo bo‘lish va rivojlanish jarayonlari bilan bilvosita va bevosita bog‘lanib ketar ekan. Uchlamchi va to‘rtlamchi davrlari geologik qatlamlari ibtidoiy to‘da – qadimgi tosh asri yodgorliklarining yoshini aniqlashning eng muhim vositalaridan biri ekan.

Ibtidoiy davr va bosqichlar. Ma‘lumki moddiy buyumlar old tarixni o‘rganishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi, lekin ibtidoiy davrga mansub moddiy buyumlarining yoshi aniqlansagina, u o‘tmishni o‘rganishning asosiy manbai bo‘lib qoladi.

Ammo ibtidoiy old tarixni davrlarga ajratish va davrlar sanasini aniqlash nihoyat darajada murakkab masaladir. Bu masalani hal etishda olimlar davrlashtirishning turli yo‘l va usullarini qo‘llaydilar. Demak kishilik jamiyatini davrlashtirmay turib uning hech qaysi bo‘limini, shuningdek, ibtidoiy davrni ham o‘rganib bo‘lmaydi. Old tarixni davrlashtirishda tarixiy jarayon – muayyan zamon, davr va asrlarga bo‘linadi.

Shuni ta‘kidlamoq kerakki, tarixchilar orasida old tarix bo‘yicha yagona davrlashtirish tizimi mavjud emas. Bu masalani hal etishda tadqiqotchilar turli yo‘l va usullarni qo‘llaydilar.

Tarixchi olimlarning bir guruhi old tarixni ijtimoiy munosabatlar belgisiga qarab ikki bosqichga bo‘ladilar. Ularning birinchisi ibtidoiy to‘da bo‘lib, ikkinchisi urug‘ jamoasi davridir.

Ibtidoiy to‘da odamzod paydo bo‘lgandan boshlab miloddan avvalgi 50-40-ming yilliklargacha bo‘lgan 4,5-4-mingyillik katta tarixiy davrni o‘z ichiga oladi.

Urug' jamoasi esa mil.avv. 50-40-mingyillikdan IV-I mingyilliklar orasidagi davrni qamraydi. Ammo yer yuzining ba'zi joylarida urug' jamoasi ancha keyingi davrlargacha saqlanib qolgan. Urug' jamoasi o'z o'rnida ona va ota urug'i jamoalariga bo'linadi. Ammo ko'pchilik tarixchilar kishilikning bu boshlang'ich davrini uch bosqichga: ibtidoiy to'da, urug' jamoasi va ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish bosqichlariga bo'ladilar. Ibtidoiy jamoaning yemirilish davri "harbiy demokratiya va qo'shni jamoa" deb ham ataladi.

Arxeolog olimlar esa ibtidoiy davr kishilari o'z moddiy-madaniy buyumlarini nimadan va qanday usulda yasaganliklariga qarab uch davrga bo'ladilar. Shu ta'kidlab o'tish joizki, ibtidoiy kishilar o'z qurollarini toshlarning turli navlaridan, yog'ochdan, suyakdan, misdan, jezdan va nihoyat temirdan ham yasaganlar. Lekin qurol yasashda asosiy xomashyo tosh, mis, jez va temir edi. Shu tufayli arxeolog olimlar kishilikning ibtidoiy davrini tosh, jez va temir davrlariga bo'lganlar.

Old tarixni o'rganishda yunon didaktik etnoslarning ahamiyati kattadir.

Bu jihatdan yunon shoiri Gesiodning "Mehnat va kunlar" poemasi diqqatga sazovordir. Mutaxassislar, xususan, Gerodod va boshqa yunon mutafakkirlari Gomer bilan Gesiodni bir davrda yashagan deb aytadilar. Hozirgi zamon ilm-fani Gesiodni Gomerdan ancha keyin yashaganligini isbot qilgan. Gesiod milloddan avvalgi VII asrning boshlarida yashagan deb faraz qiladi. Gesiod birinchilardan bo'lib, kishilikning ilk va quldorlik davrini beshta tarixiy davrga bo'lgan. Gesiod yer yuzida yashagan insonlarni besh avlodga bo'ladi. Bu avlodlarning yashash tarixi asta-sekin razolatga yuz tutishdan iboratdir. Boshqacha aytganda Gesiod o'zigacha bo'lgan davrni besh davrga bo'ladi. Bu besh avlod yashagan davrning birinchi yer tarixining oltin davridir. Bu kishilikning ibtidoiy davriga to'g'ri keladi. Bu davrda odamlar mehnat va azob-uqubatning nimaligini bilmaydilar. Tunu kunlari o'yin-kulgida farog'atda o'tadi, hayotning bugun noz-ne'matlari bu baxtiyor odamlarga tabiatning o'zi yetkazib beradi, ular bir-

birlariga yomonlik qilmasdan totuvlik bilan hayot kechiradilar. Ular o'lganlarida ham bamisoli uyquga ketgandek ohistagina dunyodan o'tadilar. Biroq oltin davr abadiy davom etolmaydi, uning o'rnini kumush davri egallaydi. Demak ikkinchi davrda yashagan avlodlar ya'ni kishilar oldingilari singari baxtiyor bo'lmasdan, bebosh bo'ladilar, ma'budlarga ixlos qo'ymaydilar, shu sababli Olimp hukmroni ulardan qahrlanib, yer qa'riga kiritib yuboradi.

Uchinchi davr mis davridir. Bu davrda yashagan odamlar sira ham oldingilariga o'xshamagan, mehr-shavqatdan behabar, jangbozlikdan, qon to'kishdan boshqa narsani bilmagan kishilar edi. Biroq qanchalik yovuz, qanchalik zolim bo'lishlariga qaramay, bular ham o'limdan qochib qutulolmaydilar.

To'rtinchi davr bu mardu maydonlar, bahodirlar davri; ular o'zlaridan oldin o'tganlarga qaraganda rahmdil, muruvvatli edilar-u, ammo bu azamatlarning ko'plari Troya ostonalaridagi qonli janglarda, dengiz to'lqinlarida qirilib ketadilar.

Gesiod o'z zamonasini yaramas ehtiroslar, pastkashliklar avj olgan beshinchi davrga kiritadi va bu davrni temir davri deb ataydi.

Gesiod yer yuzida yashagan insonlarni besh avlodga bo'ladi. Bu:

1. Oltin davr
2. Kumush davri
3. Mis davri
4. Mardi maydon bahodirlar davri
5. Temir davri.

U o'zigacha bo'lgan tarixni besh davrga bo'lgan. Demak Gesiod kishilikni davrlarga bo'lgan shoir-mutafakkir edi.

Kishilikning ibtidoiy davrini birinchi bo'lib tosh, mis, jez va temir asrlariga ajratgan kishi mashhur rimlik faylasuf va shoir Lukretsiy Kar (99-55) edi.

Keyingi davrlarda yashagan arxeolog olimlar Lukretsiy Kar fikrlariga asoslanib arxeologik davrlashtirishni yanada mukammallashtirdilar. Avvalo, tosh asrining o'zi qadimgi, o'rta va



yangi asrlarga bo‘linib, fanda qadimgi tosh asri – paleolit, o‘rta tosh asri – mezolit, yangi tosh asri esa – neolit deb ataladi.

Qadimgi tosh asri yodgorliklari majmualari shellgacha yoki olduvay, qadimgi ashell yoki abbevil, yoki shell, o‘rta, so‘nggi ashll va muste bosqichlariga bo‘linadi. Qadimgi tosh asrining eng qadimgi chegarasi 4,5-4 million yilga borib taqalsa so‘nggi davri esa 50-40, ba‘zan 40-35 mingyilliklar bilan chegaralanadi.

So‘nggi paleolit esa 40-12-mingyilliklar orasidagi davrni o‘z ichiga olib, orinyak, solyutriy va medlen madaniyatlariga bo‘linadi.

Mezolit davri esa azil, tradenuaz, neolit esa asturiy, maglemoza, oshxona uyumlari va tripole kabi muayyan madaniyatlarini o‘z ichiga oladi.

VI-IV asrlar neolit yodgorliklari Yevropaning markaziy, g‘arbiy va janubiy o‘lkalarida, shuningdek, Osiyoda hamda Afrikaning ko‘p joylaridan topilgan bo‘lib. uning sanasi miloddan avvalgi 6-3-mingyilliklarni o‘z ichiga oladi.

Neolit davridan so‘ng eneolit – mis-tosh asri boshlanib, bu davrga mansub yodgorliklar Yer yuzida siyrak tarqalgan va joylarda miloddan avvalgi IV-III mingyilliklarni o‘z ichiga oladi.

Eneolit davridan so‘ng esa mis bilan qo‘rg‘oshin yoki qalayni qo‘shib muayyan issiqlik darajasida eritish natijasida jez (bronza) madani olinadi. Ibtidoiy kishilar mehnat qurollari va uy xo‘jalik buyumlarini, shuningdek, ziynat buyumlarini jezdand yasaganlar. Shu tufayli bu davrni jez davri deb atashadi. Jez davri miloddan avvalgi II mingyillikdan I mingyillik boshlarigacha davom etgan.

Jez asridan so‘ng Yer sharining odam yashaydigan ko‘p hududlarida temir davri boshlanadi. Temir davrining ilk bosqichi ibtidoiy jamoa tuzumining so‘nggi bosqichiga to‘g‘ri keladi.

Ibtidoiy davrni chuqur o‘rganish uchun geologik, tarixiy va arxeologik davrlashtirishni o‘zi kifoya qilmaydi. Bu jihatdan insoniyat jamiyat tarixini antropologik bosqichlariga bo‘lish bu murakkab masalani yoritishda muhim o‘rin tutish mumkin. Odamzod antropologik jihatdan arxantrop, paleontrop va neantroparga bo‘linadi. Odamzodning bu uch turi ba‘zi jihatlar bilan bir-biriga o‘xshasada ammo ular davriy, jismoniy, aqliy va

morfologik jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Shulardan eng qadimgisi arxantropolar bo'lib, so'nggisi nentropolaridir.

Arxantropolar arxeologik jihatidan tosh asrining ilk bosqichida olduvaygacha, olduvay, shell va ashell davrlarida tarixiy nuqtayi nazaridan ibtidoiy to'da davrining dastlabki bosqichlarida yashab o'tganlar. Bu geologik davrlashtirishning eopleystotsendan va o'rta pleystotsen oralig'idagi davrga to'g'ri keladi.

Paleotropolar esa arxeologik davrlashtirishning muste davrlariga, tarixiy davrlashtirish bo'yicha ibtidoiy to'daning ikkinchi bosqichiga to'g'ri keladi.

Neotropolar esa arxeologik davrlashtirishning qadimgi tosh asrining so'nggi bosqichi – so'nggi tosh asriga mezolit, neolit, eneolit, jez, ilk temir davrlariga, tarixiy davrlashtirishning esa urug' jamoasi va uning buzilishi davriga to'g'ri keladi.

Tarixiy jihatdan ibtidoiy to'da, arxeologik jihatidan qadimgi peoleolit davri kishilari Dunaydan Vyurm muzliklari oralig'idagi davrda yashaganlar, bu geologik davrlashtirishning eopleystotsen va pleystotsen davrlariga to'g'ri keladi.

## **2.2. Davrlashtirish va sanalarni aniqlash usullari**

Ashyoviy buyumlarning sanasini, ya'ni yoshini aniqlashda arxeologiya, geologiya, paleoantropologiya, paleoklimatologiya, arxeozologiya, arxeobotanika, paleografiya, kimyo, fizika, tilshunoslik, informatika va boshqa fanlar qo'lga kiritgan ma'lumotlar muhim ahamiyatga egadir.

Davrlashtirish usullari paleolit davri odamlari hayot tarzini tiklash, tosh davri manzilgohlari odam qoldiqlarini tadqiq va tahlil etish mazkur manzilgohni arxeologik razvedka qilish va qazish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu arxeologik tadqiqotlar hujjatlari muayyan texnologik usullar yordamida qayd etiladi. Mazkur qayta tiklash subyektiv, gominidlar fe'l-atvorining ko'pgina jihatlarini nazardan chetda qoldirishi, ya'ni noaniq faktlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Shu bois zamonaviy etnografik, etnologik, toponimik va geologik tadqiqotlardan eksperiment sifatida

foydalanish, ulardan qimmatli ma'lumotlar olish mumkin, ammo ulardan juda ehtiyotlik bilan foydalanish lozim.

So'nggi yillar ichida olimlar ibtidoiy jamiyat tarixining nisbiy va mutlaq aniq sanasi – yoshini aniqlashning yangi usullarini kashf etib, ularni sinovdan o'tkazdilar.

Bular geoxronologiya, radiometrik, radiouglerod, dendroxronologiya, arxeomagnet, kaliy-organ va boshqa usullardir. Mazkur usullarni fanda qo'llash natijasida ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lish, davrlar sanasini aniqlashda yaxshi natijalarga erishildi.

Radiouglerod usuli. U yoki bu arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan daraxt, ko'mir, hayvon va odam suyaklarining yoshini aniqlashda radiouglerod uslubidan keng foydalanilmoqda.

Olimlarning tadqiqotlari natijasida azot atomlariga kosmik nurlarning ta'siri ostida atmosferada atom og'irligi S 14-karbon - 14 bo'lgan uglerodning radioktiv izotopi mutassil ravishda to'plana borishi kuzatilgan.

Atmosferadan esa uni o'simliklar yutadi, radioktiv izotoplar esa o'simliklar va nafas yo'llari orqali hayvon va odam tanasiga singadi. Hayvon va o'simliklar hayvon halok bo'lar ekan karbon 14 ham yemirila boradi. Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, karbon 14ning yarim yemirilishi davri 5730 yilga teng ekan. Karbon -14ning yemirilish darajasi bilib olingach hayvon, odam va o'simliklarning yashagan vaqti aniq bo'lib qolar ekan.

Dendroxronologiya usuli. Arxeologiyadagi ko'plab sanalarni aniqlash usullari, shu jumladan, daraxt kundasidagi doira yoki xalqalarga qarab davrlashtirish usuli Yer iqlimiga quyosh nurlarining ta'sirini o'rgangan nanoarxeolog A. E. Duglas tomonidan fanga kiritilgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, daraxtlarning yillik halqalariga qarab uning kesilgan vaqti bir yilgacha aniqlikda bilib olinadi. Bu dendroxronologik usuldir. Mazkur usul bilan arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan daraxt va yog'och buyumlar sinchiklab o'rganiladi va yillik xalqalar hisoblab chiqiladi.

Duglas ko'pgina daraxt turlari, asosan, qattiq daraxtlar o'sishi har yili muayyan xalqalarning qo'shilishi bilan o'sishini bilgan, hamda har bir halqa o'sha yil iqlimi, atrof-muhit haqida ma'lumotlar saqlab qolishi nazariyasini ilgari surgan. Hozirda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida dendroxronologistlar aniq ilmiy ma'lumotlar olish imkoniga ega bo'lishmoqda.

So'nggi yillarda arxeologik va antropologik ashyolarning sanasini aniqlashda kaliy-argon (K14-Kr40) usuli ham qo'llanilmoqda. Kaliy-argon usuli yordami bilan tarkibida kaliy bo'lgan vulqon ma'danlarning yoshini aniqlash mumkin ekan. Mazkur usul 1950-yillarda Kaliforniya universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga olib kirilgan.

Arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan kovlab olingan sopol idish va ularning parchalarini yoshini aniqlashda arxeomagnet usuli jahon arxeologiyasida keng qo'llanilmoqda.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, sopol buyumlarga yerning magnit maydoni ta'sir etib, u sopol idishda uzoq vaqt o'zgarmagan holda saqlanib qolar ekan.

Sopol buyumlarning magnitlanish darajasiga ko'ra, Yerning magnit maydoni chiziqlari tortiladi va sopol dan yasalgan buyumlarning yoshi aniqlanadi.

Arxeomagnet usuli bilan qadimiy sopol buyumlarning vaqtini plyus 25 yil xato bilan aniqlash mumkin ekan.

Radiometrik usul. Vaqtni aniqlashning zamonaviy usullaridan biri bu radiometrik usul bo'lib, radioaktiv atomlarni tahlil etish va ulardagi o'zgarishlar yordamida aniqlanadi.

Ilk tarixning davr va sanasini aniqlashning yuqorida ko'rsatilgan usullaridan tashqari yana boshqa usullari ham borki, ular ftor, kollagen, uran va azot usullaridir. Bu usullar suyakning minerallanish, ya'ni organik moddalarning anorganik minerallar birikmalariga aylanish jarayoniga asoslangandir.

Ma'lumki ibtidoiy davrga mansub yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan tosh, yog'och, ko'mir, kul, mehnat qurollari bilan bir qatorda odam va hayvon suyaklari ham topilgan. Shubhasiz, yer

ostida uzoq yillar davomida ko'milib yotgan odam va hayvon suyaklari asl holicha saqlanib qola olmadi. Ko'p yillar mobaynida tuproq ichida yotgan suyaklar ichiga tuzlar kirib uning organik qismini asta-sekin yemiradi. Oqibat natijada suyakning kimyoviy tarkibi o'zgaradi. Suyakdagi mineral va mineralsiz qismlarning nisbati o'zgarib ketadi.

Olimlarning xulosalariga ko'ra suyak qancha qadimiyroq bo'lsa unda kollagen (organik) modda va uran moddalari ko'proq bo'lar ekan. Hayvon va odam suyaklarining yer ostida uzoq ko'milib yotishidan suyaklardagi oqsil moddalar kamaysa ulardagi azot kamayar ekan.

Keyingi yillarda Angliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Germaniya, Polsha, Rossiya, Yaponiya va boshqa qator mamlakatlardagi olimlar arxeologik davrlashtirish va ashyoviy dalillarning yoshini aniqlash borasida juda katta ish olib borilmoqda. Bu yutuq va kashfiyotlar ibtidoiy jamiyat tarixining yoshini aniqroq bilishga imkon bermoqda.

Olimlar davrlashtirish va ibtidoiy tarixning muayyan davrdagi buyumlarning yoshini aniqlashda yuqorida sanab o'tilgan usullardan foydalanib arxeologik davrlashtirishning quyidagi nisbiy tartibini tavsiya etadilar:

A) Ilk – quyi tosh asri 4-4,5 million bilan 40 mingyilliklar oralig'idagi davrni o'z ichiga oladi;

B) So'nggi – yuqori tosh asri 40-12-mingyilliklar orasidagi davrdir. Ba'zilar esa so'nggi tosh asrining sanasi 37-12 mingyilliklar bilan belgilanadi deb faraz qiladilar;

V) Mezolit – o'rta tosh asri mil. avv 12-6-mingyilliklar orasidagi davr bilan belgilanadi. Ba'zan uni 12-8-mingyilliklar bilan belgilaydilar;

G) Neolit – yangi tosh asri miloddan avvalgi 4-3 mingyilliklar oralig'idagi davrni qamrab oladi;

D) Jez – bronza davri – miloddan avvalgi III mingyillik oxiri va I mingyillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi;

E) Ilk temir davri – mil. avv. 1-mingyillikning boshlariga to'g'ri keladi.

Shunday qilib keyingi davrdagi kashfiyotlar kishilikning old tarixini muayyan davrlarga bo'lish va yoshini aniqlashda katta yutuqlarga erishdilar. Ammo ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lish va sanasini aniqlash masalasida hali kutilgan natijalarga erishilgani yo'q. Shu bois olimlar orasida bu masalani oydinlashtirishda turli qarashlar bor.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Insoniyat ilk tarixining davr va sanalarni aniqlashda qaysi usullar aniq ma'lumot bera oladi?
2. Antrologik topilmalar yoshini aniqlashda qaysi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq?
3. Geologik davrlashtirish haqida ma'lumot bering.
4. Arxeologik davrlashtirish haqida ma'lumot bering.
5. Tarixiy davrlashtirish haqida ma'lumot bering.
6. Old tarix bosqichlarini izohlang.
7. Gesiodning davrlashtirishga qo'shgan hissasi.
8. Davrlashtirish va sanalarni aniqlashda Lukretsiy Karning xizmati.
9. Germaniya va Fransiyada old tarix fani.
10. Skandinaviya mamlakatlarida old tarix fani.

### **Test topshiriqlari**

1. Ibtidoiy jamiyat tarixiy jihatdan necha davrga bo'linadi?
  - A. \*ikki davrga
  - B. bir davrga
  - C. uch davrga
  - D. besh davrga
2. Xitoy va rimlik faylasuflar eng qadimgi tarixni qanaqa davrlarga bo'lishgan?
  - A. \*tosh, bronza va temir asriga
  - B. tosh asriga
  - C. mis-tosh asriga

- D. yangi tosh asriga
3. So'nggi paleolit qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
- A. \*mil. avv 45-40- 12-10 mingyilliklarni
- B. mil. avv. 60-40 mingyilliklarni
- C. mil. avv 100-40 mingyilliklarni
- D. mil. avv30-6 mingyilliklarni
4. Mezolit davri qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
- A. \*mil. avv 12-7 mingyilliklarni
- B. mil. avv 25-12 mingyilliklarni
- C. mil. avv 6-4 mingyilliklarni
- D. mil. avv 20-10 mingyilliklarni
5. Paleolit so'zi qaysi tildan olingan?
- A. \*yunon tilidan
- B. sanskrit tilidan
- C. ingliz tilidan
- D. fransuz tilidan
6. Neolit so'zi qaysi tildan olingan
- A. \*yunon tilidan
- B. rus tilidan
- C. ingliz tilidan
- D. nemis tilidan
7. Kishilik tarixini arxeologik jihatdan dastlab davrlashtirgan shoir-filosof kim?
- A. \*Lukretsiy Kar
- B. Gerodot
- C. Gomer
- D. Demokrit
8. Gerodot qaysi asrda yashagan?
- A. \*mil. avv V asrda
- B. mil. avv IV-III asrlarda
- C. mil. avv III asrda
- D. mil. avv II asrda
9. Ksenofont qachon yashagan?
- A. \*mil. avv V asr oxiri IV asrning birinchi yarmida
- B. milodiy III asrda

C. milodiy IV asrda

D. mil. avv II-I asrlarda

10. Ibtidoiy to‘da arxeologik davrlashtirishning qaysi bosqichiga to‘g‘ri keladi?

A. \*qadimgi tosh asrining ilk va o‘rta bosqichiga

B. qadimgi tosh asrning ilk bosqichiga.

C. qadimgi tosh asrining o‘rta bosqichiga

D. qadimgi tosh asrining so‘nggi bosqichiga

### **Bob yuzasidan tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Encyclopedia of Human evolution and Prehistory. Garland publishing, Inc. A member of the Taylor& Francis Group New York & London, 2000

2. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: “Высшая антропологическая школа”, 2005. Стр. 10-55.

3. Алексеев В.П. Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. “Наука”, 2012. Стр. 3-10.

4. Кабиров А. Ибтидоий жамият тарихи. (Маърузалар матни). –Т., 2005.



## **III BOB. OLD TARIXNING MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI**

### **3.1. Old tarix manbashunosligi**

Ilmiy manbalari va ularning turlari. Ma'lumki kishilik jamiyati tarixining boshlang'ich davri uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarix bir-biridan farq qiluvchi turli ijtimoiy tuzum va tarixiy davrlarga bo'linadi. Bashariyat tarixini o'rganish esa nihoyat darajada murakkab, ayni vaqtda sharafli vazifadir.

Bashariyat tarixining har bir davri mazkur davr uchun xos bo'lgan ilmiy manbalarga asoslanib o'rganiladi va qayta tiklanadi.

Insoniyat tarixining juda katta ibtidoiy va qadimiy davri moddiy buyumlarga asoslanib o'rganilsa, keyingi davrlari tarixi esa, asosan, yozma manbalarga va arxeologik ashyolarga asoslanib o'rganiladi.

Ma'lumki, kishilikning old tarixi juda katta tarixiy davrni 4,5-4 million yilni o'z ichiga olar ekan, kishilik jamiyati tarixining 1800 qismi yozma tarix asosida, 799 800 qismi esa arxeologik-moddiy manbalarga asoslanib o'rganiladi.

Uzoq davom etgan mazkur tarixiy davrda tabiatning turli-tuman hodisalari girdobida yashagan ibtidoiy kishilar Yer sharining katta qismida tarqalib, turli geografik muhitlarda hayot kechirib tirikchilik o'tkazganlar. Shunday ekan, ibtidoiy davr kishilarining tirikchilikning asosiy manbai ularni o'rab turgan geografik muhitning turli shart-sharoitlariga muvofiq dastlab o'zlashtiruvchi xo'jalik-ovchilik, termachilik va baliqchilik, keyinchalik esa ishlab chiqarish xo'jaligi – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikdan keladigan mahsulotlar bo'lganligi shubhasizdir. Ibtidoiy kishilarning yashash sharoiti o'z tirikchilik vositalariga muvofiq keladigan qurol-yarog', asbob-uskuna, turar-joy va boshqa turli narsalarni yaratganlarki, ular yaratgan barcha buyumlarning qoldiqlari, shuningdek, o'sha davr kishilarining ustixonlari, kalla suyaklari va ularning qoldiqlari yer ostida

saqlanib keladi. Bu vositalar kishilikning ibtidoiy davrini o'rganish va qayta tiklanishning asosiy manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlamok kerakki, ibtidoiy tarixni o'rganish, bilish va qayta tiklanishning asosiy manbalari va ularning turlari haqida olimlar orasida qizg'in bahs boradi.

Kishilikning keyingi davr tarixini o'rganishda olimlar, asosan, yozma manbalarga suyanadilar.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yozuv va yozma manbalar bo'lmagan. Shu tufayli yozuv va yozma manbalar ibtidoiy davr tarixini qayta tiklashning asosiy manbai bo'la olmaydi. Lekin ibtidoiy davrning shunday ajoyib, nodir manbalari borki, ular Yer yuzida insoniyatning vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, xo'jaligi, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy madaniyat haqida yetarlicha ma'lumot berishi mumkin.

Ibtidoiy jamiyat tarixini qayta tiklash va o'rganish ilmiy manbalari xilma-xildir. Ular arxeologiya, etnografiya, tarixiy antropologiya, geologiya, arxeozoologiya, arxeobotanika, tilshunoslik, informatika, xalq og'zaki ijodiyoti va qisman yozma manbalardir.

Arxeologiya manbalari va ularni ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishdagi o'rni.

Arxeologiya qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklari asosida insoniyat jamiyatining tarixiy o'tmishini, hayoti va madaniyatini o'rganuvchi fandır. Arxeologiyani o'zbek tilida qadimshunoslik fani ham deyilar.

Kishilikning juda katta tarixi, xususan, ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda tarixning ajralmas qismini tashkil etgan arxeologiya fanining ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Kishilik jamiyati ibtidoiy, qadimgi va o'rta asrlar arxeologiyasiga bo'linadi. Ibtidoiy arxeologiya umumiy arxeologiyaning bir qismini tashkil etib, u juda katta tarixiy davrga egaligi, zeb-ziynat, uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollarining nisbatan soddaligi bilan, yozuv va yozuv manbalarning yo'qligi bilan keyingi davrlardan tubdan farq qiladi. Chunki odamlar yozuvni bundan 5-5,5 ming yil ilgari kashf etgan bo'lsalar, dastlabki tosh va oddiy yog'ochdan tayyorlangan so'yil-

tayoqlar yasab ulardan foydalanishni esa 4-4,5 million yil muqaddam bila boshlaganlar. Kishilik jamiyati tarixining quyi qatlamlaridan, uning so‘nggi dalillari oralig‘i davrida odamlar qo‘li bilan yaratilgan barcha ashyoviy-moddiy va tasviriy san‘at buyumlari ibtidoiy davrga xos bo‘lgan manbalar hisoblanadi. Mazkur moddiy manbalar – mehnat qurollari, turarjoy, manzilgoh qoldiqlari, ziynat buyumlari, idishlar, sug‘orish inshootlarining qoldiqlari va boshqalar ibtidoiy davr kishilarining turmush tarzi qay darajada bo‘lganligini o‘rganishda qimmatli ashyodir.

Inson yaratgan arxeologik ashyolar – moddiy buyumlar nimadan yasalganligi va vazifalariga ko‘ra bir necha turkumga ajratdilar.

Ular quyidagilardir:

1) Turarjoy, g‘or makon, ochiq manzilgoh, chayla, kapa, to‘la, yerto‘la, loy-paxsa, guvala, xom g‘isht, tosh, yog‘och va qamishdan qurilgan uy-joy, diniy va boshqa me‘moriy qurilish inshootlari;

2) Mehnat va jangovar qurollar: toshdan, yog‘ochdan, suyakdan, misdan, jezdan, temirdan va boshqa buyumlardan ishlangan chopper, nayza, nayza uchi, qirg‘ich, teshgich, tosh bolta, tosh pichoq, o‘roq qadamalari, sanchqi, parrakcha, o‘q-yoy, kamon o‘qining uchi, garpun, keskich, igna, bigiz va boshqalar;

3) Toshdan, suyak, yog‘och, mis, jez, temir va boshqa buyumlardan ishlangan taqinchoq va zeb-ziynat buyumlari;

4) Mengir, dolmenlar va kromlexlar;

5) Sopol idishlar va ularning parchalari;

6) Tasviriy san‘at – odam, hayvon va boshqa narsalar haykallari.

Qoya tosh va g‘or devorlariga ishlangan rasmlar (bo‘yoq bilan toshga urib o‘yib ishlangan rasmlar – petrogliflar);

7) Idish, ya‘ni sopol, mis, jez va temir idishlarning ichi va sirtiga ishlangan naqsh, chizma, odam va hayvon rasmlari;

8) Qabr-qo‘rg‘onlar, qabristonlar yakka tartibdagi mozorlar, muqaddas joylar va boshqalar;

9) Sug'orish inshootlari, mudofaa devorlari, tosh konlari, ustaxona va shaxtalar.

Gap ibtidoiy kishilarning joy makonlari haqida borar ekan, ular dastlab g'orlarda, qamishzorlarda yashagan bo'lsalar, keyinchalik chayla, kapa, to'la, yerto'la, daraxtlarning kovaklarida istiqomat qilganlar. inson mehnat jarayonida ham jismoniy ham aqliy jihatdan takomillashib, kamol topa boshladi. Bir tomondan hayot uchun kurash va tarixiy zaruriyat ularni uy-joy qurishga undagan. Ular guvala, loy paxsa, g'isht, tosh va yog'ochdan uy-joy, qishloq, istehkomlar qurib yashay boshladilar. Demak, turarjoylar oddiylikdan murakkablik sari rivoj topib, ajdodlarimizning bu sohada qo'lga kiritgan yutuqlarini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda me'morchilikka kishilikning ibtidoiy davrida asos solingan ekan, me'morchilik obidalari old tarixni o'rganishning eng muhim manbalari qatoriga kiradi. Mehnat va mehnat qurollari inson faoliyatining ajralmas qismini tashkil etadi. Ibtidoiy kishilar dastlab oddiy qurollar yasashga undadi. Keyinchalik tosh va yog'ochdan ancha mukammallashgan qurollar yasay oladigan bo'ldilar. Ibtidoiy kishilarning ilk qurollari qo'l cho'qmori va so'yil tayoqlari edi. Nihoyat so'nggi tosh asrining oxiri va mezolit boshlariga kelib, ular xilma-xil murakkab mehnat, o'q-yoy kabi jangovar qurollarini kashf etdilar. Bu qurollarning kashf etilishi ibtidoiy kishilar hayotidagi ulug' voqelik edi.

Biz turli davrga mansub arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan chiqqan moddiy buyumlarga nazar tashlasak, ular orasidan tosh, suyak va qattiq yog'ochlardan yasalgan teshgich, qirg'ich, tosh pichoq, o'roq qadamalari, parmalar, sanchqi-garpun, bumerang, motiga, omoch, nayza, kamon o'qlarining uchlari va boshqa mehnat qurollari hamda anjomlarini ko'rishimiz mumkin. Eneolit, jez va ilk temir davriga kelib esa tosh qurollar bilan birga, dastlab, mis, jez va temirdan yasalgan ancha mukammallashgan mehnat qurollari, jangovar asboblari va uy-ro'zg'or buyumlari kashf etildi. Temirning kashf etilishi va undan har turli mehnat va jangovar qurollarining yasalishi insoniyat jamiyati tarixidagi eng buyuk kashfiyotlardan biridir. Temir qurollari asosiy ko'pchilik

mamlakatlarning uzil-kesil dehqonchilikka o'tishi uchun zarur sharoit yaratib bergan. Temir faqat dehqonchilikningina emas, chorvachilik, hunarmandchilik, xususan, harbiy san'at rivojiga ham katta ta'sir etgan.

Shunday qilib arxeologik yodgorliklardan topilgan har turli mehnat, jangovar qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari ibtidoiy kishilarning xo'jalik hayotini o'rganishda bosh manba bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, so'nggi tosh va temir asriga mansub arxeologik yodgorliklardan mehnat, jangovar qurollar va ro'zg'or buyumlari bilan bir tosh, yog'och, suyak, hayvon tishlari, mis, jez va temirdan har turli taqinchoq va ziynat buyumlari ham topiladi. Taqinchoq va ziynat buyumlari tasviriy san'at bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ziynat buyumlari bizga ibtidoiy kishilarning estetik zavqi qanday ekanligi haqida ko'pgina ma'lumot berish mumkin.

Fransiya va Angliyaning shimoliy hududlarida bronza davriga mansub megalit madaniyati qoldiqlari saqlanib qolgan. Megalit aslida "megas" va "litos" degan yunon so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "megas" – katta, "litos" – tosh degan ma'nolarni bildiradi. Umumiy ma'nosi katta tosh demakdir. Megalit madaniyati qurilmalari katta-katta toshlardan iborat bo'lib, ularning qanday maqsadlarda qurilganligi aniq ma'lum emas. Mazkur qurilmalari shakli va katta-kichikligiga qarab dolmen, mengir va kromlexlarga bo'linadi.

Dolmen britanacha "dol" – stol, "men" – tosh degan ikki so'zdan tashkil topgan. U tosh stol degan ma'noni bildiradi.

Mengirlar ham britanacha "men" – tosh, "gir" – uzun so'zlardan tuzilgan bo'lib, "uzun tosh" degan ma'noni bildirar ekan.

Kromlexi ham britanacha bo'lib "krom" – aylana, doira "lex" – joy degan ma'nolarni bildiradi.

Bronza davriga mansub bunday megalit qurilmalari Daniya, Shvetsiya, Germaniya, Ispaniya, Shimoliy Afrika, Suriya, Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Qrim, Kuban, Kavkazorti o'lkalari va boshqa joylarda ham uchraydi. Uzoq izlanishlardan so'ng olimlar megalitlarni qabr va qabristondagi qab usti toshlari ekan

degan xulosaga kelishdi. Megolitlar o'ziga xos arxeologik yodgorliklar majmuasi bo'lib, bronza davrida yashagan ibtidoiy kishilarning moddiy madaniyati va e'tiqodini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har tur rangdagi oxra bo'yog'i bilan g'or devorlari, shiplariga chizilgan, shuningdek, qoyatoshlarning silliq sirtiga urib, o'yib, chizib va ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlar – petrogliflar ham arxeologik yodgorliklar turkumiga kiradi. Bo'yoqli rasmlar va qoyatosh tasvirlari besh qit'aning hammasida ham uchraydi. Ularning bir qismi ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi paleolitdan il temir davri oralig'idagi bosqichga to'g'ri keladi. G'or va qoyalarga odam, turli hayvon, qurol-yarog', ro'zg'or buyumlari va boshqa mavhum narsalarning tasvir va rasmlari ishlangan. Mazmun jihatdan boy bo'yoqli rasmlar va qoyatosh tasvirlari Uroldan Kamchatkagacha, Ispaniyadan Urolgacha, Oq dengiz sohillaridan Hindistongacha bo'lgan joylarda, Afrikada, Avstraliyada va Amerikada ham ancha keng tarqalgan. Bu tasvirlar negizida ibtidoiy kishilarning kundalik hayoti, mashg'ulotlari va ehtimol diniy e'tiqodi bilan bog'liq ba'zi voqe'liklar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, qoyatosh suratlari va tasvirlari bizga bir vaqtlar yashab, hozirda qirilib ketgan hayvonot olami haqida ba'zi ma'lumotlarni berish mumkin. Shunday ekan qoyatosh suratlari ham kishilikning ibtidoiy tarixini o'rganishning eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki ibtidoiy kishilar neolit davriga kelib (mil.avv. VI-IV mingyilliklar, ba'zi joyda VI-III mingyilliklar deb yozilgan) loydan idish yasab, ularni olovda kuydirib kulolchilikka asos solganlar.

Neolit va eneolit, jez va ilk temir davriga mansub qishloq, turarjoy, qal'a, mozor va qabristonlar kovlanganda ularning madaniy qatlamlaridan har turli sopol idishlar va ularning singan, parchalangan qismlari topiladi. Arxeolog olimlar kavlab olingan sopol buyumlar va ularning parchalarini sinchiklab o'rganib, ularni qaysi davrga mansub ekanligini aniqlaydilar. Ibtidoiy davrga mansub topilgan sopol buyumlarning davri aniqlangach, u ham o'sha davr kishilari hayotini o'rganishning muhim manbai bo'lib

xizmat qiladi. Muhimi shundaki, neolit davridan boshlab ibtidoiy kishilar go'sht, don va sabzavotlarni, sopol qozonlarda ovqat pishirib quyuv va suyuq taomlarni tayyorlab ular sopol idishlarda iste'mol qila boshlaganlar.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, neolit, eneolit, jez va ilk temir davrlarida sopol buyumlarning sirti har xil chiziqlar, naqsh, chizmalar, turli hayvon, hatto, odamlarning tasvirlari bilan bezatilganligini kuzatish mumkin.

Sopol buyumlardagi mazkur tasvirlar o'sha davr kishilari xo'jalik hayoti va e'tiqodining ba'zi jihatlarini ifoda etgan. Shu jihatdan sopol buyumlardagi turli naqsh, odam va hayvon tasvirlari ibtidoiy davr tasviriy san'atining nodir namunalari qatoriga kiradi.

Demak, sopol buyumlar va undagi tasvirlar ham o'sha davr tarixini o'rganishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Ibtidoiy jamiyat tarixini qayta tiklashning eng muhim manbalari qatoriga qabr-qo'rg'onlar, qabristonlar, yakka tartibdagi mozorlar va muqaddas qadamjoylarni ham kiritish mumkin. Ibtidoiy davrga mansub mozor, qo'rg'on va qabristonlarda o'sha davr kishilarining kundalik hayoti va diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan narsa va hodisalarga duch kelinadi.

Ibtidoiy kishilar qurol yasash mumkin bo'lgan xomashyo toshni ohaktosh qatlamlarida ko'rinib turgan chaqmoqtoshlardan, yerda sochilib yotgan chaqmoq va daryoning shag'al toshlaridan sindirib yoki terib olganlar. Keyinchalik esa chaqmoqtoshlarni, yer ostida ko'milib yotgan ohaktoshdan olganlar. Ana shunday tosh konlari yaqinida toshga ishlov berib, har turli qurol yasaydigan ibtidoiy ustaxonalar ham bo'lgan. Bunday ustaxonalar Angliya, Fransiya, Italiya, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda ham topilgan. shaxta va ustaxonalar atroflarida ko'plab tosh parchalari, hayvon suyaklari va har turli qurollar topilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumining neolit, eneolit va bronza davrlarida Yer yuzining ba'zi joylarida sug'orishga asoslangan dehqonchilik kelib chiqdi. Sug'orma dehqonchilik uchun issiq o'lkalarda suv nihoyatda zarur edi. Shu bois neolit eneolit davrlarida dastlabki suv inshootlari – ariq, kanal va suv omborlari barpo qilingan.

Ibtidoiy zamonlardan bizgacha yetib kelgan ba'zi suv inshootlari shu yerda yashagan ibtidoiy kishilarning kundalik mashg'ulotlari haqida ancha ma'lumot berishi mumkin.

Kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrini o'rganishda mazkur davr kishilaridan kelgan hamma ashyolar orasida mehnat quollarining ahamiyati kattaroqdir. Mehnat quollarining turiga qarab ibtidoiy kishilarning nimalarni ishlab chiqarganliklariga va qanday ishlab chiqarganliklarini tiklash mumkin.

Arxeologlar uchun yo'q bo'lib ketgan hayvon turlarining saqlanib qolgan suyaklarining tuzilishi, mazkur hayvonlar gavdasining tuzilishini o'rganish uchun juda katta ahamiyatga egadir. Ayni paytda arxeologlar uchun mehnat vositalarining qoldiqlari ham yo'q bo'lib ketgan ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Shuni alohida ta'kidlamoq kerakki, har bir arxeologik yodgorlik va uning madaniy qatlamlaridan topilgan buyum o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Xususan, madaniy qatlamlardan topilgan mehnat quollari ibtidoiy kishilarning nimalar ishlab chiqarganliklari va qanday qilib tirikchilik o'tkazganliklarini o'rganish imkonini beradi.

Qabr va qabristonlardan topilgan odam suyaklarining joylashuvi, dafn qilish tartib-qoidalari, ularning diniy e'tiqodi qanday bo'lganini aks ettiradi. Ibtidoiy odamlar yashagan turar joylar, uylar, qal'a, qishloq xarobalarining qoldiqlarini o'rganishi esa oila va ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida ham ba'zi ma'lumotlarni berishi mumkin. Bu hol ibtidoiy kishilarning umumiy ravishda yashaydigan turar joylarining oilaviy turar joylar bilan almashinuvini, oddiy mustahkamlanmagan qishloqlarning murakkab istehkomli qishloqlarga aylana borish jarayonini kuzatishga imkon beradi.

Qadimgi Misr, Mesopatamiya, Kichik Osiyo, O'zbekiston, Xitoy va boshqa joylarda olib borilgan arxeologik qazish ishlari yuqorida bayon qilingan fikrlarni to'la tasdiqlaydi.

Arxeologik qazish ishlari arxeologiya fani va shu soha mutaxassisi arxeologning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.



Ma'lumki, dastlabki arxeologik qazishlar Qadimgi Mesopotamiyada, Yangi Bobil podsholaridan Nabonid davriga to'g'ri keladi. Nabonid o'z qazish ishlarini ilmiy maqsadda emas, boylik izlash maqsadida amalga oshirgan edi. Lekin haqiqiy arxeologik qazish va tadqiq ishlari XIX asr oxiriga kelib arxeologiya fanida arxeologik madaniyat tushunchasi ham vujudga keldi.

Arxeologiya fani yosh bo'lsa ham, lekin arxeologiya mil.avv. V-IV asrlarda yashagan yunon faylasufi tushunchasi birinchi bo'lib Platon tomonidan qo'llanilgan.

Ma'lumki kishilik jamiyati biri ikkinchisidan farq qiluvchi katta-katta tarixiy, arxeologik va antropologik davrlarga bo'linadi. Ular ketma-ketlik nuqtayi nazaridan o'zaro farq qiladi.

Olimlar kishilik jamiyatini o'rganar ekanlar, muayyan davrlarning o'ziga xos xususiyatlarini payqaganlar. Xususan, arxeolog olimlar ham ibtidoiy (ilk tarix), qadimgi va o'rta asrlarning har birini alohida arxeologik madaniyatlarga bo'lganlar. Arxeologik madaniyat deb muayyan hududda joylashib, o'zining mahalliy xususiyatlariga ega bo'lgan, ayni vaqtda muayyan davrga mansub arxeologik yodgorliklar majmuasiga aytiladi. Madaniy qatlam bu arxeologik nuqtayi nazardan qaraganda u yoki bu davrda yashagan odamlar turmush faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami. Manzilgoh, makon, qishloq va qadimgi shaharlarda madaniy qoldiqlarning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda davrma-davr, ustma-ust joylashishini ifodalaydi. Arxeologik yodgorliklarning bir yoki undan ortiq madaniy qatlamlari bo'ladi.

Madaniy qatlam arxeologik topilmaning xususiyati va davriyligiga qarab aniqlanadi. Madaniy qatlamlarning qalinligi bir necha sm dan 30-40 metrgacha bo'lishi mumkin. Bu, asosan, inson faoliyatining shu joyda davomiyligi va intensivligiga bog'liq. Odamlar ma'lum joyda muayyan davrdagina yashasa, bir madaniy qatlam yodgorlik hosil bo'ladi. Bir joyda uzluksiz davom etgan uzluksiz hayot esa ko'p madaniy qatlamli yodgorliklarni vujudga keltiradi. Masalan, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Kitob, Uzunqir, Yerqo'rg'on va boshqalar. Madaniy qatlam kishilar faoliyatining

qoldiqlarini o'rganish va shu qarorgohning tarixini tiklash maqsadida qaziladi.

Arxeologik madaniyatning ahamiyati va uning eng muhim vazifasi shundaki, u ibtidoiy kishilar, qabilalar, elatlar, etnoslar va xalqlar turmushining o'ziga xos xususiyatlarini, hamda o'zaro mushtarak bo'lgan tomonlarini ifoda etishdan iboratdir. Ayni paytda arxeologik madaniyatlar muayyan madaniy qatlamlarga bo'linadi.

Kishilikning ibtidoiy davri bir-biri bilan bevosita va bilvosita bog'langan qator madaniyatlarga bo'linadi. Ilk tosh asri Olduvayga, Olduvay esa shell, ashelga, qadimgi tosh asrining o'rta bosqichi muste, so'nggi tosh asri – selet, orinyak, gravet, solyutrey, madlen, mezolit esa azil, tardenuaz va maglamaza, neolit-kompini, robengauzen, eneolit ham ilk va so'nggi bosqichlariga, jez davri yodgorliklari ham ilk va so'nggi temir davri kabi madaniyatlarga bo'linadi.

Arxeologiya boshqa fanlarga nisbatan ancha yosh bo'lib, fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi va keyingi davrlarda rivojlanib ketdi. Bu sohadagi ishlar Bushe-de-Pert, Larte, Gabriel Martile, Anri Breyl, Jozef Deshelt, Pitt Rivers, Oskar Monteluis, Gordon Chayld, K. Y. Tomsen, Yens-Yakov Virso, D. Evans, Ch. Layel, E. Larte, Genrix Shliman, Flindres Petri, Leonard Vulli kabi qator arxeologlarning xizmatlari alohida ahamiyatga egadir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar arxeologiyani tarix fanining ajralmas qismi darajasiga ko'tarishda juda katta xizmat qildilar.

Shu alohida ta'kidlab o'tmoq kerakki, XX asrning birinchi yarmi, ayniqsa, uning ikkinchi yarmi arxeologiya sohasida ulkan kashfiyotlar davri bo'ldi. Xususan, qadimgi paleolit Olduvay, shell, klakton, abbevil, qadimgi, o'rta va so'nggi ashel va muste madaniyatlariga bo'linadi. Yuqori paleolit esa orinyak, solyutre, madlen va azil madaniyatlariga ajratilgan. Mezolit davri ham montad, tardenuaz, azil, maglamaza, neolit esa robengauzen, kompini kabi qator madaniyatlarga bo'linadilar.

Shunday qilib, yer ibtidoiy (old), qadimgi va oʻrta asrlar davri tarixining oʻziga xos arxiv va zaxirasi boʻlib, undan topilgan moddiy-madaniy ashyolar qadimgi, oʻrta asrlar, xususan, ibtidoiy kishilar hayoti, turmush tarzi va madaniyatini oʻrganishning eng muhim manbaasi hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, uning soʻnggi choragida jahondagi koʻp mamlakatlarda topilgan moddiy-madaniy ashyolar qadimgi, oʻrta asrlar, xususan, ibtidoiy kishilar hayoti turmush tarzi va madaniyatini oʻrganishning eng muhim manbasi hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, uning soʻnggi choragida jahondagi koʻp mamlakatlarda ilmiy asosda olib borilayotgan arxeologik qazish ishlari kishilikning yozuvni bilmagan juda katta tarixiga doir boy, koʻpdan koʻp ashyoviy dalillar bermoqda.

Mazkur ashyoviy dalillar ibtidoiy ajdodlarimizning turmush tarzi, xoʻjalik hayoti, diniy eʼtiqodi va madaniyatining boshqa jihatlarini kengroq yoritish uchun qimmatli tarixiy manbaa sifatida xizmat qilmoqda.

Etnografik maʼlumotlar old tarixni oʻrganishning muhim ilmiy manbai sifatida etnografiya xalqlarning tarkibini, kelib chiqishini, xoʻjaligi, turmush va urf-odatlarini oddiy va maʼnaviy madaniyatini, shuningdek, madaniy-tarixiy aloqalarini oʻrganadigan fandır. Etnografiya tarix, arxeologiya, tilshunoslik, antropologiya fanlari va xalq ogʻzaki ijodiyoti – folklor bilan uzviy ravishda bogʻlangandır.

Etnografiya – yunoncha etnos – “ethnos”, “elat”, “xalq”, grafiya – “grapo” “yozaman” degan qoʻsh soʻzlardan tuzilgan. Uni xorijiy mamlakatlarda etnologiya ham deyiladi.

Etnografik maʼlumotlarni toʻplash qadim zamonlardayoq, yaʼni uzoq-yaqin xalqlarga nisbatan qiziqish uygʻongan davrda boshlangan. Rim, Yunoniston va Oʻrtayer dengizi havzasidan tashqarida yashagan xalqlar, elatlar va ular turmushning izchil bayoni, dastlab, qadimgi davr mualliflari Gerodot, Ksenofot, Tatsit, Yuliy Sezar, Pompey Trog, Arrian va Strabon kabilarining asarlarida oʻz ifodasini topgan. Oʻrta asrlarda esa vizantiyalik, arab, hind, xitoy, oʻrta osiyolik va boshqa olimlar Osiyo Yevropa,

O'rtayer dengizi atrofida yashovchi xalq va elatlar haqida ko'p ma'lumotlar yozib qoldirganlar.

Ular orasida Plano Karpini, Afanasiy Nikitin, Marko Polo, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisrav, Ibn Batuta, Istaxriy va Yoqut Xamaviylarning ma'lumotlari tahsinga loyiqdir.

XV asrda boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar davri etnografik bilimlarni to'plashda alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrlarda ham suv ham quruqlik bo'ylab juda katta sayohatlar uyushtirildi. Bu jihatidan Xristofor Kolumb, Amerigo Vespuchining Amerikaga, Vasko-da Gamaning Afrika sohillari bo'ylab Hindistonga, Magellan va boshqalarning dunyo aylana sayyohati ham diqqatga sazovordir.

XVI-XX asrlarda jahon bo'ylab ham dengiz, ham quruqlik orqali juda ko'p sayohatlar uyushtirildi. Ko'pdan ko'p tadqiqotlar amalga oshirildi.

XIX asrda etnografiya – etnologiya fan sifatida shakllanib, shundan boshlab, ko'plab etnografik ma'lumotlar to'plana boshlandi. Etnografiyaga oid ajoyib asarlar yaratildi. Ular orasida Afrika va Osiyoning ba'zi joylarida ibtidoiy jamoa tuzumi darajasida yashayotgan kishilar tadqiq qilinib, ular hayotiga oid ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Bu ma'lumotlar o'tmishni, ayniqsa, old tarixni o'rganish uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki kishilikning old tarixini qayta tiklashda arxeologiya ashyo-ma'lumotlarning o'zi kifoya qilmaydi. Shuni ta'kidlamoq kerakki, arxeologlar tomonidan topilgan moddiy-madaniy buyumlar ibtidoiy davrdagi iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishini va darajasini tasavvur qilishga yordam bersada, mazkur davrning sotsial tuzumi va ma'naviy taraqqiyotini chuqurroq darajasini bilib olishga imkon bermaydi.

Ibtidoiy kishilarning xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi, turmush darajasi, ayniqsa, oila-nikoh munosabatlari va g'oyaviy qarashlari qanday bo'lganligini o'rganishda etnografik ma'lumotlar va etnografiya fanining ahamiyati benihoyat kattadir.

Tarixchilikning eng muhim tarmog'i va ajralmas qismi hisoblangan etnologiya – etnografiya fani Yer yuzidagi, turli

qabilalar, elatlar, xalqlar, millatlar va etnik guruhlarining turmushi va moddiy madaniyatini o'rgandi.

Mazkur etnik guruh, qabila, xalq va millatlarning xo'jalik hayoti, madaniyati hamda g'oyaviy qarashlarida esa kishilikning ibtidoiy davriga xos bo'lgan irim, urf-odat va qarashlar saqlanib qolganligi kuzatish mumkin.

Etnografiya fani Amerika, Braziliya changalzorlarida, Afrika o'rmonlarida va savannalarida, Avstraliya dashtlari, Okeaniya orollari va qit'amizning uzoq burchaklarida kishilikning ibtidoiy darajasida hayot kechirgan va hamon kechirayotgan qabilalarni biladi.

XIX asr o'rtalarida ingliz mustamlakachilari tomonidan vahshiylarcha qirib tashlangan Tasmaniyaning tub-joy aholisi, oz miqdorda saqlanib qolgan mahalliy avstraliyaliklar, Sumatra orolidagi Kubu, Seylon orolidagi vedda, Okeaniya orollaridagi yarim yovvoyi qabilalar, Amerika va Afrikada istiqomat qiluvchi qator qabilalar ibtidoiylikning ko'p tomonlarini saqlab qolgan. Ularning aksariyati yarim yalang'och yurib, toshdan, suyakdan va yog'ochdan qilingan oddiy qurollardan foydalanganlar. Mazkur qabilalar metall nima ekanligini bilmaganlar. Avstraliya, Afrika, Braziliya, Okeaniya va boshqa joylardagi qoloq qabilalar hayotini o'rgangan sayyoh olimlar va etnograflar ular tirikchiligining asosiy manbai ovchilik, terib- termachilik, baliqchilik va dengiz hayvonlarini ovlash ekanini kuzatganlar. Ular tosh asri kishilari kabi hayot kechirishganlar. Ularda diniy e'tiqod shakllari xilma-xil va oddiy bo'lgan.

Qoloq qabilalarning turmush tarzini chuqur va har tomonlama o'rgangan tarixchi, etnograflar ulardan kishilikning ibtidoiy old davri tarixining ayrim jihatlarini tiklashda foydalanish mumkin ekanligini isbotlab berganlar.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur qoloq qabila va xalqlarning barchasi haqiqiy ibtidoiylikdan ancha yuqori bo'lgan rivojlanish bosqichida turar edilar. O'tmishda ularning hammasi bir-biridan ajralgan holda yashagan bo'lmasinlar,

o'zlariga nisbatan ancha rivoj topgan xalqlar ta'siriga, keyinroq davlatlarning yuksak madaniyati ta'siriga uchraganlar.

Lekin, shunga qaramay ularning turmush tarzi, xo'jaligi va ma'naviy madaniyatida ibtidoiy davrga xos bo'lgan xususiyatlar saqlanib qolgan edi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ibtidoiy davr kishilariga xos bo'lgan belgilar yuksak darajada rivoj topgan xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati ham sarqit yoki an'ana sifatida saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Keksa o'tmishning keyingi ijtimoiy jamiyatlar negizida saqlanib kelayotgan ayrim an'ana, sarqit va qoldiqlari kishilikning ibtidoiy davrdagi hayotining ba'zi jihatlarni qayta tiklash muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Qadimgi davrning mazkur qoldiq, sarqit va an'analari jahondagi barcha xalqlarning to'y, bayram, dafn marosimi, mafkuraviy qarashlari, kiyimlari, uy-ro'zg'or buyumlari, san'ati, bezaklari, turarjoylarining tuzilishi va qator udumlarda ko'zga tashlanadi. Bu esa olimlarga ibtidoiy jamiyat tarixining ochilmagan muammolarini hal qilishda imkoniyat ochib beradi, xususan, olov bilan bog'liq an'analar dunyo xalqlari hayotida saqlanib qolganligini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, jahon miqyosida to'plangan etnografik ma'lumotlar old tarixning ayrim tomonlarini u yoki bu darajada qayta tiklashda eng asosiy manbalardan biri sanaladi.

Tarixiy antropologiya va uni old tarixni tiklashdagi o'rni. Kishilikning ibtidoiy davrini qayta tiklash uchun arxeologiya va etnografiya ma'lumotlarning o'zi kifoya qilmaydi. Olimlar ya'ni antropologlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra inson hayvonlar olamidani ajralib chiqib, odam holatiga kelgunga qadar juda uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tdi. Odamzodning vujudga kelishi masalasi bilan antropologiyani paleontologiya – qazilma odamning qoldiqlarini o'rganuvchi bo'limi shug'ullanadi. Antropologiyani o'zi ham odam morfologiyasi, antropogenez va irqshunoslik kabi bo'limlardan iboratdir.

Morfologiya odamning butun tana tuzilishini va undagi biologik o'zgarishlarni o'rganadi.

Antropogenez esa odamzodning kelib chiqishi va jismoniy rivojlanish bosqichlari masalalari bilan shug'ullanib, uning hayvonlar dunyosida tutgan o'rni baho beradi va hozirgi zamon odami vujudga kelishining shart-sharoitlari hamda uning sabablarini tadqiq etadi. Nihoyat, irqshunoslik Yer yuzidagi odamzod irqlarining vujudga kelishi tarzi, turlari, shakllanish sabablari va irqlar o'zgarishining qonuniyatlarini, ularning geografik jihatdan tarqalish hamda irqarning aralashuv jarayonlarini o'rganadi. Odamzodning paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq zamonlardan beri olimlar diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Bu masala bo'yicha olimlar orasida yagona fikr mavjud bo'lmay, uzoq zamonlardan beri tortishuv davom etib kelmoqda.

Olimlar antropologiyaga baho berib, u odamning morfologiyasi tana tuzilishi va fiziologiyasi – yashash faoliyati, o'zgaruvchanligidan, uning irqarning tuzilishi va o'zgaruvchanligidan tarixga o'tishda vosita bo'lib xizmat qiladigan fandır. Soddarog qilib aytganda antropologiya odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi asta-sekin rivojlanishi, jismoniy tuzilishi va irqarning paydo bo'lishi haqidagi fandır.

Ma'lumki, dastlabki ibtidoiy kishilar Yer yuzida yashab, allaqachon o'lib ketganlar. Ammo ularning manzil-makonlari Yer yuzining juda ko'p joylaridan topilgan. Arxeolog, antropolog va geolog olimlar ibtidoiy manzil-makonlarni qazib ochganlarida ularning madaniy qatlamlaridan makon egalarining har turli qurollari va suyaklarining qoldiqlari ham topilgan.

Mil.avv 4-4.5 million bilan mil.avv X-IX asrlar orasida yashagan odamlarning suyak qoldiqlari Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya va Amerika qit'asidagi mamlakatlardan topilgan va topilmoqda.

Arxeologlar bilan hamkorlikda ishlagan antropologlar va antropolog – arxeologlar uchun bu qazilma odam suyaklari asosiy moddiy buyum bo'lib, ular bu qazilma odam suyaklarini har tomonlama sinchiklab o'rganish asosida ibtidoiy davrda yashagan odamlarning tana tuzilishi, yoshi, erkak yoki ayolligini o'rganib, ularning qaysi jinsga mansub ekanligini ham ta'kidlaydilar.

Shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, eng qadimgi va qadimgi qazilma odamlarning butun skeleti kamdan kam topiladigan hodisalar. Ko'p hollarda ko'milgan joydan ularning bosh, jag' suyaklari va tishlari saqlanib qolgan bo'ladi. Antropologlar esa qazilma odamlarning saqlanib qolgan suyaklarini qiyosiy-anotomik jihatidan puxta o'rganish asosida ularning saqlanib qolmagan qismini ham tiklaydilar. Buning uchun antropologiya fanida puxta ishlangan skeletni o'lchash tizimi – usuli keng ko'lamda qo'llaniladi.

Skeletni o'lchash usulidan foydalanib, antropologlar qazilma odamlar muskullarining joylashuvi, rivojlanishi, yuz tuzilishi, bosh miya qopqog'i, miya qutisining hajmi, uning katta-kichikligi, tuzilishi va a'zolarining boshqa suyaklarini chuqur o'rganadilar. Bu esa olimlarga ibtidoiy kishilarning tashqi qiyofasi qanday ekanligini bilib olish imkonini beradi. XIX asr ikkinchi yarmi XX asrning birinchi yarimlarida ibtidoiy kishilarning tashqi qiyofasini ularning kelib chiqishini o'rganishda Tomas Geksli, Charlz Layel, Charlz Darvin, Pol Brok Raymon Dart, Ammoen, Katrofaj, Ernest Gekkel, Yevgeniy Dyubua, Gustav Shvalba va boshqa olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

XX asrda, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida antropologiya sohasida qo'lga kiritilgan ulkan kashfiyotlar alohida ahamiyatga egadir.

Bu kashfiyotlarda Luis Liki, Meri Liki, Richard Liki, Donald Yoxenson, Liki Jonatan va boshqa antropolog-arxeolog va antropologlarning xizmatlari kattadir.

Antropologiya fanida alohida xizmat ko'rsatgan olimlar qatoriga V. V. Bunak, Y. I. Semyonov, G. A. Osmolokvskiy, Y. Y. Roginskiy, M. I. Urson, V. P. Yakimov, V. P. Alekseyev, O'rta Osiyoda esa L. V. Oshanin, V. Y. Zezenkova, T. Xodjayev va boshqalarni kiritish mumkin.

Jahon antropologlarning say-harakatlari tufayli ibtidoiy davrda yashagan ajdodlarimizning tashqi qiyofasi irqi va ularning Yer yuzi bo'ylab tarqalish jarayonini bilim imkoniyati tug'ildi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, antropologiyasiz ibtidoiy jamiyat tarzi haqida to'liq ma'lumot olish mumkin bo'lmas ekan.



Shu bois antropologik ashyolar old tarixni o'rganishning eng muhim va zaruriy manbasi bo'ldi va bo'lib qoladi.

Tarixiy antropologiya arxeologiya va etnografiya singari fanlar ham old tarixni o'rganish uchun katta imkoniyat beradi. Arxeologiya va etnografiya madaniyat tarixini, tarixiy antropologiya esa insonning kelib chiqish tarixi haqida bahs yuritadi.

### **3.2. Qadimgi tilshunoslik old tarixni qayta tiklashning muhim manbai sifatida**

Kishilikning uzoq o'tmishini qayta tiklashda arxeologiya, geografiya va tarixiy antropologiya fan bergan ma'lumot bilan bir qatorda tilshunoslik dalillarning ham ahamiyati kattadir.

Tafakkur va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan til kishilik jamiyatining tongida odamlarning birlashib mehnat qilish jarayonida hayot uchun kurash zaruriyati natijasida shakllanib vujudga keldi va rivojlana bordi. Ibtidoiy kishilarning tili va tafakkuri rivojlanishdan sira to'xtamadi. Aksincha, yanada taraqqiyot qilishda davom etaverdi. Odamlar tabiat bilan, uning turli-tuman hodisalari bilan borgan sari chuqurroq tanisha boshladilar. Ular orasida asta-sekin narsalarga, yashab turgan joylarga, o'zlari yasagan qurollarga, jonli va jonsiz buyumlarga va o'zlariga ham nom qo'yish rasm bo'la boshlagan. Oqibat natijada ibtidoiy kishilarning so'z boyligi orta borib, har bir narsa, hodisa, uning aniq nomiga ega bo'lgan. Bu so'z va gaplar esa asrlar avloddan avlodga o'tib, ayrimlari ba'zi o'zgarishlarga uchragan, ba'zilari esa hech qanday o'zgarishga yo'liqmay, qanday bo'lsa shundayligicha saqlanib qolgan, lekin qanchalari unutib ham yuborilgan.

Shunday ekan, jahonning ko'pgina tillarida uzoq o'tmishda foydalanilgan ba'zi so'zlarning saqlanib qolishi tasodifiy hodisa ekan.

Biz rus tilidagi otmoq (стрелять) so'ziga murojaat qilsak, uning yoy, kamon o'qi (стрела) so'zidan kelib chiqqanini bilib

olishimiz qiyin emas. Mazkur soʻzning kelib chiqishi esa kishilik jamiyat tarixining uzoq oʻtmishiga, yaʼni ibtidoiy kishilar hayotida muhim oʻrin tutgan oʻq-yoy kashf etilib, odamlar undan keng koʻlamda foydalanilgan davrga toʻgʻri keladi. Biz uchun juda oddiy boʻlgan davrida kashf qilingan. Shunday ekan, mazkur jangovar va ov qurolining kashf qilinganligiga 12-13 ming yildan ortiqroq vaqt oʻtdi.

Demak, mazkur qurolga berilgan nom ham xuddi oʻsha davrga mansub boʻlishi shubhasizdir. Chiqib kelishi kishilikning ibtidoiy jamiyat tarixiga borib taqaluvchi soʻz va iboralarni har bir qabila, xalq va millatlar tilidan topish mumkin. Koʻpgina tadqiqotchilarning fikrlaricha, hind-yevropa tillari, xususan, rus tilida “skot” (hayvon, chorva) soʻzi mol, bisot, xazina, mulk, pul kabi maʼnolarni anglatar ekan Sababi shuki, qadimda chorva (qoʻy, echki, qoramol, ot, tuya va boshqalar) mollari aholining buyum almashinuvida pul vazifasini oʻtagan ekan.

Qadimgi hind tili hisoblangan (san skritda) rus tilidagi “plemyannik” – jiyan soʻzi “sopernik” raqib, yov, dushman kabi maʼnolarni ham anglatgan. Bundan misollarni juda koʻplab keltirish mumkin.

Hozirgi zamon tillarining oʻzaro munosabatlari va oʻxshashlik tomonlarini chuqur qiyosiy oʻrganish asosida turli xalqlarning tarixan bir biri bilan aloqador va oʻzaro bogʻliq ekanligini bilib olish mumkin. Bu hol oilaviy tillar, shuningdek, xalqlarning kelib chiqishida mushtarak bogʻlanish mavjudligini anglatadi.

Tilshunoslik maʼlumotlari orasida biror mamlakat, oʻlka, shahar, qishloq, daryo, koʻl, togʻ, ayrim joylarning geografik nomlarini oʻrganuvchi toponimika fanning dalillari ham ibtidoiy davr tarixini, jumladan, old tarixning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Baʼzi geografik nomlar juda ham qadim zamonlarda kelib chiqqan boʻlib, uning negizi asosi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi. Shubhasiz, ibtidoiy odamlarning soʻz boyligi dastlab u qadar koʻp boʻlmasa ham ular yashab turgan joy va uning atroflariga nom qoʻyganlar. Qabila, urugʻlarning oʻz nomi boʻlib.

Ular termachilik, ovchilik va chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan demak, ularning ham o'ziga yarasha nomlari bo'lganligi shubhasizdir.

Shuni aytish mumkinki, hanuzgacha biron-bir oddiy qabila yo'qki, ular odamlar va joy uchun xos bo'lgan nomlardan foydalanmagan bo'lsinlar.

Insonning aqlini qurollarni va boshqa ko'p narsalarni ishlab chiqaruvchisi deyishadi. Biz erkin ravishda ayta olamizki, ibtidoiy odamlar nom qo'yishning asoschisidir deb yozgan edi amerikalik mashhur toponomik Jorj Styuart. Geografik nomlar ma'lum tarixiy sharoitda tug'ilib, o'z shaklini ayrimlari uzoq yashovchan bo'lib, zamonamizgacha saqlanib keladi.

Nisbatan turg'un va barqaror bo'lgan, uzoq yashovchan joy nomlari "o'lik" so'zlardan iborat bo'lib qolmay, balki zamirida urug', qabila va xalqlar hayoti, tarixi, tili va boshqa ko'p ma'lumotlarni o'zida saqlab keladi.

Joy, qabila, kishi va urug' nomlari haqidagi dalillar ibtidoiy va qadimgi aholining qabilaviy tarkibi, joylar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, qabilalararo munosabat va ularning mashg'ulotlari haqida ajoyib ma'lumotlar berish mumkin.

Qadimgi Sharq, O'rta Osiyo, shuningdek, O'zbekiston tarixining sahifalari varaqlanar ekan, unda asosiy negizi ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaluvchi juda ko'p geografik nomlarni, kishi nomlarini uchratish mumkin, bu ibtidoiy davr tarixining shohidlaridir.

Ibtidoiy old tarixda, ayniqsa, uning keyingi bosqichlarida xalq og'zaki ijodiyoti rivojlana boshladi.

Xalq og'zaki ijodiyotining dastlabki ko'rinishi, o'sha davr kishilarining o'tmishi haqidagi afsonalaridan iborat bo'lgan.

Tafakkur doirasi rivojlanayotgan ibtidoiy inson o'z o'tmishi haqida o'ylay boshlaganligi shubhasizdir. Odamlar atrofni o'rab turgan narsalar va sodir bo'layotgan tabiat hodisalariga qiziqib qarab, ularni qayerdan va qanday paydi bo'lgani haqida fikr yuritishning o'zi ma'lum darajada tarixning boshlanishidir deb juda to'g'ri ta'kidlaydi. Taniqli etnograf M. O. Kosven garchi ibtidoiy

davrda to'qilgan rivoyat va afsonalar ibtidoiy davrdagi animistik, fetishistik va totemistik ruhda yaratilgan bo'lishiga qaramay, ularda ibtidoiy davr, kishilarning kundalik hayotidan olingan haqqoniy voqealar ham aks ettirilgan bo'lib, ular tarixiy asosga egadirlar. Bu hol afsona va rivoyatlarni kishilikning sinfsiz jamiyati tarixini o'rganishning muhim manbalaridan biriga aylantiradi. Undan tashqari ibtidoiy kishilarning turmushi, kundalik hayoti va mafkuraviy qarashlari o'sha vaqtda yaratilib, og'izdan og'izga ko'chib, keyingi avlodlarga yetib kelgan xalq og'zaki ijodiyotining ertak, matal, maqol, mehnat, qahramonlik, marosim va mavsum qo'shiqlari janrlarida o'z ifodasini topganki, bular ham kishilikning qadimgi hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Shunday qilib miflar, afsonalar, ertaklar, maqollar va xalq og'zaki ijodiyotining boshqa eng qadimgi adabiy yodgorliklari ibtidoiy davr tarixini o'rganish uchun asosiy bo'lmasa ham muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Ibtidoiy davrda yozuv kashf qilinmagan, binobarin yozma manbalar ham yo'q edi. Lekin ibtidoiy tuzumi yemirilib, tabaqaviy jamiyat vujudga keldi, xat-yozuv kashf qilinib, diniy va dunyoviy mazmunga ega bo'lgan asarlar yaratila boshlandi. Bu asarlarning ba'zilar butunicha, ayrimlaridan esa parchalar zamonamizgacha saqlanib kelgan. Bular orasida "Avesto", A. Firdavsiyning "Shohnoma", hindlar yaratgan "Mahabxorat" va "Ramayana" kabi asarlar alohida ahamiyatga egadir.

Mazkur asarlarda kishilikning tabaqaviy jamiyatdan burungi hayoti, mashg'ulotlari va mafkuraviy qarashlari haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Ularda odamlarning o'zlari, har turli hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi, madaniy va dorivor o'simliklarning vujudga kelishi, qurollar yasash, ibtidoiy meditsina, davolash tartibi va boshqa narsalar to'g'risidagi ma'lumotlar bor.

Shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, paleobotanika, paleozoologiya, paleoklimatologiya, geologiya kabi tabiiy fanlar qo'lga kiritgan ma'lumotlarsiz ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini har tomonlama va chuqur o'rganib bo'lmaydi.

Agar paleobotanika o‘simlik turlarini, ularning saqlanib qolgan gul changiga qarab o‘rgansa, paleozologiya esa qirilib ketgan hayvonlarning qazilma suyaklariga qarab ibtidoiy odamlar bilan bir davrda yashagan qadimgi hayvonlar olamini o‘rganib, qaysi turga mansub ekanligini belgilaydi. Paleoklimatologiya – (qadimgi iqlimlar haqidagi fan) u yoki bu davrdagi iqlimni o‘simliklarning gul changi va tasmaimon gullarga qarab, nam miqdoriga bog‘liq holda o‘zgarib boradigan havzalar chegaralariga qarab aniqlanadi, demak, tabiatdagi o‘simliklar olami, hayvonot olami, hayvonot dunyosi, jumladan, inson ham o‘zining yashash sharoiti va muhiti bilan bir butun ekan, u davr iqlimini o‘rganish ibtidoiy kishilar hayoti qay tarzda edi degan masalani yoritishda katta yordam beradi.

Geologiya fani esa yer po‘sti cho‘kindi qavatlarini paydo bo‘lish jarayonini, vaqt izchilligini va shu cho‘kindilar ichidagi organik qoldiqlarga qarab aniqlab berar ekan, odamzodning ham, u yaratgan moddiy-madaniy buyumlar yoshini ham bilib olishga yordam beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, old tarixning manbalari xilma-xildir. Lekin bu manbalarning hech biri alohida olganda kishilikning ibtidoiy davri hayotining chuqur va har tomonlama yoritib bera olmaydi. Mazkur manbalarning eng muhimi hisoblangan arxeologik yodgorliklar ham masalani biz istagandek oydinlashtirib berishga qodir emas.

Bunga qo‘shimcha ravishda qoloq qabilalar hayotidan olingan etnografik ma’lumotlarni jalb qilingan taqdirda ham ibtidoiy kishilar hayoti manzarasini ibtidoiy davrdagidek qilib tavsiflash qiyin, albatta. Chunki ibtidoiy kishilar bilan hozir ibtidoiy tarzda hayot kechirayotgan kishilar turmush madaniyati, tili va diniy e’tiqodi bilan hozir fanga ma’lum bo‘lgan qoloq qabilalarning moddiy madaniyati, tili va mafkuraviy qarashlari orasida juda katta tafovut bor. Shu ta’kidlab o‘tish lozimki, hali etnograflar moddiy madaniyati so‘nggi tosh asri darajasida turgan biron bir qoloq qabilalarning to‘liq o‘rganish imkoniyatlariga ega bo‘lganlari yo‘q. Fanda Avstraliyaning mahalliy aholisi, xususan, materikning

sharqi-janubidagi Tasmaniya orolida yashab kelgan tasmaniyaliklarni kishilikning etnografiyaga ma'lum bo'lgan eng qoloq guruhi deb hisoblanadi. To'g'ri tasmaniyaliklar hozir yo'q bo'lib ketganlar, inglizlarning XIX asrning 20-yillarida boshlangan shafqatsiz mustamlakachilik harakatlari Tasmaniya mahalliy aholisining yoppasiga qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Etnograflarning keltirgan ma'lumotiga ko'ra, 1869-yili Xobarta yaqinidagi Ustrichnoy qo'ltig'i qirg'og'ida Uillyam ismli so'nggi tasmaniyalik erkak 70 yoshlarda vafot etgan. Eng so'nggi ma'lumotlarga qaraganda, Tasmaniya mahalliy aholisining oxirgi vakili Fanni Smit ismli ayol esa 1905-yilda go'rga qo'yilgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u 1833-34-yillarda tug'ilib onasi tasman ayoli, otasi esa noma'lum bo'lgan.

U yoshligida eshitgan o'z xalqining qo'shiqlarini umrining oxirigacha eslab yurgan. Ingliz mustamlakachilarning o'taketgan zolimligi, berahmliги tufayli tasmaniyaliklarning madaniyati haqida juda oz, ayni vaqtda bir-biriga zid ma'lumotlar saqlanib qolgan. Tabiiy to'siqlar tashqi dunyo bilan o'zaro aloqaning yo'qligi Avstraliya va Tasmaniyadagi qabilalarni rivojlanmasligiga va qoloq bo'lib qolishiga sabab bo'lgan. Ularning turar-joylari, uy-ro'zg'or buyumlari juda oddiy bo'lib, ularning asosiy qurollari, yog'och, tosh va suyakdan iborat bo'lib, ayni bir vaqtda mezolit (o'rta tosh asri) hamda neolit (yangi tosh) davriga xos qator belgi va xususiyatlarni topish mumkin. Ularning ba'zilarida hatto o'q-yoy bo'lmagan. Shunday va shunga yaqin qabilalar hozir ham Afrika va Janubiy Amerikadagi changalzorlarida yashaydilar. Lekin ular etnografik jihatdan yaxshi o'rganilgani yo'q. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, taraqqiyotning quyi bosqichida turgan mazkur qabilalar bilan ibtidoiy kishilikning moddiy madaniyati orasida davr jihatdan juda katta tafovut mavjud, ikkinchidan, mazkur qabilalar u yoki bu darajada madaniy dunyoning ta'siriga ham kirib qolganlar.

Shunday ekan hozirgi zamon qoloq qabilalarning hayotini ibtidoiy kishilar turmushining nushasi deb bo'lmaydi. Mavjud etnografik ma'lumotlardan qiyosiy dalil foydalanib, ibtidoiy

kishilar hayotining ayrim tomonlarini tasavvur qilish mumkin. Lekin etnografik ma'lumotlar arxeologik dalillarning o'zi masalani chuqurroq va har taraflama bayon qilishga ozlik qiladi. Bu sohada arxeologiya etnografik, antropologiya, geologiya, tilshunoslik, palazologiya, paleoklimatologiya, fizika, ximiya, kibernetika va boshqa fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib odamning paydo bo'lishi, ibtidoiy gala, urug'chilik jamoasining vujudga kelishi, ravnaq topishi, mehnat quollarining takomillashuvi. Chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ibtidoiy kishilarning madaniyati haqida birmuncha to'laroq tasavvurga ega bo'lishi mumkin.

Demak, insonning kelib chiqishi, ibtidoiy old tarixni tiklash, u davrning qator masalalarini o'rganish uchun hozirgi zamonning qator fanlarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Old tarixni o'rganishda arxeologiyaning o'rni.
2. Arxeologik madaniyat haqida ma'lumot bering.
3. Ibtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi haqida umumiy ma'lumot bering.
4. Etnografiya va etnologiya old tarixning muhim ilmiy manbalari sifatida.
5. tarixiy antropologiya old tarixning ilmiy manbalari sifatidagi ahamiyati haqida gapiring.
6. To'rtlamchi davr geologiyasi, paleogeografiya, paleozologiya, paleobotanika ashyolarining ilmiy manba sifatidagi ahamiyati haqida to'xtaling.
7. Paleoklimatologiyaning ilmiy manba sifatidagi ahamiyati.
8. Tilshunoslik, og'zaki ijodiyoti, toponimika ilmiy manba sifatida.
9. Fizika, kimyo, informatika va statistik ma'lumotlar ilmiy manba sifatida.
10. Yozma manbalar old tarixni o'rganishning asosiy ilmiy manbalari sifatida.

## Test topshiriqlar

1. Arxeologiya fani qachon vujudga kelgan?
  - A. \*XIX asrning ikkinchi yarmida
  - B. XII asrda
  - C. XVII asrda
  - D. XVIII asrda
2. Gerodotga “tarix otasi” deb nom bergan kishi kim?
  - A. \*Demokrit
  - B. Y. Tsezar
  - C. Fukidit
  - D. A. Avgust
3. “Oltin davr” haqidagi rivoyatlar qaysi mamlakat xalqlariga mansub?
  - A. \*bobilliklarga
  - B. xitoyliklarga
  - C. xetlarga
  - D. misrliklarga
4. “Oltin asr” mavjud bo‘lganligini tanqid qilgan faylasuf – mutafakkir kim?
  - A. \*Demokrit
  - B. Esxil
  - C. Fukidit
  - D. Suqrot
5. Qadimgi bobillik tarixchi kim?
  - A. \*Beros
  - B. Gesiod
  - C. Arrian
  - D. Fales
6. “Mehnat va kunlar” poemasi muallifi kim?
  - A. \*Gesiod
  - B. Aristotel
  - C. Pompey Trog
  - D. Gerodot



7. “Buyumlarning xislati haqida” nomli asarning muallifi kim?
- A. \*Lukretsiy Kar
  - B. Tatsit
  - C. Gerodot
  - D. Arastu
8. “Qadimgi jamiyat” asarining muallifi kim?
- A. \*Morgan L. G
  - B. Bahofen
  - C. Mak-Lennan
  - D. Tomas Geksli
9. “Kamchatka yerlarining bayoni” asarining muallifi kim?
- A. \*Krashennikov S. P.
  - B. Lazerev L. P.
  - C. Litke F. P.
  - D. Zuev V. F.
10. Tarixni yovvoyilik, vahshiylik va madaniylik (sivilizatsiya) degan uch davrga bo‘lgan filosof kim?
- A. \*Adam Fergyusson
  - B. Mak-Lennan
  - C. Tomas Geksli
  - D. Morgan L. G.

### **Bob yuzasidan tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Renfrew C, Bahn P. The Cambridge World Prehistory. . Cambridge: Cambridge University Press. 2014
2. Burkitt, M. C. Prehistory. Cambridge: Cambridge University Press. 2012.
3. Kabirov A. Ibtidoiy jamiyat tarixi. (ma’ruzalar matni), –T., 2005.

## **IV BOB. IBTIDOIY OLD TARIX TARIXNAVISLIGI**

### **4.1. Qadimgi davr mualliflarining old tarix haqidagi qarashlari**

Old tarix bashariyat tarixining ajralmas qismini tashkil etadi. U tarixchilikning boshqa sohalariga nisbatan ancha yosh bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarimlaridan vujudga keldi va yuz yildan beri mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda. Lekin bu degan so‘z ilgari odamlar insoniyat jamiyati tarixining bu dastlabki davri haqida hech qanday tushunchalarga ega emas edilar degan fikr kelib chiqmasligi kerak.

O‘zining uzoq o‘tmishiga qiziqish kishilarda ular taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq vujudga kelgan. Shu narsa ravshanki, etnograflar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va boshqa fan sohiblari tomonidan o‘rganilgan xalq, qabila, elatlarda ularning uzoq o‘tmishi, ajdodlarining ajoyib-g‘aroyib qahramonligi, urug‘, qabila va xalqlarning kelib chiqishi ularning turmush tarzi haqida juda ko‘p og‘zaki rivoyat va afsonalar saqlanib kelayotganligi hisobga olingan.

O‘zaro qo‘shni bo‘lib yashagan qabilalar bir-birlarining turmush tarzi mashg‘uloti, diniy e‘tiqodi qanday ekanligini kuzatganliklari shubhasizdir. Bu kuzatishlar faqatgina so‘nggi davrga mansub bo‘lib qolmay, juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, tabaqaviy jamiyat vujudga kelishi bilan qadimgi odamlar haqidagi ibtidoiy ertaklar “Yarim hayvonlik davri” yoki “Oltin davr” haqidagi afsonalar bilan almashindi.

Shumer-bobilliklarning “oltin davr haqidagi doston”larida davr haqida na ilon, na chayon, na sirtlon, na arslon bo‘lgan, yovvoyi itlar ham, bo‘rilar ham bo‘lmagan, qo‘rqinch, dahshat bo‘lmagan, insonning ham raqibi bo‘lmagan, odamlar g‘am-g‘ussasiz, mehnat qilmay yashab, dushman va urush nimaligini bilmaganlar deb madh

qilinadi. Bu tasavvurlar keyinchalik turli xil shakllarda uzoq vaqt davom etdi.

Qadimgi mualliflar, xususan, Demokrit ibtidoiy jamoa tuzumi davriga baho berib, ibtidoiy davr kishilari hech qanday oltin asrda yashagan emaslar, qadimgi zamon kishisi ham tirikchilik qiyinchiliklari, tabiat bilan kurash qiyinchiliklari ostida ko'p ezilib, azob tortgan deb ta'kidlagan edi.

Ibtidoiy tarix haqidagi dastlabki ilmiy bilimlar diniy qobiqqa o'ralib, afsonaviy tarzda bayon etilgan. Lekin ularda haqiqat kurtaklari bo'rtib turar edi.

Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Hindiston, O'rta Osiyo, Xitoy va Qadimgi Sharqning boshqa o'lkalarida yaratilgan qator dostonlar, hikoyalar, qo'shiqlar va xalq og'zaki ijodiyotida kishilikning ibtidoiy davri haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi.

Bu borada qadimgi grek, rim va bobillik tarixchilari tomonidan qayd qilingan ma'lumotlar qimmatlidir. Qadimgi davr tarixchilari tasavvurida madaniylashgan dunyo faqat O'rtayer dengizi atroflaridagi mamlakatlar bilan chegaralanib, undan tashqaridagi bepoyon yerlarda esa ular "varvarlar" deb atalgan qabilalar yashagan. Mazkur qabilalarning ko'pchiligi hali ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida yashar edilar.

Varvarlarning turmush tarzi rim va grek tarixchilariga u qadar yaxshi ma'lum emas edi. Sayohatchilar ular yurtiga kamdan kam borar, borganlari ham u yerlarda qisqa vaqt bo'lib, og'zaki ma'lumot to'plash bilan kifoyalana edilar. To'plangan ma'lumotlar esa ko'pincha bo'rttirilgan va g'ayritabiiy mazmunga ega bo'lar edi.

Lekin, shunga qaramay xuddi shu qadimgi davrda ibtidoiy qabilalar hayotini bayon etishga asos solinib, bu keyinchalik ibtidoiy davr haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Skiflar, pigmeylar va boshqa ko'p qabilalar haqida Gerodotning (484-425), Kichik Osiyo xalqlari haqida Strabonning (63 m.20), germonlar haqida Yuh'y Sezar (100-44) va Tatsit, Misr

va O'rta Osiyo qabilalari haqida Trog Pompey yozib qoldirgan ma'lumotlari juda qimmatlidir.

Gerodot va Strabonlar varvar qabilalarining ba'zilarida umumiy mulk mavjud bo'lib, ona nasabidan qarindoshlik hisobi barqarorligini payqaganlar.

Xususan, Gerodot "likiylarda ona urug'i tartibi hukmron bo'lib, ularda qayliqlarni xotin-qizlarning o'zlari tanlaydilar, sarmat xotin-qizlari juda mag'rur, jangovar bo'lib, o'z dushmanini o'ldirgach, turmushga chiqadilar" deya qiziqarli ma'lumotlar qoldirgan.

Old Osiyo xalqlari haqida yozgan qadimgi tarixchilar orasida Aleksandr Makedonskiy va dastlabki Salavkalar sulolasining zamondoshi mil. avv. IV-III asrlarda yashagan, grek tilini yaxshi bilgan bobillik tarixchi Berosning xizmatlari ham alohida o'rin tutadi. Uni grek tilida Bobil tarixi va mifologiyasi ocherkidan iborat katta tarixiy asar yozganligi ma'lum. Afsuski Beros yaratgan bu asar zamonamizgacha saqlanib qolmagan. Beros asarining Iosif Flaviy va boshqa tarixchilarning asarlarida keltirilgan parchalari va sitatalarigina bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Beros asarlaridan qolgan mazkur parchalarda ibtidoiy zamonlarga oid ma'lumotlar ham uchraydi.

Qadimgi davr, xususan, grek va rimlik mualliflar orasida insoniyatning bu ilk davri to'g'risida yagona fikr bo'lmagan, albatta.

Mil. avvalgi VIII-VII asrlarda yashagan grek shoiri Gesiod o'zining "Mehnat va kunlar" poemasiida insoniyat tarixining ilk bosqichini "jannat" yoki "oltin asr" shaklida tasavvur qilgan.

Gesiodning o'zi o'rtahol dehqon, mayda quldor bo'lib, u o'zining ikki quli va bir batragi bilan birgalikda dalada ertadan kechgacha mehnat qilgan. U dehqon mehnatiga va har qanday mehnatga g'oyat hurmat va ehtirom bilan qaragan. Lekin ilk quldorlik sharoitida dehqonlarning og'ir ahvolda bo'lishi Gesiodni g'azablantirgan. Bu hol Gesiodni inson tabiati va kishilarning turmush sharoiti asta-sekin yomonlashib uzoq o'tmishdagi baxtli oltin davrdan Gesiod zamonidagi qayg'uli temir davrga

borayotganligi haqida pessimistik xulosa chiqarishga olib kelgan. Qadimgi davrning mashhur materialist filosoflaridan biri bo'lgan gretsiyalik Demokrit (470-380) asarlarida ibtidoiy kishilarning qanday hayot kechirganliklari haqida sodda lekin haqqoniy fikrlar uchraydi.

Demokritning fikricha yer yuzidagi dastlabki odamlar “dag'al, qo'pol va vahshiyona suratda hayot kechirganlar, yemish qidirib o'tloqlarda ko'chib yurganlar. Ular yerda mavjud bo'lgan tabiiy oziqalar va daraxtlardagi yovvoyi mevalar bilan ovqatlanganlar”.

Oziq-ovqat topish, yog'in-sochin va vahshiy hayvonlardan saqlanish zaruriyati kishilarni tabiatning turli-tuman hodisalari bilan kurashish usullarini qidirib topishga majbur etgan, albatta.

Demokrit qarashlarining davomchisi qadimgi rim filosofi va mashhur shoiri Lukretsiy Kar (99-55) “Buyumlarning xislati haqida” nomli poemasida kishilikning eng qadimgi yovvoyilik holatidan olov, kiyim-bosh, turar-joy va boshqa narsalarning kashf qilishigacha bo'lgan taraqqiyot manzarasi qisqacha, lekin haqqoniylik bilan bayon qilingan.

Lukretsiy Kar Demokrit kabi odamlarning muhtojlik, zaruriyat tufayli qilgan kashfiyotlarini izohlab ko'rsatgan va o'sha vaqtda xudoning odamni yaratganligi hamda kishilik jamiyati tarixining tongida “oltin asr” mavjud bo'lganligi haqida tarqalgan afsonalarni tanqid qilgan.

Lukretsiy Karning muhim xizmatlaridan biri shuki, u mehnat qurollarini qanday buyumlardan yasalganiga asoslangan holda kishilik tarixini tosh, mis-bronza va temir davrlariga bo'lishni tavsiya qilgan.

U o'zining mazkur farazi bilan hozirgi zamon arxeologiyasining bu eng muhim qoidasini davrimizdan ikki ming yilcha avval payqashga muvaffaq bo'lganligi kishini hayratga soladi.

Demokrit va Lukretsiylarning kishilik hayotining ilk tongi haqidagi sodda, haqqoniy qarashlari genial farazdan iborat bo'lib, u keyingi davrda, xususan, o'rta asrlarda unutilib yuborilgan.

O'rta asrlardagi diniy dunyoqarash ilmiy bilimlarni, xususan, ibtidoiy jamiyat haqidagi g'oyalarni rivojlanishiga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqdi. Yevropadagi ilohiyot olimlari "Tavrot"dagi go'yo xudo tomonidan yaratilgan va o'z gunohlari uchun jannatdan quvib chiqarilgan eng dastlabki odamlar – Odam Ato bilan Momo Havo haqidagi afsonani xalq orasida keng tashviqot qila boshladilar. Mazkur afsona xudoning xohishi bilan dunyoda paydo bo'lgan birinchi odamlar hayoti to'g'risidagi yahudiylar o'zlashtirib olgan shumer afsonasiga asoslanadi. Odam Ato va Momo Havo haqidagi afsona keyinchalik Islom dinining asosiy kitobi bo'lgan "Qur'on"ga ham kiritilgan. Ayrim afsonalarda ibtidoiy odamlar it boshi, boshsiz, shuningdek, ko'kragida ko'zlari bo'lgan maxluqlar qiyofasida tasvirlab ko'rsatilgan.

XIII asrda yashagan ruhoniylar Foma Akvinskiy tuzgan traktatda olam va odamning yaratilishi ilmga zid barcha yolg'on afsonalar va bema'ni da'volar bilan to'latib yuborilgan edi. Garchi o'rta asrlarda din homiylari ilmiy bilimlarni, xususan, ibtidoiy jamiyat haqidagi ilg'or g'oyalarni har tomonlama bo'g'ishga harakat qilmasin, yer va unda yashagan xalqlar haqidagi bilim asta-sekinlik bilan bo'lsa ham olg'a qadam tashladi.

Sharqning mashhur olimlari Yevropa va Osiyo xalqlari haqida juda ko'p ma'lumot yozib qoldirishgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning "Osori boqiya", "Hindiston", Xitoy geografi Chan-Chunning (XIII asr) asarlari va yilnomalarida Sharq xalqlari, qabilalari haqida ularning urf-odati, turmushi, mashg'uloti va madaniyatiga doir juda ko'p ma'lumotlar bor.

Sharq o'lkalarga savdo-sotiq va diplomatik munosabatlarni tiklash uchun borgan Plono Karpini, Rubruq, Marko Polo va Afanasiy Nikitin va boshqalar mazkur joylardagi xalq va qabilalarning hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar to'plab, qaytganlarki, bu bilan Yevropaliklarni Sharq xalqlari haqidagi bilimlari ortdi.

Ularning kundaliklari, yilnomalari va asarlaridan kishilik tarixining ilk bosqichiga aloqador bo'lgan ko'pgina etnografik ma'lumotlar topish mumkin.

Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, qiyosiy etnografiyasiz kishilikning uzoq o'tmishini tiklash mumkin emas. Shu jihatdan, XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan va keyingi asrlarda davom etgan, buyuk geografik kashfiyotlar Amerika, Hindiston, Afrika, Avstraliya, Okeaniya, Osiyo va Yevropada yashagan qabilalar, elatlar va xalqlar etnografiyasini o'rganish uchun shart-sharoit vujudga keltirdi.

1492-yilda Xristofor Kolumb, Amerigo Vespuchchi, Amerika qirg'oqlariga, 1497-yilda Vasko-da Gama o'z odamlari bilan Hindiston yerlariga, 1519-1521-yillarda Magellan butun Yer kurrasini aylanib chiqar ekan, ular ketidan okean ortiga kon izlovchilar, savdogarlar, bosqinchi-talonchilar hamda har xil sohaning mutaxassislari ham yo'l oldilar. Ularning ba'zilari mahalliy aholining turmushi bilan qiziqib, mazkur qabilalarning hayoti, ijtimoiy tuzumi, madaniyati va diniy e'tiqodlari haqida qimmatli etnografik ma'lumotlar to'plab, juda katta ish qildilar.

Ulardan biri Amerikadagi irokez va guonlar turmushini kuzatgan J. F. Lafito (1670-1740) o'z kitobida Shimoliy Amerikada yashovchi qabilalar hayoti haqida juda ko'p ma'lumotlar berib, ulardan kishilikning ibtidoiy hayot manzarasini tiklashda foydalanish mumkinligini aytgan edi. Lafito mazkur qabilalar orasida bo'lar ekan, o'zining kuzatishlariga asoslanib ibtidoiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi ham Shimoliy Amerika hindilarining, xususan, guonlar va irokezlarning ijtimoiy tuzumiga o'xshash bo'lgan bo'lsa kerak degan fikrni bayon qilgan. Ana shularga asoslanib Lafito Yevropa xalqlarining eng qadimiy davrini Shimoliy Amerika hindilarining urf-odatlarini asosida izohlab tushuntirib berish mumkinligini birinchi bo'lib maydonga tashladi.

Yangi yerlarni kashf qilinishi XVIII asr oxirigacha davom etib, bu ibtidoiy tarzda hayot kechirayotgan xalqlar bilan yanada kengroq tanishish imkonini berdi. Laperuz, Mopertyui, Bugenvalb, J. Kuk va boshqa sayyohlar o'z kashfiyotlari to'g'risida ajoyib ma'lumotlar qoldirib ketdilar. O'zlari ochgan yerlar, u yerdagi

aholi haqida, ularning ijtimoiy tuzumi va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladilar.

XVIII asr boshlaridan boshlab Sharqiy Yevropa va Shimoliy hamda Sharqiy Osiyoga ham qator ekspeditsiyalar uyushtirildi. Ajoyib rus sayyohlari va tadqiqotchilaridan G. Novitskiy, G. F. Miller, I. G. Gmelin, S. P. Krasheninnikov, G. V. Steller, P. S. Pallas, I. G. Georgiy, V. F. Zuev, I. I. Lepexin kabi sayyohlar Ural, Volgabo'yi, Rossiya, Yevropa qismi, Shimoliy va Sharqiy Osiyoda yashovchi xalqlarning turmushi, dini, mashg'uloti, xalq og'zaki ijodiyotiga aloqador bo'lgan ko'pgina etnografik ma'lumotlar to'pladilar.

Krasheninnikov S. P. (1713-1755) "Kamchatka yerlarining bayoni" nomli asarida kamchatkalilarning itelmen qabilalari haqida to'xtalib, ular ham metall nima ekanligini bilmas va urug'chilik tuzumi sharoitida yashar edilar deb yozgan edi.

Rus sayyohlaridan I. F. Kruzenshtern, Y. F. Lisyanskiy, O. E. Kotsebu, F. P. Litke, A. P. Lazarev, L. Y. Zagoskin va I. E. Keniaminov kabilar Okeaniya hamda Shimoliy Amerikaning eskimos, hind-atapask va boshqa qabilalari haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladilar.

Mashhur rus etnograf olimi N. N. Mikluxo-Maklay (1846-1888) Yangi Gvineyadagi papuaslar orasida uzoq yashab, ularning urf-odatlarini va turmush madaniyatini chuqur o'rganib, katta ilmiy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plagan.

Ulug' geografik kashfiyotlar va undan keyingi davrlarda juda ko'p etnografik materiallar to'plandiki, bular ibtidoiy jamoa tuzumining shakllanishi haqida turli xil nazariyalarni vujudga kelishiga asos bo'ldi. XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan Adam Fergyson, I. Forster, uning o'g'li Georg, K. Y. Tomsen, I. Y. Verso, S. Nilson, J. Bushe de Pert, D. Evans, Ch. Layel, E. Larte, Mak-Ineri Shmerling, Ch. Darwin, T. Gekspi kabi olimlar odamning paydo bo'lishi, ibtidoiy jamiyat, ibtidoiy jamiyatning davrlarga bo'linishi, u davr kishilarining ijtimoiy hayoti, mehnat qurollari va diniy tasavvurlari haqida xilma-xil mulohazalar bildirdilar. XIX-XX asrlarda esa E. Teylor, G.



Speyser, J. Fyurgyuson, Mak-Lennan, Y. Lippert, J. Lebbok, G. Mortele, O Mon-Telius, I. Y. Baxofen kabilarning ibtidoiy jamiyat tarixiga bag'ishlangan asarlari chop etila boshladi.

Mazkur olimlarning aksariyati old tarixning ko'pgina masalalariga obyektiv suratda yondashib, ularni ilmiy asosda talqin qila boshladilar.

Bu sohada Shotlandiya filosofi Adam Fergyusonning (1723-1816) fikrlari ayniqsa diqqatga sazovordir. U o'zining "Grajdanlar jamiyati tarixi ocherki" nomli asarida tarixni-yovvoyilik, vahshiylik va madaniylik degan uch davrga bo'lgan. Shuni alohida uqdirib o'tish kerakki, Fergyuson birinchilardan bo'lib, ibtidoiy jamiyatda ibtidoiy kommunizm tartibi mavjud bo'lganligi haqidagi fikrni bayon qilgan. Nemis olimlaridan Iogann Forster (1729-1798) va uning o'g'li Georg Forster (1754-1794) ham shunday fikrlar bilan maydonga chiqib, kishilikning eng qadimgi davrini bolalik yoki yovvoyilik, yoshlik yoki vahshiylik va yetuklik yoki "madaniy" holatlari bosqichiga ajratishgan.

Daniyalik arxeolog K. Y. Tomsen esa (1778-1865) esa ibtidoiy davrga mansub bo'lgan arxeologik yodgorliklarni buyumlarga qarab tosh, bronza va temir davrlariga bo'ladi.

U juda ko'p arxeologik materiallarga asoslangan holda Lukretsiy Kar zamonasidan beri saqlanib kelayotgan uch davrlilik (asrlilik) nazariyasining to'g'ri ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Daniyalik arxeolog I. Y. Versa esa Tomsenga nisbatan ham ilgarilab ketib, hatto bronza davridagi ko'mish marosimlari bir-biridan farq qilishiga e'tibor berdi.

XIX asrdan boshlab arxeologiya sohasida ma'lum darajada siljish ro'y berdi.

Frantsuz arxeologlaridan J. Bushe de Perta (1788-1868) juda qo'pol ishlangan tosh qurollar topib, ular qadimgi mamont, nosorog va boshqa yovvoyi hayvonlar bilan bir zamonda yashagan ibtidoiy kishilarning mehnat qurollari ekanini bayon qildi. Bushe de Pertaning kashfiyoti insonning kelib chiqishi haqidagi "Bibliya" –

“Injil”, “Tavrot” va “Qur’on”da keltirilgan sanaga katta zarba berib, uning qadimiyligini isbot qilib berdi.

J. B. Lamark, Ch. Darvin va Tomas Gekslilar esa insoniyatning eng qadimgi ajdodi odamsimon maymun ekanligini bayon qilib berdilar.

Yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar dastlabki kishilar ibtidoiy jamiyat tarixi fanining vujudga kelishi, uning davrlarga bo‘linishi, rivojlanish etaplari, u davr kishilarining ijtimoiy hayoti, mehnat qurollari va diniy tasavvurlari haqida xilma-xil fikr hamda mulohazalar bilan maydonga chiqdilar.

Bu bilan ular ibtidoiy jamiyat tarix fanining vujudga kelishida salmoqli hissa qo‘shdilar. Lekin, bular orasida I. Y. Bahofen, Mek-Lennan va amerikalik mashhur etnograf L. G. Morganning xizmatlari alohida ahamiyatga egadir.

Shveytsariyalik tarixchi va yurist I. Y. Bahofen ibtidoiy oila va nikoh masalalarini o‘rganish ishiga eng dastlabki asos solgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U qadimgi klassik adabiyot, etnografiya va arxeologiya fanlari qo‘lga kiritgan ma’lumotlarga asoslanib yaratilgan “Onalik huquqi” va boshqa asarlarida oila, nikohning vujudga kelishi haqida qimmatli mulohazalar bildirdi.

Bahofen I. Y. dastlabki jinsiy aloqa, onalik huquqi, ayollarning tutgan o‘rni, ona va ota urug‘lari haqida quyidagi fikrlarni bildirdi:

1) Kishilar dastlab tartibsiz jinsiy aloqa qilib yashaganlari, buni – Bahofen “geterizm” – erkin hayot kechiruvchi ayol degan nomuvofiq nom bilan atagan;

2) Shunday ekan tug‘ilgan bolaning otasi kim ekanligini bilishning imkoniyati bo‘lmagan, binobarin nasl-nasabni faqat xotin tomondan qarab onalik huquqiga qarab belgilash mumkin edi;

3) Demak shunday ekan xotinlar tug‘ilgan bolalarning onalari, yosh bo‘g‘inni tug‘ib o‘stirganliklari hammaga aniq ma’lum bo‘lgan. Birdan bir onalar bo‘lganliklari sababdan, juda katta e’tibor qozonganlar va izzat-ikrom qilinar edilar.

Ayollar bunday izzat-ikrom qilinganliklari tufayli to‘la hukmronlik – ginekokratiya darajasiga yetishgan edilar;

4) Bir nikohlilikka o'tish, bunda xotin bitta erkakniki bo'lib, bu hol eng qadimgi diniy nizomni buzish degan gap edi: bu tartibni buzish jazo berilishini talab qilar, yoki hech bo'lmaganda bu xotin bundan keyin ma'lum bir vaqt ichida boshqalar bilan aloqa qilib gunohini yuvishi kerak edi.

Uning fikricha "geterizm"dan monogamiyaga va ona huquqidan ota huquqiga taraqqiy etish diniy tasavvurlarning yanada taraqqiy etishi natijasida sodir bo'ladi deb noto'g'ri fikrni bildirgan. Shunga qaramay Bahofen Aristotel zamonidan beri hukm surib kelayotgan "patriarxal" nazariyaga – kishilikning boshlang'ich shakli ota-onalar va ularning avlodlaridan tashkil topgan oiladan oilada esa katta yoshdagi erkak hukmron, uning huquqi chegaralanmagan edi, degan noto'g'ri fikrga qattiq zarba berdi. Ammo Aristotelning patriarxal oila nazariyasi burjua adabiyotida hamon saqlanib kelmoqda.

Bahofenning "Onalik huquqi" asari bosilib chiqqandan so'ng oila tarixini o'rganishga asos solindi.

Ibtidoiy nikoh va oila tarixini o'rganishda shotlandiyalik yurist J. F. Mak-Lennanning (1827-1881) ham xizmati bor.

Mak-Lennan qadim zamonda yashagan va yangi zamonda yashayotgan qabila va xalqlarda nikohlanishning formalari, shubhasiz, xilma-xil bo'lgan degan fikrni bayon qiladi. Qoloq qabilalar orasida deydi u, shunday gruppalar mavjud bo'lganki, mazkur gruppalar ichida o'zaro nikohlanish mutlaqo man etilgan. Shuning uchun ham erkaklar xotinni, xotinlar erni o'zlari yashab turgan gruppadan tashqari joydan olishgan. Lekin shunday gruppalar ham mavjud bo'lganki, ularda erkaklar xotinni, xotinlar erni o'z gruppalari ichidan tanlash odati bo'lgan.

Mak-Lennan birinchi guruhni ekzogamiya – tashqaridan nikohlanish, ikkinchisini esa endogamiya – ichkarida gruppada doirasida nikohlanish tartibi deb atagan.

Mak-Lennanning xizmati shundaki, u o'zi ekzogamiya deb atalgan nikoh tartibining hamma joyga tarqalganligini va uning katta ahamiyati borligini ko'rsatdi.

Uning boshqa xizmati shundaki, u nasl-nasabni onalik huquqiga qarab tayin qilish, dastlab hukm surgan tartib ekanini e'tirof etdi. Ammo u barcha qabilalar ekzogamiya va endogamiyaga bo'linib, ekzogamiya mazkur gruppada qiz bolalarni tug'ilishi bilan o'ldirilishi natijasida ayollar sonining kamayib ketishi oqibatida kelib chiqqan deb noto'g'ri xulosaga keladi.

Mak-Lennan o'zining bu mulohazalarini "Qadimgi tarix ocherklari", "Boshlang'ich nikoh" kabi asarlarida bayon qilgan.

Ibtidoiy old tarixni o'rganishda mashhur Amerika olimi L. G. Morgan (1818-1881) ham alohida o'rinni egallaydi. L. G. Morganning ibtidoiy va qadimgi davr qabila va xalqlari haqidagi qarashlari uning "Qon-qarindoshlik tizimi", "Amerikaliklarning uyi va uy xo'jaligi", ayniqsa, "Qadimgi jamiyat" degan asarlarida o'zining to'liq ifodasini topgan. Uning xulosalari Yer sharining hamma joylaridan olingan juda ko'p etnografik, arxeologik va tarixiy dalillarga asoslangan edi. L. G. Morgan Shimoliy Amerika hind-prokezlari orasida 40 yildan oshiq yashab, ular hayotini chuqur o'rgangan. Bu kuzatishlar Morgan tadqiqotlarining negizini tashkil etadi. Bahofen va Mak-Lennandan so'ng oila va nikoh tarixi bilan qiziqib, uni tiklashga kirishdi. L. G. Morgan oila va nikoh taraqqiyotining qator bosqichlarini – eng dastlabki nikohdan monogamiyagacha bo'lgan bosqichlarini belgilab berdi.

L. G. Morganning ulug' xizmati shundan iboratki, u yozma tariximizning ana shu tarixdan bugungi negizining asosiy xususiyatlarini ochib bordi va tikladi hamda qadimgi greklar, rimliklar va germanlar tarixining hozirgacha hal qilinmay kelgan eng muhim muammolarini hal qilishga imkon beradigan kalitni Shimoliy Amerika hindilarining urug'doshlik birlashmalaridan topdi. L. G. Morganning asarlari, xususan, uning, "Qadimgi jamiyat" kitobi, ibtidoiy davr tarixini o'rganishda eng qimmatli manbalardan hisoblanib, Engels aytganidek, zamonamizda, butun bir davr ochadigan juda nodir asarlardan biridir. Lekin ibtidoiy davr tarixini ilmiy asosda o'rganish XIX asr o'rtalarida boshlandi.

## Savollar va topshiriqlar

1. Tarixnavislik haqida umumiy ma'lumot.
2. Qadimgi xalqlarning qo'shni xalqlar haqidagi tasavvurlari.
3. Yunon, Rim, Old Osiyo, Xitoy va boshqa mualliflarning ibtidoiy jamoa davri kishilari haqidagi qarashilari.
4. O'rta asrlardagi etnografik kuzatishlar.
5. XIX asrning ikkinchi yarmida ibtidoiy jamoa tarixining fan sifatida vujudga kelishi. XX asrda arxeologiya, paleoantropologiya, antropologiya fanlarining yanada rivojlanib ravnaq topishi.
6. Yunon, Rim, Old Osiyo, Xitoy va boshqa mualliflarning asarlari old tarixni o'rganishda qanday ilmiy ma'lumotlar bera oladi?
1. O'rta asrlardagi etnografik kuzatishlar va Buyuk Geografik kashfiyotlar haqida ma'lumotlar bering?
2. Ibtidoiy jamiyat tarixi haqidagi fanning vujudga kelishi va qadimgi davrda ibtidoiy davr haqidagi tushunchalar.
3. Antik davr mualliflarining ibtidoiy davr haqidagi qarashlari.
4. O'rta asrlarda etnologik kuzatuvlar.
5. Buyuk geografik kashfiyotlar davri va ibtidoiy xalqlar haqidagi bilimlarning kengayishi.
6. Ibtidoiy jamiyatlar haqidagi aniq ma'lumotlarning to'planishi va ularning XIX asrda umumlashtirilishi.
7. XX asrda ibtidoiy arxeologiya va paleoantropologiyaning rivojlanishi.
8. XX asrda ibtidoiy o'tmishni tarixiy-etnogik qayta tiklash ishlarining taraqqiy etishi.

## Test topshiriqlari

1. Tarixni ashyoviy manbalar asosida o'rganadigan fan?
  - A. \*arxeologiya
  - B. antropologiya
  - C. etnografiya

- D. xronologiya
2. O'zbekiston tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manbani aniqlang?
- A. \* "Avesto"
  - B. "Anabazis"
  - C. "Behustun"
  - D. "Mahabxarot"
3. Behustun qoyalari qaysi shahar yaqinida joylashgan?
- A. \* Kirmonshoh
  - B. Hamadon
  - C. Tehron
  - D. Ray
4. Markaziy Osiyo geografiyasi bo'yicha ma'lumot qoldirgan olimni aniqlang?
- A. \* Arrian
  - B. Gerodot
  - C. Gomer
  - D. Demokrit
5. "Iskandarning harbiy yurishlari" asari muallifi kim?
- A. \* Arrian
  - B. K. K. Ruf
  - C. Ktesiy
  - D. Ksenofont
6. "Tarixiy yilnomalar" asari muallifini aniqlang?
- A. \* Sima Szyan
  - B. Chjan Szyan
  - C. U Di
  - D. Ben Fu
7. So'g'd yozuvi qachon shakllangan?
- A. \* mil avv. III-II asrlar
  - B. mil avv. 1-ming yillikda
  - C. mil avv. IV-III asrlar
  - D. mil avv. II-I asrlar
8. Qadimgi Xorazm yozuvi qachon yaratila boshlangan edi?
- A. \* mil avv. V-IV asrlar

B. mil avv. VI-V asrlar

C. mil avv. IV-III asrlar

D. mil avv. III-II asrlar

9. Ibtidoiy jamiyat tuzumining to‘da davri arxeologik davrlashtirishning qaysi bosqichiga to‘g‘ri keladi?

A. \*qadimgi tosh asrining ilk va o‘rta bosqichlariga

B. so‘nggi paleolit bosqichiga

C. neolit davriga

D. eneolit davriga

10. “Zanjirband Prometey” nomli tragediya kimning qalamiga mansub?

A. \*Esil

B. Gerodot

C. Beros

D. Demokrit

### **Bob bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. r 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. R 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: “Высшая антропологическая школа”, 2005. Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П. Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. “Наука”, 2012. Стр. 3-10.

5. Кабиров А. Ибтидоий жамият тарихи. (Маърузалар матни) –Т.. 2005.

### 5.1. Dastlabki odamlar jamoasi (to‘da)

Insoniyat hayvonot olamidan ajralib chiqib antropogenez jarayonini bosib o‘tdi. Bu, shubhasiz, juda katta davrni o‘z ichiga olgan jarayon edi. o‘z-o‘zidan savol tug‘iladiki, mazkur davr ichida odamlar kollektivi qanday edi? Ma‘lumki, eng qadimgi odamlarning ajdodlari – qazilma maymunlar, avstrolopitekklar poda yoki gala bo‘lib yashaganlar. Ikkinchi tomondan, odamning shuning bilan birga qurollar ishlashning faqat kollektiv ichidagina paydo bo‘lganini e‘tirof qilish zarur.

Kishi organizmining, xususan, qo‘lning taraqqiy qilishi natijasida, mehnat natijasida tabiat ustidan boshlangan hukmronlik ilgariga qarab bosilgan har bir qadam borgan sayin odamning bilim darajasini kengaytirib bordi. Mehnatning rivojlanishi zaruriyati orqasida, jamiyat a‘zolarining yanada yaqinroq jipslashuviga yordam berdi, chunki shuning orqasidan bir-birlariga yordam qilish, birgalashib ishlash tez-tez uchraydigan hodisa bo‘lib qoldi. Birgalashib ishlashning foydasini anglash esa jamiyatning har bir a‘zosi uchun ravshan bo‘lib qoldi. Dastlabki odamlar kollektivi shunday guruh ediki, undagi aloqa birgalikda ovqat topish va tashqi xavfdan birgalikda saqlanishga asoslangan edi. Lekin, inson o‘z hayotining u ilk davrida turmush vositalari bilan juda kam ta‘minlangan edi. Tirikchilik vositalarini qo‘lga kiritish ijodiy xarakterga ega edi. Odamlar orasida ongli ravishda uyushgan mustahkam va doimiy guruhlar yo‘q va bo‘lishi mumkin emas edi.

Odamlar kollektivi turli joylardagi mahalliy shart-sharoitga va turmush kechirish imkoniyati, mavsum va boshqa sabablarga bog‘liq holda katta yoki kichik bo‘lgan, uning tartibi doimo o‘zgarib borgan, ularning tarqalib ketishi va yana qaytadan qo‘shilishi mumkin edi. Demak shunday ekan, kishilikning bu kollektivni nima deb atamoq kerak. Biz ularni qanday atamaylik baribir o‘sha davrning odami “haqiqiy” odam edi, odamlar kollektivi hali odamlarning bir-biri bilan aloqa qilishining ilk tabiiy



shaklidan iborat bo'lgan "haqiqiy" odamlar kollektivi edi. O'sha davrdagi kishilik ijtimoiy ahvolidagi yana bir xususiyati shundan iboratki, bu davrda kishilari guruhi o'rtasida doimiy aloqa bo'lmagan. Ular bir-birlaridan ajralgan holda yashagan bo'lishlari mumkin. Demak, kishilikning boshlang'ich ijtimoiy ahvolidagi bu xususiyatlar ishlab chiqarish kuchlarining juda past darajada ekanligidan darak beradi.

Lekin dastlabki kishilik guruhlarining o'zaro munosabatlari to'g'risida aniq bir fikr aytish qiyin, albatta. Ehtimol har bir kollektiv yoki guruhlarining o'z yo'l boshchisi, yetakchisi bo'lgandir. Mazkur gruppning yetakchisi erkak bo'lganmi, yoki ayolmi, bu bizga ma'lum emas.

Bu shak-shubhasiz uydurma bo'lib, ular yuqori tabaqaga mansub kishilar manfaatini ximoya qilishga qaratilgandir.

Ishlab chiqarish kuchlari o'sa bordi. Kuchlarning rivojlana borishi natijasida ijtimoiy hayotda ham katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida, xususan, mehnat qurollarining takomillashuvida ko'zga tashlanadi. Qadimgi paleolit davrida qurollarning xili juda oz bo'lib, ular juda ham sodda ishlangan edi.

Lekin, qadimgi paleolitning oxiri va so'nggi tosh asrning boshlariga kelganda manzara butunlay o'zgarib, toshdan tarashlag'ich, qirg'ich teshgich va nayza uchlari, yer kavlag'ich qurollari vujudga keldi. Undan tashqari suyakdan va yog'ochdan bigiz, igna, so'yil, nayza uchlari va boshqa murakkabroq, asboblardan uchun moslamalar yasashga erishildi. Baliq ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tipli garnun kashf qilinishi ham ana shu davrga mansubdir.

Mehnat va ov qurollarining mukammallashuvi oqibatida ovchilik xo'jaligi va termachilik ham rivojlana bordi.

Bu hol jamiyatda chuqur o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi.

Tirikchilik hayot-mamot uchun bo'lgan kurash, xo'jalikni uzluksiz ta'minlay oladigan doimiy va birlashgan ishlab chiqarish

uyushmasining zarur ekanligini taqazo etdi va uni vujudga keltirdi. Bunday birlashgan uyushmani ibtidoiy kishilarning tasodifiy yig'indisini vujudga keltira olmas edi.

Bu birlashma negizida tabiiy qon-qarindoshlik yotar, bu eng dastlabki urug' yoki urug'chilik jamoasi edi. Ibtidoiy poda davrida ham odamlar gala-gala, guruh-guruh bo'lib yashaganlar. Lekin u guruhlarning soni 20-30 kishidan oshmas, ular ancha beqaror va mustahkam emas edi.

## 5.2. Nutq va muloqot

Nutqning shakllanishi va rivojlanishi masalasini o'rganishda Avstraliya tillarini misol qilib keltirish mumkin. Avstraliya tillari "shimoliy" va "janubiy" guruhlarga bo'linib, janub qabilalari tillari bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Janub tillaridagi yaqinlik faqat lug'ati bilan emas, grammatik jihatdan ham kuzatiladi.

"Shimoliy" tillarni shartli ravishdagina guruh deb atash mumkin xolos. Ularda, so'zlar oxiridagi unli harflarni hisobga olmaganida, o'zga yaqinlikning o'zi topilmaydi. Avstraliya tillarining fonetikasi sodda bo'lib, unda tomoq orqali yoki hushtaksimon ovoz chiqaradigan so'zlar uchramaydi. Grammatika jihatidan avstraliya tillari agglyutinativ tipga oiddir. Ular o'z xususiyatlari bilan turkiy yoki boshqa oltoy tillarini, yana ham ko'proq Janubiy Hindistondagi dravid tillari tuzilishiga o'xshaydi. Bunga yorqin misol tariqasida aranda qabilalari tilini ko'rsatish mumkin.

Oddiy tovushli (ovozli) nutqqa qo'shimcha avstraliyaliklarning nisbatan marakkab imo-ishoralari, qo'l harakatlari bo'lib, ular gunglarning o'zaro "gurungini" eslatadi. Imo-ishoralar, qo'l harakatlari, so'zlashish uchun masofa uzoq bo'lganida yoki o'zaro tillari yaqin bo'lmagan turli qabilalar vakillari uchrashganida ishlatiladi. Ba'zida ma'lum muddatga gaplashishning ta'qiqlanishi bevalar yoki bag'ishlov (initsiatsiya) marosimini o'tayotgan o'smirlarda ham imo-ishoralar "tili" qo'llaniladi. Xususan, Karl Shtrelov aranda qabilalari kishilarida 450dan ortiq imo-ishoralar va

harakatlar mavjudligini aniqlagan. Masalan, qo‘lning to‘rt barmog‘i kaftga qo‘yilib, bosh barmoqning ikkinchi barmoqqa yopishgan holda aylanma harakatlari “suv” ma‘nosini bergan va h.k.lar. Avstraliya tillari jahon xalqlari tillarida o‘ziga xos alohida o‘rin tutadi va ularning birortasi bilan yaqinlikka ega emas. Avstraliya va Tasmaniya tillari umumiy tushunchalarga boy bo‘lmasada, lekin aniq narsalar, buyumlarning eng mayda xususiyatlarini ham izohlab berishga qodir. Avstraliya tillarida sanoqni bildiruvchi so‘z va tushunchalar ham kam uchraydi. Avstraliya tub aholisi 200dan ortiq tillarda gaplashib, ular maxsus 20ta til guruhida ega filaga birlashtirilgan. Ulardan yirigi pama — nyunga, aholining 2/3 qismining tillarini o‘zida mujassamlashtirgan.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Dastlabki odamlar jamoasi (to‘da)ning xususiyatlarini sanab bering.
2. Ilk ovchi va termachi jamoalar turmush tarziga o‘xshash hayot kechiruvchi bugungi kundagi mavjud qabila va elatlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Ilk jamoatchilikning rivojlanishi va jinsiy munosabatlar.
4. Til va nutqning shakllanishi.
5. Ilk g‘oyaviy tasavvurlarning paydo bo‘lish omillari.

### **Test topshiriqlari**

1. Urug‘-aymoq jamoasi necha bosqichdan iborat?
  - A. \*ikki bosqichdan
  - B. bir bosqichdan
  - C. to‘rt bosqichdan
  - D. besh bosqichdan
2. Urug‘-aymoq jamoasining ilk bosqichi qanday nom bilan ataladi?
  - A. \*ona urug‘i

- B. animizm
- C. totemizm
- D. fetishizm

3. Yigit qizga uylangach ularni qiz xonadonida yashash tartibi nima deyiladi?

- A. \*matrilokal
- B. patrilokal
- C. dislokal joylashuv
- D. poligamiya

4. Nikohlangan er-xotinning er urug‘i hududida yashash tartibi nima deyiladi?

- A. \*patrilokal joylashuv deyiladi
- B. initsiatsiya deyiladi
- C. dislokal joylashuv deyiladi
- D. megalitlar deyiladi.

1. Dastlabki urug‘ jamoa tuzumi davrida ibtidoiy odamlar xo‘jalikning qaysi turidan foydalanganlar?

- A. \*o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan
- B. chorvachilikdan
- C. baliqchilikdan
- D. dehqonchilikdan

2. Ishlab chiqarish xo‘jaligining asosini nimalar tashkil qiladi?

- A. \*dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik
- B. chorvachilik, termachilik, baliqchilik
- C. dehqonchilik, ovchilik, termachilik
- D. baliqchilik, ovchilik, hunarmandchilik

3. Ibtidoiy to‘da davri kishilarining xo‘jaligini, asosan, qaysi tarmoq tashkil qilgan?

- A. \*ovchilik va termachilik
- B. dehqonchilik
- C. hunarmandchilik
- D. ibtidoiy chorvachilik

4. Ibtidoiy to‘da davrining xronologik chegarasi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

- A. \*ilk va o‘rta paleolit davri

- B. so'nggi paleolit
- C. mezolit va eneolit
- D. bronza

5. Ibtidoiy to'da davri mehnat qurollari nimadan yasalgan?

- A.\*toshdan
- B. yog'ochdan
- C. misdan
- D. temirdan

6. Ibtidoiy to'da davri nikoh munosabatlarini aks ettirgan atamani toping?

- A.\*promuskutet
- B. levirat
- C. sorarat
- D. poliandriya

8. Ibtidoiy to'da davrining xronologik chegarasi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- A. \*ilk va o'rta paleolit davri
- V. so'nggi paleolit
- S. mezolit va eneolit
- D. bronza

9. Ibtidoiy to'da davri mehnat qurollari nimadan yasalgan?

- A.\*toshdan
- B. yog'ochdan
- C. misdan
- D. temirdan

10. Ibtidoiy to'da davri nikoh munosabatlarini aks ettirgan atamani toping.

- A.\*promuskutet
- B. levirat
- C. sorarat
- D. poliandriya

## **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. r 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. R 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: "Высшая антропологическая школа", 2005. Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П. Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. "Наука", 2012. Стр. 3-10.

5. Кабиров А. Ибтидой жамият тарихи. (Маърузалар матни) –Т.. 2005.

## VI BOB. ILK IBTIDOIY URUG‘ JAMOASI DAVRI

### 6.1. Ilk ibtidoiy jamoa haqida umumiy tushuncha

Ishlab chiqarish kuchlari o‘sa bordi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlana borishi natijasida ijtimoiy hayotda ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Bu o‘zgarishlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida, xususan, mehnat qurollarining takomillashuvida ko‘zga tashlanadi. Qadimgi paleolit davrida qurollarning xili juda oz bo‘lib, ular juda ham sodda ishlangan edi.

Lekin qadimgi paleolitning oxiri va so‘nggi tosh asrining boshlariga kelganda manzara butunlay o‘zgarib, toshdan tarashlag‘ich, qirg‘ich teshgich va nayza uchlari, yer kavlagich qurollari vujudga keldi. Undan tashqari suyakdan va yog‘ochdan bigiz, igna, so‘yil, nayza uchlari va boshqa murakkabroq, asboblar uchun moslamalar yasashga erishildi. Baliq ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tishli garpun kashf qilinishi ham ana shu davrga mansubdir.

Urug‘chilik tuzumi davriga kelib esa har bir urug‘dagi kishilar uyushmasi 4-5 barobar oshib, urug‘ ichidagi odamlar o‘zaro mustahkam birlikka ega bo‘lganlar. Urug‘ va urug‘chilik tuzumining kelib chiqishi tarixchilikning eng muhim va eng qiyin masalalaridan biri hisoblanadi. Urug‘ jamoasi ibtidoiy to‘daga nisbatan ancha progressiv ijtimoiy tashkilot hisoblanardi. Ibtidoiy to‘daning urug‘ jamoasiga aylanish jarayoni uzoq tarixiy davrni bosib o‘tadi. Urug‘ bir-biriga qon-qarindosh ancha mustahkam birlikka ega bo‘lgan kishilar majmuasidan iboratdir.

Hayot taqazosi bilan vujudga kelgan urug‘lar keyinchalik qabilani tashkil etgan. Dastlabki qabilalar ikki va undan ortiq urug‘dan tashkil topishi mumkin edi. Bir Avstraliya qabilasining ikki “pallaga” yoki “ikki nikoh sinfi” – kroki va kumetiga bo‘linishi buning yaqqol misolidir.

Urug‘chilik jamiyatining bu dastlabki tuzilishini dual tashkilot deb atash rasm bo‘lgan. Bu dual tashkilot turli mamlakatlardagi

ko'pgina qabilalarda so'nggi vaqtlargacha ham saqlanib, sodda yoki murakkab tarzda ko'zga tashlanadi. Dual tashkilotining navbatdagi murakkabroq shakli boshqacharoq bo'lib, bunda qabila har qaysi to'rt urug'dan iborat ikkita "pallaga" bo'linadi.

Ilk qabila tuzilishining bu ikki shakli fratriy-birodarlik sistemasi deb ataladi.

Shimoliy Amerikadagi tubjoylik seneka irokezlar qabilasi fratriya tashkilotining klassik namunasi hisoblanadi.

Seneka-irokezlar qabilasi to'rt urug'dan iborat bo'lgan ikki fratriyaga bo'lingan. Mazkur fratriya va urug'lar alohida nomlar bilan atalgan. Rivoyatlarga ko'ra ularda ayiq va qayiqdan iborat ikkita boshlang'ich urug' bo'lgan, bo'ri, qunduz, toshbaqa (ayiq fratriyasi) loyho'rak, qo'tos, lochin (kiyik fratriyasi) kabi urug'lar, ularning bo'linishi natijasida shakllangan. Bunday misollarni yer yuzining boshqa xalqlarida ham kuzatish mumkin.

Urug'chilik tuzumining bunday dual tashkiloti shaklida paydo bo'lishi erkak va ayollar orasidagi munosabat – nikoh rivojlanishining yangi bosqichi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kishilikning poda davrlarda nikoh munosabatlari o'zining betartibli va umumiyli bilan xarakterlidir. Nikoh va oila munosabatlarining bu shakli promiskuitet deb ataladi.

Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa nikoh va oila munosabatlari o'zgara bordi.

Promiskuitetda dastlabki cheklanish sodir bo'ldi, bu ham bo'lsa katta avlod bilan kichik avlod o'rtasidagi nikoh munosabatlarining bekor qilinishidir.

Mazkur davrdagi dual tashkilotining eng muhim xususiyati shundan iborat ediki, bu bir "pallaga" mansub odamlarning o'zaro nikohlana olmasligi edi. Endi er va xotin qabilaning turli "palla"sidan bo'lishi shart edi. Birmuncha rivoj topgan fratrial fromdagi dual tashkilotining nikoh tartibi bir fratriyadagi va undagi urug'ning odamlari o'zaro nikohlanishi mumkin emas. Yigit boshqa fratriyaga mansub bo'lgan qiz yoki ayolga nikohlana olishi mumkin edi. Natijada bir fratriya boshqa fratriyaga nisbatan "ona



fratriyasi” ona urug‘i, boshqasi esa ota fratriyasi ota urug‘i vujudga kelar edi.

Shu tariqa ekzogamiya nikoh tartibi vujudga kelgan. Shunday qilib, doimo qabilaning ikki pallasi, fratriyalar va fratriyadagi ikki urug‘ o‘rtasida tuziladigan nikoh tartibining xususiyati bu tartibni dual ekzogamiya deb atashga asos bo‘ldi. Ikkinchidan esa doimo bir urug‘, bir fratriya, ichida shubhasiz ekzogamiya shakllanayotgan vaqtda nikoh tartibi bir yigit va bir qizning qovushishidan iborat bo‘lmagan ekzogamiyali nikohga muvofiq butun bir urug‘ning hamma erkaklari boshqa urug‘ yoki pallaning ayollariga er bo‘lishi huquqiga ega bo‘lgan. Nikohning bu tarixiy shakli guruhli nikoh deb atalgan.

Guruhli nikohning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bundan tug‘ilgan bolaning otasi aniq bo‘lmay, faqatgina onasi ma’lum bo‘lgan xolos.

Bunday sharoitda butun dual sistema – urug‘lar, pallalar va fratriya ayollar atrofida to‘planadi. Demak, har bir shunday guruh ayollar avlodidan tashkil topadi va qon-qarindoshlik onalar avlodidan hisoblanadi. Shu tariqa urug‘ ona urug‘i sifatida vujudga kelib, urug‘chilik tuzumi rivojlanishida matriarxat deb ataladigan davr boshlangan.

Urug‘chilik tuzumining bu dastlabki bosqichidayoq erkak va ayollar o‘rtasida ijtimoiy mehnat taqsimotining xarakteri va jamiyat rivojlanishining bu bosqichida ayollarning o‘ynagan xo‘jalik roli urug‘chilik tuzumining ota avlodidan emas, balki ona avlodlarida boshlanishining asosiy sabablaridan biri deb hisoblanadi.

Lekin, ayrim g‘arb tadqiqotchilari fikricha, ibtidoiy davrda kishilikning rivojlanishi ikki yo‘ldan borib, faqat dehqonchilik bilan shug‘ullangan bir xil qabila va xalqlar matriarxat bosqichini bosib o‘tib, qoloq bo‘lib qolganlar, chorvachilik bilan shug‘ullangan boshqa qabilalar (“oariylar”) matriarxatni bilmay patriarxat bosqichini bosib o‘tib, davlat va hokimiyat yaratganlar deb hisob qiladilar. Olimlarning ayrimlari oriy bo‘lmagan (“matriarxat nazariyasi”) ibtidoiy qabilalar, dastlab, dehqon va

chorvador kishilarga bo'lingan edi degan fikrlari arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar qo'lga kiritilgan dalillarga ziddir.

Lekin insoniyatning barchasi o'z boshidan matriarxatni boshidan o'tkazgan emas. Matriarxat paleolitdan neolit oxirigacha bo'lgan uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Lekin kishilikning matriarxat bosqichi Yer sharining hamma yerida bir vaqtning o'zida boshlanib, bir vaqtning o'zida nihoyasiga yetgan, xalos. Uning rivojlanish darajasi ham turlicha bo'lgan. Bu shubhasiz ishlab chiqarish kuchlarining qay darajada rivojlanishiga bog'liq edi.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlana borishi oqibatida matriarxatdan patriarxatga o'tish sodir bo'ladiki, endilikda erkaklar ishlab chiqarishda asosiy rolni o'ynay boshladilar. Bu o'tish, avvalo, xo'jalikning yuksalishida motiga asosdagi dehqonchilikdan omoch asosidagi dehqonchilikka o'tishda uy hayvonlarini urchitib, ko'paytirib boqishdan chorvachilikka o'tishda namoyon bo'ldi. Natijada, erkaklar xo'jalikda yetakchi o'ringa chiqib oldilar, ayollar esa uy xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanib ikkinchi o'ringa tushib qoldilar.

Endilikda urug' ota urug'i nomi oldi.

Lekin yer yuzining turli yerlarida ona urug'i va ota urug'i tartibida hayot kechirayotgan etnik gruppalar, qabilalar va xalqlar hamon mavjud. Ammo ota urug'i tarkibidagi qabila elat va xalqlar asosiy ko'pchilikni tashkil qiladi.

Mazkur ijtimoiy tashkilot qon-qarindoshlikdan iborat xo'jalik tashkiloti bo'lib, unda birgalikda ishlab chiqarish mavjud bo'lgan. Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mahsulotlari va urug' a'zolari uchun umumiy bo'lgan.

Urug' va urug'chilik tuzumi ibtidoiy to'daga nisbatan olg'a tashlangan katta qadam bo'lib, yuqori paleolitda aql-idrokli kishilar kromanyonlarda hozirgi jismoniy tipdagi kishilar vujudga kelgan vaqtda paydo bo'lgan va asta-sekin rivojlana borgan. Urug' va urug'chilik ibtidoiy tashkilotning bundan keyingi rivojlanishga juda katta ta'sir etganligi shak-shubhasizdir.

Urug' va urug'chilik tuzumiga o'tilar ekan, erkak va ayollar orasidagi nikoh munosabatlarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ibtidoiy to'da davrida aloqalar betartib va umumiy bo'lgan bo'lsa, urug'chilik tuzumi davriga kelib bu sohada boshqacha tartib joriy qilingan.

Bu vaqtga kelib muayyan urug' va palla ichidagi ayollar bilan erkaklarning qovushishi bekor qilingan. Endilikda bir urug'ning yoki pallaning bir guruh erkaklari boshqa bir urug' yoki pallaning ayollariga er bo'lishgan. Nikohning bu tarixiy tartibini yoki uning qoldiqlarini o'z boshidan kechirayotgan qabilalar mavjud.

## **6.2. Dastlabki urug'chilik jamoasining ishlab chiqarish kuchlari**

O'rta paleolitning oxiri va yuqori paleolitning boshlarida vujudga kelgan urug'chilik tuzumi uzoq rivojlanish taraqqiyoti yo'lini bosib o'tdi. Xuddi shu davrda hozirgi jismoniy tipdagi odamlar shakllanib vujudga keldi. Bu hol ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, dastavval, toshni qayta ishlash yangi texnikaning qo'llanishida o'z ifodasini topdi.

Bu vaqtga kelib muste davrining sodda qurollari o'rniga tosh pichoq, nayza, keskich, bigiz, nayza, garpun va har turli nozik qurollar tarqaladi. Garchi saqlanib qolmagan bo'lsa ham yog'och, ayniqsa, qattiq yog'ochlardan ko'plab qurollar tayyorlanganligi shak-shubhasizdir. Mazkur davrda hayvon shohlari, suyaklari va tishlaridan igna, bigiz, belcha, yer kavlagich motiga, kirka, nayza uchlari yasalgan. Ibtidoiy odamlarning manzilgohlaridan topilgan tosh va suyak qurollarning asosiy qismi bo'lganligidan dalolat beradi.

Dastlabki urug'chilik davri texnika taraqqiyotida muhim davr bo'lib, bir necha qismdan iborat ancha murakkab mehnat jangovar va ov qurollari paydo bo'lgan. Urug'chilik davrining barcha qurollari neandertal va undan oldin o'tgan odamlarning qurollariga nisbatan boy va turli-tuman bo'lib, sifat jihatdan ustunlikka ega edi.

Texnika taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar ovchilikning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldiki, so'nggi pamolit manzilgohlarining ayrimlaridan topilgan mamont, yovvoyi ot, shimol bug'isi va boshqa yirik hayvonlar suyaklarning ko'p miqdorda to'planib yotishi ovchilikning rivojlanganligidan darak beradi.

Chexiyadagi premedmost manzilgohidan 40,000 qurol, 1000ga yaqin momont suyagi, fransiyaning amarosiyavka degan joyidan 1000ga yaqin bizon suyaklari, ko'plab tosh va suyak qurollar bilan birgalikda topilgan. Bu hol hayvonlarni o'rab olish, quvib qamash, tuzoq qo'yish va ovchilikning boshqa usullarini tobora takomillasha borganini ko'rsatadi. Texnika taraqqiyoti natijasida ovchilik yanada rivojlanib, bu hol kishilarni go'sht, teriga bo'lgan talabalarni ma'lum darajada qondirdi. Odamlar endi o'lja izlab dastlabki joylardan uzoqlashib o'sha yerlarda makon tutdilar. Boshpana sifatida odamlar g'orlar va ungurlardan keng foydalanganlar. Shu bilan bir qatorda chayla, yerto'la va boshqa sun'iy boshpanalar ham keng tarqala boshlaydi.

So'nggi paleolitda hayvon suyaklaridan uy-joylar qurish tarqaladi. Ularning usti va atroflari shoh-shabba va hayvon terilari bilan berkitilgan bo'lib, kattaligi ham har xil bo'lgan. Voronej yaqinidagi so'nggi paleolit odamlari istiqomat qiladigan turar joyining uzunligi 35 m, kengligi esa 15-16 metr bo'lgan. Unda 9ta o'choq borligi aniqlangan.

Mazkur davr ichida o'choqlari bo'lgan turar joylarning keng tarqalishi riss-vyurm muzliklararo davrdagi nisbatan iliq iqlim vyurm muzlanish davridagi ob-havoning sovushi bilan bog'liq ekanligi shubhasizdir. Vyurm muzlik davrining sovuq iqlimida yalang'och yashash mumkin bo'lgan. Odamlar o'zlarini sovuqdan saqlash uchun har turli hayvon terilardan kiyim tikib kiya boshlaganlar. Doimiy turar joylarning ba'zilaridan topilgan tosh teshgich, suyak ignalar shundan dalolat berib turibdi.

Shu davrda odamlar toshdan yoritgich asboblari yasab, tunda o'z turar joylarini yoritganlar. Aftidan ibtidoiy kishilar mazkur davrdan boshlab, nisbatan o'troqlikda yashashga o'ta boshlagan

bo'lsalar kerak. Odamlar sovuq qish kechalarida har tarafga kezgandan ko'ra o'troqlikni afzal ko'rganlar.

Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish ko'proq kunning iliq-issiq kunlariga to'g'ri kelgan bo'lsa kerak.

Ona urug'i ijtimoiy-iqtisodiy jamoa sifatida. Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi urug'chilik jamoa tuzumining bunday keyingi taraqqiyotiga zamin hozirladi. Bu yuksalish natijasida ovchi va baliqchilarning rivojlangan urug'chilik jamoasi vujudga keladi. Jamiyatning iqtisodiy asosini urug'ning yerga umumiy egaligi tashkil etadi.

Dala tomorqa, ov maydonlari, baliq tutiladigan va termachilik qilinadigan yerlar bevosita uruqqa mansub bilvosita qabilaga ham mansub bo'lgan.

Etnografik ma'lumotlardan shu narsa ravshanki, qabila ikki fratriyaga, fratriyalar esa urug'larga bo'linadi.

Urug' esa ikki asosiy shaklga ega bo'lib, ona va ota urug'larini tashkil etadi. Urug' ona yoki ota urug'i shaklida bo'lishidan qat'i nazar, u bir-biri bilan yaqin qarindosh bo'lgan ayol yoki erkaklar avlodining to'rt-besh bo'g'inini o'z iyaiga olgan kishilar majmuasidan iborat bo'lgan bo'lishi mumkin.

Urug' ona va ota urug'i shaklida mavjud ekan, uning qaysi biri birinchi bo'lib vujudga kelgan degan masala etnograflar tarixchilar orasidagi eng muhim munozaralardan biri bo'lib kelmoqda. Ba'zilar avval ota urug'i, so'ng ona urug'i vujudga kelgan deb faraz qilsalar, olimlarning boshqa gruppasi ona urug'i ota urug'idan ilgari vujudga kelgan deydilar.

Jahon xalqlari etnografiyasini o'rganmay turib bu masalani oydinlashtirish shubhasiz mumkin emas albatta.

Amerika, afrika, avstraliya, yevropo, osiyo va okeaniya orollaridagi u qadar rivojlanmagan qabilalar hayotini o'rganish etnograflarga bu masalaga ba'zi oydinliklar kiritishga imkoniyat berdi. Arxeologik va yozma manbalar esa bu ma'lumotlarni to'ldirish imkoniyatini yaratdi.

Etnografik ma'lumotlarda ham mazkur qabilalarda ona urug'i ko'pchilikni tashkil etilishi kuzatilgan. Bu ma'lumotlar qator sovet va chet olimlarning tadqiqotlarida bayon etilgan.

Ona urug'i davrida, urug'dan ajralib chiqqan ona uy jamoasi ona oilasi jamiyatning asosini tashkil etgan. Ona oilasi – ayollarning eng yaqin qarindoshlaridan iborat ayol va erkaklardan tashkil topgan bo'lib, ayollar avlodining to'rt-besh va undan ortiq bo'g'inini o'z ichiga olgan kishilar majmuasidir. Ona oilasining soni 200-300 kishigacha yetgan.

Amerikadagi irokez, Kanadadagi Algonik, Afrika, Avstraliya, Melaneziya va boshqa joylardagi qabilalarning ona xonadoni jamoasi ona oilasining timsoli bo'lishi mumkin.

Ona urug'i va ona oilasi deyilishining sababi ayollarning ijtimoiy hayotidagi tutgan o'rni erkaklarnikiga nisbatan baland bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Erkaklar o'rmonlarni kesib yer ochgan, ov qilgan, qurollar yasagan. Ayollar esa terib, termachilab ovqat topganlar. Motiga bilan yerni bo'shatib dehqonchilik qilganlar, don va poliz ekinlarini parvarish qilganlar, hosil pishgach, uni yig'ib-terib olganlar, uy-ro'zg'or ishlarini – ovqat pishirish, kiyim bosh tikish, uyni tartibga keltirish kabi juda ko'p xo'jalik ishlarini bajarganlar. Undan tashqari keksalarni parvarish qilish va bolalarni tarbiyalash kabi muhim ishlar ular zimmasi ironezlar, misseonerlar biriga bizning mamlakatimizda asosiy ishlarni ayollar bajaradilar, sabzavotlarni sepadilar, ekadilar, parvarish qiladilar, erkaklar va bolalar uchun ovqat pishiradilar. Agar xotinlar bo'lmaganda edi, biz juda og'ir ahvolda yashagan bo'lur edik deb aytishgan. Bu hol urug', oila va xonadonda ularning mavqeini baland ko'targan.

Ikkinchidan esa (tug'ilgan) nikoh guruhi, keyinchalik juft ayni vaqtda beqaror bo'lganligi uchun tug'ilgan bola bevosita onani taniydi, otaning kim ekanligi noma'lum bo'lib qoladi.

Demak ona urug'i, ona oilasi deyilishi ana shundan kelib chiqqan. Ona urug'i davrida ayollarning xo'jalikdagi mavqeining ko'tarilishi nikoh va oilaviy munosabatlarga ham ta'sir etgan.

Shuni aytish kerakki, rivojlangan matriarxat guruhli nikohdan juft nikohga o'tish bilan mashhur bo'lib, juft nikohning rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan er xotin urug'i, uning xonadoniga ko'chib kelib joylashadi va ichkuyov bo'lib qoladi. Buni etnografiyada matrilokal joylashish deb ta'riflanadi.

Ona urug'i davridagi nikohning ajoyib belgisi shundan iboratki, u ko'pincha erkakning emas balki ayolning xohishi bilan tuziladi va buziladi. Mashhur Gerodot – "Lidiya" ayollari erlarini o'zlari tanlaydilar", – deb yozgan edi.

Qadimgi vaqtlarda Shimoli-g'arbiy Kanadada yashovchi algonkin qabilalaridan birida qizlar o'zlariga yoqib qolgan yigitga uchinchi bir shaxsni sovchi qilib yuborganlar. Agar yigit rozi bo'lsa, soddagina to'y bo'lib, kuyov kelinnikiga ko'chib kelgan.

Ona urug'i davrida kelin va kuyovning o'z ona urug'larida yashab vaqti-vaqti bilan uchrashib turish odati bo'lgan. Bunday odat dislokal joylashish nomini olgan.

Matriarxat davrida ona oilasi alohida qo'rg'on yoki uyda yashovchi, har jihatdan mustahkam bog'langan jamoadan – kommunadek, zich uyushgan xo'jalik tashkilotidan iborat bo'lib, ba'zi shaxsiy buyumlardan tashqari barcha buyumlar oilaniki hisoblangan. Shu bilan birga ishlab chiqarish va iste'mol buyumlari umumiy bo'lgan. Oila tepasida esa aqlli, tadbirkor, oq-qorani tanigan, eng keksa ayol turgan. U xonadonning barcha ishlariga rahnamolik qilgan.

Shunday qilib, rivoj topgan ona urug'i davrida ijtimoiy turmushda ham, oilada ham ayollar ustunlikka ega bo'lganlar. Rivojlangan ona urug'i davrida oila urug' hatto qabila tepasida ham ayol turgan degan ma'lumotlar bor. Erkaklar ularga tobe bo'lib, hatto kamsitilgan ham. Amerikadagi seneka qabilasining irokezlari orasida ko'p yillar yashagan Artur Raytning yozishicha, irokez ayollari erni boshqa klanlardan olganlar, ayollar uyda hukmron bo'lib, ular klanlarda (urug'larda va, umuman, hamma sohalarida katta kuchga egadirlar. Shunday vaqtlar ham bo'lganki, ayollar erkaklardan saylangan boshliqni, oqsoqolni o'rnidan tushirib, oddiy jangchi darajasiga tushirib qo'yishdan toymas ham edilar.

Ironezlarning xonadon jamoasi – ovachirida butun hokimiyat katta yoshli, xo‘jalik, butun ishlarni yaxshi biladigan, tajribali va obro‘li ona ayollardan tashkil topgan kengash ixtiyorida edi. Erkaklar boshqa urug‘ga mansub bo‘lganliklari tufayli ovachigirda qo‘shni bo‘lgan guvon ayollar haqida qiziqarli ma‘lumot keltirgan. Yer, dala va hamma hosil, umuman, butun hokimiyat ayollar qo‘lidadir. Bunga qarshi erkaklar hamma narsadan mahrum va cheklangan, ularning bolalari o‘zlariga begonadir. Uy xo‘jaligini ayollar boshqaradilar.

Bunday tartib melaneziyaning ba‘zi oblastlari, xususan, Dobu orolida ham hisobga olingan. U yerlarda ham hamma narsaning sohibi va taqsimotchisi ona-ayoldir. Bunday manzarani Afrika janubiy Amerika, Avstraliya, Okeaniya va boshqa joylardagi oila, urug‘ va qabilalar hayotida ham uchratish mumkin. Bu hol ibtidoiy davrda yer yuzidagi juda ko‘pchilik qabila va xalqlar ona urug‘i davrini boshlaridan kechirganlar degan fikirni aytishga imkon beradi.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Ilk urug‘ jamoa haqida umumiy tushuncha.
2. Ishlab chiqaruvchi kuchlar deganda nimani tushunasiz?
3. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlana borishi nimani anglatadi.
4. Ona urug‘i va undagi ijtimoiy-oilaviy munosabatlar?

### **Test topshiriqlari**

1. Xo‘jalikning qaysi turidan foydalanganlar?

A. \*o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan

V. chorvachilikdan

S. baliqchilikdan

D. dehqonchilikdan

2. Ishlab chiqarish xo‘jaligining asosini nimalar tashkil qiladi?

A. \*dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik



V. chorvachilik, termachilik, baliqchilik

S. dehqonchilik, ovchilik, termachilik

D. baliqchilik, ovchilik, hunarmandchilik

3. So'nggi paleolit qachon tugagan?

A. \*mil avv. 12 ming yil

B. mil avv. 1 mln yil

C. mil avv. 100 ming yil

D. mil avv. 60 ming yil

4. Ibtidoiy jamiyat davri o'zidan keyingi keladigan barcha tarixiy davrlarga nisbatan nimasi bilan farqlanadi?

A. \*mehnat quollarining soddaligi, xilining kamligi va odamlarning aqliy va jismoniy takomiliga yetmaganligi

B. mehnat quollarining soddaligi

C. mehnat quollari xilining kamligi

D. urug' jamoasigacha yashagan odamlarning aqliy va jismoniy jihatdan o'z takomiliga yetmaganligi

5. Urug' jamoasini vujudga keltirgan omillar to'g'ri keltirilgan qatorni toping?

A. \*tirikchilik uchun bo'lgan kurash, xo'jalikni uluksiz taminlay oladigan doimiy va birlashgan ishlab chiqarish uyushmasining zarur ekanligi

B. nikoh munosabatlarining tinimsiz rivojlanishi

C. hayot darajasining yuksalishi

D. mehnat quollarining takomillashuvi

6. Ilk urug' jamoasi negizini nima tashkil qilgan?

A. \*tabiiy qon-qarindoshlik munosabatlari

B. tasodifiy yig'ilgan guruh munosabatlari

C. hayot kurash instinkti

D. ijtimoiy iqtisodiy notenglik

7. Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa har bir urug'dagi kishilar uyushmasi soni necha barbarga oshgan?

A. \*4-5 barobar oshib, urug' ichidagi odamlar o'zaro mustahkam birlikga ega bo'lganlar

B. 7-8 barobar oshib, urug' ichidagi odamlar o'zaro mustahkam birlikga ega bo'lganlar

C. 10 barobar oshib, urug` ichidagi odamlar o`zaro mustahkam birlikga ega bo`lganlar.

D. urug` ichidagi odamlar soni oshmagan

8. Hayot taqazosi bilan vujudga kelgan urug`lar keyinchalik qanday uyushmaga aylangan?

A. \*qabila

B. elat

C. millat

D. xalq

9. Urug`chilik jamiyatining bu dastlabki tuzilishini dual tashkilot deb atash rasm bo`lgan. Ilk qabila tuzilishining bu shakli fanda yana nima deb ataladi?

A. \*fratriy-birodarlik sistemasi deb ataladi

B. qarindoshlik sistemasi deb ataladi

C. qabilalar ittifoqi deb ataladi

D. urug` jamoasi deb ataladi

10. Ilk urug` jamoasida vujudga kelgan ekzogamiya nikoh tartibi nima ma`noni anglatadi?

A. \*"tashqi nikoh"

B. ichki nikoh

C. guruhli nikoh

D. qarindoshlar o`rtasidagi nikoh

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. r 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. R 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: "Высшая антропологическая школа", 2005. Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П., Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. "Наука", 2012. Стр. 3-10.

## VII BOB. IBTIDOIY SO‘NGGI URUG‘ JAMOASI DAVRI

### 7.1. So‘nggi urug‘ jamoasi haqida umumiy ma‘lumotlar

So‘nggi urug‘ jamoasi bosqichi oʻyumenalarning ma‘lum bir qismida ilk dehqonchilik yoki dehqonchilik-chorvachilik hamda yuqori darajada ixtisoslashgan o‘zlashtirish xo‘jaligining malakali ovchi, baliqchi va termachi va boshqa ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichning ahamiyatli tomoni shundaki, qaysiki qayerda qulay tabiiy sharoit mavjud bo‘lsa, o‘sha joylarda xo‘jalikning birinchi shakli ikkinchisini yuzaga keltirganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning paydo bo‘lishi ibtidoiy iqtisodiyotning ulkan yutug‘i, kelgusidagi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarixida asos, muntazam ortiqcha, keyinchalik qo‘shimcha mahsulot olish uchun muhim sharoit yaratildi. Taraqqiyot davomida aynan ortiqcha va qo‘shimcha ma‘lumotning olinishi, ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning rivoji ibtidoiyning buzilishiga va sinfiy jamiyatning shakllanishiga olib keldi. Mazkur burilish vaqtining aynan neolit davrida sodir bo‘lishi hamda ingliz arxeologi Gordon Chayldning iqtisodchi F. Engelsning “sanoat inqilobi” atamasiga o‘xshash taklifi, ya‘ni “neolit (yoki agrar) inqilobi” nomi bilan atalgani bejiz emas.

Yuqori darajada ixtisoslashgan malakali ovchilik, baliqchilik va termachilik xo‘jaligi kelgusidagi taraqqiyot uchun ham ahamiyatli imkoniyatlar ochib berdi. Ammo ular (xo‘jalik) anchagina cheklangan bo‘lib: ularning vorislari qulay tabiiy sharoitga ega ayrim rayonlardagina ilk sinfiy darajagacha bo‘lgan bosqichga ko‘tarila olishgan.

So‘nggi urug‘ jamoasida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning shakllanishi va yangi ishlab chiqarishning olg‘a siljishi.

So‘nggi urug‘ jamoasi ishlab chiqaruvchi xo‘jaligining shakllanishi haqida gapirar ekanmiz, u holda dehqonchilik va chorvachilik qachon, qayerda va qanday paydo bo‘ldi? degan savolga atroflicha javob berish lozim bo‘ladi. Ushbu savollarga

rasmiy javob deyarli bir xil ya'ni: chorvachilik taxminan paleolit davrida paydo bo'lgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida arxeologik adabiyotlarda o'nlab yillar davomida ko'pchilik paleontolog mutaxassislarining yuqori paleolit odami itni qo'lga o'rgatgani va undan ovda foydalanganligi to'g'risida fikrlari ustunlik qilib kelardi. Mazkur tasdiqlar albatta manzilgohlardan topib o'rganilgan xonaki itlarning suyak qoldiqlarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan. Biroq yaqinda Reyi daryosining chap qirg'og'idagi Oberkassel manzilgohining madlen qatlamiga mansub xonakilashtirilgan itning o'rganilishi bu boradagi tortushuvlarga chek qo'ydi. Umuman, hozirda yuqori paleolitda itni qo'lga o'rgatish va undan foydalanish boshlanganligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Bu borada aytib o'tish lozimki mutaxassislar orasida faqatgina otni qo'lga o'rgatish borasida muammo yoki bir to'xtam yo'q. Ko'pchilik tadqiqotchilarning qayd etishicha, ot yuqori paleolit so'nggida qo'lga o'rgatilgan. Shuningdek, yuqori paleolit davridan boshlab it odamga ovda yordam bergan. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning (ko'pchilik mutaxassislar uni ma'lum texnologik usullar asosida ijtimoiy mahsulotlarni muntazam ishlab chiqarilgandagina yuzaga keladi deb hisoblashadi) shakllanish aynan yuqori paleolitga xos.

Barchada qaysi madaniy o'simlik va uy hayvoni qoldiq topilmasi eng qadimiy va u yoki bu darajada munozaradan holi degan savolga javob qiziqish uyg'otmoqda. Mazkur jarayon mil.avv. IX-XIII mingyillikda Old Osiyoda Falastin, Suriya, Janubiy Sharqiy Turkiyada bo'lib o'tgan dastlabki madaniylashtirilgan o'simliklardan bu polba – emmer (bug'doyning bir navi), bug'doy, arpa, chechevitsa (yasmiq)dir. Dastlabki mahsuldor uy hayvonlar qo'y va echki bo'lib, keyinchalik yirik shoxli qoramol qo'lga o'rgatilgan va foydalanila boshlangan. Undan keyin eshak, ot, tuya, shimol bug'usi, lama qo'lga o'rgatilgan.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish va yangi tabiiy resurslarni o'zlashtirishga olib keluvchi yagona omilni ko'rsatib o'tish mushkul. Mezolit davrida mavjud bo'lgan texnik

qurollanish va ov usullari dehqonchilik jamoalarini hayot kechirishi uchun yetarli darajada mahsuldor bo'lganligidan darak beradi. Bu biz manzilgohlardagi qabristonlardan topib o'rganilgan kollektiv dafn shaklidan bilib olishimiz mumkin. Mantiqan o'ylab qaraganda jamoa a'zolari sonining oshishi, albatta, hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat miqdoriga bog'liq bo'lgan.

## **7.2. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi**

O'simliklar vatani N. I. Vavilov nazariyasi. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi ishlab chiquvchi kuchlar tarqqiyotidagi boshqa o'zgarishlar bilan bir qatorda kechdi. Avvalo, toshdan mehnat qurollari yasash texnikasi ahamiyatli darajada o'sdi. Siqib retushlash texnikasi yanada takomillashdi. Ayrim joylarda mezolit davridayoq toshlarni silliqlash yoki sayqallash, shuningdek, neolitda tomorqa uchun o'rmonlarni tozalash va daraxtlarni kesish uchun nisbatan samarali bolta va teshalarga bo'lgan zaruriyat toshlari arralash va parmalash kabi usullar keng tarqala boshladi. Mehnat ov qurollarini yasashda yangi nisbatan qattiq minerallar turi: nefrit, jedent, obsidianlardan foydalanila boshlandi. Yerosti toshlarga ishlov berish (ya'ni kovlab olish) boshlandi.

Dehqonchilik ehtiyoji nafaqat bolta va yana boshqa mehnat qurollarini ham takomillashtirishni talab etgan. Termachilar foydalangan kovlovchi – tayoq va sodda kesuvchi tosh pichoqlar taraqqiy etib, haqiqiy motiga va o'roqlarga aylandi, g'alla yanchgich hovonchalar xo'jalik hayotiga keng kirib keldi. Joylarda yerni oddiy memortsiya usullaridan foydalanila boshlangan, masalan, Old Osiyodagi irrigatsiya yoki Yangi Gvineyadagi drenajlar misol bo'la oladi.

Yuqori ixtisoslashgan ovchi, baliqchi, termachi xo'jaliklardagi mehnat qurollarning takomillashib borishi natijasida ularning ko'rinishi ham o'zgarib borgan. Quriqlikdagi ovda tuzoq, qopqonlardan, dengiz ovchiligi va baliqchilikda nisbatan taraqqiy qilgan garpun, to'r, qarmoqlardan foydalanilgan. Mazkur davrdan

o'yma – qayiq, sudratma turlardan foydalanish keng ko'lamda iste'molga kira boshlagan. Ishlab chiqaruvchi yoki yuqori darajada ixtisoslashgan o'zlashtirma xo'jalikka o'tish jarayoni qayerdagi o'troq turmush tarziga o'tgan jamoalarda o'z nihoyasiga yetdi. Shuning uchun endi ibtidoiy kulbalar o'z o'rnini nisbatan uzoq muddatli yerto'la yoki yarim yerto'la, keyinroq yer ustidagi mustahkam uylarga bo'shatib berdi. Neolit davrida kashf etilgan to'quvchilik va oddiy to'qimachilik o'simlik tolasidan tayyorlangan kiyimlardan aks eta boshladi keyinchalik teridan ham kiyimlar tayyorlana boshladi. Uy-ro'zg'or buyumlari muhim bir kashfiyot, ya'ni sopolda yasala boshlandi. Sopol buyumlar, asosan, ikki usulda spiralsimon tasma va aylana shaklda loyni bir-biriga yopishtirish orqali yasalgan.

So'nggi urug' jamoasining asosiy ishlab chiqarish yutug'i sifatida – dehqonchilik va chorvalikning shakllanishi, toshga ishlov berish texnikasining takomillashuvi, sopolning kashf etilishi, to'qimachilik va boshqalar aynan mazkur davrda insoniyatning tajriba va bilimining ahamiyatli darajada o'sganligidan guvohlik beradi. Shu bilan birgalikda mazkur davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti ham yuzaga keladi(I va II).

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. So'nggi ibtidoiy jamoa bosqichida ham ilk ibtidoiy jamoa bosqichida bo'lgani kabi jamoaviy mehnatning roli katta bo'lgan. O'rmonlarni tozalash, chorvani boqish samarali ovchilik va baliqchilik xo'jaligini yuritish, albatta, bir oilaning qo'lidan kelmagan, shu sababli jamoaviy mehnat va yerga jamoaviy egalik o'z ta'sirini saqlab turgan. Keyinchalik so'nggi urug' jamoasi bosqichi oxirlariga kelib ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi mazkur prinsiplarning buzilishiga olib keldi. Yer uzoq vaqt jamoa mulki sifatida saqlanib kelinganligi Yangi Gvineya papuaslari misolida ham o'z aksini topgan. Ularda yer avloddan avlodga o'tish shart hisoblangan.

Jamoadagi to'plangan oziq-ovqatlar taqsimotida har doim ham tenglikka e'tibor berilmagan bir-biriga qondosh yaqin qarindoshlik muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ammo ayrim holatlarda buning aksi ham bo'lgan. Masalan, yaxshi hosil olgan yoki chorvadan yaxshi nasl olgan yoki ovda omadi yurishgan ovchi mazkur mahsulotlarni o'zida qoldirgan yoki kim bilan xohlasa o'sha bilan bo'lishgan hollari ham uchragan. Etnologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, papuaslarda och qolgan papuas qarzini qaytarishni aytgan holda o'ziga qo'shni bo'lgan yaqin qarindoshining tomorqasidan yamini erkin olishi mumkin bo'lgan bo'lsa, Janubiy Amerika kubeo qabilasida bu o'g'rilik hisoblangan.

Oila va nikoh So'nggi urug' jamoasida juft nikoh ustuvorlik qilishda davom etgan. Avval bo'lganidek guruhiiy munosabatlar davrasida bu ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgan.

Ilk ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan shug'ullanuvchilar orasida poliginya, xususan, sororat tartibidagi ko'p xotinlilik, ovchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalarda esa liverat tartibidagi poliendriya – ko'p erlilik keng tarqalgan edi.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Urug' jamoasining vujudga kelish shart-sharoitlari.
2. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi omillari.
3. Urug'da otaning roli oshib borish sabablari haqida ma'lumot bering.
4. Ota urug'i xususiyatlari va xo'jalik.
5. Ota urug'i moddiy madaniyati haqida ma'lumot bering.
6. Ota urug'i ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari.
7. Patriarxat urug'i jamoasining oila-nikoh munosabatlari?

### **Test topshiriqlari**

1. Ishlab chiqaruvchi kuchlar deganda nima tushuniladi?
  - A. \*dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik
  - B. mehnat qurollari
  - C. ov qurollari
  - D. insonlarning birgalashib mehnat qilishi

2. Erkaklarning ishlab chiqarishda asosiy o'rinni egallashining asosiy sabablarini ko'rsating.
- \*barcha javoblar to'g'ri
  - ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi
  - motiga asosidagi dehqonchilikdan, omoich asosidagi dehqonchilikka o'tilishi
  - uy hayvonlarini urchitib, ko'paytirib boqilishi
3. ibtidoiy urug' jamoasi nimaga asoslangan?
- \*qon-qarindoshlikka
  - ijtimoiy tenglikka
  - yashash uchun doimiy kurash ehtiyoji
  - bilmayman
4. Dastlabki urug' jamoalari qachon vujudga kelgan?
- \*o'rta paleolitning oxiri va yuqori paleolitning boshlarida
  - mezolitda
  - neolitda
  - ilk temir davrida
5. Hayvon suyaklaridan uy-joylar qurish qachon keng tarqala boshladi?
- \*so'nggi paleolit davrida
  - mezolit davrining oxirlarida
  - neolit davrida
  - eneolit davrida
6. Ip yigirish va to'qimachilik qachon kashf qilingan?
- \*neolit
  - eneolit
  - mezolit
  - ilk temir
7. Ilk bronza davrining muhim kashfiyotlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
- \*g'ildirakli arava va yelkanli kema
  - qayiq eshkaklari va chang'ilar
  - kiyim-bosh va matolar to'qish
  - bilmayman



8. Neolit davri qabilalari hayotida eng katta ahamiyatga molik bo'lgan hodisa nima?

A. \*dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi va tarqalishi

B. kulolchilikning vujudga kelishi

C. to'qimachilikning vujudga kelishi

D. turar-joylarni qurishning yangi turlarini kashf etilishi

9. Sholi, yalong'och suli, arpa, tariq, soya, shakarqamish, g'ozaning Osiyo navi dastlab qayerda madaniylashtirilgan?

A. \*Hindiston va Hindixitoy yarim orolida

B. Sharqiy Xitoyda

C. Efiopiyada

D. O'rtayer dengiz sohillarida

10. Kartoshka va har turli sabzavotlarning markazi va ilk vatani qayer?

A. \*Peru va Boliviya

B. Kanada

C. AQSh

D. Meksika

11. Monotsentrik nazariya tarafdorlarining fikricha dehqonchilikning dastlabki o'chog'i qayerda deya e'tirof etiladi?

A. \*Old Osiyo

B. Janubiy Osiyo

C. Sharqiy Osiyo

D. Shimoliy Osiyo

12. Janubiy Amerikaning G'arbiy tomonidagi tog' etaklarida qaysi hayvonlar qo'lga o'rgatilgan?

A. \*lama, alpaka, makus o'rdagi va dengiz cho'chqasi

B. ikki o'rkachli tuya

C. ot, qo'y, bizon

D. dumbali qo'y va shimol bug'usi

13. Baq'rriya tuyasi deb nom olgan ikki o'rkachli tuya qayerda qo'lda o'rgatilgan?

A. \*Sharqiy Turkiston markazida

B. Tibet-pomir markazida

C. Sharqiy Sudan markazi

D. Abissiya markazida

14. Dastlab qaysi qaysi hayvon uy hayvoniga aylantirilgan?

A. \*it va mushuk

B. cho'chqa

C. ot

D. qoramol

15. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda ibtidoiy odamlar xonakilashtirish mumkin bo'lgan juda ko'p hayvonlardan nechtasi xonakilashtirishga muvaffaq bo'lgan?

A. \* 50 turdan oshig'ini xonakilashtirgan xolos

B. 100 turdan oshig'ini

C. 125 turdan oshig'ini

D. barchasini xonakilashtirgan

16. Tuya va tuyachilik chorvachilikning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning bir o'rkachli va ikki o'rkachli turlari bizga ma'lum, ularning bu turi ilmiy adabiyotlarda qanday atamalar bilan ataladi?

A. \*dromedor va baqtriana

B. lama va alpaka

C. sahro kemasi

D. bilmayman

17. Tovuq dastlab qayerda xonakilashtirilgan?

A. \*Hindiston

B. Xitoy

C. Amerika

D. Yevropa

18. Patriarxat bosqichida katta oilalar kim tomonidan boshqarilgan?

A. \*katta yoshli erkak

B. katta yoshli ayol

C. harbiy kengash tomonidan

D. bilmayman

19. Ibtidoiy jamiyat tuzumi buzilishining asosiy sababini ko'rsating?

A. \*oziq-ovqat va turli mahsulotlarni ortiqcha ishlab chiqarish, mulkiy tengsizlik

B. urushlarning ko'payib borishi

C. shaharlarning keskin rivojlanib borishi

D. bilmayman

20. Inson tomonidan foydalanilgan birinchi ma'dan to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

A. \*oltin

B. mis

C. temir

D. kumush

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. r 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. R 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: "Высшая антропологическая школа", 2005. Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П. Перциц А.И. История первобытного общесво. -М. "Наука", 2012. Стр. 3-10.

## VIII BOB. IBTIDOIY OILA VA NIKOH

### 8.1. Jamiyatning yosh va jinsga qarab bo‘linishi va erkaklar uyi

Ona urug‘i davrida, urug‘dan ajralib chiqqan ona uy jamoasi ona oilasi jamiyatning asosiy tashkil etgan. Ona oilasi – ayollarning eng yaqin qarindoshlaridan iborat ayol va erkaklardan tashkil topgan bo‘lib, ayollar avlodining to‘rt-besh va undan ortiq bo‘g‘inini o‘z ichiga olgan kishilar majmuasidir. Ona oilasining soni 200-300 kishigacha yetgan.

Amerikadagi irokez, Kanadadagi algonik, Afrika, Avstraliya, Melaneziya va boshqa joylardagi qabilalarning ona xonadoni jamoasi ona oilasining timsoli bo‘lishi mumkin.

Ona urug‘i va ona oilasi deyilishining sababi ayollarning ijtimoiy hayotidagi tutgan o‘rni, erkaklarnikiga nisbatan baland bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Erkaklar o‘rmonlarni kesib yer ochgan, ov qilgan, qurollar yasagan. Ayollar esa terib termachilab ovqat topganlar. Motiga bilan yerni bo‘shatib dehqonchilik qilganlar, don va poliz ekinlarini parvarish qilganlar, hosil pishgach, uni yig‘ib-terib olganlar, uy-ro‘zg‘or ishlarini – ovqat pishirish, kiyim bosh tikish, uyni tartibga keltirish kabi juda ko‘p xo‘jalik ishlarini bajarganlar. Undan tashqari keksalarni parvarish qilish va bolalarni tarbiyalash kabi muhim ishlar ular zimmasi ironezlar, misseonerlar biriga bizning mamlakatimizda asosiy ishlarni ayollar bajaradilar, ulardan va sabzavotlarni sepadilar, ekadilar, parvarish qiladilar, erkaklar va bolalar uchun ovqat pishiradilar. Agar xotinlar bo‘limganda edi, biz juda og‘ir ahvolda yashagan bo‘lur edik deb aytishgan. Bu hol urug‘, oila va xonadonda ularning mavqeini baland ko‘targan.

Ikkinchidan esa (tug‘ilgan) nikoh guruhi, keyinchalik juft ayni vaqtda beqaror bo‘lganligi uchun tug‘ilgan bola bevosita onani taniydi, otaning kim ekanligi noma‘lum bo‘lib qoladi.

Demak ona urug‘i, ona oilasi deyilishi ana shundan kelib chiqqan. Ona urug‘i davrida ayollarning xo‘jalikdagi mavqeining ko‘tarilishi nikoh va oilaviy munosabatlarga ham ta‘sir etgan.

Shuni aytish kerakki, rivojlangan matriarxat guruhli nikohdan juft nikohga o‘tish bilan mashhur bo‘lib, juft nikohning rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan er xotin urug‘i, uning xonadoniga ko‘chib kelib joylashadi va ichkuyov bo‘lib qoladi. Buni etnografiyada matrilokal joylashish deb ta‘riflanadi.

Ona urug‘i davridagi nikohning ajoyib belgisi shundan iboratki, u ko‘pincha erkakning emas balki ayolning xohishi bilan tuziladi va buziladi. Mashhur Gerodot – “Lidiya” ayollari erlarini o‘zlari tanlaydilar”, – deb yozgan edi.

Qadimgi vaqtlarda shimoli-g‘arbiy Kanadada yashovchi algonkin qabilalaridan birida qizlar o‘zlariga yoqib qolgan yigitga uchinchi bir shaxsni sovchi qilib yuborganlar. Agar yigit rozi bo‘lsa, soddagina to‘y bo‘lib, kuyov kelinnikiga ko‘chib kelgan.

Oila turlari, oila shakllari – oila turlariga guruhli nikoh (q. Guruhli nikoh), juft nikoh (q. Juft nikoh), monagamiya (q. Monagamiya), poligamiya (q. Poligamiya) kiradi. Ularni nikoh shakllariga kiritish holatlari ham uchraydi. Aslida esa ular oila shakllariga kiradi.

Ona urug‘i davrida kelin va kuyovning o‘z ona urug‘larida yashab vaqti-vaqti bilan uchrashib turish odati bo‘lgan. Bunday odat dislokal joylashish nomini olgan.

Matriarxat davrida ona oilasi alohida qo‘rg‘on yoki uyda yashovchi, har jihatdan mustahkam bog‘langan jamoadan – kommunadek, zich uyushgan xo‘jalik tashkilotida iborat bo‘lib, ba‘zi shaxsiy buyumlardan tashqari barcha buyumlar oilaniki hisoblangan. Shu bilan birga ishlab chiqarish va iste‘mol buyumlari umumiy bo‘lgan. Oila tepasida esa aqlli, tadbirkor, oq-qorani tanigan, eng keksa ayol turgan. U xonadonning barcha ishlariga rahnamolik qilgan.

Shunday qilib, rivoj topgan ona urug‘i davrida ijtimoiy turmushda ham, oilada ham ayollar ustunlikka ega bo‘lganlar. Rivojlangan ona urug‘i davrida oila urug‘ hatto qabila tepasida ham

ayol turgan degan ma'lumotlar bor. Erkaklar ularga tobe bo'lib, hatto kamsitilgan ham. Amerikadagi seneka qabilasining irokezlari orasida ko'p yillar yashagan Artur Rayning yozishicha, irokez ayollari erni boshqa klanlardan olganlar, ayollar uyda hukmron bo'lib, ular klanlarda (urug'larda va umuman hamma sohalarda katta kuchga egadirlar. Shunday vaqtlar ham bo'lganki ayollar erkaklardan saylangan boshliqni, oqsoqolni o'rnidan tushirib, oddiy jangchi darajasiga tushirib qo'yishdan toymas ham edilar. Irokezlarning xonadon jamoasi – ovachirida butun hokimiyat katta yoshli, xo'jalik, butun ishlarni yaxshi biladigan, tajribali va obro'li ona ayollardan tashkil topgan kengash ixtiyorida edi. Erkaklar boshqa uruqqa mansub bo'lganliklari tufayli ovachgirda qo'shni bo'lgan guvon ayollar haqida qiziqarli ma'lumot keltirgan. Yer, dala va hamma hosil, umuman, butun hokimiyat ayollar qo'lidadir. Bunga qarshi erkaklar hamma narsadan mahrum va cheklangan, ularning bolalari o'zlariga begonadir. Uy xo'jaligini ayollar boshqaradilar.

Bunday tartib melaneziyaning ba'zi oblastlari, xususan, Dobu orolida ham hisobga olingan. U yerlarda ham hamma narsaning sohibi va taqsimotchisi ona-ayoldir. Bunday manzarani Afrika janubiy Amerika, Avstraliya, Okeaniya va boshqa joylardagi oila, urug' va qabilalar hayotida ham uchratish mumkin. Bu hol ibtidoiy davrda yer yuzidagi juda ko'pchilik qabila va xalqlar ona urug'i davrini boshlaridan kechirganlar, degan fikrni aytishga imkon beradi.

## **8.2. Oila-nikoh munosabatlari tarixi**

Hozirgi zamon odamlarining dastlabki ibtidoiy ajdodlari – fikrlovchi odam (Homo sapiens) bundan 3 mln. yillar oldin shakllangan. Uzoq muddat davom etgan ibtidoiy taraqqiyotdan so'ng asta-sekinlik bilan ibtidoiy jamoalar, kishilik jamiyatlari yuzaga kela boshlagan va odamlar o'rtasida dastlabki o'zaro munosabatlar, muloqot shakllana borgan. Lekin ularni hali tom ma'noda insoniy munosabatlar deb bo'lmas edi.

Umuman erkak va ayollar o'rtasidagi nikoh munosabatlari yuzaga kelishining ilk bosqichlarida jinslararo aloqalar, asosan, biologik omillar asosida boshqarilgan. Xuddi maymunlarda bo'lgani kabi ibtidoiy odamlarning ayollari ham vaqti-vaqti bilan, qisqa muddatli (oy davomida 4-5 kungacha, faqat ayrim turlardagina 19 kungacha) estrus davrini his qilganlar (estrus – qo'shilishga moyillikning shiddatli, kuchli namoyon bo'lishi). Bunday kunlarda ayollar kimni xohlasa, o'shalar bilan qo'shilavergan, boshqa paytlarda bu hol kuzatilmagan. Odamlarning tik yurishga o'tishi bilan ular organizmida ro'y bergan o'zgarishlar ayollarning tug'ruq jarayonida ko'p nobud bo'lishiga va oqibatda odamlar orasida ular soni keskin kamayib ketishiga olib kelgan. Shu boisdan erkaklar o'rtasida ayol bilan bog'liq ko'plab nizolar yuzaga kelgan, ularning ko'pchiligi qonli to'qnashuv ishtirokchilaridan birining nobud bo'lishi bilan tugagan. Bunday tabiiy tanlanish estrus hodisasi uzoqroq muddat davom etgan urug'larning ko'proq yashab qolishiga olib kelgan.

Biroq bu biologik omil yangi muammoni yuzaga keltiradi: hech bir organizm bunday uzoq vaqt davom etgan shahvoniy, asabiy zo'riqishlarga dosh bera olmas edi. Shuning uchun estrus muddatining uzayishi bilan ayollar o'zining jinsiy maylini nazorat qiladigan va endi kim to'g'ri kelsa o'sha bilan emas, balki faqat o'zlariga yoqadigan erkaklar bilangina qo'shiladigan bo'lib borganlar. Erkaklarga nisbatan "tanlab" munosabatda bo'lish o'ziga xos insoniy muhabbatning biologik poydevori yuzaga kela boshlaganligidan dalolat beradi. Shundan so'ng, asta-sekinlik bilan, garchi hech qanday ijtimoiy me'yorlar bilan boshqarilmasada, bir-birlarini ma'qul ko'radigan juftlardan iborat unchalik katta bo'lmagan guruhlar tashkil topa boshlaydi. Shunday qilib, estrusning uzayishi hamma uchun ham qulay, ma'qul bo'lmagan. Bu esa urug' tarkibiga kiruvchi erkaklar o'rtasida yana janjallar, qon to'kilishlarga sabab bo'ladigan holatlarni keltirib chiqargan. Shu tarzda yuzaga kelayotgan jamiyatda, urug' ichidagi jinsiy muloqotni boshqarish, biologik instinkt, individualizmni jilovlash uchun maxsus ijtimoiy me'yorlar shakllana boshladi. Ana shunday

ijtimoiy me'yorlardan biri mazkur urug' ichida erkak va ayollarning jinsiy muloqotlarini ma'lum bir muddatga (ovga tayyorlanish, ov vaqtlarida) taqiqlovchi jinsiy tabular (taqiq)ning yuzaga kela boshlaganligidir.

Tabu axloqiy me'yorlar ichida ancha jiddiy va qattiq taqiqdir. Axloqiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolashi, yo'q qilib yuborishi ham yoki kechirib tirik qoldirishi ham mumkin bo'lgan. Ko'pincha esa tabularni buzgan kishilar, ular buni bilib qilganmi, yoki bilmaymi, bundan qat'i nazar so'zsiz jazolangan.

Ishlab chiqarishdagi jinsiy tabularning yuzaga kelishi urug' o'rtasida erkak va ayol maishiy jihatdan ajratilishida kuzatiladi. Tabu vaqtida erkaklarga nafaqat ayollarga tegish, balki ularga qarash, ular bilan gaplashish, tayyorlagan ovqatni iste'mol qilish, hatto ular bilan bir tom ostida, ya'ni "bir uyda" bo'lish taqiqlangan.

Dehqonchilikning yuzaga kelishi, mavsumiy dala ishlarining ortib borishi bilan jinsiy tabulardan holi vaqtlar borgan sari kamaygan. Erkaklarda ham, ayollarda ham jinsiy zo'riqishning jadalligi ortib borgan. Shuning uchun tabulardan holi vaqt oralig'i o'ziga xos shahvoniy aysh-u ishratlarga aylana borgan. Atoqli psixolog Z. Freyd bu davrni muayyan bayramlarga qiyoslagan. Chunki aksariyat bayramlarda boshqa kunlari taqiqlangan deyarli barcha narsaga ruxsat beriladi. Bu bayramlarda cheklanmagan, jo'shqin jinsiy muloqotlar amalga oshirilgan.

Shunday qilib, qisqa muddatli estrus yuzaga kelgan, biroq endi hu estrus biologik sabablar bilan emas, ijtimoiy sabablar bilan bog'liq bo'lgan. Bu vaqtlarda hali na nikoh, na oila mavjud bo'lgan. O'z navbatida tabular keyinchalik nikohning ilk turlaridan bo'lmish ekzogam nikohlarni yuzaga keltiradi (ekzogam nikoh, — urug'lararo, qabilalararo nikoh). Chunki tabular faqat o'z urug'i uchungina taalluqli bo'lib, unda qon-qarindoshlar o'rtasida jinsiy muloqot taqiqlangan, boshqa qabila yoki urug' a'zolariga esa taalluqli bo'lmagan. Shuning uchun erkaklar qayerdadir ovloq joyda boshqa uruqqa mansub bo'lgan ayolni uchratib qolib, undan shahvoniy obyekt sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan. Erkaklar uzoq muddat qishloq xo'jalik ishlari bilan band bo'lgan vaqtlarida



birov bir begonalar bilan ayollar ham bu ishni amalga oshirishgan. Tabu davom etayotgan davrda bir urug' erkagi o'z ayollaridan uzoqda, o'z kulbasida boshqa uruqqa mansub ayolni saqlashi mumkin bo'lgan. Keyinchalik bu tasodifiy aloqalar qabila qoidalarida odatiy, zaruriy, ko'zda tutilgan odatlarga aylanib bordi. Odamlar «boshqa urug'dagilar» bilan bo'lgan aloqalardan tug'ilgan nasllar nisbatan bo'ydor, baquvvat, abjir ekanligini seza boshlashgan. Bu aynan hozirgi zamon odami – gomosapiens shakllana boshlagan, taxminan bundan 42-45 mingyillar muqaddam davrga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, endogamiya (faqat bir urug' vakillari o'rtasidagi jinsiy aloqa)dan (q. Endogamiya), agomiya, ya'ni jinsiy munosabatlarning vaqtinchalik taqiqlanishi orqali ekzogamiya (turi qabila vakillari o'rtasidagi muntazam jinsiy aloqa) (q. Ekzogamiya) yuzaga keldi. Bundan nikohning guruhli nikoh turi yuzaga kelgan. Guruhli nikohda (q. Guruhli nikoh) bir urug' erkaklari boshqa urug'ning barcha ayollari uchun er va aksincha, ikkinchi urug'ning erkaklari birinchi urug' ayollarining erlari hisoblangan.

Guruhli nikohning yuzaga kelishi nikoh juftlari doirasini ma'lum bir guruh a'zolari bilangina chegaralab, birmuncha qisqartiradi. Bunday hollarda boshqa urug'dagi erkak ma'lum bir qabilaga faqat bitta maqsadda, "nikoh" maqsadidagina kelar edi, o'zlari esa ona oilalarida yashardi va ishlashardi, ular "xotin"lari yashaydigan oilada hech qanday huquqqa ega emas edilar.

Keyinchalik guruhli nikoh doirasida o'zaro mayllar zaminida yetarlicha doimiy juftlar shakllana boshladi. Bundan paydo bo'lgan juftli nikoh, dastavval, bir erkak doimo faqat bitta ayol bilan yashashini bildirmagan. Erkak kishi bir necha ayol bilan, xuddi shuningdek, ayol ham bir necha erkak bilan munosabatda bo'lish imkoni bo'lgan. Aniqrog'i, bunday nikohni juftli nikoh emas, balki ibtidoiy-egalitar, ya'ni teng huquqli nikoh deyish to'g'riroq bo'ladi. Tabiiyki, urug'ning bir muncha obro'liroq a'zolari bir necha ayolga egalik qilishgan. Bu davrga kelib, ko'p erlilik kamroq uchragan. Bunday juft nikohlar taxminan 25-24 mingyillar

muqaddam urug' ichida xo'jalik va iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllariga o'tish bilan xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi jarayonida paydo bo'lgan. Bu yo'lda qo'yilgan birinchi qadam "sovg'a ayirboshlash" deb atalgan odat bo'lgan.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan urug', qabila bir a'zosi mehnatining mahsuldorligi sezilarli darajada ortgan va bu ortiqcha iste'mol mahsulotlarining yuzaga kelishiga olib kelgan. Har bir kishi o'zi yaratgan mahsulotni qabilaning "umumiy qozoniga" tashlaydigan eskicha taqsimot shakli ishlab chiqarishning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi (chunki bu hol qabilaning nopok, dangasa a'zolari ishlab chiqarish faoliyatidan jazosiz qutulib qolishiga olib kelgan). Shuning uchun qabila ortiqcha mahsulotning ma'lum bir qismini qabila mulkiga o'zining abjirligi, chaqqonligi, ishlab chiqarish faoliyatida ko'proq muvaffaqiyatlarga erishganligi bilan farqlanib turgan a'zolariga mukofot, sovg'a tariqasida taqsimlashga majbur bo'lgan. Hammaga teng taqsimlash bilan birga asta-sekin odamning imkoniyatiga, uning qabila mulkiga qo'shayotgan ulushi miqdoriga qarab "mehnat haqi" ajratila boshlangan.

Agar teng taqsimlanishda jamoa mahsulotidan ulush olish "huquqi" mazkur uruqqa taalluqliligiga qarab berilgan bo'lsa, (jamoa mulkiga qancha hissa qo'shganidan qat'i nazar) endi bu "huquq" odamlarning mahsulot yaratishdagi ishtirokiga asoslanadigan bo'ldi. Urug'ning ayrim a'zolarida ortiqcha mahsulot, shaxsiy mulkning paydo bo'lishi, oilaning shakllanishi tomon qo'yilgan yangi qadam bo'lgan "sovg'a ayirboshlash"ni yuzaga keltirdi. Erkak kishi boshqa urug'dagi ayoliga o'zining mukofotini sovg'a qilgan, shuningdek, ayol ham ayni yo'lni tutgan. Ular o'rtasidagi sovg'a ayirboshlash qatorida erkak bilan ayol o'rtasidagi jinsiy munosabat ham davom etavergan. Sovg'a ayirboshlashning to'xtatilishi esa ular o'rtasidagi aloqaning ham tugashini bildirgan. Shunday qilib, nikohning yana bir turi – individual juft nikoh yuzaga kelgan. Bunda ayolning qarindoshlari, ya'ni o'z urug'i erkaklari bilan teng taqsimlash munosabatlari,

boshqa urug'dagi erkaklar bilan esa sovg'a ayirboshlash munosabatlari bog'lab turgan.

Shuni aytib o'tish joizki, juftli oilaning yuzaga kelishi boshidanoq onalik urug'i asoslarining buzilishiga olib kelishini bildirgan. Ya'ni, erkak kishi o'z mukofotini boshqa urug'dagi ayoli va bolalariga qanchalik ko'p bersa, uning o'z onalik urug'iga shunchalik kam ulush qolgan. Biroq er hali xotin va bolalarining yagona boquvchisi bo'lmagan. Juftli oilalarning yanada mustahkamroq bo'lishi uchun sovg'a ayirboshlashda er xotiniga, xotin eriga berganga qaraganda ko'proq sovg'a berishi lozim edi, shunday qilib sovg'a ayirboshlash munosabatlari boquvchilik munosabatlariga aylanishi lozim edi. Shu bilan birga erkakning xotin va uning bolalari bilan aloqasi muntazam va uzoq muddatli bo'lib bordi. Nihoyat, qabilalararo nikoh zamirida xo'jalik birligi — jamoa tashkil topdi, unga erlar o'z xotinlari va ularning bolalari bilan kirdi. Erkaklar o'z singillaridan, ayollar esa mos ravishda o'z aka-ukalaridan ajralishdi. Yangi iqtisodiy xo'jalik birligi yoki oilaning yana bir turi — juft oila yuzaga keldi, unga, asosan, er, xotin va uning bolalari kirdi.

Demak, nikoh oiladan ilgari vujudga kelgan bo'lib, dastavval, patriarxal oila vujudga kelishiga qadar, urug'chilik davrida faqat jinsiy tabiiy hayotni boshqarib borgan. Oila vujudga kelgandan so'ng esa nikoh kishilar hayotining boshqa sohalariga, chunonchi, huquqiy, axloqiy va maishiy sohaga ham kirib borgan. Nikohning oiladan farqi shundaki, u o'zi vujudga kelgan dastlabki davrda muayyan iqtisodiy, xo'jalik huquqi va majburiyatlari o'zining birinchi kunlaridanoq muayyan huquqlar va majburiyatlar bilan bog'langan kishilarning kichik uyushmasi, ittifoqi, birligidir. Oila sinfiy jamiyatga qadar jinslar o'rtasidagi jinsiy munosabatlarni boshqaradigan birdan-bir vosita bo'lgan.

## **Savollar va topshiriqlar**

1. Ibtidoiy oila turlari.
2. Nikohning ilk turlari.

### 3. Nikoh va oila shakllarining paydo bo'lish sabablari.

#### Test topshiriqlari

1. Ibtidoiy oila va nikoh masalalarini o'rganish ishiga eng dastlabki asos solgan tadqiqotchi kim?

- A. \* I. Y. Bahofen.
- B. A. Fergyusson.
- C. Mak-Lenan
- D. V. P. Alekseyev

2. Ibtidoiy nikoh va oila tarixini o'rganishda shotlandiyalik yurist J. F. Mak-Lennanning (1827-1881) ham xizmati nimadan iborat?

A. \*u o'zi ekzogamiya deb atalgan nikoh tartibining hamma joyda tarqalganligini va uning katta ahamiyati borligini ko'rsatdi

B. endogamiya deb atalgan nikoh tartibining ahamiyatini ochib bergan

C. nikoh munosabatlarining tadrijiy rivojlanish bosqichlarini ko'rsatib bergan

D. urug' jamoasidagi nikoh munosabatlarining tartiblanishi xususida fikrlarni ilgari surgan.

3. "Boshlang'ich nikoh" asarining muallifini toping?

- A. \*J. F. Mak-Lennan
- B. I. Y. Bahofen
- C. L. G. Morgan
- D. A. Fergyusson

4. Ibtidoiy to'lda davri nikoh munosabatlari o'zining betartibliigi va umumiyliigi bilan ajralib turgan, bu fanda qaysi atama bilan ataladi?

- A. \*promiskuitet
- B. ekzogamiya
- C. endogamiya
- D. levirat

5. Ibtidoiy urug' jamoasi nimaga asoslangan?

- A. \*qon-qarindoshlikka

- B. ijtimoiy tenglikka  
 C. yashash uchun doimiy kurash ehtiyoji  
 D. bilmayman
6. “Monogamiya” atamasi nima ma’noni anglatadi?  
 A. \*yakka nikoh  
 B. guruhli nikoh  
 C. betartib nikoh  
 D. ko‘p nikohlilik
7. Yigit qizga uylangach ularni qiz xonadonida yashash tartibi nima deyiladi?  
 A. \*matrilokal  
 B. patrilocal  
 C. dislokal joylashuv  
 D. poligamiya
8. Poligamiya atamasining ma’nosi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping?  
 A. \*“ko‘p nikohlilik”  
 B. “juft nikoh”  
 C. “yakka nikoh”  
 D. “ko‘p erlilik”
9. Matriklokal nikoh nikoh tartibida joylashish deb nimaga aytiladi?  
 A. \*“er-xotin va bolalarning ona urug‘ida yashashi”  
 B. “er-xotin va bolalarning ota urug‘ida yashashi”  
 C. “er-xotin va bolalarning alohida yashashi”  
 D. “Onalarning faqat bolalari bilan birga yashashi”
10. Qalin berish dastlab qaysi urug‘ jamoasi davrida yuzaga kelgan?  
 A. \*matriarxat  
 B. patriarxat  
 C. ibtidoiy to‘da davrida  
 D. ilk davlatlarning yuzaga kelishi davrida

## **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. r 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. R 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: "Высшая антропологическая школа", 2005, Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П. Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. "Наука", 2012. Стр. 3-10.

## IX BOB. IBTIDOIY MA'NAVIY MADANIYAT

### 9.1. Madaniyat tushunchasi va foydali bilimlarning o'sishi

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi.

“Madaniyat” atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarda rang-barang ma'nolarda ifodalangan. “Madaniyat” va “Культур” atamalari mutaxassislar fikriga ko'ra lotincha “ishlov berish”, “parvarish qilish” ma'nosini anglatgan. Keyinchalik “ma'rifatli bo'lish”, “tarbiyali”, “bilimli bo'lish” mazmunida ishlatilgan. O'zbek tilida keng ishlatiladigan “Madaniyat” atamasi arabcha “madaniy” – “shaharlik” degan ma'noni bildiradi. Agar amerikalik madaniyatshunos olimlar A. Kreber va K. Klakxonlarning 1952-yildagi ma'lumotlariga ko'ra madaniyat hodisasiga berilgan ta'rif 164ta bo'lsa, so'nggi adabiyotlarda bu raqam 400dan ortiqni tashkil etadi.

Ibtidoiy san'at. Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniya, Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko'tariladi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning turli namunalari topilgan. O'rta Osiyoning tog'lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil. Bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar) rasmlardir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami

vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibtidoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, uzun qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni mil avv. VIII-IV mingyilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash joizki, ibtidoiy san'atning eng rivojlangan bosqichi neolit davriga oiddir. Bu davr Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning juda ko'plab namunalari topilgan. Neolit davri odamlari idishlarga har xil rangdagi bo'yoq bilan turli naqshlar, odam va hayvon tasvirlarini ifoda etganlar. Shu bilan birga loydan yasalib, pishirilgan ayol haykalchalari neolit davri san'atining nodir namunalari hisoblanadi.

## 9.2. Dinning ibtidoiy shakllari

Kishilar turmush tarzidagi va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar insoniyatning diniy ishonch, e'tiqod ma'lum evolyutsiyaning yuz berishiga sabab bo'lgan. Ana shu asosda turli din shakllari yuzaga kelgan. Bular urug'-qabilachilik (ibtidoiy) dinlari, milliy dinlar va jahon dinlari. Shu bilan birga dinlar mazmun va mohiyatiga ko'ra politeistik (ko'pxudolik) va monoteistik (yakkaxudolik) dinlariga bo'linadi.

Hozirda jahon dinlari bo'linishi: Zardushtiylikka sayyoramiz aholisining 130 mingga yaqini, Buddaviylikka 800 million, Xristianlikka 2 milliard, Islom diniga 1,3 milliard e'tiqod qilishi rasmiy ma'lumotlarda qayd etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa



sohalari o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe'l-atrofiga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarini kashf etishiga ta'sir ko'rsatdi. U ibtidoiy bo'lsa ham aqliy fikr yurituvchi, ma'lum tahlilga qobiliyatli, konkret holatda fikr yurita oladigan, doimiy faoliyatida vujudga kelgan amaliy tajribalariga ega bo'lgan odam edi. Bilim miqdorini nihoyatda ozligi va uni doimiy takomillashib borishi, oldingi turgan hayotdan qo'rquv va uni yengishga bo'lgan intilish, amaliy tajribaning uzluksiz ko'payishi, tabiat kuchlariga mutlaqo tobelik va undan qutulishga tirishishi, araf-muhit injiqliklari va ularni yengish va hakoza. Bularning barchasi shunga olib bordiki, uning ilk qadamidan nafaqat mantiqiy talabchanlik, balki xissiy-ijtimoiy, hayoliy-fantastik munosabatlar kelib chiqdi. 20-50 kishidan iborat bo'lgan kichik qabila mehnat faoliyati jarayoni (ov, oziqa izlash, qurol yashash, turar joyni jihozlash, olovni saqlash va hakoza.) Doimiy ijtimoiy munosabatlar, oilaviy urug'doshlik aloqalari va hodisalar jarayonida nikoh aloqalari, iqlim ushbu jamoaning ruhoniylari gayritabiiy kuchlar va voqelik o'rtasidagi gayrioddiy aloqalar to'g'risida ibtidoiy tasavvurlar mustahkamlanib borgan. Real hayot bilan birgalikda o'zga dunyo mavjudligi, marhumlar tiriklar hayotiga ta'sir eta olish to'g'risidagi g'oyalar yuzaga keldi.

Ibtidoiy odam o'z qarindoshlarini ko'mishda maxsus marosimlar ma'lum tayyorgarlik udumlariga amal qilar edi. Jasadni qizil mineral bo'yoq bilan qoplar, uning yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari zeb-ziynatlar, asbob-anjomlar va hakoza qo'yilar edi. Bularning bari o'z jamoa a'zolarini dafn etayotgan jamoa oxirat mavjud ekanligi haqida ibtidoiy tasavvurlarga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Arxelogik izlanishlar jarayonida Yer yuzining turli joylaridagi g'orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan suratlarning ko'pchiligi ov sahnasi, odam va hayvonlarning tasvirlari, hayvon terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim hayvon qiyofasidagi mavjud suratlaridan iborat bo'lgan. Bu suratlar dalolat qildiki, o'zlari va hayvonlar o'rtasidagi tabiiy va

g'ayritabiiy aloqalar mavjudligi haqidagi tasavvurlarga ega edilar. Bu bilan birga marhum ajdodlarning ruhlar sehrli usullar bilan hayvonlar xulqiga ta'sir etish imkoniyatiga ega deb bilardilar. Bu tasavvurlar tiriklar bilan marhumlar o'rtasidagi vositachilar, ya'ni turli xildagi sehrgarlar va shomonlar faoliyatining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Ibtidoiy odamlar hozirgi davrdagi singari to'la shakllangan diniy sistemaga ega bo'lmagan. Ularda boshlang'ich diniy tasavvurlargina bo'lgan xolos. Dinning ana shunday ibtidoiy shakllariga totemizm, animizm, fetishizm, shomanizm hamda magiya (sehrgarlik) kabilar kiradi. Dinning bu shakllari urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bo'lgan.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ishlar: jumladan, tug'ilish, oziqa topish, ov qilish, o'z xavfsizligini ta'minlash, dafn marosimi kabilar turli diniy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lganligini ko'ramiz.

Dafn etish jarayoni. Qadimgi dunyo tarixidan ma'lumki, odamzod yaratilganidan buyon o'z qarindoshlarini ko'mishda maxsus marosimlar, ma'lum tayyorgarlik udumlariga amal qilib keladi. Masalan, Qadimgi Misrda fir'avnlarning jasadi qizil mineral bo'yoq bilan qoplanar, yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari, zebziynatlar kabi turli-tuman asbob anjomlar qo'yilar edi. Bu ham o'z navbatida o'z jamoa a'zolarini dafn etayotgan jamoaning oxirat mavjud ekanligi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Ov qilish. Shu paytga qadar olib borilgan arxeologik izlanishlar davomida Yer yuzining turli joylaridagi g'orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan. G'orlardagi suratlarining ko'pchiligida ov qilish jarayoni, odam va hayvonlarning tasvirlari, hayvon terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim hayvon qiyofasidagi mavjudotlar tasvirlangan. Demak, ibtidoiy odam o'zi va hayvonlar o'rtasidagi tabiiy va g'ayritabiiy aloqalar mavjudligi haqida tasavvurga ega bo'lgan va ayni paytda marhum ajdodlarining ruhlari sehrli usullar bilan hayvonlar xulqiga ta'sir

etish imkoniyatiga ega deb bilgan. Bu tasavvurlar tiriklar bilan marhumlar o'rtasidagi vositachilar: sehrgarlar va shamanlar faoliyatining shakllanishiga turtki bo'lgan bo'ldi. Ibtidoiy odam hayoti haqidagi tasavvurlarga ko'ra, uning hayotida kelib chiqqan diniy tasavvurlar quyidagi ibtidoiy din shakllarida namoyon bo'lgan.

**Totemizm.** Totem – biror urug' yoki qabila ibtidosi, urug' asoschisi, ajdod, urug' jamoalari topinib, uni muqaddas tutgan hayvon.

Totemizm e'tiqod shakli ma'lum bir jamoaning avvaldan asosiy oziqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin.

“Totem” so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojib va qabilasi tilida “uning urug'i” ma'nosini anglatadi va mohiyatan “odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor” deb e'tiqod qilishlik ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy oziqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabila diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlarga bunday e'tiqod uzoq o'tmishga tegishlidir, ularning mavjud bo'lganligini faqat qadimgi rivoyatlariga tasdiqlaydi. Masalan, hozirgacha Avstraliya aborijenlari orasidan bu xususda afsonalar saqlanib qolgan.

Urug'dosh jamiyatning shakllanish jarayonida totemizm muhim rol o'ynadi, ayniqsa, qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga, “o'zimizniki”, ya'ni “bir totemga tegishli” degan aniq taassurot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar va me'yorlar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Ayni totemga xos bo'lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va me'yorlaridan chetda hisoblangan. Totemizmning bunday ijtimoiy roli tabiiyki, totemistik ko'rinishlarning evolyutsion

xarakteriga ham ta'sir kuchini o'tkazmay qolmadi. Vaqt o'tishi bilan qarindoshlik tizimining mustahkamlanib borishi jarayonida birinchi darajali totem tartibi haqida tasavvur ilgari surildi. Zooantropomorf ko'rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar, ya'ni odam vafot etgach uning o'z totemiga aylanishi yoki, aksincha, qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Bular hammasi o'tgan ota-bobolar ruhlariga sig'inishning, umuman, kuchayishiga va ilohiy kuchlarga bir tomondan ishonchning oshishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan totemga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi, misol uchun totemni oziqa sifatida iste'mol qilishning taqiqlanishiga olib keldi. Tabu (taqiqlash) tizimi paydo bo'ldi. Bunda eng muhimi totemni ovqat sifatida iste'mol qilishni taqiqlash edi. Faqat ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoxud qabila boshliqlarigagina totemni yeyishga ruxsat etilardi. Shunday qilib, totemizm urug'chilik jamoasida diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari, yuqorida aytib o'tilganidek birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi sanalsa-da, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

Animizm (lotin tilida "anima" – "ruh", "jon" ma'nolarini anglatadi). Animizm – ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy shakllardan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllanishiga vujudga kelgandir.

Bu nom ingliz etnografi E. Teylor tomonidan kiritilgan. Animizmning mohiyati kishi ruhining, jonining borligicha ishonishdir. Animizmدا ruhlar tabiiy hodisalarni boshqaradi, unga

ta'sir o'tkazadi deb hisoblanadi. Bu ruhlar yo saxiy kishilar baxtiga, hayotiga tahdid soluvchi bo'lishi mumkin deb tasavvur qilingan. Ibtidoiy odamlar vafot etgan kishilarning ruhlari abadiy, o'lmas deb hisoblab, ularga sig'inganlar. Ular o'z tanalari tuzilishini kishi o'lishi, tush ko'rishi va jasadlari bilan bog'lik hodisalarni tushuna olmay, jonni mavjud bir narsa deb bilib, kishi o'lishi bilan jon tanani tark etib ketadi, boshqa narsalarga, ya'ni hayvonlarga, yosh chaqaloq bolalarga o'tadi deb tasavvur qilganlar. Uyquni jonning kishi tanasini vaqtincha tashlab ketishi, tushni esa kishi uxlab yotganda jonning boshqa o'lib ketgan kishilarning joni bilan uchrashuvi deb bilganlar.

Animizmga e'tiqod qilganlar odam o'lgandan so'ng jon tanadan chiqib ketadi va o'lmaydi, abadiy yashaydi deb hisoblaganlar. Shu asosda ruhning o'lmasligi to'g'risidagi tasavvurlar yuzaga kelgan. Shu bilan birga ibtidoiy odamlar har bir narsaning o'z ruhi joni bor deb tasavvur qilgan.

Markaziy Osiyoda marhumning jonini – ruhini “arvoh” deb atashgan. Arvoh esa uzoqqa ketmay shu joyda aylanib yuradi, uydagi barcha ishlardan xabardor bo'lib turadi deb o'ylaganlar. Arvohlarni rozi qilish, g'azabini keltirmaslik maqsadida har xil qurbonlik marosimlarini o'tkazganlar.

O'tgan ajdodlar ruhlariga sajda qilish, ularni xotirlash, tabiat va tabiat kuchlarga sig'inish natijasida muqaddas joylar, avliyolarning qabrlari vujudga kelgan.

Animizmning totemizmdan farqli jihatlari bor. Albatta, totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga, uni boshqalardan farqlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy xarakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini – osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momoqaldiroq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki relyefning ayrim alohida qismlari – tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar. Hattoki,

ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o'xshash narsalar ham ibtidoiy odamlar tasavvurida jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shunday bo'lgach, har qanday voqea-hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish taqazo etilgan, qurbonliklar qilingan, ruhlar haqqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilgan.

Animizm zamonaviy dinlarning barchasida asosiy aqidaviy qismni tashkil etadi. Jumladan, jahon dinlari sanalmish buddizm, kristianlik va islomda ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

Shamanizm ("shaman" so'zining tungus tilidagi ma'nosi – "sehrgar"). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, unga ko'ra uning vositasida kishilar o'z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. Shamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar, afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'la olishlariga, ularga jamoaning orzuniyatlarini ruhlarga yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda, ma'lum harakatlar: ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralari va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga yetish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zlarini yo'qotar darajaga yetib, marosim ishtirokchisiga aylanib qolishar edi. Marosim oxirida shaman hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar, uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Umuman olganda, turli diniy marosimlarni o'z ichiga olgan afsungarlik jamiyatning haqiqiy talablaridan kelib chiqqan holda hayotda amalga

oshirilgan. Ilohiy kuchlar dunyosi bilan bunday bog‘lanish yo‘li hayotda noma‘lum, oldindan bilib bo‘lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Shuning barobarida afsungarlik odamlarning fikrlash qobiliyatining o‘z-o‘z borishi, ongining mustahkamlanishida katta rol o‘ynadi, diniy ongning shakllanish jarayonida muhim o‘rin tutdi. Afsungarlik fikr yuritish rivojlangan sari odamga o‘z-o‘zidan bo‘ladigan, faqatgina maqsadli yo‘nalishdagi harakatlar natijasida olinadigan emas, balki ilohiy kuchlar afsuni bilan bog‘liq bo‘lgan sharoitlardan kelib chiqadigan ko‘rinish deb hisoblangan. Natijada ko‘pgina aniq hodisalar, hattoki alohida buyumlar sehrli kuch egasi sifatida qabul qilina boshlandi.

Sehrgarlik marosimlari ikki usul: yakka holda yoki jamoa bo‘lib amalga oshiriladi. Afsungarlik maqsadga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi: 1) zarar keltiruvchi – yovuz afsungarlik. Bundan kimgadir zarar yetkazish niyat qilinadi; 2) harbiy afsungarlik. Bunday afsungarlik dushmanga qarshi qo‘llaniladi (masalan, qurol-aslahalarni sehlash); 3) sevgi afsungarligi, boshqacha aytganda, “issiq” yoki “sovuq” qilish; 4) tibbiy afsungarlik. Davolashda ishlatiladi; 5) ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg‘ir chaqirish yoki shunga o‘xshash ob-havoni o‘zgartirish maqsadlarida foydalanilgan.

Sehrgarlik hozirda ham mavjud dinlarda, turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

Fetishizm (“fetish” so‘zi fr. fytiche – “but”, “sanam”, “tumor” ma‘nosidagi so‘zni anglatadi). Mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig‘inishdir. Unga ko‘ra alohida buyumlar kishini o‘z maqsadiga erishtirish, ma‘lum voqea-hodisalarni o‘zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog‘och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo‘lishi bilan bir paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar G‘ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko‘rdilar.

Bunday fetishga odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik yo‘li bilan buyumlarga ta‘sir ko‘rsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining

shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi. Haqiqatda, ajdodlarni va tabiatni jonlantirish bilan bog'liq bo'lgan animizm, turli totemlar hamda o'lib ketgan avlodlar shaxsiga bog'liq totemizm orqali ibtidoiy odamlar ongida real buyumlar bilan birga ilohiy va xayolot dunyosi borligi haqidagi tushuncha paydo bo'ldi. Natijada ularning ongida afsonaviy fikr yuritish qobiliyati mustahkamlandi. Va, nihoyat, fetishlarning paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, afsonaviy qudrat faqatgina vaqt va bo'shliqda ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lib qolmasdan, balki voqeyiy dunyodagi buyumlarda ham mavjud bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, urug'chilik jamiyatining tashkil topish jarayonida ibtidoiy odamlarning ongida dastlabki diniy ko'rinishlarning keng, aniq, tartibli majmuasi ishlab chiqildi. Demakki, diniy tasavvurlar odam hayotining bo'linmas, hattoki asosiy qismi bo'lib qoldi. Jamiyat va tabiat qonunlarini, albatta, o'sha dunyo kuchlari boshqaradi. Shuning uchun jamoa yaxshi yashayman desa, oziqalar bilan ta'minlangan, kimningdir tomonidan himoyalangan bo'lishni istasa, birinchi vazifasi u o'sha g'ayritabiiy kuchlarni juda ham hurmat qilishi kerak edi. Dunyo haqidagi bu tasavvurlar vaqt o'tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt o'z ta'sirini o'tkazib keldi.

Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va e'tiqodlarida saqlanib qolgan. Masalan, turli haykallar, suratlar, tumor, ko'zmunchoq va turli ramzlar bunga yorqin misoldir.

Ibtidoiy mifologiya. Ibtidoiy odamning tasavvuri va e'tiqodlari majmuasi, ularning real hayotdagi qiyinchiliklari, muammolari va yutuqlari og'zaki ijodda aks etgan. Bu narsa odamlarning ongida qolib, turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy mifologiyani tashkil etgan ijod doim odamlarning ma'naviy hayoti, ibodati, hissiyotlari va diniy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq edi. Buni tushunish oson: agar ibtidoiy odamning asosiy ma'naviy hayotida totemlarga, marhum ajdodlarga ibodat qilish, ular bilan sirli qarindoshligi bo'lsa, mifologiyaning markazida zooantropomorfik ajdodlar yoki har xil mo'jizaviy kuchga ega



bo'lgan ilohiylashtirilgan qahramonlar turardi. "Madaniy qahramon"larning ismlari afsonalarda biron bir ixtiro yoki yangilikda mujassam bo'lgan. Masalan, olovni topish, oila va nikohlar shaklini o'rnatish, mehnat va ov qurollarini yasash hamda boshqa jasoratlariga oid aqidalarni tashkil qilish. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan, ya'ni yer va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot, nihoyat, odamning yaratilishi to'g'risidagi rivoyatlar, afsonalarda diniy tasavvurlarning ta'siri yaqqol ifodalangan. Ruhlarining yangi shaklga kirish sehrli xususiyatiga, ya'ni o'z qiyofasini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan, bir vaqtning o'zida odam va hayvon shakliga kira olishini monstrlik deb hisoblashardi.

Ibtidoiy mifologiyada hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi muhim aloqalar tasvirlangan edi. Mifologiyaning bunday qarama-qarshiliklarini tahlil qilish inson tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklash uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalar taraqqiyotida diniy tasavvurlarning rolini aniqlashga imkon yaratadi.

Neolit davridagi diniy tasavvurlar. Neolit revolyutsiyasi odamlarning turmush tarzini tubdan o'zgartirdi. Odam asta-sekin o'simliklarni o'stirish, oziqa zahiralarni hosil etishni o'rgandi, bu esa odamni o'troq hayot kechirishga majbur etdi. Yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatdi hamda ular berayotgan mahsulot: go'sht, sut va teridan foydalanishni o'rgandi. Ovqat pishirishni o'rganish, idishlar yasash kabi yangi muhim materiallarni o'zgartirdi. U ovqat va ichimliklar saqlash uchun mo'ljallangan idishlar, uy qurish uchun foydalaniladigan loyni tayyorlashga o'rgandi. Neolit davri yuqori paleolitdan shunisi bilan farqlanadiki, unda odamzod tosh buyumlarni silliqlash va sayqal berishni o'rgandi va shu farq mazkur davrga nom berdi (neolit – yangi tosh davri, yangi tosh ishlash, yangi usullar davri).

Neolit davrida dehqonlarga yangicha ishlab chiqarish usullarini topdilar, zich va guruh-guruh bo'lib yashay boshladilar. Dushmanidan hamda yovvoyi hayvonlardan himoyalangan qishloqlar kengayib, atroflarida kichik qishloqchalar o'rinar edi.

Aholining keskin ko'payishi yangi yerlarni o'zlashtirishga ehtiyoj tug'dirsa, hayot tarzining o'zgarishi diniy tasavvurlarning rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratdi.

Dehqonchilikning muntazam tirikchilik tashvishlari: hosilni, yig'im-terimni kutish, aniq vaqtni belgilash, yil fasllarining sikllarini bilish kabilarning hammasi dehqonning osmon-u yerga, quyosh-u oyga, yomg'ir-u shamolga yangi qiziqishi paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, yangi ruhlar qudratiga ishonch sezilarli va ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. O'z navbatida, iltijo va qurbonlik ruhlarga atala boshlandi. Ammo, tabiiy imkoniyatlar to'g'risidagi tasavvurlar keskin o'zgardi. Natijada qadimgi ruhlar – animistik sig'inish obyekti asta-sekin o'ta qudratli xudolarga aylandilar. Ular uchun mehrob hamda cherkovlar tashkil etilib, bunday joyda, odatda, dehqonlar jamoasidan maxsus ajratilgan alohida xizmatkorlar – kelajakdagi kohinlar – kecha-yu kunduz xizmat qilar edilar. Qadimgi totemistik tasavvurlar ham o'zgardi, dehqonlar hayoti ov natijasiga bog'liq bo'lmagani bois, hayvonlar qadrlana boshladi, ammo totemistik tasavvurlar avlodlar xotirasida saqlanib qolaverdi. Bu esa zoomorfik tashqi qiyofani biron-bir sig'iniladigan ilohiyatda aks etishiga olib keldi. Aksar ilohiyatlarning ko'rinishi hayvon, qush, baliqlarning yo boshi, yo tanasi shaklida bo'lar edi. Bu mifologik qahramonlarning yuqorida aytib o'tilgan ilohiyatiga qarindoshligi saqlanib qolgan.

Fetishizmning sokin xarakteri o'zgardi, ilohiyatlarning qudratli butlari, mehroblar yoki cherkovlar yoniga o'rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi.

Ba'zan butlar o'rniga ramziy haykalchalar, turli shakldagi toshlardan foydalanildi. Fetishizmning rivojlanishida bu haykal va qurilmalar ibodatxonalarining ramzi bo'lib xizmat qildi.

Afsun ham o'zgardi. Afsungarlarning dushmanlarga ziyon yetkazish va omadli ov bilan ta'minlash, ruhlar yordamida o'z maqsadiga yetishishning ibtidoiy usullari o'rniga yangi, puxta o'ylangan ilohlar bilan aloqa marosimlari, boshqa diniy marosimlar, ibodat va qurbonlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Tabiiyki, bular asosida qadimgi afsunlar yotar edi. Ammo bir

qancha yangiliklar: fol va bashorat yuzaga keldi, bular afsunga yaqin bo'lgan hamda unga asoslangan afsun usullari bo'lsa-da, maqsad boshqa edi: bunda istakni amalga oshirish emas, balki uni bilish ko'zda tutiladi. Folbinlikning ilk shakllari neolit davridan ilgari ham amalda bo'lgan. Ammo tizim sifatida neolit davrida yakunlandi. Neolit davridagi dehqonlar qudratli tangridan qo'rqqan holda uning yaxshi niyat munosabatlariga juda qiziqar edilar. Buning uchun tabiat kuchlari ilohiyotlariga yoki ilohiylashtirilgan ajdodlarga ibodat qilishar edi. Ular xayolan qurbonliklar va ibodatlar ilohiyotlar ko'ngliga yo'l topadi, bizga yordam keladi deb ishonar edilar, ammo buni bilsa bo'ladimi? Mana shu yerda fol ochish kelar edi. Har bir jamoa uchun xos bo'lgan ibtidoiy shakldagi afsun marosimlaridan farqli o'laroq, folbinlik yuqori saviyadagi madaniyatni talab etardi. Marosimlarni olib boruvchi folbin kiyimi shartli belgilar tizimiga rioya qilishi shart edi. Bu shartli belgilar sig'inilayotgan ilohiyotining qoniqqanligini hamda ularning iltijolariga aniq javob berishga tayyorligini anglatardi. Belgilar tizimi har xil: elementar qur'a tashlashdan to murakkab chiziq, yorug' nuqta va chiziq'larni qo'shilishigacha bo'lar edi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Madaniyat tushunchasi.
2. Foydali bilimlarning o'sishi.
3. Ibtidoiy san'at.
4. Ibtidoiy din shakllari: totemizm, fetishizm, animizm, shamanizm va magiya.

### **Test topshiriqlari**

1. Ibtidoiy haykaltaroshlikka xos bo'lgan Kostenka va Malta manzilgohlaridan topilgan ayol va erkak haykalchalari nimadan yasalgan edi?
  - A. \*ohaktosh va mamont suyagidan
  - B. bronzadan

- C. oddiy toshdan
- D. chaqmoqtoshdan

2. Tosh ishlash texnikasining rivojlanish bosqichlaridan biri falsam turidagi paykonlar Sandiya paykonlaridan nimasi farq qiladi?

- A. \*paykonning uzunligi, ixchamligi va ingichkaligi bilan
- B. tig'iga siqma retush usulida ishlov berilganligi bilan
- C. paykonlarning kaltaligi bilan
- D. paykonlarning qalinligi bilan

3. Trinil va Mojokerto deb nomlanuvchi joy makonlari qayerdan topilgan?

- A. \*Indoneziyadan
- B. Filippindan
- C. Avstraliyadan
- D. Tailanddan

4. XX asrning 20-yillarida Avstraliyaning tub aholisini o'rgangan mashhur rus tadqiqotchisini toping?

- A. \*I. Simyonov
- B. M. Maklay
- C. A. Nikitin
- D. S. Polyakov

5. Sehrgarlikdan Afrikada yashovchi pigmey ovchilari qay tarzda foydalanishgan?

A. \*yerga ovlanadigan hayvon suratini chizib unga nayza sanchish usuli bilan

B. afsun o'qish usuli bilan

C. ovlanadigan hayvonning biror a'zosini tumor qilib taqib olish orqali

D. ov uchun omadli etib belgilangan kunda amalga oshirish orqali

6. Oxra, qizil rang ibtidoiy kishilar tasavvurida nimani anglatgan?

- A. \*qon va olovni, hayot ramzini anglatgan
- B. narigi dunyo bilan bog'lovchi vosita
- C. himoya vositasini

D. omad keltiruvchi unsur

7. Qoyatoshlarga urib o'yish orqali ishlangan rasmlar fanda qanday nom bilan yuritiladi?

A. \*petroglif

B. geraldika

C. plastinka

D. retush

8. Mashhur rus etnografi M. Mikluxo-Maklay Yangi Gvineyada kimlarni o'rgangan?

A. \*papuaslarni

B. tasmaniyaliklarni

C. tongoliklarni

D. orolliklarni

9. Qadimgi yunonlarda olovni kashf etilishi bilan bog'liq Esxil tragediyasi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

A. \*Zanjirband Prometey

B. Hisob ilmi

C. Zevs va Gefest

D. Zevs

10. Animizm atamasini fanga olib kirgan olimni toping?

A. \*E. Taylor

B. Redkliff-Barun

C. E. Spenser

D. L. G. Morgan

11. Madaniyat atamasini fanga kim olib kirgan?

A. Redkliff-Barun

B. \*E. Taylor

C. E. Spenser

D. L. G. Morgan

12. sultura atamasining ma'nosi bu...

A. \*parvarishlash

B. madaniylashish

C. shaxarlashish

D. sayqal berish

13. Kim o'zining tadqiqotlarida madaniy plyuralizm prinsipini ilgari suradi?

A. Redkliff-Barun

B. E. Taylor

C. E. Spenser

D\*Frans Boas

### **Bob bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. r 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. R 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: "Высшая антропологическая школа", 2005. Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П. Перщиц А.И. История первобытного общесво. -М. "Наука", 2012. Стр. 3-10.

## **XX BOB. IBTIDOIY JAMOA VA SIVILIZATSIYA**

### **10.1. Ibtidoiy jamoa tuzumining buzilish shart-sharoitlari, talonchilik urushlari hamda harbiy demokratiya**

Ishlab chiqarish kuchlarning rivojlana borishi mehnatning birinchi va uchinchi taqsimoti va boshqa qator sabablar jamiyat ichida katta o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Bu hol oqibat natijada ibtidoiy tuzumning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon patriarxal jamiyatning asosiy negizini tashkil etgan katta oilalarga ta'sir etib, ular kichik-kichik mustaqil oila bo'lib ajralib chiqa boshladilar. Mustaqil xo'jalik yurita boshladilar. Katta patriarxal oilalarning mayda oilalarga bo'linib ketishi, xo'jalik jihatidan mustaqillikka va erkinlikka intilishlari xususiy mulkning vujudga kelishi uchun zamin hozirladi va oqibat natijada uni vujudga keltirdi.

Xususiy mulkning vujudga kelishi masalasi ibtidoiy jamiyat, umuman, bashariyat tarixi bilan shug'ullanuvchi barcha olimlar oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Xususiy mulkning kelib chiqishi masalasida Yevropa olimlari qator "nazariya"larni ilgari suradilar. Ularning fikricha xususiy mulk azaliy va tabiiy emish.

Eng avval qaysi narsalar, nimalar xususiy mulkka aylangan degan masala olimlarni qiziqtirgan. Bu masalada hali olimlarning fikr-mulohazalari bir xil emas. Ba'zilar chorvani eng dastlabki xususiy mulk desalar, boshqalar yerni va bo'lak narsalarni eng dastlabki xususiy mulk bo'lgan deyдилar.

Shuni aytish kerakki, qayerda xo'jalikning qaysi tarmog'i rivojlangan bo'lsa, mazkur xo'jalik yetishtirgan mahsulot shu joyda xususiy mulkning ramzi bo'ladi.

Chorvachilik rivojlangan rayonlarda dastlab chorva mollarining xususiy mulkka aylanganligi shak-shubhasizdir. Xo'jalikning asosini dehqonchilik, bog'dorchilik tashkil etar ekan, demak, u joylarda yer xususiy mulkning manbai bo'lib qolgan. Demak, ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi yirik patriarxal oilalar

yemirilib uning oʻrniga kichik oilalar maydonga keldi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida kichik oilalar jamiyatining asosiy xoʻjalik va ijtimoiy tashkilotiga aylandi. Mol-mulk, chorva, yer va boshqa narsalar kichik oilalar ixtiyoridagi xususiy mulkka aylandi. Oila boshligʻi esa oila ixtiyoridagi yer, suv, chorva, oʻz xotini, bolalari ustidan ayni vaqtda ularning mehnati ustidan cheksiz huquqqa ega ega boʻlgan hukumron shaxsga aylandi. Shunday qilib xususiy mulkchilik kelib chiqdi.

Kichik oilada ishlab chiqarishning ham dehqonchilik, chorvachilik ayirboshlash va boshqa sohalarning yuksala borishi natijasida ishchi kuchiga boʻlgan talab kuchaya bordi. Kichik oila katta xoʻjalik yurita boshlash natijasida oilada kishilarning ish kuchi kifoya qilmay qoldi. Endilikda xoʻjalik ishlarini olib borish uchun tashqaridan qoʻshimcha yangi ishchi kuchi kerak boʻlib qoldi. Bunday ishchi kuchni oʻzga qabilalar bilan olib borilgan urushlar vaqtida asr olingan kishilar tashkil etib, ular qullarga aylantirilgan, ular mehnatidan turli xoʻjalikning turli sohalarida foydalanilgan. Shuni ham aytib oʻtish kerakki, harbiy asrlar qoʻshimcha ishchi kuchi, qulning yagona manbai emas. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilayotgan soʻnggi bosqichiga kelib, isteʼmol buyumlari taqsimoti oʻzgarib, baʼzi kishilar nochor ahvolga tushib qoladi. Natijada qarz olish paydo boʻlib, qarzni oʻz vaqtida yoki umuman toʻlay olmaslik qaramlik va asoratga olib keladi. Shunday qilib qul va qulchilik vujudga keldi. Qulchilik baʼzi joylarda matriarxatning soʻnggi bosqichlaridayoq vujudga keldi, ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlariga kelib, uning tanazzulga yuz tutgan davrida biroz rivoj topdi. Lekin bu davrdagi qulchilikni klassik qulchilikka taqqoslab boʻlmas edi. Chunki u hali xoʻjalik sistemasiga ishlab chiqarishning alohida vositasiga aylanmagan edi. Ular oʻz mulklariga ega boʻlish bilan birga, baʼzi shaxsiy huquqlarga ham ega edilar. Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilayotgan bir sharoitda hamma oilalar boylik jihatidan bir xil emas edilar. Baʼzi oilalar sermulk, badavlat, baʼzilari oʻrtahol, ayrimlari esa kambagʻalroq edilar. Koʻrinib turibdiki, bu davrga kelib oilalar urugʻlar va qabilalar jamoasi ichida ham mulkiy tengsizlik vujudga



keldi. Mulkiy tengsizlikda esa jamiyatni boy va kambag'al tabaqalarga bo'lib yuborib, ular orasida qator ziddiyatlarni vujudga keltirdi. Bu ziddiyatlar esa ular orasidagi to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi xususiy mulkning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi bilan jamiyatning bir necha qarama-qarshi toifalarga bo'linishi ibtidoiy jamoa tuzumining negizida dastlabki quldorlik davlatlarini vujudga kelishi uchun asos yaratdi. Ibtidoiy jamoa tuzumi so'nggi davrda urug' jamoalari tarqalib qo'shni jamoalar vujudga kela boshlaydi. Urug' jamoalarining ko'chishi boshlanadi. Yoki ular borib o'rnatilgan yerga o'zga joylardan o'zga uruqqa mansub odamlar guruhi kelib o'rnatilgan boshlaydi. Bu ko'chishlarning urug'larning dastlabki teritorial birligini buzib yuborib, turli urug'lardan tashkil topgan aralash qishloqlarni vujudga keltiradi. Bu qo'shni jamoalar edi.

Shu tariqa qon-qarindosh urug'chiligiga buzilib qo'shni jamoalar paydo bo'ladi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda bu jamoa, chorvadarlarda esa ko'chmanchilar jamoasi nomini oladi.

Qishloq jamoasi ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi hisoblanadi. Qishloq jamoasi dualizm – ikki tomonlama xarakterga ega edi. Bu ikkiyoqlik qishloq jamoasida ayni bir vaqtning o'zida ham xususiy, ham ijtimoiy mulkning mavjud ekanligi bilan xarakterlanadi. Yerni yakka-yakka ishlash undan hosilni xususiy o'zlashtirish hayvonlar qishloq xo'jalik buyumlari qullar, "uy va uning qo'shimcha qismi – xovli" xususiy mulk hisoblanib ekiladigan yer, o'tzorlar, o'tloq, yaylovlar, o'rmonlar, tog'-toshlar va suvlar umumiy mulk, hammaga tegishli bo'lgan.

Lekin qishloq jamoasi ham barqaror bo'lmay, ham keyinchalik o'zgarishga uchragan.

Qo'shni qishloq jamoasidan dualizm uning umumiy mulkdan xususiy mulkka o'tish formasi bilan izohlandi. Lekin qadimgi sharqning sug'orma dehqonchiligi rivojlangan mamlakatlarda qishloq jamoalari nisbatan barqaror bo'lib, uzoq yashaganlar. Chunki sug'orma dehqonchilikka asoslangan mamlakatlarda

kanallar, qazish sug'orish inshootlarini qurish va ularni tartibga solib turish hamishá, hamma vaqt birgalikda mehnat qilishni taqazo etar edi. Shuning uchun ham bunday mamlakatlar uchun qo'shni qishloq jamoasining ahamiyati katta edi.

### **Talochilik urushlari va harbiy demokratiya**

Xususiy mulk va mulkiy tengsizlikning vujudga kelib kuchaya borishi qator o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Bu hol urug' jamoa va qabilalar orasidagi munosabatlarni ular orasida qator-qator kelishmovchiliklarni vujudga keltirdi. Bu kelishmovchiliklar esa qabilalararo urushlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Ilgari chegarani himoya qilish, o'ldirilgan qabilalar, urug' a'zolarining xunini olish uchun urushlar olib borilgan bo'lsa, endilikda urush talonchilik, boyluk orttirish va qo'lga kiritishning asosiy manbaiga aylandi. Urushda g'olib chiqqan qabilalar, qo'lga tushurgan xazina, qurol, chorva va boshqa qimmatbaho buyumlarni o'lja qilib olar, erkin aholini esa qul qilib haydab ketar edilar. Aholi sonning orta borishi bilan esa yengilgan qabilalarning ekin yerlarini, ajoyib o'tloqlarini, hayvonot olamiga boy bo'lgan ov qilish maydonlarini ham tortib olar edilar.

Talochilik, bosqinchi qabilalarga mashaqqatli mehnatdan ko'ra osonroq va hatto sharafliroq bo'lib ko'rinadi. Demak o'sha davrdagi harbiy yurishlar, harbiy texnika va harbiy tashkilotlarni qayta-qayta ko'rishni talab etardi.

Jangovar va mudofaa ahamiyatga ega bo'lgan nayza, oybolta, cho'qmor, qilich, dubulg'a, qalqon, xanjar kabi qurollar o'sha vaqtlarda paydo bo'ldi va takomillasha bordi. Dushman hujumidan saqlanish uchun qishloqlarning atrofi qalin devor, ko'tarma va xandaq kabi mudofaa inshootlari bilan ihota qilina boshladi.

Shunga muvofiq urush harakatlari, uning taktika va strategiyasi o'zgarib murakkablasha boshladi. Aholining borgan sari zich bo'lib yashashi talonchilik urushlari, o'z-o'zini mudofaa qilish, qator ichki va tashqi sabablar hamma yerda qarindosh qabilalar ittifoqini tuzish zaruriyatini taqazo etdi. Qabilalar ittifoqi, ular orasidagi

iqtisodiy-siyosiy va madaniy munosabatlar esa turli qabilalarning bir-biriga qo‘shilib, aralashib ketishi natijasida jamiyatda yangi ijtimoiy shakl – xalqlar vujudga keldi. Dastlab, harbiy yurishlar vaqtida qabila boshlig‘ining o‘zi barcha ishlarga rahbarlik qilgan. Lekin urush harakatlarining kuchayishi va urush texnikasining takomillashuvi natijasida alohida harbiy boshliqlar ajralib chiqqan boshlaydi. Bu harbiy boshliq yoki lashkar boshi atrofida esa kuchli, botir, epchil va sadoqatli jangchilardan tashkil topgan askarlari bo‘lgan.

Qabilani tashqi dushmanlardan muvaffaqiyatli ravishda mudofaa qilish va talonchilik urushlari va harbiy sohada olib borilgan boshqa ishlar lashkarboshilarning obro‘-e’tiborini oshirib yuboradi. Qo‘shni qabilalar ustiga bosib borish, talonchilik urushlari natijasida hisobsiz o‘ljalar va asirlar qo‘lga kiritilgan. Shubhasiz, bu o‘lja va asirlar g‘oliblar orasida taqsimlanib, boylik va asirlarning katta qismi harbiy boshliqqa tekkan. Shunday qilib g‘olib kelgan lashkarboshilar va askarlar o‘zga qabila va xalqlarni talash yo‘li bilan boyib keta boshlaganlar.

Endilikda ilgari xalq lashkaboshisi qabila uchun zarur bo‘lgan mansabdor kishiga aylana boshlaydi. Xalq majlisi bo‘lmagan joyda xalq majlislari paydo bo‘lib, xalq majlisi, lashkarboshi, oqsoqollar kengashi harbiy demokratiya deb atalmish tashkilotni tashkil etadilar.

Xalq yig‘inida 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, ya‘ni harbiy yoshdagi kishilar qatnashar edi. Unda yo‘lboshchini, demokratik muassasa hisoblangan xalq yig‘ilishi va oqsoqollar kengashi saylab qo‘yar edi. Harbiy demokratiyaning demokratik deyilishining sababi ham shundadir.

Xalq yig‘ilishi harbiylar yig‘ilishi ham edi. Unda xalq lashkarboshisining ta’siri kuchli bo‘lib, endilikda urushning o‘zi va urush olib borish uchun uyushish xalq turmushining muntazam funksiyalariga aylandiki, shuning uchun ham u harbiydir. Harbiy demokratik tushunchasini tarix faniga olib kirgan kishi L. G. Morgan bo‘lib, u rug‘chilik tuzumining so‘nggi bosqichi davridagi jamiyatni boshqarish tashkilotini “harbiy demokratiya” deb atagan.

Normanlar, qadimgi germanlar, keltlar, skiflar, jamiyatni qadimgi Rim podsholik davri va Gomer davridagi grek jamiyati harbiy demokratiyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Shunday qilib, harbiy demokratiyaning vujudga kelishi talonchilik urushlari, qabilalararo munosabatlar, savdo-sotiq, ayirboshlashning kuchayishi xususiy mulkchilik, mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tabaqalar va davlatning vujudga kelishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida, tabaqasiz jamiyat o'rniga tabaqali jamiyat va yuqori ijtimoiy toifalarning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat vujudga keldi.

## **10.2. Dastlabki tabaqalar va davlatning vujudga kelishi**

Ijtimoiy tabaqalar va davlatning vujudga kelishi masalasi tarix fani oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mehnatning birinchi, ikkinchi va uchinchi yirik ijtimoiy bo'linishi talonchilik urushlari, urug' qabila va qabilalar orasidagi tashqi va ichki munosabatlar ijtimoiy tabaqalar va ilk davlatlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratdi. Natijada uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida dastlabki quldorlik davlatlari vujudga keldi.

Lekin ibtidoiy jamoa tuzumining buzilishi va dastlabki davlatlarning vujudga kelishi Yer sharining odam yashaydigan joylarida ayni bir vaqtda emas, balki turli sharoitda, shu bilan birga turli davrlarda vujudga keldi.

Jamiyat yerdor, mulkdor, yirik chorvador, katta boylikka ega bo'lgan guruhlar va qullar, kambag'al ozod kishilarga bo'linib ketar ekan, ular orasida kelishtirib bo'lmaydigan ziddiyatlar ham vujudga keldi.

Endi ibtidoiy davrdagi xalqchil boshqaruv tashkilotlari – urug' qabila va xalq kengashlari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Tabaqaviy jamiyatni boshqarish tashkilotlari vujudga keldi. Ibtidoiy davrdagi urug'-qabila oqsoqollari, ayniqsa, harbiy boshliqlar va ularning

homiylari o'z davrining nufuzli aslzoda zadogonlari – hukmron doiralari aylana boshladilar.

Endilikda qabilaning nufuzli kishilari harbiy o'ljalarning asosiy qismini o'zlariniki qilib olish bilan bir qatorda o'z qabiladoshlaridan ham sovg'a o'lpon va qurbonliklar tarzida ko'p boylik to'play boshladilar.

Urug'-qabila zadogonlari asta-sekin xalq ommasidan uzoqlashib, ularni ezuvchi guruhlariga aylanadilar.

Nufuzli, badavlat kishilar atrofida jangchi, ruhoniylar va boshqalardan iborat sodiq kishilar guruhi to'planadi. Bu dastlabki tizim apparatining ko'rinishi edi.

Davlat va ijtimoiy tabaqalarning kelib chiqishi masalasida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar va din homiylari uni azaldan mavjud deb talqin qiladilar.

Olimlarning ba'zi namoyondalari bu masalada zo'rlik nazariyasi bilan maydonga chiqdilar.

Zo'rlik nazariyasining tarafdorlari ijtimoiy tabaqalar va davlat faqat istilolar natijasida vujudga kelgan deb sharhlaydilar. Ularning fikricha istilochi-talonchilar nufuzli hukmron tabaqani tashkil etib, istilo natijasida asir olinib qulga aylantirilgan kishilarni o'z qo'l ostilarida saqlab turish uchun davlat barpo etgan emishlar. Bu nazariyaga ko'ra hukm chiqarilsa, davlat u yoki bu xalq turmushiga, qabilalar ittifoqiga tashqaridan kirib kelgan bo'ladi.

Istilolar va zo'rlik ijtimoiy tabaqa va davlatning vujudga kelishi uchun hech qachon asosiy omil bo'lgan emas. Shuning uchun ham zo'rlik nazariyasi ham amaliy, ham mantiqiy jihatdan noto'g'ridir.

Demak tabaqalar va davlat ibtidoiy jamoa tuzumining buzilishi natijasida uning xarobalarida vujudga keldi. Dastlabki davlatlar quldorlik davlatlari bo'lib dastlab kichik, kuchsiz edi, bora-bora ular kengayib qudratli quldorlik davlatlariga aylandi.

Davlat paydo bo'lishi bilan bir vaqtda hukmron toifalarning manfaatlarini himoya qiluvchi qoida-qonunlar vujudga kelib, shunga muvofiq idora tashkilotlari ham joriy qilindi.

Ishlab chiqarish kuchlari, geografik muhit, ichki, tashqi va boshqa qator sabablarga muvofiq davlat Yer yuzining hamma joylarida bir vaqtda emas, balki turli davrlarda vujudga kelgan.

Dastlabki tabaqaviy jamiyat, ya'ni ilk davlatlar Mesopotamiya va Misrda miloddan avv. IV mingyillikning ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan.

III mingyillikning oxirlariga kelib Hindistonda ham eng dastlabki davlatlar vujudga kelganini kuzatish mumkin. Miloddan avvalgi

II mingyillikda esa Kichik Osiyo, Janubiy Arabiston, Urartu va Egey dengizi xavzasidagi o'lkalarda qator katta-kichik davlatlar tashkil topadi. Xuddi shu davrda Xitoyning Xuanxe daryosi va unga tutash bo'lgan o'lkalarda dastlabki davlatlar vujudga kelgan. Eron, O'rta Osiyo, Kavkaz, Yevrosiyo, Janubiy Sibir yerlarida ilk tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi. Miloddan avvalgi II mingyilning oxiri va I mingyillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Yevropaning ba'zi joylarida tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi mil. avv. I mingyillikning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa, ba'zi joylarida esa miloddning boshlariga to'g'ri keladi.

Yangi Dunyo – ya'ni Amerikaning ko'pgina qabilalari ham bu jarayonni o'z boshlaridan kechirganlar.

Lekin Amerikada tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi Osiyo, shimoli-sharqiy Afrika, Janubiy Yevropa o'lkalaridan birmuncha keyinroq sodir bo'ldi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, Amerika, Afrika, Okeaniya va boshqa joylarda ijtimoiy tabaqa nima ekanligini, davlat nima ekanligini bilmaydigan qabilalar ham hozirgacha uchraydi.

Shunday qilib beshta tarixiy davrning eng dastlabkisi – ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati tarixining juda katta davrini tashkil etib, ba'zi joylarda mil. avv. ekan, ba'zi joylarda esa mil.avvalgi II-I mingyilliklarga davom etdi. Ammo Yer yuzining ba'zi joylarida bu jarayon XV-XVI asrlargacha davom etib keldi.

## Savollar va topshiriqlar

1. Ilk davlatlarning vujudga kelish shart-sharoitlari.
2. Harbiy demokratiya bosqichi.
3. Xususiy mulk haqida.
4. Dastlabki siviliztsiyalar qayerlarda vujudga kelgan?
5. Ibtidoiy jamoa tuzumining shakllanish bosqichlari qay tariqa rivojlandi?
6. Qabilalar ittifoqi va davlatchilik ko'rinishlarining yuzaga kelish shart-sharoitlari nimalarda namoyon bo'ladi?

## Test topshiriqlari

1. Harbiy demokratiya tushunchasini fanga kim olib kirgan?
  - A. \*L. G. Morgan
  - B. Y. Semyonov
  - C. K. Linney
  - D. L. Kar
2. Shimoliy Amerika hindularida tamagavk (so'yil) yuborish nima ma'noni bildirgan?
  - A. \*urush e'lon qilishni
  - B. yarashish bitimini tuzishni
  - C. sovg'a ma'nosini
  - D. ko'chib ketishni
3. Ibtidoiy tuzumning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'lgan omillar?
  - A. \*Ishlab chiqarishning rivojlana borishi, mehnatning 1,2,3 taqisimotlari, xususiy mulk va ortiqcha mahsulot
  - B. sinfiy tabaqalanish va qulchilik
  - C. ma'danlardan keng miqyosda foydalanish
  - D. ijtimoiy munosabatalarning rivojlanishi
4. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish davri fanda yana qanday nom bilan ataladi?
  - A. \*harbiy demokratiya va qo'shni jamoa
  - B. urug' jamoasining so'nggi davri

- C. ota urug‘i davri  
 D. sardorlik bosqichi
5. Shumerliklar temirni nima deb atashgan?  
 A. \*osmon olovi  
 B. qattiq metall  
 C. temirtosh  
 D. qimmatbaho
6. Eng dastlab qaysi mahsulot xususiy mulk bo‘lgan?  
 A. \*qayerda xo‘jalikning qaysi tarmog‘i rivojlangan bo‘lsa, mazkur xo‘jalik yetishtirgan mahsulot shu joyda xususiy mulkning ramzi bo‘ladi  
 B. Dastlab chorvachilik mahsulotlari xususiy mulk bo‘lgan  
 C. Dastlab mehnat qurollari xususiy mulk bo‘lgan  
 D. Dastlab yer xususiy mulk bo‘lgan
7. Ibtidoiy jamoa urug‘ tuzumi yemirilish sharoitida jamoaning qay shakli yuzaga keladi?  
 A. \*qo‘shni jamoalar  
 B. stratifikatsion jamoalar  
 C. ko‘chmanchi qabilalar  
 D. o‘troq aholi
8. Talonchilik urushlari va harbiy demokratiyani vujudga keltirgan sababalarni ko‘rsating?  
 A. \*mulkiy tengsizlik va xususiy mulkning kuchaya borishi  
 B. chegaralar daxlsizligi  
 C. harbiylarning rolini oshishi  
 D. boylik ortish xirsining oshishi
9. Xalq yig‘inida necha yoshgacha bo‘lgan fuqarolar qatnashishi mumkin bo‘lgan?  
 A. \*16-60 yoshgacha  
 B. 30 yoshdan  
 C. 40-50 yoshdan  
 D. faqat oqsoqollar qatnashish huquqiga ega bo‘lgan
10. Harbiy demokratiya tashkiloti ibtidoiy davrning qaysi davriga nisbatan qo‘llaniladi?  
 A. \*urug‘ jamoasi buzilishi davrining boshqarish tashkilotiga



- B. ona urug‘i jamoasi davriga
- C. ota urug‘i jamoasi davriga
- D. ilk davlatlarning vujudga kelish davriga

### **Bob bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004. r 10-46

2. Roger Lewin. Human evolution: an illustrated introduction / 5th ed. Blackwell, 2005. R 14-102

3. Вишняцкий Л.Б. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры: - Кишинев: “Высшая антропологическая школа”, 2005. Стр. 10-55.

4. Алексеев В.П. Першиц А.И. История первобытного общесво. -М. “Наука”, 2012. Стр. 3-10.

## GLOSSARIY

**Aborigine** – Tub aholi.

**Anthropogenesis** – inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyatining, shuningdek, jamiyatning kundalik rivojlanish jarayoni.

**Anthropogenesis** – odamning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayoni

**Antiquitates** – Rimlik mualliflar yunoncha arxeologiya termini o'rnida Antiquitates – qadimiyot terminini qo'llashgan.

**Archaea** – Geologik davrlardan biri bo'lib, bu erada yerda hali hayvon organizmlari kam va o'simlik organizmlari bo'lmagan.

**Archaeology** – Arxayos – qadimgi va logos – fan degan ma'noni anglatadi

**Art Natela** – diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan tanaga tushirilgan tasvirlar.

**Australopithecus Garhi** – Taajjublanarli avstrolopitek.

**Australopithecus** – Janubiy maymun.

**Australopithecus africanus** – Janubiy Afrika maymuni.

**Australopithecus bahrelghazali** – Baxr al G'azallik avstrolopitek. Joy nomidan olingan.

**Autochthon** – mahalliy, jaydari, tub aholi mahalliy yer egasi bo'lgan xalq, mamlakatning ibtidoiy aholisi, aborigenlar.

**Cainozoe** – Uchlamchi va to'rtlamchi davrlardan iborat.

**Cave drawings** – qoyalarga tushirilgan tasvirlar, petrogliflar, g'or devorlariga tushirilgan tasvirlar.

**Churinga** – 8-15 sm. yalpoq tosh va daraxt bo'laklari.

**Civilization** – jamiyat erishgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sun'iy olamni moddiy va ma'naviy jihatdan takomillashuvidagi muvaffaqiyatlari ko'rsatkichi.

**Sorroboree** – Raqs turi.

**Dolmen** – britancha “dol” – stol, “men” – tosh degan ikki so'zdan tashkil topgan. U tosh stol degan ma'noni bildiradi.

**Early religious beliefs** – arxeologik davrlardan biri yuqori paleolit davrida vujudga kelgan.

**Endogamy** – Ichki nikoh.

**Ethnikos** – xalqchil, xalq tomonidan yaratilgan

**Ethnos** – Elat, xalq. Etnologiyada urugʻ, qabila, elat, xalq, millat etnos deb yuritiladi.

**Evolution** – tadrijiy rivojlanish degan maʼnoni anglatib, tabiat, jamiyat va ruhiy-maʼnaviy rivojlanish konsepsiyalarini umumlashtirib ifoda etishga xizmat qiluvchi tushuncha. Evolyutsiya tushunchasi keng maʼnoda rivojlanish tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

**Exogamy** – Tashqi nikoh.

**Fratriy** – ogʻa-ini, qarindoshlik maʼnoni bildiradi.

**Gathering** – tabiat mahsulotlarini ishlab chiqarmasdan tayyor holicha terib-termachlab, ovlab isteʼmol qilish.

**Genealogy** – (yunon.shajara) – yordamchi tarix fanlardan biri XVII-XVIII asrlarda vujudga kelgan.

**Genesis** – kelib chiqish. Etnologiyada xalqlarning kelib chiqishi.

**Geochronology** – Yerning yoshini yillar bilan ifodalab berish.

**Gerontocracy** – jamoada qari erkaklar hukmronlini anglatib, mavjud sharoitda unchalik aniq boʻlmasada maʼno jihatidan qoniqarli deb topilgan.

**Homo erectus** – toʻgʻri tik yuruvchi odam.

**Homo georgicus** – Gruziyalik odam.

**Homo habilis** – ishbilarmon odam.

**Homo rudolfensis** – Rudolflik odam.

**hypothesis monotsentrik** – oʻsimlik yoki hayvonlarning bir joy (markazdan)dan paydo boʻlib, tarqalganini bildiradi.

**hypothesis politsentrik** – oʻsimlik yoki hayvonlarning bir nechta joy (markazlardan)dan paydo boʻlib, tarqalganini bildiradi.

**Initiation** – oʻsmirlarni kattalar safiga oʻtkazish marosimi

**Kenyanthropus platyops** – silliq yuzli keniyalik odam

**Kromlahi** – britancha boʻlib “krom” – aylana, doira “lex” – joy degan maʼnolarni bildiradi.

**language signals** – narsalarni aniq belgilar yordamida ifodalash.

**Manger** – britancha “men” – tosh, “gir” – uzun so‘zlardan tuzilgan bo‘lib, “uzun tosh” degan ma’noni bildirar ekan.

**marriage gerontocracy** – qari erkaklarning qizlarga yoki yosh juvonlarga uylanishi.

**Matriarxat** – ona oilasi – ayollarning eng yaqin qarindoshlaridan iborat ayol va erkaklardan tashkil topgan.

**Megalit** – “megas” va “litos” degan yunon so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “megas” – katta, “litos” – tosh degan ma’nolarni bildiradi.

**Mesolithic** – yunon neo – yangi, litos – tosh) yangi tosh davri.

**military democracy** – urug‘chilik jamoasining so‘nggi bosqichida jamoani boshqarishda harbiy ruhning kuchaygan davri. Bu davrda jamoa qabila va urug‘ boshliqlari tarkibidan tashkil topgan harbiy, diniy va dunyoviy kengash tomonidan boshqarilgan. Urug‘chilikdan sinfiy jamiyatga o‘tish davridagi boshqaruv shakli hisoblanadi.

**Monogamy** – yakka (nikox) xotinlik.

**Neolit** – neolit tosh asrining yuqori va oxirgi bosqichi bo‘lib, bu davrda toshdan yasalgan mehnat qurollarini yasash texnikasi takomillashadi.

**Neolithic** – neolit tosh asrining yuqori va oxirgi bosqichi bo‘lib, bu davrda toshdan yasalgan mehnat qurollarini yasash texnikasi takomillashadi.

**Olduvai** – Afrika hududida aniqlangan dastlabki tosh davri madaniyati.

**Opossum** – uzun dumli qopchiqli ayiqcha.

**Paleoanthropology** – qadimgi odamlarni o‘rganuvchi fan.

**Petroglif** – shuningdek, qoya toshlarning silliq sirtiga urib, o‘yib, chizib va ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlar.

**Petrography** – bu geologiya fani bo‘lib, u tog‘ jinslarni har tomonlama o‘rganadi.

**Pleistocene** – (yunonchada rleıufpt) bundan 2,588 million yil avval boshlanib 11,7 ming yil avval tugagan geologik davrlardan biri.

**Pleistocene** – Buyuk muzliklar mavjud bo‘lgan davr hisoblanadi.

**Polygamy** – ko‘p (nikoh) xotinlik.

**Polygamy** – ko‘p xotinlik.

**Prehistoric art** – ibtidoiy jamiyat davrida vujudga kelgan old tasviriy san’at.

**producing farm** – uning paydo bo‘lishi ibtidoiy iqtisodiyotning ulkan yutug‘i, kelgusidagi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarixida asos, muntazam ortiqcha, keyinchalik, qo‘shimcha mahsulot olish uchun muhim sharoit yaratildi.

**Quaternary period** – ya’ni insoniyat paydo bo‘lgan davr antropogen davri deb ham yuritiladi.

**Quaternary period, or anthropogenic** – bundan 2,588 million yil avval boshlanib hozirga qadar davom etmoqda.

**Sahelanthropus tchadensis** – chadlik saxel odami.

**Sinanthropus** – Xitoy odami.

**spelled, emmer** – bug‘doyning bir navi.

**territorial Nearby** – xo‘jalikning ilg‘or shakllariga o‘tilishi, ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishi va mehnat taqsimotining yuzaga kelishi oqibatida jamiyatda mulkiy tengsizlik paydo bo‘lgach urug‘chilik jamoasi o‘rnida vujudga kelgan jamoa. Hududiy qo‘shnichilik jamoasining belgilaridan biri shuki, unda aholi bir necha guruhlariga (zodagonlar, harbiylar, zaroatchilar, chorvadorlar, hunarmandlar) bo‘linib ketadi va o‘zlariga xos hayot tarziga ega bo‘ladilar.

**The art of the Paleolithic** – tosh davriga oid totemizm va feshizm bilan bog‘liq bo‘lgan tasvirlar.

**The primitive form of** – ilk, dastlabki, sodda degan ma’nolarni anglatadi.

**Australopithecus afarensis** – bundan 4-2,5 million yil avval Sharqiy Afrikada istiqomat etgan.

**Rithecantropus** – yunoncha “pitekos” – maymun, “antropos” – odam) Indoneziyaning Yava orolidan topilgan eng qadimgi odam.

# MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
<b>I boʻlim. Inson evolyutsiyasi</b>	
<b>I bob. Inson evolyutsiyasi va old tarix faniga kirish</b>	
1.1 Inson evolyutsiyasi haqidagi bilimlarning vujudga kelishi.....	5
1.2 Inson evolyutsiyasi bosqichlari.....	9
<b>II bob. Odam va uning ajdodlarining hayvonot dunyosidan ajralib chiqishi</b>	
2.1 Yerdagi hayotning vujudga kelishi.....	18
2.2 Primatlar evolyutsiyasi.....	21
2.3 Primatlarva antropoidlar.....	24
<b>III bob. Gominidlar evolyutsiyasining ilk bosqichi.</b>	
<b>Avstralopiteklar</b>	
3.1 Avstralopiteklarning vujudga kelishi.....	35
3.2 Ilk avstralopiteklar.....	40
3.3 Rivojlangan va yirik avstralopiteklar.....	43
<b>IV bob. Eng qadimgi odamlarning vujudga kelishi va mehnat faoliyati (Nomo)</b>	
4.1. Eng qadimgi odamlarning vujudga kelishi.....	52
4.2. Homo Habilisning turmush tarsi va mehnat faoliyati.....	55
4.3. Eng qadimgi odamlar migratsiyalari.....	57
<b>V bob. Zamonaviy qiyofadagi odamning vujudga kelishi va antropogenez jarayonini tugallanishi (Homo sapiens)</b>	
5.1. Neandertallarning vujudga kelishi, turmush tarsi va mehnat faoliyati.....	78
5.2 Homo sapiens, sapiensning vujudga kelishi.....	87
<b>VI bob. Odam vujudga kelishining ijtimoiy aspektlari</b>	
6.1. Irqlarning vujudga kelishi.....	92
6.2 Irqlarning shakllanish nazariyalari va kontseptsiyalari.....	97
<b>II Boʻlim. Old tarix</b>	
<b>I bob. Old tarix fanining predmeti va uning boshqa fanlar tizimidagi oʻrni</b>	
1.1. Old tarix fanining predmeti va boshqa fanlar bilan aloqasi..	104
1.2. Old tarixning oʻziga xos xususiyati va uning ahamiyati.....	106
<b>II bob. Davrlashtirish muammolari</b>	

2.1. Davrlashtirish turlari.....	114
2.2. Davrlashtirish va sanalarni aniqlash usullari.....	121
<b>III bob. Old tarixning manbahunoslighi va tarixnavisligi</b>	
3.1. Old tarix manbahunoslighi.....	128
3.2. Qadimgi tilshunoslik old tarixni qayta tiklashning muhim manbai sifatida.....	144
<b>IV bob. Ibtidoiy old tarix tarixnavisligi</b>	
4.1. Qadimgi davr mualliflarining old tarix haqidagi qarashlari..	153
<b>V bob. Ibtidoiy to‘da</b>	
5.1. Dastlabki odamlar jamoasi (to‘da).....	167
5.2. Nutq va muloqot.....	169
<b>VI bob. Ilk ibtidoiy urug‘ jamoasi davri</b>	
6.1. Ilk ibtidoiy jamoa haqida umumiy tushuncha.....	174
6.2. Dastlabki urug‘chilik jamoasining ishlab chiqarish kuchlari	178
<b>VII bob. Ibtidoiy so‘nggi urug‘ jamoasi davri</b>	
7.1. So‘nggi urug‘ jamoasi haqida umumiy ma‘lumotlar.....	186
7.2. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi .....	188
<b>VIII bob. Ibtidoiy oila va nikoh</b>	
8.1. Jamiyatning yosh va jinsga qarab bo‘linishi va erkaklar uyi.....	195
8.2. Oila-nikoh munosabatlari tarixi.....	197
<b>IX bob. Ibtidoiy ma‘naviy madaniyat</b>	
9.1. Madaniyat tushunchasi va foydali bilimlarning o‘sishi.....	206
9.2. Dinning ibtidoiy shakllari.....	207
<b>X bob. Ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya</b>	
10.1. Ibtidoiy jamoa tuzumining buzilish shart-sharoitlari va talonchilik urushlari hamda harbiy demokratiya.....	222
10.2. Dastlabki tabaqalar va davlatning vujudga kelishi.....	227
<b>Glossariy</b> .....	233

**O. U. Mo‘minov**

**INSON EVOLYUTSIYASI VA OLD TARIX**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

*Toshkent - “Innovatsiya-Ziyo” - 2020*

*Muharrir Xolsaidov F. B.  
Musahhah Abdurahmonova S. A*

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 30.10.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
“Times New Roman” garniturasini. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 17. Nashr bosma tabog‘i 16,25.  
Adadi 200 nusxa.*

*“Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri Farhod ko‘chasi 6-uy*



ISBN 978-9943-6791-3-9



9 789943 679139